

**SHODMONOVA SHOIRA SAIDOVNA**

**MAKTABAGCHA TA'LIMDA  
QIYOSIY PEDAGOGIKA**



**Toshkent-2022**


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAKTABAGCHA TA'LIMDA QIYOSIY PEDAGOGIKA**

**DARSLIK**

<b>Bilim sohasi:</b>	100000 – Ta'lim
<b>Ta'lim sohasi:</b>	110000 – Ta'lim
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	5110900 – Maktabgacha ta'lim



Toshkent-2022

## ANOTASIYA

Mazkur darslik mazmunida maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika fanining nazariy - metodologik asoslari, maktabgacha ta'lim qiyosiy pedaagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlari va taraqqiyot bosqichlari, pedagogik tizimlarni taqqoslash texnologiyasi va tadqiqot qilish bosqichlari hamda maktabgacha qiyosiy pedagogikasida tadqiqotlar tipologiyasi, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, oliy ta'limning qiyosiy asoslari o'z aksini topgan. Shuningdek, O'zbekiston, Osiyo va Yevropa davlatlari ta'lim va maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari hamda qiyosiy tahlili berilgan.

### **Tuzuvchi:**

**Sh.S.Shodmonova** Nizomiy nomidagi TDPU "Ijtimoiy pedagogika" kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori.

### **Taqrizchilar:**

**R.Safarova** - O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, laboratoriya mudiri pedagogika fanlari doktori, professor

**N.F.Abdunazarova** - Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti uquv ishlari bo'yicha prorektor, pf.n.dos.

## SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2019 yil – “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish uchun belgilangan vazifalarga to'xtalib “Xalqimizda “ta'lim tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli so'zlari bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzliksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritish, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki, ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz shart. Shu yo'ldagi muhim amaliy qadam sifatida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini bugungi 34% foizdan 2019 yilda 44 %foizga yetkazamiz” deb ta'kidlab o'tdilar.

Demak, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimiga qaratilayotgan katta e'tibor kelajakda yuksak salohiyatli, ma'naviyatli insonlarni yetishib chiqishga zamin yaratadi. Shunday ekan maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyasini bir-zum ham nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Har bir sohani jadal rivojlanishi sohada yaratilgan huquqiy bazani mukammalligi bilan bog'liq.

Davlatimizda maktabgacha ta'lim sohasini ilk isloh etish bo'yicha qisqa davr ichida huquqiy baza yaratilib sohani rivojlanishiga shart sharoitlar yaratildi. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan xodimning samarali faoliyat olib borishida sohani rivojlantirishga qaratilgan huquqiy me'yoriy hujjatlarni bilishi talab etiladi.

## I BOB. QIYOSIY PEDAGOGIKA FANIGA KIRISH

### I-mavzu: “Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika” fanining mazmuni va mohiyati.

**Tayanch soʻzlar:** Maktabgacha ta’lim, tarbiya, qiyosiy pedagogika, fanining mazmuni va mohiyati, predmeti, maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika, takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlarini loyiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlas ta’limni tizimini tubdan yaxshilash, ta’lim - tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xorijiy ta’lim tizimi

**Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika” fanining mazmuni va mohiyati.** O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq —uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishl bugungi kunda muhim vazifalar hisoblanadi.<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707 sonli qarorida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish belgilab berilib bunda asosan,

- Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dastur.

- maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi.

- 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’minlashning asosiy parametrlari, moliyalashtirish hajmi va manbalari.

- 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha qisqa muddatli guruhlarini tashkil qilishning asosiy parametrlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi “Maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyatini

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – B.39.

takomillashtirish to'g'risida"gi 528-son qarori. Hujjat bilan maktabgacha ta'limga taalluqli bo'lgan nizomlar tasdiqlandi. Nizomda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil etish, istiqboldagi vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, tizimda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami, strategik maqsadlar, muhim vazifalari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Dasturda bugungi kundagi hayotiy talab va ehtiyojlar, sohada yechimini kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar hisobga olinganligi ayniqsa, kelgusi besh yillikda 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar-uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash hamda ushbu maqsadlar uchun jami 2,2 trillion so'm mablag' ajratilishi o'z ichiga nechog'lik eng ko'lamli vazifalarni qamraganligini ko'rsatadi. Qiyosiy tahlil etadigan bo'lsak, oxirgi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizga kamaygani, oqibatda maktabgacha yoshdagi bolalarning 33 foizi bog'chalarga qamrab olingani bayon etildi. Bu ko'rsatkich Daniyada 99% foiz, Yaponiyada 97% foiz, Janubiy Koreyada 95% foizni tashkil etadi.

Prezidentimiz maktabgacha ta'lim tizimidagi bugungi holatni hududlar kesimida tanqidiy tahlil etib, o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklarga, joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida kadrlar ta'minoti va salohiyati yetarli emasligi, sohada 57 mingdan ortiq mutaxassis mehnat qilayotgan bo'lsa-da, ularning 85% foizini o'rta ma'lumotli kadrlar tashkil etayotgani natijada bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermayotgani ta'kidlandi. Maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar badiiy adabiyotlari yillar davomida yetkazib berilmagani, ota-onalarda bog'chaga nisbatan ishonch yo'qolgani, maktabgacha ta'lim tizimida yillar davomida ko'plab muammolar yig'ilib qolganligini ta'kidlab qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida 2018 yilning birinchi yarmida amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator strategik vazifalar belgilab berildi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning hududiy organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 21,0 mlrd so'm mablag' ajratilganligi: Ta'lim bo'yicha global hamkorlik granti — beg'araz texnik ko'magidan foydalangan holda "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish" loyihasi doirasida 2018 yilda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun jami 2 453,0 ming AQSh dollarlik tovar va xizmatlar yetkazib berilishi, "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish" loyihasi doirasida maktabgacha ta'lim muassasalari uchun tovar

va xizmatlarni xarid qilish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ajratilgan 21,0 mlrd so'm mablag'dan samarali foydalanish bo'yicha xarajatlar smetasi ishlab chiqilishini va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy organlariga taqdim etilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlari, tumanlar va shaharlarda investitsiya majburiyatlarini bajarish sharti bilan "nol" qiymatda bino berish hamda xususiy investorlarning o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan binolarda tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarining 2023 yil 1 yanvargacha foydalanilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz xizmatlari uchun to'lovning 50 foizi o'z mablag'lari hisobidan hamda qolgan 50 foizi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanishi Maktabgacha tizimiga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasidir.

Ma'lumki, rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim – tarbiya va maktab haqida yuqorida bayon qilingan eng yaxshi tajribalarni o'z ta'lim tizimimizda joriy qilish Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin boshlandi. Bu sohda bizga YUNISEF, YUNESKO kabi Xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi elchixonalari amaliy yordam bermoqdalar. Respublikamizdagi ta'lim muassasalari ta'limni takomillashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning barcha shakllaridan foydalanayotirlar. RespublikamLZ Oliy majlisining 1 - chakiriq IX-sesiyasida - ta'limga oid ikki muhim xujjat «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»nyang qabul qilinishi mmamlakat ta'limini jahon andozalariga, rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya va maktab saviyasiga olib chiqishda ulkan voqea bo'ldi. Bizning maktabimiz jaxonda eng ilgor maktablar bo'lib qolishiga Respublika rahbariyati va hukumati tomonidan hamma shart sharoit yaratilmoqda. Bizning ta'lim tizimlarimiz ham jaxonda e'tirof etilgan ta'lim tizimlaridan biridir. Shu tufayli ham AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta'limining ustalari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar va mulokotlarda Respublikamiz ta'limi tizimiga yukori baxo berildi. SHuni ta'kidlash lozimki, Respublikamiz xalq ta'limi xodimlari oldida hozirgi 82 kunda eng muhim vazifa - mustakil O'zbekistonning hozirgi ta'lim tizimlarini istiqolol ruhi bilan takomillashtirish, uni o'zimizning mumtoz pedagogika an'analari bilan boyitish, chet el pedagogikasidagi ilg'or jixatlarni o'zlashtirish, yangi - yangi samarali o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahon davlat standartlari darajasiga olib chikishdir. Buning uchun esa bizning iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlardagi quyidagi ilg'or tajribalarni ta'lim tizimimizda qo'llay bilishimiz maqsadga

muvofigdir. Chunonchi: Agar biz AQSH pedagogikasidagi: a) bolani o'z kuchi imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash; b) o'quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chikarish uchun kurash; v) bolani kamsitmaslik, insoniy kadriyatlarini va g'ururini erga urmaslik; g) o'quvchining ilk davridanoq kasb-korga yo'naltirish; d) Vataniga faxr va iftixor ruxida tarbiyalash va x.k Yaponiya ta'limidagi: a) bolyani maktabga puxta tayyorlash b) kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish; v) o'quvchilarni nafosat, jismoniy kamolatiga berilayotgan e'tibor; g) o'qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik; d) yosh talant sohiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar. Germaniya ta'limidagi: a) tabaqalashtirib o'kitishga berilayotgan jiddiy e'tibor; b) o'quvchilarning mehnat, ta'limini mustahkamlash; v) kasbga yo'naltirish. Fransiya ta'limidagi: a) maktabgacha tarbiyadanoq o'quvni predmetlashtirib tashkil etish; b) boshlang'ich ta'limni uch boskichda puxta amalga oshirish; v) o'quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgan katta e'tibor; g) o'quv muassasalarining turli firmalar, konsemlar, korxonalar mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlar bizning ta'limga ham ko'chsa, bizning 83 pedagogakamiz olga qarab dadil qadam bosgan bo'lar edi. Albatta, ta'limga xar qanday yangilik, o'zgartirish jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi. "Zo'rlab tiqishtirish» bizning uslubiyot emas. Ayni paytda ta'limni bir saviyada qotib kolishiga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu sababli ham, har bir pedagog, har bir tadkshkotchi maorifimiz uchun jon kuydiradigan, elim deb, yurtim deb kuyib yonadigan bo'lmasa, «o'z shaxsiy manfaatlarim uchun davlat menga nima berdi emas, balki men davlat ravnaqi uchun nima qildim» degan mulohazalar yuritadigan iqtidorli kadrlarni tayyorlashimiz kerak.

**"Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi"** fani har bir millatning aksialogik yondashuvlar tarzi, tarixiy va ijtimoiy darajasi, milliy madaniyatiga ega ekanligiga mos ravishda, o'ziga xos takrorlanmas milliy-tarbiya madaniyatiga ega bo'lishi va bulardan jamiyatda foydalana olishi zarur. "Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi" fanining innovatsion ta'lim jarayonidagi tutgan o'rni va ahamiyati, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassisligidagi yoshlarni milliy mafkuraviy qarashlarni shakllantirish, jamiyatning ilg'or nufuzini kuchi sifatida sog'lom e'tiqodni, erkin fikrlovchi, komil insonlar bo'lish jarayonidagi o'rni va rolini aniqlash. Jahon pedagogikasida, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlarda maktabgacha ta'limning amalga oshirilishi, istiqboli to'g'risida batafsil ma'lumotlar beriladi.

**"Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi"** fanining maqsadi bo'lajak maktabgacha ta'lim o'qituvchilarni turli mamlakatlarning tarbiyaviy imkoniyatlarga boy milliy urf-odatlarini, an'analari, tarixiy ma'naviy merosi, ta'lim tizimini o'rganish bilan birga ularning qiyosiy taqqoslash kerakli

tomonlarini tahlil etib o'rganish, shuningdek turli davlatlarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya borasidagi ishlardan keng qamrovda xabardor bo'lish kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida 2017 - 2021-yillarda mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirishga doir ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Aholi farovonligini ta'minlash, bandlik, salomatlikni muhofaza qilish, uy-joy masalalari qatoridan ta'lim-tarbiya tizimini taraqqiy ettirish masalasi ham o'rin olgan. Farmonga binoan ta'lim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ulami zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. "Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika" jahon, mintaqaviy, milliy ta'lim tizimi rivojining umumiy va alohida istiqbolli yo'nalishlari, qonun va qonuniyatlarimng o'ziga xosliklarini taqqoslash haqidagi fan bo'lib global doirada maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etadi, milliy va hududiy o'ziga xosliklardagi umumiy ko'rinishlarni ochib beradi, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va usullarini aniqlashtiradi. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika asosiy - mustaqil ilmiy bilim sohasi sifatida o'zining obyekt, predmet, maxsus funksiya va vazifalariga ega.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining tadqiqotlariga hozirgi kundagi qiziqish uchta eng muhim tendensiyaga bog'qligi bilan ajralib turadi. Birinchisi maktabgacha ta'limga alohida birinchi marta e'tibor berilganligidir. Ikkinchisi yurtimizda mustaqillikka erishishidan keyingi holat ta'lim tahlili hamda maktabgacha ta'limni qiyosiy organilganligi va ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi bo'lsa, uchinchisi - globallashtirish va jamiyatni axborotlashtirish, mavjud jahon tendensiyalari harnda jahon ta'lim sarhadlariga integratsiyaning zarurligidadir. Turli davlatlar ta'lim hamda

maktabgacha ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish va tenglashtirish masalasini qo'ymoqda. Maktabgacha ta'lim tizimlarini taqqoslash, buning uchun chet el ta'lim tajribalarini o'rganish, tahlil qilish va ijobiy jihatlarni "ko'chirish" zarurati paydo bo'ldi. Lekin shunchaki "ko'chirish" emas, balki har bir xalqning milliy-madaniy mentaliteti, o'ziga xosligi, urf-odatlarini, an'analarini saqlagan holda amalga oshirish, shu bilan birga raqobatbardosh ta'lim tizimini yaratish masalasi nazarda tutiladi.

Qo'lingizdagi **"Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi"** fani darsligi yurtimizda mazkur fan bo'yicha ilk darslik bo'lib, uning mazmunida aynan shu masala bo'yicha ma'lumotlar berilgan: 1. Yurtimiz va chet el olimlarining "Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika"ga oid ilmiy ishlari, xulosalari asosida maktabgacha ta'lim qiyosiy-pedagogik tizimlar, taraqqiyot va tadqiqot bosqichlari o'rganib chiqildi. Qator davlatlar ta'lim hamda maktabgacha ta'lim tizimi, uning yurtimiz ta'limi va maktabgacha ta'lim tizimi bilan o'xshash va farqli jihatlari aniq ma'lumotlar bilan berildi. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va maktabgacha ta'lim mazmuni ko'p variantli test asosida ham yoritildi. Darslikda u yoki bu davlat ta'lim va maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi ayrim maktabgacha ta'lim muassasalari haqida so'z yuritildi, bu esa o'z navbatida talabalar dunyoqarashini kengaytirib, milliy maktabgacha ta'limdagi xilma-xillikni ko'rish imkonini beradi. Darslikda shuningdek, rasmlar, chizmalar berilgan, bu vizual ma'lumotlar o'z navbatida mavzuni oson tushunishga yordam beradi. 2. Darslik mazmunida berilgan tasniflash, tizimlashtirish, turli ta'lim tizimlarini taqqoslash, "Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi" pedagogik turkum fanlarning bir turi sifatida o'rganish zarurati yuzaga keldi. Darslik mazmunini o'zlashtirgan talaba maktabgacha ta'lim qiyosiy-pedagogik tadqiqot o'tkaza olish malakasiga ega bo'ladi. Darslikda yurtimiz va qator chet el davlatlari ta'lim va maktabgacha ta'lim tizimi qiyosiy tahlil qilindi. Bu davlatlardagi maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasbiy ta'lim uzluksiz ta'lim turlari sifatida ko'rib chiqildi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda to'xtaladigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika fanining metodologik asosi sifatida Prezidentning maktabgacha ta'limiga doir farmon va qarorlari, Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari, falsafadagi ong, shaxs va jamiyat haqidagi qonunlar, buyuk allomalarning pedagogik qarashlari, hozirgi zamon maktabgacha pedagogika, psixologiya sohasi olimlarining ilg'or g'oyalari, ilmiy qarashlari, mazkur fanning asosiy tamoyillari, qonuniyatlari hisoblanadi

**"Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika" fanining asosiy obyekti sifatida.** V.L.Vulfson va Z.A.Malkova hozirgi zamon ta'lim tizimining rivojlanishini, M.L.Rodionov dunyoning turli davlatlaridagi pedagogika nazariyasi

va amaliyotini, A.N.Djurinskiy esa hozirgi davr ta'lim va tarbiyasini tushunganlar maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikaning asosiy obyekti- zamonaviy dunyoda insonni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish jarayoni, shuningdek, global, xududiy va milliy doirada ijtimoiy institut hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimi.

**“Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi” fanining asosiy predmeti-** bolalarda elementar tarzda o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan hamda ob'ektiv olam haqidagi tasavvurlarni oshirishdan iborat bo'lib o'rta ta'limning, tarkibiy qismi bo'lib keldi. Maktabgacha ta'limning mazmuni ham, bu bosqichda o'qitiladigan o'quv predmetlarining mazmuni ham konseptual asoslarga tayangan holda yangilanishi muqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan:

-Maktabga tayorlash yoshidagi bolalarda o'qish, o'rganish istagi va ko'nikmalarini shakllantirish;

-Xorijiy tajribalar asosida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish;

Bilish faoliyatiga bo'lgan ongli intilish shakllangandagina ta'lim muvoffaqiyatli amalga oshiriladi. Agar maktabgacha ta'lim nazariyasi jarayonida bolada bilishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantira olmas ekan, yuqori guruhlariga borgan sari uning bilishga bo'lgan intilishi susayadi. Bu esa, o'z navbatida, bog'cha bitiruvchilarining ko'nikma va malakalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining nazariy jihati istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri, bu bolaning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir, yani, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim jarayonidir.

Bugungi kunda o'zida ta'lim tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb vazifalardan biridir. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish va ularda milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo'li amaliy jihatdan tadbiq qilinishi lozim. Bu o'rinda, milliy axloq tarbiyasi, ma'naviy-ruhiy hamda milliy nafosat va jismoniy tarbiya maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining faning bosqichida ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Bunda o'quv materiali shaklida berilgan ta'limiy matnlarda bolalarda turli shakllarda axloqiy-ma'naviy tarbiya va milliy nafosat me'yorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi: kichik maktabgacha yoshidagi bolalarga o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatish, tevarakatof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash xislatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iborat. “Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika” fanining asosiy predmeti haqida polyak olimi B.Navrochinskiy qiyosiy pedagogikaning tadqiqot predmeti maktabgacha va

maktab tizimi, ta'lim - tarbiya metodlari, sharoitlari va omillari, bu sohada erishilgan natijalar va pedagogik nazariya deb hisoblaydi. B.Suxodol'skiy esa maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikaning tadqiqot predmeti ancha keng ekanligini, u ta'limning barcha mazmuni va metodlari, o'qitishni tashkil qilish masalalarini ham qamrab olishini ta'kidlaydi. Rus olimi A.M.Stolyarenko maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikaning asosiy predmetini tajribalar deb hisoblaydi va asosiy maqsadi pedagogika va maktabgacha, maktab amaliyotini takomillashtirish bo'yicha dunyo ta'lim tizimi tajribalariga asoslangan tavsivalarni ishlab chiqishdan iborat deb ta'kidlaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikaning predmeti turli davlatlarda, turli tarixiy davrlarda mavjud bo'lgan ta'lim tizimidir. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika asosiy predmeti - jahon pedagogik tajribalarni rivojlanish holati, tendentsiyalari va qonuniyatlari hamda zamonaviy milliy pedagogik madaniyatning mahsuli hisoblanadi.

#### **Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikaning asosiy vazifalari:**

- chet el ta'lim va maktabgacha ta'lim tizimi rivojining real jarayonlarini aks ettiruvchi yangi va yaxshi, ma'lum bo'lmagan jihatlarini tizimli bayon etish. Jahon mamlakatlarida ta'lim va maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining muhim qonuniyat va tendentsiyalarini aniqlash hamda tahlil etish va tizimlashtirish.

- turli davlatlar ta'lim tizimida sifati va samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini aniqlash. Talim sohasidagi siyosatning asosiy yo'nalishlarini aniqlash. Uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlarning mavjud holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilish.

- turli davlatlar ta'lim va maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishidagi salbiy va ijobiy jihatlari, yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash. Ta'lim sohasida ijobiy va salbiy holatlarning yuzaga kelishini aniqlovchi ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy sharoitlarni o'rganish.

- bir davlat ta'lim tizimini boshqa davlatga ko'chirishning natijalarini bashorat qila olish. O'rganilayotgan ta'lim tizimidagi umumiylik va o'ziga xoslik jihatlarini aniqlash.

- iqtidorli, qobiliyatli bolalarning intellektual rivojlanishini muntazam oshirib borishlariga sharoit yaratish;

- har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash;

- har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga sharoit yaratish;

-bolalarda kreativlik, ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish, aqliy va jismoniy rivojlanishini, estetik qobiliyatini, kommunikativ savodxonligini va kognitivlik ya'nio'-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish kabilar.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining o'rganilishida maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligini yanada takomillashtirish talab qilinmoqda. Shunga ko'ra, boshlang'ich ta'limga zamin vazifasini o'taydi bunda bir qator vazifalar qo'yilmoqda.

Bular:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash istagi va ko'nikmalarini shakllantirilishi yengillashadi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytiriladi;

Bugungi kunda maktablarni quyidagi turlarga bo'lish orqali ta'limdagi yangilanish va o'zgarishga e'tibor qaratiladi. Masalan:

- Beriladigan bilimning harakteriga ko'ra — umumiy va professional;

-Bilimning ko'lamiga ko'ra — boshlang'ich (yoki quyi), o'rta, oliy;

Maktabgacha ta'lim bilimlarning poydevori ekanligini inobatga olgan holda, bu jarayonni zamon talablariga mos holda, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. mashg'ulotlarni yangi shakl va texnologiyalarga muvofiq tashkil qilish va o'tkazish, o'z pedagoglik faoliyatlariga innovatsion yondashuvni taqozo etadi.

1-sinfga tayyorlov guruhida o'qish mashg'ulotida matn bilan ishlash yuzasidan elektron o'quv qo'llanmalar tayyorlab, foydalanish unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovoqli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda tilga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv material bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiya uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu usullar bo'yicha ta'lim jarayonini differentsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin. Maktabgacha ta'limda o'rganiladigan ko'plab mashg'ulotlar bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir bolaningning idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Barcha mashg'ulotlarda qo'shimcha va rivojlantirish materiallari sifatida ko'plab videofilm hamda fotolavha materialidan foydalanish mumkin. Bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olib, uni

tabaqalashtirishga imkon beradi. maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani bo'lajak maktabgacha ta'lim o'qituvchisiga ta'limni erkin boshqarish va o'quv axborotlarini taqdim etish turli usullarini qo'llash imkonini beradi.

**“Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi” fanining asosiy funksiyalari.**

Maktabgacha va ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik rejasini ishlab chiqish. Kelgusida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning istiqbolli va ishonchli yo'llarini bashoratlash. Turli ta'lim modellari va talim sohasida amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarni taqqoslash. Mutaxassislarining chet el tajribasini o'rganishlarini yengillashtirish maqsadida pedagogik hujjatlardagi atama va tushunchalarni tartibga solish.

**“Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.** Statistik metod tavsiflash metodi bilan uzviy bog'langan. Bu metod ta'lim tizimiga oid raqamlar, ma'lumotlarni tahlil va talqin qiladi, baholaydi. Xususan, o'qitish bosqichlari bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishi, o'quvchilarning ijtimoiy tarkibi kabilar shular jumlasidandir. Tarixiy metod ta'lim tizimining paydo bo'lishi va shakllanishi, uning rivojidagi an'analar va turli tarixiy davrdagi o'zgarishlarni tadqiq etadi. Chunki, tarixiy metod tahlil qilinayotgan pedagogik hodisaning hozirgi holatini ancha chuqur tushunishga yordam beradi. Sotsiologik metod boshqa metodlar bilan uzviy bog'liq. U ta'lim tizimining ijtimoiy xarakterini baholash, ta'lim tizimining maqsadi, vazifalari, mazmuni va metodlarini tahlil qilish kabilarni nazarda tutadi. Analitik metod orqali ta'lim tizimining asosiy xususiyatlari ijtimoiy-siyosiy jihatdan baholanadi, ta'lim tizimining tuzilishigi asos bo'ladigan umumiy tamoyillar belgilanadi, ta'lim mazmuni va uning fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi talablariga mosligi aniqlanadi. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining birinchi navbatda didaktika, tarbiya nazariyasi va amaliyoti, pedagogika tarixi kabi fanlar bilan bog'liq. Pedagogika tarixi turli tarixiy davrlarda ta'limning rivojlanish masalalarini vertikal qiyoslab o'rgansa, qiyosiy pedagogikaning predmeti turli davrlardagi ta'lim tizimini bitta davr ichida o'rganish, ya'ni gorizontaal qiyoslashdir. “Vertikal” va “gorizontaal” yondashuvlar birikmasi esa ko'ndalayotgan muammoni to'liq, chuqur tavsiflashga imkon beradi.

**Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining fanlararo bog'liqligi.** Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani kabi fan sohalari bilan hambog'liq. “Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika” fani pedagogika fanlari tizimidagi fanlar bilan falsafa, sotsiologiya, xronologiya, iqtisodiyot, adabiyot, tarix, estetika, arxeologiya, biologiya, matematika, musiqa, jismoniy tarbiya va boshqa fanlar bilan yaqindan uzviy aloqada faoliyat ko'rsatadi.

Tarbiya va ta'limning yosh xususiyatlariga bog'liq jihatlari qadimgi davrlardan buyon o'rganiladi. Yosh davrlari va pedagogik psixologiyasi XIX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy va birinchi navbatda, uning "Chelovek kak predmet vospitaniya" ("Inson – tarbiya predmeti sifatida") degan asari katta hissa qo'shgan edi. Ingliz olimi Charl'z Darvinning evolyusion g'oyalari jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Psixologlar tomonidan o'rganiladigan omillarining reflektor mohiyatini tushunish uchun psixik faoliyat ahamiyatini mashhur fiziolog olim I.M.Sechenov ham ta'kidlab o'tgan. Veber va Fexnerning psixofizik kashfiyoti, Ebbingauzning xotiraga oid tadqiqoti, G.Gel'mgol'sning sezgi organlarining psixofiziologiyasiga oid ishi, Vundt tomonidan fiziologik psixologiya hissiyoti va harakatlarining o'rganilishi va boshqalar asosiy ahamiyatga ega.

XX asr boshida maktabgacha ta'lim sohasida ikki asosiy: biologik va ijtimoiy yo'nalishga ajratilgan.

Biologik, biogenetik yo'nalishga xos narsa – tug'ma xususiyatlar. "irsiyat"ga yo'naltirilish, bola xulqi va rivojlanishini sodda-mexanik tushunishga intilishdir. Bola rivojlanishidagi irsiy omillarni ortiqcha baholash va biogenetik qonuniyatlarni psixologiyaga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish mazkur yo'nalishning o'ziga xos kamchiligi bo'lib hisoblanadi. Psixologiyadagi biogenetik qonuniyat – Gekkel' tomonidan XIX asrda shakllantirilgan mashhur evolyusiya qonunlarini sohasiga ko'chirishga urinishdir. Xomila ona qornidaligida bir hujayrali mavjudotdan inson bo'lgunga qadar barcha rivojlanish davrlarini bosib o'tgan kabi, bola ham insoniyat tarixidagi asosiy bosqichlarni qayta bosib o'tadi. Shunday qilib, bola bosib o'tadigan besh bosqich ajratilgan: yovvoyilik davri, ov davri, chorvachilik davri, dehqonchilik davri va sanoat davri. Mazkur davrlashtirishga ko'ra, bola yovvoyi holda tug'iladi, barcha bosqichlarni birin-ketin bosib o'tib, oxirida unda pul, savdo, almashinishga qiziqish paydo bo'ladi, ya'ni kapitalistik tuzum idealiga javob beradi.

Biogenetik qonuniyat asosida bolaning psixik rivojlanishi tashqi ta'siri emas, ichki sabab natijasida yuzaga keladi degan g'oya yotadi. Tarbiya jarayoniga qaramay, u tashqi omil sifatida namoyon bo'ladi, ba'zi tabiiy, irsiy- shartli psixik sifatlarining namoyon bo'lish jarayonini sekinlashtiradi yoki tezlashtiradi. Biogenetizm bola tarbiyachilarsiz – "erkin tarbiya" pedagogik nazariyasining psixologik asosi bo'lib qoldi. Pedagogik psixologiyadagi biogenetik yo'nalishning g'ayriilmii mexanik xususiyatini pedagog va psixologlar XX asrning 30-yillarida anglab yetishdi.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi fan-texnikaning afsonaviy tarzda o'sib ketganligi, olimlar hayratlanarli kashfiyotlar qilganligi bilan tavsiflanadi. Atomning parchalanishi, oqsilning sintez qilinishi, kompyuter texnologiyalarining

xilma xil versiyada yaratilishi xuddi shunday inqilobiy o'zgarishlar jumlasiga kiradi. Insoniyat taraqqiyoti jadallashgan hozirgi davrda inson ta'lim tarbiyasining iqtisodiy ahamiyati oshib bormoqda. Hozir yer yuzidagi barcha mamlakatlarda bilim kapitalga aylandi. Ilg'or texnologiyalarga asoslangan ishlab-chiqarish qurollarini boshqarish, raqobatbardosh kadrlar va tovarlar tayyorlashni zamonaviy bilimlardan foydalanmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish, bunda boshqaruvning axborot texnologiyalaridan foydalanish taqozga etilmoqda. Bugungi kunda fanning pedagogika, qiyosiy pedagogika sohalarida falsafaning metodologik funksiyalari tan olingan, zero falsafa pedagogik tajribani anglashda va pedagogik konsepsiyalarni yaratishda nazariy maslak hisoblanadi. Undan tashqari qiyosiy pedagogik tadqiqot doirasida pedagogik bilimlarni olish jarayoni falsafaning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Didaktika, pedagogika tarixi, ta'lim tarbiya nazariyasi, sotsiologiya, maktabgacha ta'lim menejmenti va ta'lim psixologiya bilan bog'liqligi an'anaviy hisoblanadi, chunki har bir davlat ta'limi va maktabgacha ta'lim tizimining tuzilishi shaxsning rivojlanishi va psixik faoliyati qonunlari, inson tabiati xususiyati bilan birgalikda amalga oshiriladi. Shuningdek, pedagogik tajribalarni bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tkazishda ayrim sohalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ham dolzarb hisoblanadi. Jumladan, etnopsixologiya "milliy tavsif", "milliy mentalitet" kabi tushunchalarni o'rganadi, bu tushunchalar o'z navbatida maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Sotsiologik tadqiqotlarning natijalari, maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining turli davlatlarda ta'lim rivojlanishining qonuniyatlari, yo'nalishlari haqidagi boy ma'lumotlar beradi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha va ta'lim tizimi rivojining kelajakdagi strategiyasini belgilashga imkon beradi.

Bugun uzliksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida shiddat bilan jadal o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Inson hayotining dastlabki to'rt yilini o'z ichiga qamrab oluvchi maktabgacha ta'lim yoshi davri o'z ahamiyatiga ko'ra noyob bir xislat, holat hisoblanadi. Ushbu davrda bolada asosiy insoniy qadriyatlarning shakllanishi yuz beradi. Insonning kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishi aynan maktabgacha ta'lim davrida olgan tarbiyasiga bog'liq. Mashhur rus pedagogi Lesgarfning fikricha insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, ahloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Ilmiy kuzatish va tadqiqotlarda inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi keltirilgan. Shuning uchun ham donishmandlarimiz "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir" deb aytmagan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini

o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, vatanga mehri uyg'onadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'lim mutaxassisliklarida fanlarni o'qitishning zamonaviy metodologiyasini yaratish va amaliyotga joriy etish asosida ta'lim-tarbiya sifati tubdan takomillashtiriladi. Bu yo'nalish nihoyatda keng qamrovli bo'lib, uzviylik, uzluksizlik hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari (DTS) amaliyotga joriy etiladi. Maktabgacha ta'lim bu dastlabki bosqich bo'lib O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim nazariyasi fanining 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarni qamrab oladi va ma'naviy va jismoniy tarbiyalash, tafakkurini o'stirishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan ta'lim tizimi tadbiiq qilinadi. Unda kichik yoshidagi bolalar yosh xususiyatlari va tafakkur hamda ruhiy taraqqiyot darajalari o'zlashtirish imkonini beradigan ta'limiy faoliyatga kirishadilar. Qaysiki, bu faoliyat bolalar uchun yetakchi faoliyat bo'lib hisoblanadi. Kichik yoshidagi bolalarda o'qish hamda o'rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o'yin bo'yicha nazariy bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi va tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o'z xarakteriga ko'ra nazariy hamda amaliy tushunchalarni o'zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo'lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishini, dunyoqarashining rivojlanishini ta'minlaydi.

### Nazorat savollari

1. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining premeti va vazifalarini izohlab bering.
2. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining psixologik xususiyatlarini tushuntirib bering.
3. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining o'rganilishida maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligini yanada takomillashtirishda nimalarga e'tibor qaratiladi.
4. Boshlang'ich ta'limga zamin vazifasini o'tashda maktabgacha ta'limning qanday vazifalarini bilasiz. Izohlab bering.
5. Pedagogik mezonlarga asoslanga davrlashtirishni izohlab bering?

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyuklarning mezonlari. AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y

2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .

3/ Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.

4. Sh.S. Shodmonova, M.E. Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil?

5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.


6. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. Noshriyoti. 2011 yil

## **2-mavzu: Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining taraqqiyot bosqichlari.**

**Tayanch so'zlar:** Taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim, tarbiya, qiyosiy pedagogika, fanining mazmuni va mohiyati, predmeti, maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika, takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini loyiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalami maktab ta'limiga tayyorlas. ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizimi.

**Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining taraqqiyot bosqichlari haqida tushuncha.** Ozbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, maktabgacha ta'limning moddiy texnika bazasini rivojlantirish, ularni ilmiy metodik jihatdan ta'minlash sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Uzoq yillar davomida maktabgacha ta'lim umumiy o'rta ta'limning tarkibiy qismi bo'lib keldi. "Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika" fani turli davr va tuzumlardagi mamlakatlar xalq ta'limi tuzilishi, ulardagi ta'lim-tarbiya shakllari va mazmunini qiyosiy o'rganib, ilg'or jihatlarini amaliyotga tavsiya etadi. Uning maqsadi jahon mamlakatlarida tarkib topgan xalq ta'limi tizimlarini o'rganish, vazifasi esa ularning progressiv jihatlarini pedagogik amaliyotga tadbiq etishdan iborat. Yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish, bu sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo'la olish uchun maktabgacha ta'limni isloh qilishni davom ettirish, uni modernizatsiyalash, maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o'rganish, taqqoslash, tahlil qilish va o'quv tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish masalalari mazkur darslikning asosiy maqsadidir. "Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika" fani mustaqil fan sifatida qiyosiy tahlil, qiyosiy pedagogika, korporativ pedagogika, tizimlashtirish, tavsiflash metodi, statistik metod, tarixiy metod, sotsiologik metod.

So'nggi vaqtlarda respublikamizda jahon ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish va ilg'or tajribalarni respublikamizda ommalashtirishga alohida e'tibor



qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika va chet el ta'lim pedagogikasi - bir fan sohasining turlicha nomlanishi bo'lib, sinonim tushunchalardir degan qarash mavjud. Biroq mazkur yondashuv aniq tuzatish kiritishni talab etadi. Chet el pedagogikasi tavsifiy xarakterga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi - chet el ta'limining o'ziga xosligini tavsiflovchi hodisa va dalillarni to'plash va tizimlashtirishdir. Shubhasiz, bu jahon pedagogik tajribasini chuqur va har tomonlama to'liq o'rganishning muhim jihati va zaruriy sharti. Biroq maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika o'zida zaruriy nazariy- metodologik komponentlarni tashkil etadi. Mazkur fan ayrim holatlarda maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika mediateknologik funktsiyani ham bajaradi, biroq uning asosiy mediateknologik funktsiyasi turli mamlakatlardagi o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda ta'limni va maktabgacha ta'limni rivojlantirishning muhim global qonuniyatlari va tendentsiyalarini aniqlash hamda tahlil etishdir. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikani izohlashda aynan qiyosiy pedagogika tushunchasini asoslashga harakat qilishgan. Bir qator olimlar aynan shu sohaga turlicha ta'rif beradilar. Masalar, Rus olimi M.Sokolova qiyosiy pedagogika orqali ta'lim-tarbiya pedagogik nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining yo'nalishlari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan, iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy va falsafiy asoslari hamda milliy o'ziga xoslikni ochib beradigan soha deb qaraydi. N.Belkanov ham qiyosiy pedagogikani ta'limdagi globallashtirish, baynalmillatlik va integratsiya natijasi deb qaraydi. Uning fikricha, qiyosiy pedagogikada taqqoslash -bu ta'lim va pedagogika sohasida duhyo tendentsiyalari bilan aloqadorlikni anglash demakdir. K.Musmning ta'kidlashicha, qiyosiy pedagogika orqali dunyoning turli davlatlarida turli tarixiy davrlarda ta'lim-tarbiya, pedagogic nazariya va amaliyotining holatini o'rganadi, pedagogika va maktab amaliyotining xalqaro tajribasini o'rganish va foydalanish yo'llari hamda shaklini aniqlaydi, o'z davlatida ta'lim-tarbiya modelining kelajagini bashorat qiladi. B.L.Vuifson esa qiyosiy pedagogikani pedagogik fanlarning cohasi deb qaraydi va u qiyosiy aspektida turli davlat, hudud umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogic nazariya va amaliyotning mavjud holati, rivojlanish tendentsiyalari va qonuniyatlarini o'rganadi, deb ta'riflaydi. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida integratsion jarayonlarning rivojlanishi olimlar oldida xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishning qanday eng maqbul shakl va usullarini topish, qo'lga kiritilgan natijalardan milliy ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda samarali foydalanishni qay tarzda ta'minlash, xalqaro tadqiqotlar ishtirokchilarining nuqtai nazarlari va qarashlarini uyg'unlashtirishga qanday qilib erishish kabi qator savollarni ko'ndalang qo'yimoqda. "Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika" faning asosiy metodologik muammosi zamonaviy chet el tajribasidan milliy miqyosda qay tarzda va qanday shaklda maqsadga muvofiq foydalanish

mumkinligini aniqlashdir. Olim N.Belkanov qiyosiy pedagogikada tarixiy-falsafiy, tizimli-mantiqiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatadi. "Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogika"ning asosiy metodologik yo'ndashuvlari tarixiy-fabafiy yondashuv vakillaridan bin rus pedagogi K.D.Ushinskiy bo'lib, u har bir ta'lim tizimining milliy xususiyatlarini saqlash tarafdori edi, bu esa chet el tajribasini tadbiiq etishga binnuncha to'sqinlik qilardi. XX asr boshlarida qiyosiy pedagogikada tizimli-sotsiologik yondashuv yuzaga keldi, bunda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy xarakterdagi omillar qiyosiy tadqiqotlarning asosi deb qabul qilindi. Ma'lumotli yoki mamlakatshunoslikka oid yondashuvda aniq davlatlardagi ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi holati tavsifiy bayon etiladi. Fanlararo yondashuvda, birinchidan, ta'lim tizimi rivojlanishining mamlakat iqtisodi bilan, demak, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy fanlar bilan bog'liqligi, ikkinchidan, tadqiqotlarda didaktika, tarbiya nazariyasi, etnopedagogika, pedagogika tarixi, oliy maktab pedagogikasi kabi sintezining zarurligi bilan bog'liqdir. Etnomadaniy yondashuv ayrim davlat, hudud va global miqyosda xalq ta'limi va madaniyatining rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlar va milliy xususiyatlarni aniqlashni nazarda tutadi, bu yondashuv hozirgi kunda juda muhim sanaladi, milliy ta'lim tizimlarining globallashuv va integratsiyalashuv yo'nalishi qiyosiy pedagogik tadqiqotlarda mazkur yondashuvning asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. O'zbekiston ta'lim tizimi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish vazifalarini amalga oshirib kelmoqda. Bularndan ko'zda tutilgan asosiy maqsad ta'lim tizimini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakli va metodini kompleksyangilash hamda yanada takomillashtirishdan iborat. Bu vazifalarni muvafaqqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el ta'lim tizimi va pedagogikasi tajribalarini o'rganishni talab etadi. Bu tajribalarni o'rganish orqali ta'lim-tarbiya tizimini yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz. Bu yo'lda bizga pedagogika fanlari tizimidagi sohalardan biri - Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani asosiy katta yordam beradi, bunda eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagi, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajak egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad amalga oshirilmoqda.

Ta'limning iqtisodiy ahamiyati ortishi bilan yirik ishlab chiqarish korxonalari, monopoliyalarining unga kuchliroq e'tibor bilan qarashiga olib keldi. Harbiy va rasmiy rahbarlarning ta'limga qiziqishi ortdi. Jahon mamlakatlaridagi ta'lim tizimlari davlatlararo iqtisodiy raqobatda hal qiluvchi omilga aylandi. Iqtisodiy raqobatda yutqazib qo'yishdan qo'rqish hissi xalq ta'limiga katta mablag'lar ajratib, uni isloh qilishga unday boshladi XX asrning 60-yillarida G'arb mamlakatlarida shunday iqtisodiy raqobat amalga oshirildi. Mazkur jarayonlar insoniyatning bugungi ijtimoiy tarakkuri, ehtiyojlarini qondirilishiga olib keldi.

Fan va texnikani rivojlantirish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur asosan Hozirgi kunda BMTning bolalarni himoya qilish YUNISEF tashkilotining davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga jahon siyosatining yetakchi kuchiga aylanib bormoqda shular qatorida YUNESKO tashkiloti bilan rivojlangan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi tendentsiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatlarda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni ham ma'naviy rag'batlantirish va ta'limning hamma uchun birday imkoniyat doirasida bo'lishini ta'minlash, uning uzluksizligini qaror toptirish, ta'limni va uning shaklini kelajakda rivojlanishi tamoyillarini tadbiq etishdan iborat. YUNESKO bu Birlashgan Millatlar tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkilot bulib u 1946 yilda tashkil etilgan. BMT ikkinchi jahon urushidan keyin suveren davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi asosida jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda davlatlararo tinch hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan.

BMT va YUNISEF o'zining tuzilishiga ko'ra Bosh Assambleiya (yalpi majlis), Xavfsizlik kengashi, Xalqaro sudga ega YUNESKO va YUNISEF ta'limga hamda bolalarga oid barcha muammolarni hal etishda yordam ko'rsatishga tayyor ekanligi aynan jahon hamjamiyatida ijtimoiy sohani qo'llab quvatlashi muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim mutaxassis kadrlar tayyorlash, ulaming nazariy-amaliy saviyasini muttasil oshirib borish, ba'zi mamlakatlarda muammo bo'lib hisoblangan xotin-qizlarning erkaklar bilan teng bilim olish huquqlarini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish, darslik va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha hamkorlikni butun choralar bilan rivojlantirish va juda ko'p boshqa masalalarni hal qiladi. Bu faoliyatning barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish, ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonch, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

“Maktabgaha ta’lim qiyosiy pedagogika” fanining keng qamrovli maqsadi turli mamlakatlarning ta’lim tizimi va tuzilishi ta’lim-tarbiya borasidagi tajribalari ta’limni rivojlanish tarixi usullarini qiyosiy tahlil qilishdan iboratdir.

Milliy istiqlolgacha jahon tajribalaridan ma’lumki ta’lim yuqori tabaqa vakillari va mehnatkashlar maktablariga bo’lib kelindi. Maktabgacha ta’lim amaliyoti jahondagi xalq ta’limi rivojiga ijobiy ta’sir etmoqda. Hozir Respublikamizda yaratilayotgan maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyoti insoniyat taraqqiyoti avlodlar vorisiyligisiz amalga oshmaydi. Demak, to’plangan boy tajribalar, bilimlar bolalarga meros qoldiriladi. Bolalarni o’qitish, tarbiyalash hamisha jamiyat hayotining ajralmas qismi bo’lib kelgan. Shunga ko’ra tarbiya abadiy kategoriya hisoblansada uni ilk davrdan amalga oshirishni taqqozo etadi.

Tarbiya dialektikasi ma’lum tarixiy sharoitlarda o’ziga xos vazifa, maqsad, mazmun, shakllarga ega. Jamiyat tuzumi, mafkurasi o’zgarib borishi bilan ular ham o’zgarib boradi: quldorlik, feodal, kapitalizm tuzumlaridagi o’zgarishlar shu jumladandir.

Maktabgacha ta’lim qiyosiy pedagogika fani turli davr va tuzumlardagi mamlakatlar xalq ta’limi tuzilishi, ulardagi ta’lim-tarbiya shakllari va mazmunini qiyosiy o’rganib, ilg’or jihatlarini amaliyotga tavsiya etadi. Uning maqsadi jahon mamlakatlarida tarkib topgan xalq ta’limi tizimlarini o’rganish, vazifasi esa ularning progressiv jihatlarini pedagogik amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim qiyosiy pedagogika fanining **metodologik** asosi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning xalq ta’limiga doir Farmon va qarorlari, g’oyalari, falsafadagi ong, shaxs va jamiyat haqidagi qonunlar, buyuk Sharq mutafakkir va allomalarning pedagogik qarashlari, hozirgi umumiy pedagogika ( nazariya va tarix) fanining asosiy tamoiyillari qonuniyatlarini hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim qiyosiy pedagogikasi fani pedagogika fanlari tizimidagi fanlar turiga kiradi. Adabiyot, tarix estetika. Arxeologiya, biologiya, matematika, musiqa, jismoniy tarbiya va boshqa fanlar bilan yaqindan aloqada faoliyat ko’rsatadi. Ta’limning iqtisodiy ahamiyatining oshib borishi. Insoniyat taraqqiyoti jadallashgan hozirgi davrda komil inson ta’lim tarbiyasining iqtisodiy ahamiyati oshib bormoqda. Hozir yer yuzidagi barcha mamlakatlarda bilim kapitalga aylandi. Ilg’or texnologiyalarga asoslangan ishlab-chiqarish qurollarini boshqarish, raqobatbardosh kadrlar va tovarlar tayyorlashni zamonaviy bilimlardan foydalanmasdan amalga oshirib bo’lmaydi. Murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish, bunda boshqaruvning axborot texnologiyalaridan foydalanish taqozo etilmoqda.

Ilmiy-texnika inqilobi iqtisodiyotga ta’sir etuvchi omillar nisbatini o’zgartirib yubordi. Tashqi omillar iqtisodiyot rivojida yetakchi o’ringa chiqib oldi. Bu hol kapital mablag’ ajratish va ishchi kuchi miqdorida o’z aksini topayotir.

Intensiv omillar birinchi planga chiqdi: texnikaning, ishlab chiqarishning (yuksak saviyada tashkil etish) ishchilar malakasining yuksak saviyaga ko'tarilishini ta'minladi.

Ta'limning iqtisodiy ahamiyati ortishi bilan yirik ishlab chiqarish korxonalari, monopoliyalarining unga kuchliroq e'tibor bilan qarashiga olib keldi. Harbiy va rasmiy rahbarlarning ta'limga qiziqishi ortdi. Jahon mamlakatlardagi ta'lim tizimlari davlatlararo iqtisodiy raqobatda hal qiluvchi omilga aylandi. Iqtisodiy raqobatda yutqazib qo'yishdan qo'rqish hissi xalq ta'limiga katta mablag'lar ajratib, uni isloh qilishga unday boshladi XX asming 60-yillarida G'arb mamlakatlarida shunday iqtisodiy raqobat amalga oshirildi. Mazkur jarayonlar insoniyatning bugungi ijtimoiy taraqqiyoti ehtiujlarini qondirilishiga olib keldi. Demak, bolalarni maktabga tayyorlash tizimining poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim quyidagilarga alohida yondashishi zarur:

“O'yinli masalalar” dasturlarini tayyorlab, ulardan ta'lim jrayonida keng foydalanishi mumkin. Maktabgacha ta'limda o'rganiladigan ko'plab mashg'ulotlar bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir bolaning idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan bola shaxsni tarbiyalashda asosan Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko'zda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi. Davlat talablari asosida tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo'linishi har bir rivojlanish sohasi o'z o'mida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat.

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari
- bilish jarayonini rivojlanishi
- ijodiy rivojlanish.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining Kuzatuv kengashlarini tuzish.

- Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan dam olish kunlarida va ish kuni tugagandan keyin belgilangan dasturdan tashqari faoliyat ixtisosligi bo'yicha qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish (bolalarni parvarishlash, qarab turish, o'qitish bo'yicha va boshqalar)

tartibini tasdiqlash belgilandi. Ko‘rinib turibdiki maktabgacha ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqdaki, bunda xalq ta‘limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta‘lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktabgacha ta‘lim binolarini barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash, ularni zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan to‘liq ta‘minlash kabi qator masalalar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta‘lim qiyosiy pedagogikasini oiliy ta‘lim muassasalarida o‘qitishning zamonaviy metodologiyasini yaratish va amaliyotga joriy etish asosida ta‘lim-tarbiya sifatini tubdan takomillashtirish, bu yo‘nalish nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, uzviylik, uzluksizlik hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha ta‘limning yangi davlat ta‘lim standartlari (DTS) amaliyotga joriy etiladi.

**Maktabgacha ta‘lim ilk dastlabki bosqich sifatida.** O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim qiyosiy pedagogikasi nazariyasi faning 3 – 6 yoshlarni qamrab oladi va ta‘lim oluvchilarga ta‘lim berish, ma‘naviy va jismoniy tarbiyalash, tafakkurini o‘stirishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Zamonaviy ta‘lim jarayonida bolalarni rivojlantiruvchi xarakterga ega bo‘lgan ta‘lim tizimi tadbiriq qilinadi. Unda maktabgacha yoshidagi bolalar o‘z yosh xususiyatlari va tafakkur hamda ruhiy taraqqiyot darajalari o‘zlashtirish imkonini beradigan ta‘limiy faoliyatga kirishadilar. Qaysiki, bu faoliyat bolalar uchun yetakchi faoliyat bo‘lib hisoblanadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda o‘qish hamda o‘rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir mashg‘ulot bo‘yicha nazariy bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi va tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o‘z xarakteriga ko‘ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo‘lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishini, dunyoqarashining rivojlanishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 5 apreldagi PQ-3651-son qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi: Unda

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi PQ-3651-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi nizomga muvofiq: davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasalarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta‘minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyati uchun litsenziya olish talab etilmaydi;

2. 50 nafargacha bolani tarbiyalashni nazarda tutuvchi oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasalarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta‘minlash

shaklidagi davlat-xususiy sherikchilik loyihasi qishloq joydagi xususiy sherikning tashabbusi bilan, tanlov o'tkazilmay va taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish asosida, ular bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish orqali amalga oshiriladi;

3. Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risida bitim tuman (shahar) hokimligi tomonidan taklif etiladigan ruxsat xususiy sherik tomonidan qabul qilinadi. Ko'rinib turibdiki respublikada maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyojning mahsulidir bu tizimga yanada yangi loyihalar kirib kelishi va texnika taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yuqori intellektual bilimga ega raqobatbardosh mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirib yubordi. Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda 10-12 yoshgacha bo'lgan bolalarni umumiy majburiy va bepul o'qitish joriy qilindi. Bu omil aholi savodxonligining oshishiga olib keldi, ta'lim tarmog'i kengaydi. Biroq xalqning asosiy qismi qashshoq yashaganligi, yomon uy-joy sharoitlari, bolaligidan tirikchilik uchun pul topish zarurligi bir kator mamlakatlarda ko'plab bolalarni o'qishni oxiriga yetkazmasdan maktabni tashlab ketishiga majbur qilardi.

Ayni paytda, ta'lim sohasidagi salbiy jihatlarni ham ko'rmaslik mumkin emas edi, ba'zi mamlakatlarda yoshlarni millatchilik, irqchilik ruhida tarbiyalashga e'tibor berilgandi.

Xususan, AQShda xalq maorifi tizimi irqchilik ruhida edi. Afrika (Nigeriya) davlatining bolalari uchun alohida maktablarda oq tanlilarning bolalari uchun tashkil etilgan maktablardagiga qaraganda katta hajmda bilim berilar edi. Mamlakatda hukm surayotgan irqchilikka qarshi kurash masalasi Garriyut Bicher- Stounning "Tom tog'aning kulbasi" asarida o'z ifodasini yaqqol topdi. Bu davrda Sharqda xalq ta'limi sohasida G'arbning yutuqlari tashviq qilina boshlandi.

Yevropa ta'siri kuchaydi. XX asr boshlariga kelib, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan tabiiy fanlarning jadal rivojlanishi, texnikaning yanada ildam taraqqiyoti diniy xurofotlardan holi bo'lgan ilmiy dunyoqarashning mavqiyi mustahkamlanishi uchun sharoit yaratdi ijtimoiy gumanitar fanlarda, birinchi navbatda, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, adabiyot va sotsiologiyada realistik voqelikni aks ettiruvchi asarlar yuzaga keladi. Bir qator olim va yozuvchilar insonlarning yaxshi yashashi uchun, demokratiya, tenglikni ta'minlovchi jamiyatni barpo qilish maqsadida shunga intiluvchi g'oyalarni ifodalovchi va ulug'lovchi asarlarni yuzaga keltirdilar, lekin, qanday qilib bo'lsa ham boylik to'plashga harakat qilishni tasvirlovchi asarlar ham paydo bo'ldi, bu davr madaniyati, adabiyot va san'atning demokratik asosda

rivojlanishi uchun sharoit yaratildi, ayniqsa, bu narsa adabiyotda yaqqol o'z ifodasini topdi, shu sababli tanqidiy realizm va naturalizm yuzaga keldi.

Tarixchilar insoniyat taraqqiyotining turli davrlari haqida juda katta ashyoviy dalillar to'pladilar. Bu davrda ham azaliy kurash yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash-mafkuraviy, g'oyaviy hayotning asosini tashkil qildi. Ijtimoiy gumanitar soha olimlari XX asr boshida ro'y berayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishni kuchaytirdilar.

Bu davrda falsafa fani ham rivojlanib davrga moslashdi. Ilgari ma'rifatparvarlik kuchli bo'lsa, endi inson huquqlariga e'tibor kuchaydi. Fanning rivojlanishi bilan uning jamiyatdagi umini belgilash, barcha ijtimoiy muammolarni hal etishda fanning ijobiy hodisa ekanligini asoslash kuchaydi.

Bu davrning mashhur faylasuflaridan biri Fridrix Nitshe (1844-1900) inson irodasi masalasiga katta e'tibor berdi. Inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlik birlashib ketganini asoslashga harakat qildi U zardo'shtiylik ta'siri ostida "Zardo'sht tavallosi" asarini yozdi. Bu asarda kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi. Z.Freyd (1856-1939) - psixozanaliz nazariyasining asoschisi, taniqli olim. Uning asarlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropada adabiyot va san'atning rivojlanishiga katta ta'sir kursatdi. Freyd qilgan buyuk inqilobning mohiyati shundaki u Dekartning inson to'g'risidagi tasavvurlarini inkor etib fenomenologik (favqulodda, nodir) yondashuv yordamida ongsizlikni tahlil qilish mumkinligini asoslab berdi. Psixozanaliz an'analarga muvofiq ongsizlik bilib-bo'lmas jarayon deb tushuntiriladi.

Tarixiy taraqqiyotining davriy modeli, Dunyo dinlari (buddaviylik, xristian, islom)ning barcha xalqlarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil ekanligi g'oyalari ilgari surildi. Shu tariqa cherkov vijdon erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi, barcha dinlarning tengligi tamoyillariga toqat bilan ko'nika boshladi.

Bu davrda jahon demokratik madaniyatining fondi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yozuvchilarining ijodi bilan xam boyidi. Atoqli Yapon yozuvchisi A.Ryuneske novellalarida parazit mulkdorlar axloqining inqirozi, xalq ommasining umumiy kuchini anglash o'z aksini topdi.

Hind gumanisti yozuvchisi R.Tagor (1861-1941) falsafiy teranligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turuvchi romanlar, hikoya va she'rlar bilan butun dunyoga mashhur bo'ldi.

Fransuz adibi Viktor Gyugo (1802-1885) o'zining "Daxshatli yil", "Dengiz zahmatkashlari", "Xo'rlanganlar", "To'qson uchinchi yil" kabi asarlarda zulmga, jaholat va adolatsizlikka qarshi norozilik, bosqinchilikka

nafrat, kurashchan xalqqa xayrixohlik bildiradi va haqoratlangan mehnatkash insonning fojiali hayoti va kurashini tasvirlaydi.

Bu davrda, Yaponiyalik mashhur yozuvchi Simey Ftabateyning "Suzayotgan bulutlar", Roka Tokutominning "Kurasivo", "Yashamagan yaxshi" romanlari feodal qoldiqlariga qarshi, milliy qadriyatlarini asrashga xorijning ma'naviy tasviriga qarshi qaratilgan edi. Hindistonda bengal yozuvchisi Shorotchandra Chattopadnoy, shoir Muhammad Iqbol asarlari shahar va qishloq hayotini erkin tasvirladi, xalqni uyg'onishga undadi.

Shunday qilib XIX asr oxiri XX asr boshlarida fan va madaniyat ancha yuksalib insonlarning yaxshi hayot kechirishlari uchun xizmat qila boshladi.

Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining nazariyasi ta'lim jarayonida mustaqil davlatning ta'lim tarbiya tizimida umumiy maktabgacha ta'limning dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, amaldagi maktabgacha ta'lim o'yin va o'qishga asoslangan bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzda o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan hamda ob'ektiv olam haqidagi tasavvurlarni oshirishdan iborat edi. Ko'rinib turibdiki, amaldagi maktabgacha ta'lim milliy axloq va nafosat me'yorlarini singdirish vazifasi bu tizimdan tashqarida qolgan edi. Uzoq yillar davomida e'tibordan chetdan qolgan maktabgacha ta'lim konseptual asoslarga tayangan holda yangilanishi kerak. Kichik yoshidagi bolalarda 1-3 yosh o'qish, o'rganish istagi va ko'nikmalarini shakllantirish. Maktabgacha yuqori darajada shakllangan guruh bolalari 4-6 yoshni qamrab olishi, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish masalalariga alhida yondashish muhim sanalgan.

Bilish faoliyatiga bo'lgan ongli intilish shakllangandagina ta'lim muvoffaqiyatli bo'ladi. Agar maktabgacha ta'lim jarayoni bolada bilishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantira olmas ekan, bshlag sinflarga borgan sari uning bilishga bo'lgan intilishi susayadi. Bu esa o'z navbatida, maktabgacha ta'lim bitiruvchilarining 6 yosh ko'nikma va malakalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligini yanada takomillashtirish talab qilinmoqda. Shunga ko'ra, beriladigan bilimning harakteriga ko'ra - umumiy va professional, bilimning kolamiga ko'ra - boshlang'ich (yoki quyi), o'rta va oliy deb qaraladi.

Ta'limning rivojlanish tarixiga nazar salsak, ta'limiy maktablar qadimgi Sharq mamlakatlari (Xitoy, Bobil, Misr va boshqalar)da paydo bo'lgan; bu mamlakatlardagi ibodatxonalarda koinlar va kotiblar maktablari bo'lgan. Yevropada dastlabki maktablar taxminan miloddan avvalgi 6-asrda Yunonistonda, miloddan avvalgi 4-asrda Qadimgi Rimda vujudga kelgan. Ana shu rivojlanish ortidan maktabgacha ta'lim tizimi shakllangan va rivojlanib kelgan.

**Bolalarda psixik rivojlanish tarixi.** Inson psixikasi doimo rivojlanishda. Bola insoniyat tarixi davomida jamg'argan tajribalarni o'zlashtirishi jarayonida rivojlanadi. Bu jarayon kattalar tomonidan doimiy nazorat, ya'ni ta'lim sharoitida amalga oshadi. Ta'lim bolaning psixik rivojlanishi jarayonida belgilovchi rol o'ynaydi. Ta'lim tabiiy iste'dod, ijtimoiy muhit va u yoki bu yosh uchun samarali, tushunarli ta'lim usullariga asoslanadi. Shunday qilib, shu narsani ko'rish mumkinki, go'daklikda ko'rgazmali-harakatli fikrlash, keyin esa ko'rgazmali-obrazli, og'zaki-mantiqiy, mavhum, umumiy nazariy fikrlash turlari paydo bo'ladi.

Rivojlanish jarayonida faqat bilim va harakat usullarining o'zgarishi, murakablashishi sodir bo'lmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlar, ya'ni shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Bola shaxsini yo'naltirishdagi umumiy xususiyatlar (eshitish, anglash, atrofdegilar bilan munosabat);

2. Faoliyatining psixologik tuzilishi xususiyatlari (motiv, maqsad, ob'ekt);

3. Anglash mexanizimining rivojlanish darajasi.

Shunday qilib, bolaning butun rivojlanish jarayonini uch qismga bo'lish mumkin: 1) ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi, 2) egallangan usullarni tatbiq etish mexanizmlarining psixologik rivojlanishi, 3) shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi (yo'naltirilganlik, faoliyatning pedagogik tuzilishi, anglash va fikrlash). Ko'rsatilgan rivojlanish yo'llarining har biri o'ziga xos. Bu yo'llarning barchasi o'zaro bog'liqlik va faqat birgalikdagina rivojlanish deb ataluvchi shaxsdagi o'zgarishlar jarayonini tashkil etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida bola psixikrivojlanishining asosiy yo'llari, inson psixik rivojlanishining ijtimoiy shartliliigi rivojlanish jarayonini bilim va ko'nikmalarning oddiy to'planib borishiga bog'lash mumkinligini anglatmaydi, inson psixik rivojlanishining ijtimoiy tabiatini hisobga olish mazkur jarayonning murakkabligi va ko'pqirraliligini tushunish imkonini beradi, chunki faqat shunday yondashuvdagina rivojlanish u yoki bu alohida vazifalarning miqdoriy ortishi emas, aksincha insonning umuman rivojlanishi sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim va psixik rivojlanish mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, bilim va faoliyat uslubining murakablashishi ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Masalan, Shveysariyalik psixolog J.Piaja o'zi olib borgan tadqiqotlar asosida ta'kidlashicha, 6-7 yoshdan kichik bolalar raqam bilan bog'liq faoliyatga qodir emas. Shuningdek, L.A.Venger, P.Ya.Gal'perin, D.B.El'konin, V.V.Davidovlar bolaning psixik rivojlanishiga ta'lim mazmunining o'zgarishi uning ta'siridir degan. Faoliyatning umumiy turi aniqlangach, bolalar tomonidan ayni usullar turli darajada qo'llanilishi mumkin, faoliyatning nisbatan yuqori shakllari va turlariga (shuningdek, aqliy) masalan,

aniq va mavhum tushunchalarni bog'lay olish va o'zaro nisbatini aniqlay bilishga o'rgatilishi lozim.

Shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi. Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o'zgarishi va murakkablashishi sodir bo'lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlarni, ya'ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatlarini o'zgaradi, usullar yig'ilishi va o'zgarishi sodir bo'ladi. Bola ko'p miqdordagi turli harakatlarni bajaradi, bilim va tasavvurlari o'zgaradi. Mazkur o'zgarishlar ichidan nisbatan umumiy va belgilovchi o'zgarishlarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi. Ular quyidagilar:

**1. Bolaning shaxsiy yo'naltirilganlik xususiyatining umumiy rivojlanishi.** Unga uch turini kiritish mumkin: a) ta'limiy yo'nalganlik (yaxshi qabul qilish, yaxshi o'zlashtirish), b) bilim olishga yo'nalganlik, yod olish, eshitish, yangi vazifalar olish), v) atrofdagilar bilan munosabat.

**2. Faoliyat psixik tuzilishining rivojlanishi.** Masalan, bog'chaga sovg'a uchun archa o'yinchoqlarini tayyorlashda ko'maklashish. **Motiv** – turlicha (bolakaylar ko'nglini olish, tarbiyachi talabini bajarish, jarayonning o'zidan qoniqish). **Maqsad** – archa uchun o'yinchoqlar tayyorlash. **Ob'ekt** – o'yinchoqlar tayyorlanadigan materiallar.

**3. Ong mexanizmining rivojlanishi.** Bu fikriy faoliyatning ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazlidan abstrakt, nazariyga o'zgarishidir. Bolada tushunchalar va tushunchalar tizimi muntazam shakllanib boradi. Bolaning anglash va fikrlashining rivojlanishi darajasi qancha yuqori bo'lsa, u o'zlashtirgan, foydalanayotgan tushunchalar shuncha murakkab bo'ladi.

Shu tarzda, umumiy holda bola psixik rivojlanishi jarayonini uch asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin: 1) ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi, 2) o'zlashtirilgan usullar qo'llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi, 3) shaxsning umumiy xususiyatlarining rivojlanishi.

3. Ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining pedagogik shartlari va qonuniyatlari. Bilim, uni qo'llash mexanizmlari va shaxs umumiy xususiyatlari rivojlanishining pedagogik shartlari ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga bog'liq. Bola psixik rivojlanishining turli taraflari uchun alohida, aniq pedagogik shartlarni ham inobatga olish muhim.

Yosh xususiyatlari ko'plab shartlar majmui bilan belgilanadi. Bu - bola hayotidagi har bir bosqichda unga qo'yiladigan talablar tizimi, atrofdagilar bilan munosabat, u egallayotgan bilim va faoliyat turi hamda bu bilimlarni egallash usullaridir. Yosh xususiyatini aniqlovchi shartlar majmuiga bolaning jismoniy rivojlanishi xususiyatlari ham kiradi (masalan, go'daklikda ma'lum bir morfologik

shakl hosil qiluvchi ma'lumotlarni egallash, o'smirlilikda organizmning o'zgarish xususiyatlari va boshqalar).

Yosh davrlarida rivojlanishning asosiy o'zgarish mexanizmlari. Yosh davrlarini aniqlash atrofdegilarga munosabatlarning rivojlanish darajasi bilan bilim, usullar, qobiliyatlar rivojlanishi darajasi o'rtasidagi aloqani belgilab beradi. Mazkur ikki taraf orasidagi munosabatlarning o'zgarishi keyingi Yosh bosqichlariga o'tishning muhim ichki asosi ("harakatlantiruvchi kuch")ni tashkil etadi.

Bola yashash sharoiti, tarbiya va ta'lim olish sharoitining o'zgartirilishi rivojlanishning yosh davrlari almashinuvini belgilovchi muhim omildir.

So'nggi vaqtlarda ko'proq pedagogik mezonlarga asoslangan davrlashtirish qo'llanilmoqda.

### **Maktabgacha yosh**

1. Go'daklik (3 Yoshgacha) – yasli;
2. Bog'chaning kichik guruhi – uch yosh;
3. Bog'chaning o'rta guruhi – to'rt yosh;
4. Bog'chaning katta guruhi – besh yosh;
5. Bog'chaning tayyorlov guruhi –olti yosh.

Bog'chaga keluvchi bolalar maqsadli diqqatga ega bo'lmaydilar, ular asosan bevosita o'zlari uchun qiziq bo'lgan, yorqinligi va noodatiyligi bilan ajralib turuvchi (ixtiyorsiz diqqat) narsalarga e'tibor beradilar. Bog'cha birinchi kundanoq boladan uni qiziqitmaydigan narsalarni kuzatishni va ma'lumotlarni o'zlashtirishni talab qiladi. Bola asta-sekin diqqatini tashqi tomondan jalb etuvchi narsalarga emas, kerakli narsalarga yo'naltirish va qat'iy saqlashni o'rganib boradi. 5-6 yoshida diqqatning rivojlanishi ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqatning almashinuviga, uning hajmi kengayishiga va turli harakat turlari o'rtasida diqqatni taqsimlay olishga bog'liq. Bolaning maktabga borishi uning hayotida burilish chog'idir. Bola maktabga kirib o'qiy boshlashi bilan oq uning hayotida asosiy faoliyat o'qish bo'lib qoladi. O'qish bolaning ya'ni o'quvchining vazifasi, ijtimoiy burchidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratga ega bo'lishi uchun oz mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasining tarixi fanidan ma'lumki, insoniyat o'z ijtimoiy taraqqiyoti jarayonida xilma-xil ta'lim maktablarini, ta'lim-tarbiya

shakllari va metodlarini yaratdi va pedagogik amaliyotidan o'tkazdi. O'tmishda, asosan, diniy ta'lim-tarbiyaga asoslangan maktablar ustivor bo'lganligi kuzatilgan.

Qadimgi Xoldey (Iroq) va Misrdagi ilk maktablar, qadimgi Gretsiya maktablari (grammatistlar, kifaristlar, palestra, efeblar maktablari) da diniy ta'lim-tarbiya, jismoniy tarbiyaga yetakchi o'rin berilgan. Ammo, keyinchalik ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojarini diniy maktablar o'z o'rnini dunyoviy maktablarga bo'shatib berdi, shuning uchun Yevropada Uyg'onish davri ma'rifatparvar-allomalari dunyoviy maktab nazariyasini targ'ib eta boshladilar.

Dunyoviy maktab nazariyasi ilk bor Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarida olg'a surilgan edi. Shuningdek, Pestalotstsi, Robert Ouen ("Yangi Garmoniya"), Iogann Gerbert ("Tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika", "Psixologiya darsligi", "Pedagogikaga doir leksiylar ocherki"), Adolf Disterveg ("Nemis muallimlarining muallimi" nomiga sazovor bo'ldi. "Hamma bolalar uchun ochiq bo'lgan maktab" yaratishni targ'ib etdi), K.D. Ushinskiy (I va II o'quv yillari uchun "Ona tili", milliylik ...) Tolstoy ("Alifbe", "O'qish kitobi", "Arifmetika"...) kabi pedagogika faniga oid darsliklar yaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Nazorat savollari**

1. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining taraqqiyot bosqichlari,
2. Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining taraqqiyoti
3. Tarixchilar insoniyat taraqqiyotining turli davrlari haqida juda katta ashyoviy dalillar to'pladilar ibularga misol keltiring.
4. Fransuz adibi Viktor Gyugo qanday jarayonlarni tasvirlaydi.
6. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining premeti va vazifalarini izohlab bering.
5. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining psixologik xususiyatlarini tushuntirib bering.
6. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining o'rganilishida maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligini yanada takomillashtirishda nimalarga e'tibor qaratiladi.
7. Boshlang'ich ta'limga zamin vazifasini o'tashda maktabgacha ta'limning qanday vazifalarini bilasiz. Izohlab bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Buyuklarning mezonlari. AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

3/ Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.

4.Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil?.

5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

6.M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti.2011 yil.

### **3 - mavzu: Osiyo mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayonining tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.**

**Tayanch so'zlar:** fanining taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim, tarbiya, kiyosiy pedagogika, fanining mazmuni va moxiyati , predmeti, maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika, takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini loyiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas.ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizim.

#### **Osiyo mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayoni haqida tushuncha.**

Markaziy Osiyoda dunyoviy maktab nazariyasi ilk bor jadid-marifatparvarlar-Ismoilbek Gaspirali izdoshlari-Munavvarqori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Shakuriy, Siddiqiy-Aziziy, Abdulla Avloniy va boshqalar tomonidan olg'a surildi. Ular maktablar ijtimoiy taraqqiyot bilan hamnafas borishi uchun diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy(matematika, fizika, kimyo, geografiya va b..) ilmlarni ham o'rgatishi zarur degan fikmi targ'ib etdilar.

Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasining taraqqiyot bosqichlari mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning nazariy-amaliy saviyasini muttasil oshirib borish, maktabgacha ta'limni yo'lga qo'yish , darslik va dasturlarni takomillashtirish , mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha hamkorlikni butun choralar bilan rivojlantirish va juda ko'p boshqa masalalarni hal qiladi .

Bu faoliyatning barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish, ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonch, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilganidir.

Fan va texnikani rivojlantirish borasida bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirish, bu dastur asosan dunyoda millatlar va xalqlarning madaniy, tarixiy meroslarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jahon hamjamiyati tomonidan YUNESKO tashkiloti "Buyuk Ipak yuli"ni kompleks o'rganish dasturini qabul qildi. Bu dasturning maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtasidagi quruqlikdan va dengizdagi yo'lining salohiyatini aniqlash, tiklashdan iborat

bo'lsa, ikkinchi tomondan bu yo'l Sharq bilan G'arbning madaniy va ma'rifiy hamkorligini ham bir-biriga bog'lovchi ko'prik ekanligini ochib berish, uni tiklashdan iboratdir.

Bu izlanishlar turt asosiy yunalishda olib borilmoqda:

1. Irak yuli mamlakatlariga kiruvchi xalqlarning tili va yozuvini o'rganish.

2. Karvonsaroylar o'rmini aniqlash va ularni qayta tiklash, pochta aloqalarini yo'lga qo'yish.

3. Kosmik arxeologiyani qayta jonlantirish.

4. Jahon turistlar tashkiloti bilan hamkorlikda "Buyukipak yuli" bo'ylab turistik yunalishlarni ochish va uni harakatga keltirish, tashkilotning bu tashabbusi va hamkorligi bilan O'zbekistonda qator madaniy ma'rifiy tadbirlar o'tkazish davom etmoqda.

Xitoy maktablarining tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoyda dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi xitoy faylasufi va pedagogi eramizdan avvalgi V-IV asrlarda yashagan Konfutsiy qator ajoyib pedagogik g'oyalarni olg'a surgan va xususiy o'qitishga asos solgan.

1949 yilda xalq inqilobi g'alaba qozonganidan so'ng Xitoyda savodsizlikni tugatish va maktab ta'limini rivojlantirish borasida keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Xalq ta'limini isloh qilishdagi qarorda bolalar va o'smirlar uchun ham, kattalar uchun ham boshlang'ich hamda o'rta maktablar tarmog'ini yaratish ko'zda tutilgan edi. Islohotga muvofiq o'qish muddati boshlang'ich maktabda 5 yil, o'rta maktabda 6 (3-3) yil qilib belgilandi. Ta'lim sohasida 1958 yildagi o'zgartirishlar yaxshi natija bermadi. XKP MK ning 1985 yil 27 mayda qabul qilgan "Ta'lim tizimini isloh qilish to'g'risida" gi qarori hozirgi bosqichda XXR ta'limini rivojlantirishning muhim omili bo'ldi. 1986 yilda qabul qilingan majburiy ta'lim to'g'risidagi Qonunga ko'ra majburiy ta'limning muddati boshlang'ich va to'liqsiz o'rta maktabda 9 yil, to'liq o'rta maktabda 3 yil qilib belgilandi.

Xitoy maktablarida ta'lim putunxua tilida olib boriladi. U xitoy tilining pekin shevasiga asoslangan. Xitoydagi bolalarning bir qismi boshlang'ich maktabga kirishdan oldin bolalar bog'chalarida tayyorlanadilar. Xitoyda so'nggi 20 yil mobaynida har qaysi oila bittadan bolaga ega bo'lishi siyosati yurgizilishi sababli o'quvchilar soni ancha kamaydi.

Boshlang'ich maktab o'quv rejasiga 9 ta predmet: axloqiy tarbiya, ona tili, arifmetika, jamiyat (tarix, geografiya) tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, ashula va musiqa, badiiy tarbiya, mehnat ta'limi kiritilgan. Ana shu asosiy o'quv predmetlaridan tashqari, haftada 6-8 soat faoliyatning har xil turlariga: mustaqil tayyorlanishga (1-2 soat), sinf majlislari o'tkazishga 1 soat, sport o'yinlariga (2-3 soat), qiziqishlar bo'yicha mashg'ulotlarga (2 soat) ajratiladi.

Xitoyda oliy ta'lim jarayonida talabalar uchun ibratli shart-sharoitlar yaratilgan. Avvalo universitetlar kontingentiga mamlakatning demografik holati o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan: birgina Shanxay universitetining o'zida 26 fakultet bo'lib, 33 000 talaba bakalavriat va magistraturada o'qiydi. Ko'pchilik professor-o'qituvchilar AQSHda malaka oshirib kelishadi. Hozirgi kunda universitetda "Zamonaviy kommunikatsion va axborot texnologiyalari", "Raqamli tizimlar xavfsizligi", "Kompyuter grafikasi va WEB dizayn" kabi fanlar o'qitilmoqda. Oliy ta'lim tizimida o'qitishning kredit tizimi joriy etilgan. Bu omil talabalarning mashg'ulotlarga qatnashishi, mustaqil ishlashi va ilmiy izlanishga jalb etilishiga ijobiy ta'sir etgan.

O'qitishning kredit tizimida bakalavr diplomiga ega bo'lish uchun jami 311 kredit yig'ishi kerak. Har bir kredit 10 soat ma'ruza darslari davomida to'planadi. Amaliy darslardan 20 soat mashg'ulotda 1 kredit to'planadi. Talabalar o'qishni 4 yilda tugatishi shart emas. Lekin 8 yildan ortiq o'qish ham mumkin emas. Agar talabalar kreditlarning 80 % ini to'plasa, bakalavr diplomiga ega bo'ladi.

Davomatga alohida e'tibor beriladi, agar talaba 1 fan bo'yicha mashg'ulotlarning 3/1 qismini qoldirsa (agar kasallik varaqasi bo'lsa ham), o'z-o'zidan imtihonga kiritilmaydi va shu fan bo'yicha kreditni bajara olmaydi. Natijada talaba oliy o'quv yurtidan ketadi va kelgusi o'quv yilida shu fanni o'qishga va kredit to'plashga majbur bo'ladi.

Talabalarga fanlarni tanlab o'rganish uchun katta imtiyozlar berilgan. Masalan: fizika fakultetining talabasi matematika va mexanika fakultetlaridan o'zini qiziqtirgan fanlarini tanlab o'qishi mumkin. Universitetlar ilmiy tekshirish muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan mustahkam aloqaga ega. Universitetlarga ixtisosliklar bo'yicha kichik ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Amaliy mashg'ulotlar bevosita ana shu korxonalarda olib boriladi. Talaba bironta sxema, loyiha yoki detalni o'z qo'li bilan yasab ko'rsatishi kerak. Laboratoriya mashg'ulotida tayyorlangan mahsulot umumiy texnikaviy nazoratdan o'tgach, o'quv topshirig'i bajarilgan hisoblanadi. Oxirgi kurslarda ishlab chiqarish korxonalaridan, muassasalardan vakillar kelib, suhbat asosida bo'lajak mutaxassis – talabani tanlab oladi va oliy ta'lim muassasasiga shartnoma asosida pul o'tkazadi. Bunday omil imkon qadar talabalarning o'zi egallayotgan ixtisoslikning malakali sohibi bo'lishiga undaydi.

Darsliklar tekin, muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlandi. Zarur bo'lgan taqdirda ularning oilalariga ham moddiy yordam ko'rsatiladi.

Yuqori bosqich: o'rta maktab 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar 10-11-12 sinflarni o'z ichiga oladi. Bunday maktablar kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud bo'lib, o'quvchilarning 95 % kunduzgi maktabga

o'qiydilar, o'quvchilar maktabni bitirib bir necha fanlardan imtihonlar topshiradilar. Bu sinovlardan o'tgan talabalar universitetlarga yo'llanma olib qayta sinovlardan o'tadilar. To'g'ridan – to'g'ri test topshiradilar.

Mamlakatda bolalar bog'chasidan boshlab ta'limning barcha turlari pullik. Faqat o'rta maktabdagi majburiy ta'lim davri bundan mustasno. Davlat oliy o'quv yurtidagi ta'lim to'lovining o'rtacha 1 yillik miqdori o'rta xizmatchi yillik daromadining 15 % ini tashkil qila

Xitoy 1978-yildan boshlab, barqaror rivojlanish tomon ilk qadamini bosdi. Iqtisodiy islohotlarning boshlanish davridan, ya'ni 1978-yil hamda 1997-yillar mobaynida YaIM hajmi 5,7 marta yoki yiliga o'rtacha 9.6 % dan o'sdi. Bu ko'rsatkichga dunyoning hali hech qaysi mamlakati erishmagan. Ushbu davr mobaynida Xitoy YaIM ning aholi jon boshiga 4,4 martaga, tashqi iqtisodiy munosabatlari esa, bir necha barobarga o'sdi. Ko'pgina iqtisodchi mutaxassislarning hisob – kitobiga ko'ra, quyidagi asosiy omillar Xitoyning iqtisodiy mo'jizaga erishishiga sabab bo'lgandir:

1. Mamlakat iqtisodiy geografik jihatdan qulayligi;
2. Mamlakatdagi qazilma boyliklar zahirasining ko'pligi;
3. Qishloq xo'jaligining yuksak darajada rivojlanganligi;
4. Xitoy mahsulotlarining eksport qilinishida “Demping” siyosatini mavjudligi;
5. 1990-yillarda eksportning o'sib borishi;
6. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda “Xitoy modeli”ning ahamiyati;
7. 1980 – yillarda Xitoy hukumatining kuchli iqtisodiy islohotlarni olib borishi;
8. Mamlakatda ishchi kuchinining arzonligi va mehnat resurslarining yetarliligi (Mamlakatda 850 mln. kishi mehnatga yaroqli);
9. Xitoyning tashqi savdosida Gonkongning ahamiyati;
10. YaIM miqdorining yildan – yilga o'sishi. 1978 - 1997 yillarda u yiliga o'rtacha 10 %dan o'sganligi;
11. Xitoyning “Ochiq eshiklar” siyosatini olib borishi. 1984 yilda mamlakatning 14 ta shahriga erkin port shahar lari maqomi berilganligi;
12. Ishlab chiqarish resurslarini doimiy o'sishi;
13. Xorijiy sarmoyalarni va texnologiyalarni jalb qilinganligi;
14. Turizmning rivojlanishi;
15. Tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati.

Yuqoridagi omillardan tashqari, hukumat tomonidan qabul qilingan va olib borilgan iqtisodiy dasturlar ham katta ahamiyat kasb etdi. 1979 yilda Xitoy Kompartiyasining raisi Den Syao Pen islohotlar jarayonining quyidagi nazariy asoslarini va tamoyillarini e'lon qildi:

1. Ishlab chiqarish kuchlari rivojiga halaqit bermaslik;
2. Reja asosida bozorni tashkil qilish;
3. Xitoy insonlari ongiga erk berish va ularni farovonligiga yordam berish.

Boshlang'ich hamda o'rta maktablar tarmog'ini yaratish ko'zda tutilgan edi. Islohotga muvofiq o'qish muddati boshlang'ich maktabda 5 yil, o'rta maktabda 6 (3-3) yil qilib belgilandi. Ta'lim sohasida 1958 yildagi o'zgartirishlar yaxshi natija bermadi.

XKP MK ning 1985 yil 27 mayda qabul qilgan "Ta'lim tizimini isloh qilish to'g'risida" gi qarori hozirgi bosqichda XXR ta'limini rivojlantirishning muhim omili bo'ldi. 1986 yilda qabul qilingan majburiy ta'lim to'g'risidagi Qonunga ko'ra majburiy ta'limning muddati boshlang'ich va to'liqsiz o'rta maktabda 9 yil, to'liq o'rta maktabda 3 yil qilib belgilandi.

Xitoy maktablarida ta'lim putunxua tilida olib boriladi. U xitoy tilining pekin shevasiga asoslangan. Xitoydagi bolalarning bir qismi boshlang'ich maktabga kirishdan oldin bolalar bog'chalarida tayyorlanadilar. Xitoyda so'nggi 20 yil mobaynida har qaysi oila bittadan bolaga ega bo'lishi siyosati yurgizilishi sababli o'quvchilar soni ancha kamaydi.

Xitoyda maktabgacha ta'lim bolalar bog'chalari va maktabacha ta'lim muassasalari hisoblanadi va 3-6 yoshli bolalar qabul qilinadi. Maktabgacha ta'limining maqsadi bolani maktabga o'qishiga tayyorlashdan iborat bo'lib, ular davlat va xususiy muassasalarga bo'lingan. Hozirgi kunda xususiy bog'chalar soni jami bolalar bog'chalarining 30 %ini tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim Xitoyda jamiyatning birgalikdagi say-harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Davlat mavjud qonunlar asosida bolalar bog'chalarini ochishga xohishi bo'lgan tashkilotlar, nodavlat-notijorat muassasalar, hamda alohida shaxslarni qo'llab-quvvatlaydi. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ikkinchi jahon urushiga qadar Xitoyda bolalar bog'chasi juda kam edi. Bori ham xususiy muassasalar bo'lib, unga boy oilalarning bolalari enagalari bilan kelishardi. Urushdan keyingi yillarda XXRning maktabgacha ta'lim tarixi davlatlarining asosiy rivojlanishiga mos holda 4 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchisi: 1949 – 1957 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davlat tizimining sobiq Ittifoq tizimiga orientatsiyalangan davri edi. Bu davrda sobiq Ittifoq mutaxassislari Xitoy mamlakatida bir necha tajribali bolalar bog'chalarini tashkil qildilar. Shundan keyin bolalar bog'chalari soni keskin ortdi. Bu bog'chalarning asosiy tamoyili "Pavlov yondashuvi" deb nomlanib, refleksiologiya asoslarini ishlab chiqqan rus olimi I.P.Pavlov nomiga qo'yilgan edi. Pedagogikada "Pavlov yondashuvi" quyidagicha talqin qilinardi: "Bolani rag'batlantirib, tergap to'g'ri tarbiyalasa, unda barcha yaxshi xislatlar va qobiliyatlarini shakllantirish mumkin" Ikkinchisi: 1958-1965 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda bolalar bog'chalari soni keskin

ortdi, lekin ular uchun joy, moddiy ta'minot va mutaxassislar yetishmas edi. Natijada maktabgacha ta'lim sifati nisbatan pasayib ketdi. Uchinchisi: 1966-1976 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillar "Xitoy" madaniy revolyutsiyasi yillari deb ataldi, ziyolilar, beklarni ommaviy qatag'on qilinishi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Xitoy ta'lim tizimida ilmsiz, kasbiy noloyiq kimsalar ko'paydi, natijada maktabgacha ta'lim tizimi juda nochor holga kelib qoldi. Bolalar bog'chasida hayot qattiq g'oyaviy ko'rsatmalar asosida tashkil qilinardi: bolalarga revolyutsion va militaristik g'oyalar singdirilardi, shoir va yozuvchilarning asarlari va she'rlaridan parchalar yodlatishardi. To'rtinchisi: 1980-yillardan boshlab, Xitoy iqtisodiyotining o'zgarishiga ko'ra bolalar bog'chalarida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. Xitoy pedagoglari Amerika va Yapon maktabgacha ta'lim tarbiyasi bilan qiziq boshladilar. Lekin bog'chalarda hanuzgacha tarbiyaga avvalgiday yondashuv mavjud. Xitoyda bolalar bog'chasi katta bo'lib, o'rtacha 270 bola va 60 ta tarbiyachilar jamoasidan iborat. Guruhda 26 ta bola bo'lib, ularning bir qismi bog'chada kunduzgi soat 8:00 dan 18:00 gacha bo'ladilar va kechqurun uyga ketadilar. Bir qismi (5%) kechasi ham qoladilar. Chorshanba va shanba kunlari uyga ketadilar. Bog'chaga qabul soat 7:45 da boshlanadi. Ma'lumki, Xitoy aholisi juda ko'p davlat. Shu bois ham Xitoy davlati tug'ulishni rejalashtirish sohasida qat'iy siyosat olib boradi. Har bir oila bittadan ortiq bola ko'rmasligi kerak. Oilada bola sonining chegaralanganligi otaonaning bolaga munosabatida o'z ifodasini topadi. Xitoy oilasida bittayu-bitta bolasini erkalatadi, yaxshi ta'lim berishga harakat qiladi. Bolalar bog'chasida qat'iy tartib va intizom o'rnatiladi, bolalar erkaliklari ta'qiqlanadi. Tarbiyachilar bolalarning shaxsiy xususiyatini yaxshi biladilar, lekin bu hususiyatlari tug'ma deb hisoblamaydilar. Yomon intizom ilk ko'rinishidayoq bartaraf etiladi, agar bola o'zini yomon tutsa, tarbiyachi uning yoniga kelib, bu holatini sezganini bildiradi, lekin gapirmaydi. Bola o'z aybini tushungachgina tarbiyachi uning nomini aytib chaqiradi. Urish, xonadan haydab chiqarish, umuman jazolash man etiladi. Intizomni yaxshi ushlab turishning samarali yo'li bu – taqqoslash va rag'batdir. Tarbiyachilar bolalarga quyidagi savollarni beradilar: - Shunday qilsa to'g'ri bo'ladimi? - Nega noto'g'ri deb hisoblaysiz? - To'g'ri bo'lishi uchun nima qilish kerak? Kim to'g'ri qildi? Bolalar diqqat bilan eshitadilar va to'g'ri hayotiy misollarni eslab qoladilar. Har bir tartibsizlikka tanbeh beriladi, aks holda bola bu tarbiyasizlikni to'g'ri hisoblab, o'ziga singdirib olishi mumkin deb hisoblanadi. Buyuk Xitoy filosofi Konfutsiy "Bolalar to'g'ri intizomli bo'lib tug'ilmaydilar: ularning harakterlari tajribada shakllanadi, ustoz esa to'g'ri tarbiyaga mas'uldir. Tarbiyachilar o'ta bosiq, qat'iyatli bo'lishlari lozim", - deb ta'kidlagan. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimini qattiqqo'lligi uchun tanqid qilishadi. Tarbiyachilar bolalarning tartibini nazorat qiladi va chegaralaydi. Bolalar mashg'ulotlarda nafaol, kattalar fikriga mutlaq

qo`shiladilar. Lekin ota-onalar tarbiyachilarni o`z kasbining ustalari deb bilishadi, farzandlarini tarbiyachisiga to`liq ishonishadi. Xitoy bolalaridagi qat`iylilik va mehnatsevarlik an`anaviy fazilatlariga aylangan.

Boshlang`ich maktab o`quv rejasiga 9 ta predmet: axloqiy tarbiya, ona tili, arifmetika, jamiyat (tarix, geografiya) tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, ashula va musiqa, badiiy tarbiya, mehnat ta`limi kiritilgan. Ana shu asosiy o`quv predmetlaridan tashqari, haftada 6-8 soat faoliyatning har xil turlariga: mustaqil tayyorlanishga (1-2 soat), sinf majlislari o`tkazishga 1 soat, sport o`yinlariga (2-3 soat), qiziqishlar bo`yicha mashg`ulotlarga (2 soat) ajratiladi.

Xitoyda oliy ta`lim jarayonida talabalar uchun ibratli shart-sharoitlar yaratilgan. Avvalo universitetlar kontingentiga mamlakatning demografik holati o`z ta`sirini ko`rsatgan. Masalan: birgina Shanxay universitetining o`zida 26 fakultet bo`lib, 33 000 talaba bakalavriat va magistraturada o`qiydi. Ko`pchilik professor-o`qituvchilar AQSH da malaka oshirib kelishadi. Hozirgi kunda universitetda "Zamonaviy kommunikatsion va axborot texnologiyalari", "Raqqamli tizimlar xavfsizligi", "Kompyuter grafikasi va WEB dizayn" kabi fanlar o`qitilmoqda. Oliy ta`lim tizimida o`qitishning kredit tizimi joriy etilgan. Bu omil talabalarning mashg`ulotlarga qatnashishi, mustaqil ishlashi va ilmiy izlanishga jalb etilishiga ijobiy ta`sir etgan.

O`qitishning kredit tizimida bakalavr dipa ega bo`lish uchun jami 311 kredit yig`ishi kerak. Har bir kredit 10 soat ma`ruza darslari davomida to`planadi. Amaliy darslardan 20 soat mashg`ulotda 1 kredit to`planadi. Talabalar o`qishni 4 yilda tugatishi shart emas. Lekin 8 yildan ortiq o`qish ham mumkin emas. Agar talabalar kreditlarning 80 % ini to`plasa, bakalavr diplomiga ega bo`ladi.

Davomatga alohida e`tibor beriladi, agar talaba 1 fan bo`yicha mashg`ulotlarning 3/1 qismini qoldirsa (agar kasallik varaqasi bo`lsa ham), o`z-o`zidan imtihonga kiritilmaydi va shu fan bo`yicha kreditni bajara olmaydi. Natijada talaba oliy o`quv yurtidan ketadi va kelgusi o`quv yilida shu fanni o`qishga va kredit to`plashga majbur bo`ladi.

Talabalarga fanlarni tanlab o`rganish uchun katta imtiyozlar berilgan. Masalan: fizika fakultetining talabasi matematika va mexanika fakultetlaridan o`zini qiziqtirgan fanlarini tanlab o`qishi mumkin. Universitetlar ilmiy tekshirish muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan mustahkam aloqaga ega. Universitetlarga ixtisosliklar bo`yicha kichik ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Amaliy mashg`ulotlar bevosita ana shu korxonalarda olib boriladi. Talaba bironta sxema, loyiha yoki detalni o`z qo`li bilan yasab ko`rsatishi kerak. Laboratoriya mashg`ulotida tayyorlangan mahsulot umumiy texnikaviy nazoratdan o`tgach, o`quv topshirig`i bajarilgan hisoblanadi. Oxirgi kurslarda ishlab chiqarish korxonlaridan, muassasalardan vakillar kelib, suhbat asosida bo`lajak mutaxassis –

talabani tanlab oladi va oliy ta'lim muassasasiga shartnoma asosida pul o'tkazadi. Bunday omil imkon qadar talabalarning o'zi egallayotgan ixtisoslikning malakali sohibi bo'lishiga undaydi. Xitoyda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim. Xitoyda maktabgacha ta'lim bolalar bog'chalari va maktabacha ta'lim muassasalari hisoblanadi va 3-6 yoshli bolalar qabul qilinadi. Maktabgacha ta'limining maqsadi bolani maktabga o'qishiga tayyorlashdan iborat bog'chasi mavjud bo'lib, ular davlat va xususiy muassasalarga bo'lingan. Hozirgi kunda hususiy bog'chalar soni jami bolalar bog'chalarining 30 %ini tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim Xitoyda jamiyatning birgalikdagi say-harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Davlat mavjud qonunlar asosida bolalar bog'chalarini ochishga xohishi bo'lgan tashkilotlar, nodavlat-notijorat muassasalar, hamda alohida shaxslarni qo'llab-quvvatlaydi. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ikkinchi jahon urushiga qadar Xitoyda bolalar bog'chasi juda kam edi. Bor ham hususiy muassasalar bo'lib, unga boy oilalarning bolalari enagalari bilan kelishardi. Urushdan keyingi yillarda XXRning maktabgacha ta'lim tarixi davlatlarining asosiy rivojlanishiga mos holda 4 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchisi: 1949 – 1957 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davlat tizimining sobiq Ittifoq tizimiga orientatsiyalangan davri edi. Bu davrda sobiq Ittifoq mutaxassislari Xitoy mamlakatida bir necha tajriba bolalar bog'chalarini tashkil qildilar. Shundan keyin bolalar bog'chalari soni keskin ortdi. Bu bog'chalarning asosiy tamoyili "Pavlov yondashuvi" deb nomlanib, refleksiologiya asoslarini ishlab chiqqan rus olimi I.P. Pavlov nomiga qo'yilgan edi. Pedagogikada "Pavlov yondashuvi" quyidagicha talqin qilinardi: "Bolani rag'batlantirib, tergab to'g'ri tarbiyalasa, unda barcha yaxshi xislatlar va qobiliyatlarini shakllantirish mumkin". Ikkinchisi: 1958-1965 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda bolalar bog'chalari soni keskin ortdi, lekin ular uchun joy, moddiy ta'minot va mutaxassislar yetishmas edi. Natijada maktabgacha ta'lim sifati nisbatan pasayib ketdi. Uchinchisi: 1966-1976 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillar "**Xitoy madaniy revolyutsiyasi yillari**" deb ataldi, ziyolilar, beklarni ommaviy qatag'on qilinishi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Xitoy ta'lim tizimida ilmsiz, kasbiy noloyiq kimsalar ko'paydi, natijada maktabgacha ta'lim tizimi juda nochor holga kelib qoldi. Bolalar bog'chasida hayot qattiq g'oyaviy ko'rsatmalar asosida tashkil qilinardi: bolalarga revolyutsion va militaristik g'oyalari singdirilardi, Maoning asarlari va she'rlaridan parchalar yodlatishardi. To'rtinchisi: 1980-yillardan boshlab, Xitoy iqtisodiyotining o'zgarishiga ko'ra bolalar bog'chalarida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. Xitoy pedagoglari Amerika va Yapon maktabgacha ta'lim tarbiyasi bilan qiziqqa boshladilar. Lekin bog'chalarda hanuzgacha tarbiyaga avvalgiday yondashuv mavjud. Xitoyda bolalar bog'chasi katta bo'lib, o'rtacha 270 bola va 60 ta tarbiyachilar jamoasidan iborat. Guruhda 26 ta bola bo'lib, ularning bir qismi bog'chada kunduzgi soat 8:00

dan 18:00 gacha bo'ladilar va kechqurun uyga ketadilar. Bir qismi (5%) kechasi ham qoladilar. Chorshanba va shanba kunlari uyga ketadilar. Bog'chaga qabul soat 7:45 da boshlanadi. Ma'lumki, Xitoy aholisi juda ko'p davlat. Shu bois ham Xitoy davlati tug'ulishni rejalashtirish sohasida qat'iy siyosat olib boradi. Har bir oila bittadan ortiq bola ko'rmasligi kerak. Oilada bola sonining chegaralanganligi ota-onaning bolaga munosabatida o'z ifodasini topadi. Xitoy oilasida bittayu-bitta bolasini erkalatadi, yaxshi ta'lim berishga harakat qiladi. Bolalar bog'chasida qat'iy tartib va intizom o'rnatiladi, bolalar erkakliklari ta'qiqlanadi. Tarbiyachilar bolalarning shaxsiy hususiyatini yaxshi biladilar, lekin bu hususiyatlari tug'ma deb hisoblamaydilar. Yomon intizom ilk ko'rinishidayoq bartaraf etiladi, agar bola o'zini yomon tutsa, tarbiyachi uning yoniga kelib, bu holatini sezganini bildiradi, lekin gapirmaydi. Bola o'z aybini tushungachgina tarbiyachi uning nomini aytib chaqiradi. Urish, xonadan haydab chiqarish, umuman jazolash man etiladi. Intizomni yaxshi ushlab turishning samarali yo'li bu – taqqoslash va rag'batdir. Tarbiyachilar bolalarga quyidagi savollarni beradilar: - Shunday qilsa to'g'ri bo'ladimi? - Nega noto'g'ri deb hisoblaysiz? - To'g'ri bo'lishi uchun nima qilish kerak? Kim to'g'ri qildi? Bolalar diqqat bilan eshitadilar va to'g'ri hayotiy misollarni eslab qoladilar. Har bir tartibsizlikka tanbeh beriladi, aks holda bola bu tarbiyasizlikni to'g'ri hisoblab, o'ziga singdirib olishi mumkin deb hisoblanadi. Buyuk Xitoy filosofi Konfutsiy "Bolalar to'g'ri intizomli bo'lib tug'ilmaydilar: ularning harakterlari tajribada shakllanadi, ustoz esa to'g'ri tarbiyaga mas'uldir. Tarbiyachilar o'ta bosiq, qat'iyatli bo'lishlari lozim",- deb ta'kidlagan. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimini qattiqqo'lligi uchun tanqid qilishadi. Tarbiyachilar bolalarning tartibini nazorat qiladi va chegaralaydi. Bolalar mashg'ulotlarda nafaol, kattalar fikriga mutlaq qo'shiladilar. Lekin ota-onalar tarbiyachilarni o'z kasbining ustalari deb bilishadi, farzandlarini tarbiyachisiga to'liq ishonishadi. Xitoy bolalaridagi qat'iylik va mehnatsevarlik an'anaviy fazilatlariga aylanganbo'lib bunda integrativ yondashuv yuqori samara beradi.

Ma'ruzachilardan oliy ta'limda ham, undan keyingi ta'limda ham ta'lim usullarini doimiy yaxshilab borish talab qilinadi. Bu turli sabablar bilan izohlanadi. Bir qancha davlatlarda ma'ruzachilardan yaxshi natijalarga erishish talabi qo'yilgan qoidalar mavjud. Jumladan:

Talabalarning muvaffaqiyatlari bilan bog'liq moliyaviy pul ulushi mavjud; talabalarga har bir predmet bo'yicha so'rovnomalarni to'ldirishga beriladi; natijalar kursdagi barcha lektorlarni jamlovchi kurs qo'mitasi a'zolari, talabalarning vakillari, ishlab chiqarish va mahalliy jamiyatlar vakillari huzurida e'lon qilinadi;

ta'lim sifatini tekshirishni amalga oshiruvchi inspektor va boshqa universitet xodimlari ishtiroki;

talabalarni baholovchi professionallar guruhi.

Yomon o'qitish mazkur kursga juda kam talabalarni to'plashga sabab bo'ladi va bu o'z navbatida kursning yopilishiga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda xorij tajribalarini o'rganish va ularni chuqur tahlil etish ogqali maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasida pedagog faoliyatini samaraali tashkil etish o'ziga xos muhim jarayon sanaladi. Mazkur jarayon esa pedagoglarni raqobatga chidamli kadrlar qilib shakllatirishga va ularni tajribasi hamda tayyorgarligini mustahkamlashga yordam beradi. Qiyosiy tahlil etsak hozirda Hindiston oliy ta'lim tizimi 17 000 dan ziyod kollej, 20 markaziy universitet, 217 Shtat darajasidagi Universitet, 106 ta universitet maqomidagi oliygoh hamda 13 ta umummilliy ahamiyatga ega institutni o'z ichiga oladi. Yaqin kelajakda bu raqamlar qatoriga yana 30 ta markaziy universitet, 8 ta yangi Axborot Texnologiyalari instituti, 7 ta Menejment Instituti va 5 ta Hindiston ilmiy instituti qo'shilish arafasida. Demak, xorijiy tajribalarga tayangan holda bugungi kunda maktabgacha ta'limning nazariy qiyosiy pedagogik tahlili ta'lim jarayonini tashkil etishda dolzarb vazifalardan biri ekanligini asoslaydi. Kichik yoshidagi bolalarni o'qitish va ularda milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo'li amaliy jihatdan tadbiq qilinishi lozim. Bu o'rinda, milliy axloq tarbiyasi, ma'naviy-ruhiy hamda milliy nafosat va jismoniy tarbiya maktabgacha ta'lim tizimida kichik maktab yoshidagi bolalarga o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatish, tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash xislatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllatirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iborat.

Maktabgacha ta'limning asosiy mazmun mohiyati quyidagilarni o'z ichiga oladi. Har bir mashg'ulotdan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash, dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga sharoit yaratish, iqtidorli guruh va bolalarning intellektual qobiliyatlarini muntazam oshirib borishlariga sharoit yaratish, ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'-o'zini anglash salohiyatini shakllatirish, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatishdan iborat.

#### **Nazorat savollari:**

1. Xitoyda maktab va ta'lim mazmunini tahlil qilib bering.
2. Xitoyda ta'lim- tarbiya va uning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

3. Xitoy maktablarida ta'limi qanday amalga oshiriladi?
4. Xorijiy davlatlar bilan Xitoy davlatlari ta'lim tizimining qiyosiy tahlil qiling.
5. Hindiston ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari
6. Hindistonda oliy ta'lim tizimi haqida gapirib bering.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Buyuklarning mezonlari . AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim) . Inson va qonun. 2001 y
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .
3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.
4. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil
5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.
6. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti. 2011 yil
7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.

## **II- Modul. Jahon mamlakatlarida ta'lim tizimi**

### **4 - mavzu: Yaponiya, Shimoliy va Janubiy Koreyadagi ta'lim tizimi va undagi muammolar.**

**Tayanch so'zlar:** Yaponiya, Shimoliy va Janubiy Koreyadagi ta'lim tizimi, ta'lim shakllari, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya, kiyosiy pedagogika, fanining mazmuni va mohiyati , predmeti, maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika, takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini loyiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas. ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizimi

**Yaponiya ta'lim tizimlarining taraqqiyoti** Yaponiya ta'lim tizimlarining yuksak parvozi o'z-o'zidan bulgani yuq. Uning ham o'ziga xos inqirozi va muammolari bo'lgan . Bularni to'liqroq tasavvur qilish uchun mamlakat pedagogik tamoyillari va maorif taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi va tarbiyachilarning maoshlari davlat tomonidan tayinlanadi . Ta'lim vazirligi Niderlandiyada eng qimmat turuvchi vazirlikdir . Unga davlat bir yilga 29,6 milliard gulden mablag' sarf etadi . Bu davlat byudjetining 17 foizidir . Bu davlatning yer yuzida nufuzli urin olishida uning taraqqiy etgan ta'limi juda qo'l keladi.

Yapon ta'lim tizimining mumtoz shakllanishi 1867-1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o'z oldiga qo'ygan ilk qat'iy shiori bo'lib, biri "Fukkoki kioxsi" - boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa "Siokusan kogio"-ilg'or G'rab ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta'lim tizimlarini tubdan o'zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Yaponiya yuksak ilmiy qudratga ega mamlakatdir. U dunyoda ta'limni rivojlantirishga mablag' sarf etishda AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mamlakat ilmiy izlanishlarga xususiy sektorni qo'shib hisoblaganda, umumiy fanni rivojlantirishga ajratilgan mablagning beshdan turt qismi ajratilmoqda. Keyingi 10-15 yilda tabiatshunoslik va texnologiya sohasidagi oliy o'quv yurtlari rivojlantirildi, bunga ilmiy izlanishlarga muljallangan mablag'ning karyib 60 % foizi sarf etiladi.

Yaponlar shuni ta'kidlaydiki, siz o'zingiz o'rgangan narsalarni o'rgatsangiz 90 foizini eslab qolasiz. Agar o'qituvchilar o'mida turib faqat ma'ruza o'qilsa unda o'quvchilar ancha kamroq - masalan, 40 foiz ma'lumotni eslab qoladi, shuning uchun muammolarni muhokama qilish va bir-birlariga o'rgatish juda foydali. Bundan tashqari, juda kam dam olish vaqti ajratiladi va ularni doimiy ravishda ushlab turib band qilish muhim ahamiyatga ega.

Eng yangi tadqiqot natijalariga ko'ra, Yaponiyalik bolalar jahon miqyosida hisob-kitob va savodxonlik borasida ko'proq qobiliyatga ega. Shu o'rinda savol tug'iladi ho'sh Yaponiya maktab ta'limining yagonaligi yu uning noyob tizimi siri nimada ekan? Jahon mamlakatlari ta'lim tizimidan aynan nimasi bilan farqlanib turadi? Va eng muhimi, undan nimani o'rganishimiz mumkin? 21 m 13 ga ko'paytirishingiz uchun qancha vaqt kerak bo'ladi? Bir daqiqa, ehtimol. Va, taxminan, 123 ni 321 ko'paytirishgachi? Bir daqiqadan ortiq vaqt kerak, albatta Xo'sh, yapon bolalari ushbu vazifalarni bajarishi uchun qancha vaqt kerak? Yaponiyada har qanday bola, hatto besh yoshda ham buni amalga oshira oladi. Ular raqamlarni yoddan bilishmaydi. Buning o'rniga ular o'yin usulidan foydalanadi.

Butun dunyodagi bolalar odatda o'rtacha 26-33 harfni (ba'zi bir Osiyo tillarini hisobga olmaganda piktografik yondashuvni) o'rganadilar. Yapon tilida o'qish va yozish uchun qancha belgilar bilish kerakligini bilasizmi? 26 dan ortiq, bu aniq.

Yaponiyalik ota-onalar farzandlariga barcha belgilarni o'rganish va ularni yozma muloqotda ishlatish qanchalik qiyin bo'lishi mumkinligini biladi. Biroq, o'qitishga yuqori sifatli yondashuv tufayli, boshlang'ich maktabdan chiqib ketish

vaqtida, yapon bolalari allaqachon 1.000 kanji belgilarini bilib oladi. 15 yoshida, majburiy ta'limini tugatganlarida ular qo'shimcha 1,130ni biladi.

Kanji bilan bir qatorda, Yaponiyada ikkita alifbo turi hiragana va katakana mavjud. Har bir to'plamda 46 ta belgilar mavjud (odatda "ka" kabi). Original tovushlarni o'zgartirish uchun ishlatiladigan aniq nuqtalar bilan birlashgan holda, bu belgilar zamonaviy yapon tilining barcha tovushlarini ifodalash uchun yetarli. Hiragana oddiy Yaponcha so'zlarni yozish uchun kanji bilan birgalikda ishlatiladi. Katakana boshqa tillardan olingan so'zlarni, begona odamlar va joylar, tovushlar va hayvonlarning hayqiriqlarini yozish uchun ishlatiladi.

Yaponiya davlat ta'lim tizimi bu mamlakatda milliy g'urur bo'lib, Yaponiyalik o'quvchilarga butun dunyodagi hamkasblarini osonlikcha, yaxshiroq bajarishga yordam bergan an'anaviy uslubdir. PISA testlari buni yana bir bor tasdiqlaydi.

Yaponiya maktab tizimi quyidagilardan iborat:

6 yillik boshlang'ich maktab,

3 yoshlik o'rta maktab,

3 yillik oily va o'rta maktab

4. Universitetning

4yilligi.

Gimkuyoiku (majburiy ta'lim) muddati 9 yil: shougakkou (boshlang'ich maktab) da 6, chugakku (o'rta maktab) da – 9 yosh.

Ularning ta'lim tizimi juda yaxshi bo'lgani sababli, Yaponiyada dunyoning eng yaxshi o'qitiladigan aholisi (100% majburiy sinflarga va noqonuniy savodsizlikka ega) mavjud. O'rta maktab (kougou) majburiy bo'lmasa-da, o'rta maktabni ro'yxatga olish hali ham juda baland: shaharlarda 96% dan ortiq va 100% ga yaqin.

Maktablar ko'pchiligi har aprel oyidan boshlab yangi maktab yillari bilan uch muddatli tizimda ishlaydi. Boshlang'ich maktabning quyi sinflari bundan mustasno, kunduzgi o'rta maktab kuni 6 soat davom etadi, bu dunyodagi eng uzun maktab kunlari deya e'tirof etiladi. Maktab tugagandan keyin ham, bolalar uchun bir qancha, mashq qilish uchun masala va boshqa uy vazifalari bor. Dam olish kunlari yoz faslida 6 hafta, qish va bahor faslida taxminan 2 hafta davom etadi. Ushbu dam olish kunlarida ko'pincha uy vazifasi bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ko'p hollarda bitta o'qituvchi har bir sinfdagi barcha fanlarni o'qitadi. Bir toifadagi o'quvchilar soni odatda 40 tani tashkil qiladi. Biroq, o'tmishda, aholining tezkor o'sishi tufayli, bu raqam juda yuqori, ya'ni bir sinfga 50 ta o'quvchi to'g'ri kelgan.

Yapon maktabida bolalar aynan nimani o'rganadi?

Ular o'qitadigan fanlar orasida yapon tili, matematika, ijtimoiy tadqiqotlar, musiqa, qo'l mehnati san'atlari, jismoniy tarbiya va uy iqtisodiyoti (oddiy

pazandalik va tikuvchilik ko'nikmalarini o'rganish) kiradi. Boshlang'ich maktablarning soni ko'payib, ingliz tilini o'qitish boshlandi. Axborot texnologiyalari ta'limni yanada takomillashtirish uchun ishlatilgan va ko'pgina maktablar internetga kirish imkoniga ega.

Talabalar shodo (xattotlik) va haiku kabi an'anaviy yapon san'atlarini ham o'rganadi.

Haiku, taxminan, 400 yil oldin Yaponiyada ishlab chiqilgan she'riyatning bir shakli bo'lib, 17 shevadani iborat she'riy shaklga ega. O'quvchilarga chuqur his-tuyg'ularni yetkazish uchun oddiy so'zlar ishlatiladi.

Yaponiya maktablari haqida ba'zi qiziqarli ma'lumotlar: Deyarli barcha o'rta maktablar o'quvchilariga maktab formasini (seifuku) kiyishni talab qiladi.

Boshlang'ich va o'rta maktablarda tushlik (kyuushoku) standartlashtirilgan taomnomada taqdim etiladi va sinfda yeyiladi. Shunday qilib, o'quvchilar va o'qituvchilar birgalikda ovqatlanish vaqtida yaxshi aloqalar o'rnatadi. Talabalar Yaponiyada darslarni o'tkazib yubormaydi va maktabga kechikib kelmaydi.

Yaponiyada o'qiyotgan talabalar maktabga tegishli bo'lgan kuchli muhabbat tuyg'usiga ega, ular maktabga nisbatan hech qachon o'zlarini begona odamlar kabi his qilmaydi.

Yaponiyada o'quvchilar aslida maktabda baxtli bo'ladi (ularning 85 foizi). Ularning o'qituvchilari kamdan kam hollarda saboqlar boshlanishidan oldin talabalar joylashishini kutadi.

Talabalar haftada o'rtacha 235 daqiqani muntazam ravishda matematika mashg'ulotlarida o'tkazadi (boshqa mamlakatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 218tani tashkil qiladi), lekin ular til va fan sinflarida kamroq vaqt sarflaydi – o'z navbatida haftada 205 va 165 (boshqa mamlakatlarda bu ko'rsatkich haftada o'rtacha 215 va 200 daqiqani tashkil qiladi).

Yaponiyalik maktab o'quvchilarining ko'pchiligi maktabdan keyin turli xil mashg'ulotlarga qatnaydi, u yerda ular maktabdagi mashg'ulotlarga qaraganda ko'proq narsani o'rganadi, ba'zilari esa vaqtni uyda yoki boshqa joyda o'tkazadi. Maktabgacha ta'lim Yaponiya uchun juda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limga o'qishga kirgan talabalar 15 yoshida yaxshiroq ishlashga harakat qiladi. Shuning uchun, yaponiyalik bolalarning 99 foizi maktabgacha ta'limning bir turiga kirishi ajablanarli emas.

Ta'lim tizimining, shu jumladan maktabgacha ta'lim rivojlanishi tarixi uzoq o'tmishning Meydzi davriga borib taqaladi. Yaponiyada 1876 yilda boy xonadon farzandlari uchun birinchi bolalar bog'chasi ochilgan. Bolalar bog'chalarining ochilishidan maqsad ularning aqlan va jismonan rivojlanishiga

yordam beradigan uzaro munosabatda bo'lish muhitini yaratishdan iborat bo'lgan. Albatta bola tarbiyasida onaning roli alohida ahamiyatga ega, lekin bolalarning o'z tengdoshlari, tarbiyachi bilan mulokoti, birga uynashi va birgalikda mehnat qilishi uy sharoitida erishib bo'lmaydigan natijalarga, ya'ni uning sog'lom va garmonik rivojlanishiga imkoniyat beradi. Davlat darajasidagi maktabgacha tarbiya tizimi fakat 1961 yildan keyin keng tarqala boshladi. Bugungi kunga kelib, amalda har bir yapon bolasi bolalar bog'chasi yoki bolalarga karash markaziga katnaydi.

Yaponiyada bolalar bog'chasida bolalarga nisbatan mehribonlik va muxabbat yapon jamiyati uchun muhim jihatlardan biri bo'lib bunday muhabbatning asosiy va muhim manbai onalar ya'ni ayollar ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Yaqin davrlargacha yapon oilalarida ayollar o'z oilasini asrovchi, g'amxur xotin, mehribon ona bo'lib bolaga barkamol tarbiya berish uning vazifasi hisoblanar edi. Oxirgi vaqtda vaziyat o'zgarib, yaponlar kech turmush ko'ryaptilar va ko'p ayollar ishlashni xohlayaptilar yoki ishlashga majburlar. Shunga qaramay yapon onalarining aksariyati bolalarni 3 yoshgacha uy sharoitida tarbiyalab, keyin ijtimoylashish uchun bolalar bog'chalariga joylashtiradilar.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim quyidagi muassasalarda amalga oshiriladi:

- bolalar yasalisi, bolalarga qarash markazlar;
- bolalar bog'chalari;
- nogironlar uchun maxsus muassasalar.

Maktabgacha ta'lim umummajburiy bulmasa xam bolalar bolalar yasalilari va bog'chalari katta extiyojga ega xamda bolani bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun avvalrok xarakat kilish lozim. Urtacha olganda bolalar bo'fchasiga joylashtirish uchun 25000 bola navbatga turadi.

Yapon ta'lim tizimining mumtoz shakllanishi 1867-1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o'z oldiga qo'yan ilk qat'iy shiori bo'lib, biri "Fukkoki kioxsi" - boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa "Siokusan kogio"-ilg'or G'rab ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta'lim tizimlarini tubdan o'zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Yaponiya-juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda YAponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi. Maktabgacha ta'lim.

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytilishlaricha, bola tarbiyasi-ularning hayotlarining maqsadlaridir. Yaponlar bolaning erta voyaga etishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda-o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda-amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda-burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda-yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshdaliderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak 52 tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni engishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar-xanlarga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada o'z ish o'rnini ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o'quvchi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bosqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. SHuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda. Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu erda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi.

Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, o'quvchilarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Bolalar yashisiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oylikdan berish mumkin, lekin bunday holat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki bunday yoshda bolani yashiga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo'lishi kerak. Shuningdek, bunday ayol jamiyat tomonidan yaxshi ona deb baholanmaydi. Atrofdagilarning fikri esa yaponlar uchun eng asosiy deb hisoblanadi. Yaponiyada bolalar yashisiga fakat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun munitsipalitetga ota-ona ish joidan ma'lumotnoma va oilada boshqa bolaga qarab turuvchi oila a'zosi yuqligi hqida hujjatlar taqdim etiladi. Bolalar yashilari bolalarga qarab turish faoliyati bilan shug'ullanadilar va u yerda ta'lim berish dasturlari nazarda tutilmaydi hamda ular ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligiga emas balki Sog'likni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligiga buynsunadilar.

Bolani maktabgacha tarbiya muassasiga joylashtirish masalasini, kandy muassasa (davlatga qarashli yoki xususiy) bo'lishidan kat'iy nazar, munitsipalitet hal qiladi. Meriyaga (shahar xokimiyatiga) murojaat qilgan ota-onalarga bolalar bog'chalari (yashilar) qaerda joylashganligi ko'rsatilgan atlas beriladi. Bu atlasda u yerga boruvchi sxema, maktabgacha tarbiya muassasidagi joylar soni ko'rsatilgan. Ota-onalar avvalroq bolalar bog'chasiga borishlari, tarbiyachilar bilan suxbatlashishlari va ularga yokkan bog'chani tanlashlari mumkin, lekin hal qiluvchi natijani munitsipalitet belgilaydi va bo'sh o'rin bo'lsa ota-onalarga bolani bog'chaga (yashiga) borish uchun ruxsat beradi. Bolani bog'chaga yilning barcha oyidan olib borish mumkin, lekin bush urinlar soni 1 aprelga kelib ko'payadi chunki shu paytda ukuv yili boshlanib bo'fchalarni bitiruvchi bolalarning bir kismi boshlang'ich maktabga yul oladilar.

Yaponiyaning maktabgacha tarbiya tizimiga quyidagi turdagi muassasalar kiradi:

- davlatga, munitsipalitetga, prefekturaga tegishli;
- xususiy.

Shuningdek maktablar va institutlar qoshida ham bolalar bog'chalari mavjud. Ya'ni bolalar uchun bog'cha yoshidanoq uning kelajakdagi o'qish jarayoni belgilanadi. Bunday ixtisoslashtirilgan bolalar bog'cha tarbiyalanuvchisi kelajakda tegishli nufuzli maktabga keyinroq esa universitetga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Farzandining porloq kelajagini shakllantirishda ota-onalar maktabgacha va ta'lim muassasalarini tanlashga mantiqiy siyosat bilan yondashadilar. Bu jarayon bolani nufuzli bolalar bog'chasiga keyin boshlang'ich so'ngra eng yaxshi o'рта maktabga joylashtirish bilan boshlanadi va bola katta bo'lguncha davom etadi.

Natijada bola munosib kasb egasi bo'lishi va shunga mos ish haqqi olishi uchun ota-onalar bola tug'ilishidan boshlab uning ta'lim olishiga katta mablag' sarflashlari kerak.

Agar oila biror bir sabab bilan bolani bolalar bog'chasiga olib bormasa, unda onaning o'zi uni maktabga tayyorlash uchun xamma kerakli bilimni o'rgatishi lozim.

Yaponiyaning maktabgacha ta'lim tizimining 80 foizini xususiy bolalar bog'chalari va bolaga qarashli markazlari tashkil etadi.

Davlatga tegishli va xususiy bog'chalar o'rtasidagi farq katta emas. Ta'lim berish jarayonining tizimi va yondashish ikkala turdagi muassasalarda ham 2006 yilda kabul kilingan "Ta'lim to'g'risidagi asosiy konun"ga mos ravishda olib boriladi. Bunda bolaning xox davlatga karashli, xox xususiy bog'chada tarbiyalanishi uchun to'lov puli ota-onaning daromadiga qarab belgilanadi. Oila daromadi qancha katta bo'lsa bog'cha puli ham shuncha katta bo'ladi. O'rtacha qilib olganda kam ta'minlanganlar uchun 100 AQSh dollardan, badavlat oilalar uchun 500 dollargacha tulov amalga oshiriladi. Yaslilarda (bolaga qarash markazlarida) yana bolaning yoshi xam xisobga olinadi, bola qanchalik kichik bo'lsa, tulov bahosi yuqori bo'ladi. Lekin bari bir xususiy bog'chalarda to'lov narxi yuqoriroq hamda har oylik to'lovdan tashqari kirish tulovini ham o'z ichiga oladi va bu esa 1000 AQSh dollargacha borishi mumkin.

Bolalar bog'chalarida ota-onalarni tarbiyaga jalb qilish jarayoni o'ta yuqori darajada. Ertalab vaqtili bolalarni bog'chaga tashlab ketib kechqurun olib ketadigan bizning ota-onalar uchun Yaponiya bolalar bog'chalaridagi tartibga ko'nikish juda qiyin, chunki u yerda bola tarbiyasida ota-onaning muntazam katnashishi va faol ishtiroki talab qilinadi. Bolalar bog'chada ota-onalarsiz ikki soat, uzog'i bilan to'rt soat bo'lishlari mumkin. Va bu jarayonda nafaqat bolalar, balki ota-onalar ham tarbiyalanadilar.

Bolalar yaslilarida tarbiyachilar kundalik daftar tutib unga bolaning kun davomidagi faoliyatini yozib boradi: bola kanday ovqatlandi, qanday uxladi, o'zini qanday xis qildi va xokazolar, va xuddi shu narsalarni ota-onalardan xam ko'tadilar. Pedagoglar va ota-onalar har bir bola tarbiyasi tug'risida o'zlarining qiziq kuzatuvlarini va fikrlarini yozib boradilar. Bolalar tarbiyasi jarayoni pedagog va ota-onaning birgalikdagi yakin hamkorligida amalga oshiriladi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozim, bu jarayonda pedagog (tarbiyachi) boshlovchi tomon hisoblanadi. U esa o'z navbatida ota-onalarning bolalar tarbiyasida yo'l ko'rgan kam-chilik hamda adashishlarini ko'rsatib berishi mumkin va ota-onalar buni nafaqat hisobga olishi balki kelajakda undan qo'llanma sifatida foydalanishi zarur.

Maktabgacha tarbiya muassasa pedagogik jamoalari tomonidan bolalarni tarbiyalash usuli buyicha ota-onalar o'qitib boriladi, muntazam ravishda ota-onalar

majlislari o'tkaziladi. Bolalarning onalari odatda bir-birlari bilan tez-tez uzaro suhbatlashib turadilar, turli masalalarni hal qiluvchi «onalar» qo'mitalari tuzadilar, bolalar muassalarida o'tkazib turiladigan sport kunlari, kuzatuv va boshqa tadbirlar kunlarida qatnashib turadilar.

Maktabgacha yoshdagi yapon bolalarining tarbiyasi uydan boshlanadi. Aynan ota-onalar o'z farzandlariga ma'lum axloq usullarini singdirib boradilar, o'z xatti-harakatlari bilan bolalarni mehribon, xush-muomalali, rahmdil va mustaqil bo'lishni o'rgatadilar. Bola uchun onaning mehri juda yuqori darajada va onaning yaxshi munosabatini yo'qotish uning uchun oliy jazodan ham qo'rqinchli hol. Yapon oilalarida odatda bola hech qachon jazolanmaydi va unga «yo'q» deyilmaydi. Buning o'miga oilada – bu harakatingdan ota, ona yoki yana biror kimsa ranjishi mumkin, degan ibora ishlatiladi. Shunga o'xshash, tarbiyalash maqsadida, bolaga bunday ishing kimgadir yoqmaydi, deyish xam mumkin. Va bu «kimdir» bu yaponning butun hayoti davomi uning yonidaligi his etiladi va yaponlar uchun jarnoat fikri juda muhim.

Oiladagi asos solingan tarbiya asoslari bolalarning jamoaviy hamkorligi sharoitida rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarga o'zaro munosabatda bo'lishni o'rgatish jarayonida alohida kichik guruhlar - «xan» tuzadi. Bu guruhlarda bolalar o'zaro fikr almashish va mustaqil bo'lish ko'nikmalarini o'rganishadi. Bolalarga guruhdagi boshqa qatnashchilarning fikriga quloq solib, hisobga olgan holda o'z fikrini bildirishga o'rganadilar. Bolalar o'z guruhlarida o'zlari qulayliklar va tartib yaratadilar, yig'ishtirib gullarni parvarish qila-dilar, xatto mustaqil ravishda o'zlariga ovkat xam tayyorlaydilar. Shu yul bilan bolalarni guruhlarda harakat qilishga o'rgatadilar. Bolalarning o'rtasidagi kelishmovchiliklar yoki yokalashishlar paydo bo'lganda tarbiyachi darrov aralashib, o'rtaga tushmaydi, chunki bolaning o'zi kelishmovchilikni hal qila bilishni o'rganishi kerak va bu unga kuchliroq bo'lishda yordam beradi.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya jarayonida tez-tez tarbiyachi va guruhlar o'zgartirib turiladi. Bu bolani bir xil odamlarga, bir xil sharoitga o'rganib qolmay jamiyatda yashashga o'rgatish uchun zarur. Bolalar maktabda yozishni, o'qishni o'rganadilar, lekin bolalar bog'chasiga qatnashdan asosiy maqsad bolani ijtimoylashtirish. Uni guruhlarda yashash, guruh manfaatlari bilan yashashga o'rgatishdir.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya beshta yo'nalishni o'z ichiga kamrab olgan, bular:

- ijtimoiy munosabatlar;
- salomatlik, xavfsizlik;
- til;
- atrof muxit;

- xis-tuyg'ularini ifodalash.

Maktabgacha va maktab ta'limi sohalaridagi bunday davlat siyosati tufayli yapon bolalariga sport bilan shug'ullanish va chiniqish ko'nikmalari singdiriladi. Tez-tez Yaponiya ko'chalarida oktabr oyida bog'cha rangidagi kalta shim kiygan bolalarni uchratish mumkin. Bu bolalarda sovuq kunlarda oyoq yalang yurish ko'nikmalarini singdirishni amaliyotidan darak beradi. Bolalarga oilada va jamoatda muomala qilishni, o'ziga ishonishni, yangi ko'nikmalarni egallashga, xalk ertaklarini va kitoblarni o'qib tilga va madaniyatga o'rgatadilar. Yaponiyadagi maktabgacha tarbiya tamoyillari - sog'lom, mustaqil, har tamonlama rivojlangan, bilimga ega va o'z madaniyati hamda Vatanini sevuvchi jamiyat a'zosini yaratishga qaratilgan. Bolalar bog'chalaridagi mashg'ulotlar. Bolalar bog'chalarida ta'lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o'qishdan tashkari bolalarga qo'shiq aytish o'rgatiladi, sport musobaqalari o'tkazilib, muntazam sayrlarga (poxodga) chiqib turiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o'tkazilishidan maqsad - bolada hamjihatlik, jamoada yashash xislarini rivojlantirishdan iborat. Qo'shiq aytilsa, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo'shiqchi qo'llanilmaydi, musobaqa o'tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g'oliblikka erishiladi, va mutlaqo yakka g'olib emas. Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi-ularning hayotlarining maqsadlaridir. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiydir. 40,8 foizi munisipial (tuman) kengashlari tasarrufida, qolgan 0,3 foizi esa davlat ixtiyoridadir. Ota-onalar va bolalar Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarida puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi ushun barsha shart-sharoitlar yaratib 64 beriladi. Imtixon paytlarida esa bolalar uy yumushlaridan ozod etiladilar. Ota-onalar maktab hayotining barsha sohalarida faol ishtirok etadilar, ular o'z farzandlariga barsha sohada o'mak namunadirlar. Ular o'z bolalari o'qishiga yordam berish ushun juda ko'p o'qiydilar, maktab o'quv dasturini mukammal o'rganib oladilar. Bolalar tarbiyasida onalarning roli va ma'suliyati kattadir. Ular o'zlarini farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari ushun oila sulolasi va davlat oldida mas'ul deb hisoblaydilar. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televidenie orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar ushun ota-onalar

oyiga o'rtasha 2-3 kitob sotib olishadi. Shu yoshdagi bolalar ushun oyiga 40 jarida nashr etiladi, ota-onalarning mutlaq ko'pchiligi bu jaridalarga obuna bo'lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o'qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko'nikmalarini egallashi zarur. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal yon tomonidan muxofozalangan qo'rilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritqish, soat, qalam, qog'oz, mikrokalkulyator va zaruriy ashyolar, shuningdek, kerak bo'lib qolgan taqdirda ota-onasini shaqiradigan signal tugmalarigasha o'matilgan. Yaponiya talimi tizimidagi: - bolani maktabga puxta tayyorlash; - bolalar ta'lim tarbiyasiga ota-onalar mas'uliyatini kushaytirish; - o'quvshilarning nafosat va jismoniy tarbiyasiga katta e'tibor; - o'qituvshi kadrlarga yuksak talabshanlik; - yosh iqtidorlar bilan alohida ishlash kabilar boshqalar ushun ham namuna olsa arzugulik tomonlardir.

**Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda - o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda-amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda-burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda-yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshda- liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadilar.**

Bolalami tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, davlatdan tashqarida Yaponiyada jamoaviylik xislatlari juda rivojlanib, shaxsiyat tushunchalarini inkor etiladigan fikrlar tarqalgan. O'zini shaxs sifatida namoyon etadigan inson Yaponiya jamiyatida qo'llab quvvatlanmaydi. Lekin bu Yaponiyada hamma birdek hisoblanib, shaxsiyat inkor etiladi degani emas. Yaponiya yoshlarini fotosuratlarini ko'rsangiz u yerda yetarlicha rang-barang, o'ziga ishongan yigit-qizlarni ko'rasiz, lekin ular guruh bo'lib yashaydilar va bu ularning ulg'ayshlaridagi ma'lum pog'ona demakdir. Maktab va institutlarni tugatgan rang-barang va o'zgacha fikr yurituvchi yoshlar qonunlarga itoat etuvchi va mehnatsevar yapon fuqarolari qatoriga qo'shib ketadilar.

Hozirgi zamon Yapon ta'lim tizimlarining tarkibi quyidagicha, bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari.

Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yilda ta'lim kurslariga jalb qilinadi.

Majburiy ta'lim bu ta'limning pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi.

Bolalar bog'chalari faoliyati samarali yo'lga qo'yilgan. Ta'limning bu bosqichiga 3 - 5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar. Majburiy maktabgacha ta'lim mavjud. Ta'limning bu pog'onasiga 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida 4 yillik boshlang'ich va 1 yillik tayyorlov kursini o'taydilar. Besh yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladilar va tekin darsliklardan foydalanadilar.

Yaponiyada boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv yurtlaridan tashqari, bir — biridan farq qiluvchi "Ixtisos maktablari" va "turli" maktablar ham mavjud. Ularning ko'pchiligi xususiy bo'lib, turli firma, konsem va sindikatlar uchun qisqa vaqtli kurslarda tikuvchi, oshpaz, hisobchi, kompyuterda yozish, avtotexnik, elektron hisoblash mashinalari uchun dastur tuzuvchilar va boshqa zaruriy kasblar o'rgatiladi. Yaponiyada ham turli xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashtirilgan maktablar mavjud.

Boshqa maktablardan farqli o'laroq, Yaponiya maktablarida o'qish 1 apreldan boshlanib, kelasi yilning 31 martida nihoyasiga yetadi.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda o'tquv yili uch semestrga bo'linadi: aprel — iyul, sentabr — dekabr, yanvar — mart. Katta o'rta maktablarda esa o'quv yili 2 yoki 3 semestrga bo'linadi.

O'quv yili Yaponiyada 240 kun yoki Amerinka Qo'shma Shtatlaridan 60 kun ko'pdir. Darslar 7 soat. Ko'pchilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda boshlanib, uchdan keyin tugaydi.

O'quvchilar haftasiga 2—3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo'yicha mashg'ulotlarda yoki repetitorlar ixtiyorida bo'ladilar.

Yaponiya ta'limining asosiy maqsadi va mazmuni aholini zamonaviy texnik hamda texnologik jarayonlar bilan jixozlangan hozirga zamon sanoatida samarali ishlashga moslashtirishdir. Mamlakatda maktabga muhim ijtimoiy vazifani bajaruvchi, jamiyatning olg'a siljishini ta'minlovchi dargoh deb qaraladi va xalq tomonidan e'zozlanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborga molik tomoni Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay, jahondagi Amerika, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan ilg'or mamlakatlarning innovatsion pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan. O'quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplom ish uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday

diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritadilar. Yaponiya ta'lim tizimi va unga dahldor masalalarning olib borilishi.

Yaponiya-juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

Yaponlar qizlarni esa uy ishlariga tayorlaydilar. Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar-xanalarga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada - o'z ish o'rnini ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o'quvchi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bosqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. Shuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 670 foizga % yaqin bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda. Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, o'quvchilarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Boshlang'ich ta'lim - syogakko, boshlang'ich maktab ta'limning ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6

yoshdan boriladi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99 foizi% qatnaydi. 99 foiz% yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1 foizi % - xususiy. O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. San'at va hunar (yapon husnixati), musiqa, uy xo'jaligini yuritish, jismoniy tarbiya, axloqiy odobnoma akademik predmetlar hisoblanmaydi. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy va bepul bo'lib, mashg'ulotlar apreil oyida boshlanadi. O'quv yili 3ta chorak - trimestrga bo'linadi. 1-chorak 6-apreldan 20 - iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta'til boshlanadi. 1-sentyabrdan 2-trimestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrda 7-yanvargacha qishli ta'til bo'ladi. Oxirgi 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha davom etadi. 25-martdan 6-aprelgacha bahorgi ta'til bo'ladi. Shu paytda o'quvchilar sinfdan sinfga ko'chadi. Chorak sinovlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga to'g'ri kelishi mumkin. Ta'til paytida o'quvchilar uy vazifalarini oladilar. Ba'zan ta'til paytida ham, agar trimestrda yaxshi o'qimagan bo'lsa, maxsus kurslarda o'qiydilar. Yaponiyada o'qish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, lekin Ta'lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang'ich ta'limda bolalar davlat hisobidagi 1945 kandji ieroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak. Boshlang'ich ta'lim —syogakkolquyidagi vazifalarni hal qiladi:

-o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o'z qadriyatlariga hurmat hisini o'rgatish;

-o'quvchilarni xalqaro hamkorlik ruhida tarbiyalash;

-ona tilidan to'g'ri foydalanish;

-iqtisodiy tarbiya berish;

-barkamol shaxsni tarbiyalash.

Kichik o'rta maktab - tyugakko Boshlang'ich maktabni tugatgan o'quvchi o'qishni kichik o'rta maktabda davom ettirishi lozim. Yapon tili, matematika, jamiyatshunoslik, etika, tabiiyot, musiqa, san'at, maxsus faoliyat, jismoniy tarbiya, texnik mahorat va uy xo'jaligini yuritish kabi majburiy fanlardan tashqari o'quvchilar chet tili, qishloq xo'jaligi yoki matematikadan chuqurlashtirilgan kurs kabi fanlarni tanlashlari mumkin. Kichik o'rta maktab 3ta sinf 7,8,9-sinflarni o'z ichiga oladi va majburiy ta'limning oxirgi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar yoshi 12dan 15 yoshgacha bo'ladi. Xuddi boshlang'ich maktabdagiday, o'rta maktabning asosiy qismi davlat tasarrufida, 5%-xususiy. 2001 yil apreldan boshlab ingliz tili majburiy fan bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilik o'quvchilar bitta yoki bir necha maktab to'garaklari, qiziqishlari bo'yicha klublarga qatnashadilar. Bu darsdan keyin soat 18:00gacha ish kunlari, dam olish kunlari ertalabki vaqtni

egallaydi. Kichik o'rtta maktabda o'tiladigan fanlar qatoriga ingliz tili, bir necha tanlov fanlar kiradi. Bu fanlarning tarkibi maktablarga bog'liq.

**Eng qiyin fanlar matematika va yapon tili. Uning o'ziga xos xususiyatlari.** Yaponliklar farzandlarining eng yaxshi, yuqori ta'lim olishini juda hohlaydilar. Ta'limga bunday katta e'tibor —dzyukul maktablarining yaratilishiga asos bo'ldi. Dzyuku-nufuzli o'quv muassasalariga tayyorlovchi maxsus kechki maktablardir. Bunday maktablarning analogi XVIII asrda yapon cherkovida paydo bo'lgan, hozirgi kunda dzyukular soni 100 mingdan oshiq. Kichik dzyukular 5-6 o'quvchidan iborat bo'lib, o'qituvchining uyida shug'ullanadi. Katta dzyukular 5 minggacha o'quvchilarni yig'adi. O'qish bu maktablarda soat 16:50dan 20:50gacha davom etadi, darslar dushanbadan jumagacha bo'ladi, haftalik nazoratni odatda yakshanba ertalabgacha belgilashadi.

Yuqori (o'rtta) maktab majburiy emasligiga qaramay, unda 94% o'quvchilar tahsil oladilar. Yuqori o'rtta maktab soni 55%ni tashkil etadi, shunga qaramay davlat va xususiy katta maktablar pullik. Yuqori o'rtta maktabning 1-yil uchun dasturi hammaga bir xil, lekin keyingi 2 yil ichida oliy ta'lim olish maqsadiga ko'ra kursni tanlash nazarda tutilmoqda. Yuqori maktab dasturlari o'rtta maktab va boshlang'ich maktab dasturlariga ko'ra xilma-xil, lekin o'quvchilarga bilimning u yoki bu sohasiga ixtisoslanishi bo'yicha imkoniyatlar yaratiladi. Yuqori maktablarda o'qish pulli, lekin davlat muassasalarida arzonroq. Pulli, xususiy o'rtta va boshlang'ich maktablar ham bor. Barcha pulli ta'lim muassasalarida stipendiyalar konkursi g'olibi bo'lsa, tekin o'qish mumkin yoki chegirmalar olish mumkin.

O'rtta maktabdan yuqori maktabga o'tish imtihonlar natijalariga bog'liq holda amalga oshiriladi. O'rtta maktabda o'zlashtirish ko'rsatkichiga ko'ra o'quvchi kirish imkoniyati bor bo'lgan katta maktab ro'yxatini oladi. Odatdagi davlat maktablaridan tashqari pulli xususiy maktab- akademiya (gakuenlar) bor. Shuningdek, umumdavlat maktabi maqomidagi —milliy maktablar mavjud. Bu akademiya kirish uchun yuqori konkurs asosida alohida imtihonlar topshiriladi. Bir tarafdin akademiya yaxshi ta'lim dasturlari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi oliy maktab yoki universitetga kirish uchun imkoniyat beradi.

Yaponiya hukumati Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini o'qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, davlat maktabi o'qituvchisi bo'lish uchun yapon fuqarosi o'qituvchi diplomini olishi kerak va o'qituvchilikka tayinlash imtihonidan o'tishi shart. Yaponiyada yuqori o'rtta maktablarning kunduzgi (o'qish -3yil), kechki va sirtqi (o'qish 4 yil) turlari bor. Kechki va sirtqi maktabni bitirganlik haqidagi guvohnomasi xuddi kunduzgi yuqori maktabnikiday bo'lsa ham, 95% o'quvchilar maktabning kunduzgi bo'limida tahsil olishadi. Yuqori maktablarga qabul qilish

kichik maktabni tugatganlik va kirish imtihonlari natijalari bo'yicha konkursdan o'tganligi haqidagi hujjat asosida amalga oshiriladi. Yuqori o'rta maktabda yapon tili, matematika, tabiiyot, jamiyatshunoslik va b. majburiy umumta'lim fanlariga qo'shimcha holda o'quvchilar tanlov bo'yicha fanlarni taklif qiladilar, bu ingliz tili, yoki boshqa chet tillar, shuningdek, texnik va maxsus fanlar bo'lishi mumkin. 12-sinfda o'quvchilar o'zi uchun ta'lim profillaridan birini tanlashi kerak. Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi ko'rsatmasiga ko'ra, yuqori o'rta maktabda bilimlarni baholashda OTM tizimidan foydalaniladi. Bu har bir o'quvchi 12 yillik o'rta ta'limni tugatganligi haqida guvohnoma olishi uchun 80 kredit (zachyot birligi)ni yig'ishi lozim deganidir. Masalan, yapon tili va zamonaviy yapon adabiyotini har bir kursini o'rganish natijalari bo'yicha 4ta kredit beriladi, yapon tili leksikologiyasi bo'yicha 2 kredit, klassik til bo'yicha 2 kredit. Yaponiyada kasb-hunar ta'limi. Yaponiyada yuqori o'rta maktabda o'qishni hohlamaganlar 5 yillik —texnik kollejlarda kasbiy texnika bilim yurtlariga kirishlari mumkin. Lekin bu o'qishlarga kirish shunchalik oddiy emas, eng yaxshilaridan juda katta konkurs asosida qabul qilinadi, chunki Yaponiyada yuqori malakali ishchilar juda ham zarur. Universitet o'miga 2 yillik kollejga kirish mumkin, unda maxsus ta'lim beriladi. Bu kollejlarda yapon qizlarining 90 foizi % o'qiydilar va ayollar kasbini egallaydilar: tibbiyot hamshirasi, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, yuqori malakali uy xonimlari, aktrisa.

Yaponiyada kuchli 20 talikka kirgan eng zo'r Osiyo universitetlari: Tokio universiteti, Osako universiteti, Kioto universiteti, Toxoku universiteti, Nagoya universiteti, Tokio texnologiya instituti, Kyusyu universiteti, Sukuba universitetlaridir. Universitet tanlashda birinchi mezon-uning nufuzligida. Bunday nufuzli OTM bitirgan yosh yigit-qizlar darhol ishga olinadi. Yaponiya universitetlarida o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi. Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga chuqurroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esatlabanang kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.

**Universitetda tashkil qilingan sinov birliklari tizimi.** Unda auditoriya va laboratoriyada kurs davomida har hafta ichida sarflanadigan soatlar sonidan kelib chiqib, o'qitilayotgan kursning hajmi belgilanadi. Bakalavr darajasini olish uchun 124 dan 150 gacha sinov birliklarini to'plash lozim. Magistrlik darajasi dasturi chuqur ilmiy va kasbiy ixtisoslashtirishni nazarda tutadi. 30 sinov birligidan iborat bo'lgan dastur bo'yicha 2 yillik ta'lim, bitiruv imtihonlari va

dissertatsiya himoyasidan keyin magistratura bitiruvchisiga magistr darajasi beriladi. 3 yillik doktorlik dasturlari 50 sinov birligi, bitiruv imtihonlari va individual tadqiqot asosida o'tkazilgan dissertatsiya himoyasidan iborat o'quv kursini o'z ichiga oladi. Talaba, magistr va doktorantlardan tashqari yapon oliy o'quv yurtlarida, erkin tinglovchilar, ko'chma talabalar, tadqiqotchi-talabalar va kollegial tadqiqotchilar bor. Erkin tinglovchilar asosiy kursga yoki magistraturaga bir yoki qator kurslarni o'rganish uchun qabul qilinadilar.

Yaponida hozirgi kunda 1200 dan ziyod universitet va kollejlar bo'lib, unda 3.22 mln. talaba tahsil oladi. Yaponiyada barcha milliy universitetlar 2004 yildan boshlab korporatsiya sifatida qayta tashkil qilindi. Milliy universitetlarning bunday birlashuvi ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning yanada jonlanishiga olib keldi. Shuningdek, har bir milliy universitet moliyaviy masalalarda ham mustaqil bo'ldi. 2004 yildan boshlab jamoat universitetlari mahalliy jamoat yuridik shaxslarga korporatsiyani o'z hohishiga ko'ra tashkil etish va boshqarish imkonini berdi. Milliy universitet korporatsiyalarini prezident boshqaruv tizimi boshqaradi, unda direktorlar kengashi mavjud bo'lib, boshqaruv va ta'lim uchun kengash organlari faoliyat yuritadi. Milliy universitet korporatsiyalari olti yillik davr mobaynida vaqtni hisobga olgan holda muvaqqat reja tuzishi kerak. Bunda Fransiya siyosatining Oliy ta'lim haqidagi siyosatida kuzatilganidek, oliy ta'lim haqidagi milliy siyosat va universitet mustaqilligi o'rtasida korporatsiya o'rnatish maqsad qilib olingan. Milliy universitet korporatsiyalarida shtat birligi masalalari prezident tomonidan hal etiladi. Lekin shunga qaramay, o'qituvchilar tarkibining bandligi bo'yicha har bir fakultet yoki yo'nalish o'zi qaror beradi, prezident uni ma'qullaydi. Yaponiya xususiy universitetlarida talabalarning 80 foizi % tahsil olishadi va davlatning gullab-yashnashga o'z hissasini qo'shishadi. Yaponiya ta'lim tizimidagi qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan xalqaro xorij universitetlariga talab kuchli. Shu bois Maorif, Sport, Fan va texnika vazirliklari universitetlarning ta'lim faoliyatini yaxshilash borasida quyidagi ishlarni amalga oshirdi:

**1. Sifat kafolati va akkreditatsiya tizimi orqali Oliy ta'lim sifatini oshirish;**

**2. Bakalavriat va magistratura sifatini yanada yaxshilash;**

**3. Xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish**

Yaponiya Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ma'lum muddat sifat kafolati va akkreditatsiya tizimi barlashtirildi. - Ingliz tili sinflari (guruhlarini) tashkil etish; YApon talabalari ingliz tilida kerakli bilimlarni olishi uchun, xorijlik talabalar YAponiyada tahsil

olishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida mashg'ulotlar ingliz tilida tashkil etildi, ingliz tilida kurslar ochildi. Yaponiyada ko'plab universitetlar allaqachon ingliz tilida dars o'tiladigan guruhlarini tashkil etgan.

Bolalar tarbiyasida onalarning roli va ma'suliyati kattadir. Ular o'zlarini farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari ushun oila sulolasi va davlat oldida mas'ul deb hisoblaydilar. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televidenie orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Maktabgasha tarbiya yoshdagi bolalar ushun ota-onalar oyiga o'rtasha 2-3 kitob sotib olishadi. Shu yoshdagi bolalar ushun oyiga 40 jarida nashr etiladi, ota-onalarning mutlaq ko'pchiligi bu jaridalarga obuna bo'lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o'qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko'nikmalarini egallashi zarur. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal yon tomonidan muxozofalangan qo'rilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritqish, soat, qalam, qog'oz, mikrokalkulyator va zaruriy ashyolar, shuningdek, kerak bo'lib qolgan taqdirda ota-onasini shaqiradigan signal tugmachalarigasha o'rnatilgan. Yaponiya talimi tizimidagi o'ziga xos xususiyatlar quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Bolani maktabga puxta tayyorlash;
2. Bolalar ta'lim tarbiyasiga ota-onalar mas'uliyatini kushaytirish;
3. O'quvchilarning nafosat va jismoniy tarbiyasiga katta e'tibor;
4. O'qituvshi kadrlarga yuksak talabchanlik;
5. Yosh iqtidorlar bilan alohida ishlash kabilar boshqalar ushuni ham namuna bo'lsa arzulik tomonlardir.

**Koreya davlati ta'lim tizimi va uning o'ziga xos tomonlari.** O'rta Osiyo davlatlari uzoq davrlar mobaynida Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston va Sharqdagi boshqa mamlakatlar hamda Rossiya davlati bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarda bo'lib keldilar. Ayniqsa, O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan hozirgi kundagi yaqin do'stona aloqalarining ildizlari ana o'sha uzoq tarixiy davrga borib taqaladi.

Ma'lumki, XVI asrdan boshlab Osiyo hududida ikkita xonlik – Buxoro amirligi va Xiva xonliklari, XVIII asr boshlaridan esa Qo'qon xonligi vujudga kelgan. Mazkur XVI-XIX asr birinchi yarmida ikkala xonlik va amirlik - Buxoro, Xiva va Qo'qon Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston va Rossiya bilan iqtisodiy savdo aloqalari masalalarida muhim o'rin tutgan. Ushbu darslikni yozishda mahalliy manbalardan va rus sayyohlari, diplomatlari va elchilarining bergan

ma'lumotlaridan, nashr qilingan rus va o'zbek tilidagi kitoblardan keng foydalanildi.

Janubiy Koreyada ta'lim haqidagi qonun 1948 yilda Qabul Qilingan. Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan: 6 yil — quyi maktab, 3 yil — o'rta, yana 3 yil — oliy maktab; so'ngra to'rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80% foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 % foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojini qondira olmayapti. Shuning uchun 1982 yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60% foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir. Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfdan 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars qiyinchiliklari ham ko'proq. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an'anaviy qadriyatlarini va orientirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida —eng samaralisildeb tan olingan. Ko'pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari —inson resursiga investitsiyani to'g'ri tikkanligidal deb ta'kidlashadi. Konfutsiy davridan saqlanib qolgan ziyoli odamga jamoat xizmati hozirgi kungacha bor. Janubiy Koreyada 1980 yillardan beri ilmiy kasblar eng nufuzli hisoblanadi. Janubiy Koreya ta'lim tizimi yana bitta butunjahon tamoyilini amalga oshiradi: bu ta'lim va fan integratsiyasidir. Dunyo amaliyotida o'quv muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o'z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Bunday birlashuv ilm va ta'lim integratsiyasining aniq asosi bo'lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-66 texnik va ta'lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi. Oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarining qo'shilishi bugungi kunda integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi. Ko'p rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Ya'ni, ta'lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy

mablag'larni olib keluvchi soha bo'lishi kerakligi isbotlandi. Ta'limning deyarli 1-bosqichidayoq davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash uchun o'qish zarur. Lekin shuni hisobga olish joizki, ta'limni tizimli modernizatsiya qilish jarayoni o'z-o'zidan eski tartib elementlarni engib o'tish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va tabiiy boshqaruvning boshqa metod va mexanizmlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Lekin bu shundoqligicha nusxa olish shaklida emas, balki yangiliklarni qabul qilish bilan birga ta'lim rivojlanish bosqichidagi eng yaxshi an'analar va qo'lga kiritilgan yutuqlarni saqlab qolishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim. Janubiy Koreyada bolalar bog'chasi umumta'lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda mashg'ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba'zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog'chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo'lishi mumkin. Boshlang'ich ta'lim. Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang'ich maktabga boradilar. O'qish muddati 6 yil, majburiy va bepul. Boshlang'ich maktabda quyidagi 9 ta fanlar o'qitiladi: 67 Koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyat haqidagi fanlar, chet tili, tasviriy san'at, musiqa. Odatda bu fanlar sinf rahbari tomonidan o'qitiladi, faqatgina ba'zi fanlar uchun maxsus o'qituvchilar tayinlanadi. Boshlang'ich ta'limdan o'rta ta'limga, undan yuqori ta'limga imtihonlar topshirish orqali emas, balki faqatgina yoshiga qarab o'tiladi. XX asrning 80 yillariga qadar ingliz tili o'rta maktablarda o'qitilgan, hozirda esa boshlang'ich maktabning 3-sinfidan o'qitilyapti. Koreys va ingliz tili grammatikasi juda juda katta farqli bo'lganligi uchun ingliz tilini o'rganish juda qiyin. Shu bois ota-onalar o'z farzandlarini xususiy o'quv muassasalariga qo'shimcha o'qishga jo'natadilar. Xususiy o'quv muassasalari, ya'ni —xagvonlar bolalarga til o'rganishda individual yondashadilar. SHu maqsadda ingliz tilida gaplashuvchi chet elliklarni boshlang'ich maktabga jalb qilish yo'lga qo'yilgan. Boshlang'ich maktab koreyschasiga —chxodɔm xakkyol deb nomlanar va boshlang'ich ta'lim ma'nosini anglatar edi. 1996 yil Janubiy Koreya xukumi bu nomni o'zgartirdi va —gukmin xakkyol deb nomladi. Bu atama —fuqarolik maktabi degan ma'noni anglatadi. Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, karn sonli o'quvchilarga ko'p

o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta'limning yuqori standartlarga egaligi va h.k. SHU bois ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o'qish narxining balandligi ota-onalarni o'ylantirib qo'yadi. Boshlang'ich maktabni bitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o'tadilar. Janubiy Koreyada sinflarni raqamlash odatdagiday pastdan yuqoriga emas, balki har bir ta'lim bosqichida 1 dan boshlanadi. Masalan, boshlang'ich maktab 1 dan 6 gacha, o'rta maktab (3 yil) 1 dan 3 gacha, sanaladi: boshlang'ich maktabning 1-sinfi (2,3,4,5,6-sinfi), o'rta maktabning 1-sinfi (ya'ni, o'zbek maktablaridagi 7-sinf), 68 oliy maktabning 2-sinfi (ya'ni o'zbek akademik litsey va kasb-hunar kollejining 2-kurs talabasi) kabi. Janubiy Koreyada maktab tizimi: o'rta va yuqori maktablar. Koreys tilida o'rta maktab chunxakyo deb nomlanadi va o'rta maktab ma'nosini beradi. O'rta maktabda ta'lim majburiy, bepul va 3 yil o'qitiladi. O'rta maktabga 11 yoshdan oshgan, 12 yoshdagilar qabul qilinadi. Boshlang'ich maktabga nisbatan o'rta maktabda o'quvchilarga ancha yuqori talablar qo'yiladi. Sinf rahbarlari-xangyillar o'quvchilar hayotida muhim o'ringa ega, o'quvchilar ulami qattiq xurmat qilishadi. O'rta maktabda bir kunda 6 ta fan o'qitiladi, shuningdek, alohida maxsus 7-dars ham bor. O'quv dasturining negizini quyidagi fanlar tashkil etadi: matematika, koreys va ingliz tili, qator aniq fanlar, "qo'shimcha" fanlar: san'at sohalari bo'yicha, jismoniy tarbiya, tarix, xancha (xitoy peroglifi), etika, uy iqtisodini yuritish, kompyuter savodxonligi. Mashg'ulotlar 45 daqiqa davom etadi. Boshlang'ich sinfdagi 9 ta fanga, o'rta maktabda yana 4 ta fan qo'shilib, jami 13 ta fan o'qitiladi. Maktabda chet tillariga e'tibor kuchli. Ko'pchilik ingliz tilida bemalol gaplasha oladi. Koreyalik o'quvchilar ingliz tilidan tashqari klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 5-sinfdan boshlab, Xitoy tarixi o'rgatiladi. Boshlang'ich maktabdagi kabi o'rta maktabda ham o'quvchi sinfdan-sinfga imtihonsiz o'tadi. Ma'lum fanlar uchun imtihonlarning standart shakllari mavjud, fan o'qituvchilar tavsiya qilingan o'quv qo'llanma va darsliklardan foydalanadilar. O'rta maktabning ko'plab o'quvchilari darsdan keyin qo'shimcha kurslar —xagvonlarga boradilar, yoki xususiy repetitorlarga qatnaydilar. Alohida e'tibor ingliz tili va matematikaga qaratilgan. Ba'zi xavgonlar bitta fanga asoslanadi, ba'zilari barcha asosiy fanlarni qamrab oladi. Bu o'z navbatida maktab mashg'ulotlarining yanada qiyin bo'lgan ikkinchi qismiga aylanadi. Undan tashqari juda irodali o'quvchilar kurash turlari va musiqa maktablariga qatnashadilar. O'quvchilar shu tariqa darsdan keyin uylariga juda kech qaytadilar

Boshlang'ich maktabda dars 40 minut davom etadi. O'rta maktabda esa darslar 45 minut.

Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to'xtalib o'tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi, o'qishlar pullik.

Boshlang'ich maktabda to'qqizta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi.

O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfдан boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. Chet tillarni o'qitishga haftasiga 4—5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni — klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfдан boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi.

Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45% foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 % foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliqqa oladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir.

Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

Koreyada nogironlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni har qadamda kuzatish mumkin. Aytaylik, bu yerda aravachalar yordamida harakatlanuvchilar uchun yer osti liftlari mavjud, maxsus jihozlangan past qilib qurilgan telefon-avtomatlardan nogironlar bemalol foydalanadilar, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfдан boshlab "Odobnoma" kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfгacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan.

Bu fan o'z ichiga dinni ham qabul qiladi. U qotib qolgan bir narsa sifatida emas, qadriyat sifatida o'qitiladi. Bu butun tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5% foizi bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o'z kollejiga ega. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi.

Koreyada o'qituvchining ish haqqi 2-3 ming AQSh dollariga teng. Agar bunga pedagogika oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishdagi yuqori tanlovni ham

qo'shadigan bo'lsak, bu mamlakatda o'qituvchi kasbining e'zozlanishi sabablari ayondir.

Janubiy Koreyada ta'limning obro'si naqadar kattalagini quyidagi misoldan ham ko'rsak bo'ladi:

Soliqlar tizimida ta'limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma'lum foizini maorifga yuboradilar. Davlat byudjetining 24% foizi ta'limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provinsiyalar ta'lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda ta'limga qanchalar zo'r ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi.

Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo-Tinch okeani regionining no'eb davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siësiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siësiy identivlik, SHarqning an'anaviy qadriyatlari va orientirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida —eng samaralisildeb tan olingan. Ko'pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari —inson resursiga investitsiyani to'g'ri tikkanligidal deb ta'kidlashadi. Konfutsiy davridan saqlanib qolgan ziyoli odamga jamoat xizmati xozirgi kungacha bor. Janubiy Koreyada 1980 yillardan beri ilmiy kasblar eng nufuzli hisoblanadi. Janubiy Koreya ta'lim tizimi yana bitta butunjahon tamoyilini amalga oshiradi: bu ta'lim va fan integratsiyasidir. Dunyo amaliëtida o'quv muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o'z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Bunday birlashuv ilm va ta'lim integratsiyasining aniq asosi bo'lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy- 66 texnik va ta'lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi. Oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarining qo'shilishi bugungi kunda integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi. Ko'p rivojlanaëtgan davlatlarda ta'lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Ya'ni, ta'lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag'larni olib keluvchi soha bo'lishi kerakligi isbotlandi. Ta'limning deyarli 1-bosqichidayoq davlat va iqtisodietning rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliëtda samarali qo'llash uchun o'qish zarur. Lekin shuni hisobga olish joizki, ta'limni tizimli modernizatsiya qilish jaraëni o'z-o'zidan eski tartib elementlarni engib o'tish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va tabiiy boshqaruvning boshqa metod va mexanizmlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Lekin bu shundoqligicha nusxa olish shaklida emas, balki yangiliklarni qabul

qilish bilan birga ta'lim rivojlanish bosqichidagi eng yaxshi an'analar va qo'lga kiritilgan yutuqlarni saqlab qolishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim. Janubiy Koreyada bolalar bog'chasi umumta'lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda mashg'ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba'zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog'chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo'lishi mumkin. Boshlang'ich ta'lim. Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang'ich maktabga boradilar. O'qish muddati 6 yil, majburiy va bepul. Boshlang'ich maktabda quyidagi 9 ta fanlar o'qitiladi: Koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyat haqidagi fanlar, chet tili, tasviriy san'at, musiqa. Odatda bu fanlar sinf rahbari tomonidan o'qitiladi, faqatgina ba'zi fanlar uchun maxsus o'qituvchilar tayinlanadi. Boshlang'ich ta'limdan o'rta ta'limga, undan yuqori ta'limga imtihonlar topshirish orqali emas, balki faqatgina e'shiga qarab o'tiladi. XX asrning 80 yillariga qadar ingliz tili o'rta maktablarda o'qitilgan, hozirda esa boshlang'ich maktabning 3-sinfidan o'qitilyapti. Koreys va ingliz tili grammatikasi juda juda katta farqli bo'lganligi uchun ingliz tilini o'rganish juda qiyin. SHu bois ota-onalar o'z farzandlarini xususiy o'quv muassasalariga qo'shimcha o'qishga jo'natadilar. Xususiy o'quv muassasalari, ya'ni xagvonlar bolalarga til o'rganishda individual endashadilar. Shu maqsadda ingliz tilida gaplashuvchi chet elliklarni boshlang'ich maktabga jalb qilish yo'lga qo'yilgan. Boshlang'ich maktab koreyschasiga *chходын xakkël* deb nomlanar va boshlang'ich ta'lim ma'nosini anglatar edi. 1996 yil Janubiy Koreya xukumati bu nomni o'zgartirdi va *gukmin xakkël* deb nomladi. Bu atama fuqarolik maktabil degan ma'noni anglatadi. Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o'quvchilarga ko'p o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta'limning yuqori standartlarga egaligi va h.k. SHu bois ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o'qish narxining balandligi ota-onalarni o'ylantirib qo'yadi. Boshlang'ich maktabni bitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o'tadilar. Janubiy Koreyada sinflarni raqamlash odatdagiday pastdan yuqoriga emas, balki har bir ta'lim bosqichida 1 dan boshlanadi. Masalan, boshlang'ich maktab 1 dan 6 gacha, o'rta maktab (3 yil) 1 dan 3 gacha, sanaladi: boshlang'ich maktabning 1-sinfi (2,3,4,5,6-sinfi), o'rta

maktabning 1-sinfi (ya'ni, o'zbek maktablaridagi 7-sinf), 68 oliy maktabning 2-sinfi (ya'ni o'zbek akademik litsey va kasb-hunar kollejining 2-kurs talabasi) kabi. Janubiy Koreyada maktab tizimi: o'rta va yuqori maktablar. Koreys tilida o'rta maktab chunxakel deb nomlanadi va o'rta maktab ma'nosini beradi. O'rta maktabda ta'lim majburiy, bepul va 3 yil o'qitiladi. O'rta maktabga 11 eshdan oshgan, 12 eshdagilar qabul qilinadi. Boshlang'ich maktabga nisbatan o'rta maktabda o'quvchilarga ancha yuqori talablar qo'yiladi. Sinf rahbarlari-xangyillar o'quvchilar haetida muhim o'ringa ega, o'quvchilar ularni qattiq xurmat qilishadi. O'rta maktabda bir kunda 6 ta fan o'qitiladi, shuningdek, alohida maxsus 7-dars ham bor. O'quv dasturining negizini quyidagi fanlar tashkil etadi: matematika, koreys va ingliz tili, qator aniq fanlar, "qo'shimcha" fanlar: san'at sohalari bo'yicha, jismoniy tarbiya, tarix, xancha (xitoy peroglifi), etika, uy iqtisodini yuritish, kompyuter savodxonligi. Mashg'ulotlar 45 daqiqa davom etadi. Boshlang'ich sinfdagi 9 ta fanga, o'rta maktabda yana 4 ta fan qo'shib, jami 13 ta fan o'qitiladi. Maktabda chet tillariga e'tibor kuchli. Ko'pchilik ingliz tilida bermalol gaplasha oladi. Koreyalik o'quvchilar ingliz tilidan tashqari klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 5-sinfdan boshlab, Xitoy tarixi o'rgatiladi. Boshlang'ich maktabdagi kabi o'rta maktabda ham o'quvchi sinfdan-sinfga imtihonsiz o'tadi. Ma'lum fanlar uchun imtihonlarning standart shakllari mavjud, fan o'qituvchilar tavsiya qilingan o'quv qo'llanma va darsliklardan foydalanadilar. O'rta maktabning ko'plab o'quvchilari darsdan keyin qo'shimcha kurslar —xavgonlarga boradilar, e'ki xususiy repetitorlarga qatnaydilar. Alohida e'tibor ingliz tili va matematikaga qaratilgan. Ba'zi xavgonlar bitta fanga asoslanadi, ba'zilari barcha asosiy fanlarni qamrab oladi. Bu o'z navbatida maktab mashg'ulotlarining yanada qiyin bo'lgan ikkinchi qismiga aylanadi. Undan tashqari juda irodali o'quvchilar kurash turlari va musiqa maktablariga qatnashadilar. O'quvchilar shu tariqa darsdan keyin uylariga juda kech qaytadilar. Yuqori maktab koreyschasiga kodinxakyo deb nomlanadi. Koreyalik bolalar yuqori maktabga o'rta maktabdan keyin 17 eshdan 1-kursga qabul qilinadi va 19 eshgacha tahsil oladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga ajratiladi: - Davlat yuqori maktablari: Koreya Ta'lim va texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayehlik vazirligi boshqaradi; - Umumiy yuqori maktablar: har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi; - Xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: - Ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot); - Umumiy maktablar; - Maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab); - Texnika maktablari; - Chet tili maktablari; - Jismoniy tarbiya maktablari; - San'at maktablari va h. Janubiy Koreya Respublikasida ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq

xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi. Yuqori maktab o'rta maktab kabi majburiy emas. Biroq keyingi yillarning barchasida statistik ma'lumotlarga qaraganda 97-98 % koreys eshlari yuqori maktabni tamomlaganlar. Ilmiy yuqori maktablar, chet tillar va san'atshunoslik maktablariga kirish ancha murakkab imtihonlarni topshirishni talab etadi. Yuqori maktablar xususiy va davlat tasarrufida bo'lishi mumkin, bu maktablarda mutaxassislik berilmaydi, balki ularni keyingi ta'lim bosqichiga tayyorlaydi. Kollejda tahsil olishni istamagan o'quvchilar kasbiy bilim yurtlariga kirib o'qishlari mumkin. Bu bilim yurtlari texnologiya, agrokultura eki moliya yo'nalishlariga ixtisoslashgan. Yuqori maktablarning jadvali haqida gapiriladigan bo'lsa, har bir o'quvchi uchun kun yarmida qaytib kelish odatdagi holatga aylangan. Janubiy Koreyada hunar maktablari 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45% bo'lajak mulkdorlarni tayarlaydi, 23% da texnik kasb egalari etishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisosliklari o'zlashtiriladi. SHunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Janubiy Koreya ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri ham shudir. Bizning Respublikamizdagi kabi Janubiy Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor juda kuchli. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan. Rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy eki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din fan sifatida o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab odobnoma kabi kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat ajratilgan. Bu fan o'z ichiga dinni ham qamrab oladi. Din qotib qolgan bir aqida sifatida emas, qadriyat sifatida o'qitiladi. Bu butun bir tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy e'dgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanlarining majburiy davoni hisoblanadi. Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayirlash masalasiga harn katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6.5% bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar tayarlaydigan kollejlarni mavjud har bir provinsiya (viloyat) o'z kollejiga ega. Yuqori maktab bitiruvchilari susen deb nomlanuvchi standart test topshiradilar. Maktab o'quv dasturlari kirish testlari-imtihonlari mazmunini qamrab olgan. Susen 3 ta asosiy seksiya fanlardan iborat: koreys tili, matematika va ingliz tili. Undan tashqari tabiiy va ijtimoiy fanlardan tanlov asosida qator fanlar kiritiladi. Bunday test 1 yilda 1 71 marta topshiriladi, u intensiv tayergarlikni talab etadi. Bu testga bo'lajak OO'YU talabalari bog'cha yoshidan tayyorlanishni boshlashadi. Testni topshirolmagan va kollejga kirish 1 yilga surilgan o'quvchilarni chesusenlari deb atashadi. Janubiy Koreyada kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimi. Janubiy Koreyada oliy ma'lumotga ega bo'lish har bir koreys fuqarosining keyingi mavqei muvaffaqiyati uchun juda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham bu martabali ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga bo'lgan ehti'j ham katta. Janubiy Koreyada e'tibor ko'proq matematika, koreys tili va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat bilan bog'liq fanlarga qaratiladi. Janubiy Koreyada quyidagi ta'lim muassasalari turlari mavjud:

- kollej va universitetlar (xususiy va milliy, davlat tasarrufida);
- industrial universitetlar;
- pedagogika institutlari;
- sirtqi universitetlar;
- ochiq universitetlar.

Janubiy Koreya ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida bo'lganidek, oliy ta'lim sohasida ham chuqur islohotlar olib borilgan. Mamlakatda ta'limni isloh qilish va rivojlantirishga oid qabul qilingan qonunlar va me'oriy hujjatlarni oliy ta'limni raqobatga tay'rlash, universitet ta'limini rivojlantirishda tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, bitiruv maktab ta'limi va amaliy mutaxassisliklarni kuchaytirish, universitetlarning mahalliy sanoat bilan aloqadorligini yaxshilash, sanoat talablariga javob beradigan kasbiy ta'limni rivojlantirish, maktab bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy kam ta'minlangan oilalar va ishchilar uchun kasbiy ta'limni kuchaytirish, oliy ta'lim uchun o'smirlar imkoniyatlarini yaxshilash, axborot asrida ta'lim boshqaruvi va uni moliyalashtirish xalqaro ta'lim almashinuvini mustahkamlash kabi dolzarb masalalarga katta e'tibor qaratildi. Koreyada oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish qattiq nazorat ostida bo'lib, har bir da'vogarning ma'lum bir kollej yoki universitetga muvofiqligi talabning ta'limni o'zlashtirish qaydlari va standartlashtirilgan milliy test natijalari orqali belgilanadi. Mamlakatda yagona sirtqi oliy o'quv yurti - Seuldagi sirtqi universitet o'ziga hos ahamiyatga ega. Ochiq universitetlarning vazifasi ham shunga o'xshash bo'lib, ularga ishlab chiqarishda ishla'etganlarga kirishi mumkin, ularda kirish imtihonlari yo'q. Janubiy Koreyada kollejlarning asosiy vazifasi malakali ishchilar yoki bo'g'in idora xizmatchilarini tay'rlashdir. Talaba kollejni tugatgach, nazariy jihatdan birdaniga universitetning ikkinchi e'ki uchinchi kursiga kirish uchun xarakat qilishi mumkin. SHu bilan birga maxsus o'tish imtihonini topshirib, boshqa mutaxassislik bo'yicha ham kirishi mumkin. Bakalavriat. O'qish muddati 4 yil. Talabalar 140-150 kredit soat atrofida tahsil oladilar. Tibbiyot sohasida o'qish 6 yil davom etadi va 180 kredit soat o'qishadi. O'qish tugagach, bakalavr darajasini olganligi haqidagi diplom beriladi. Tipik yirik koreys universitetlari tarkibida 10 tadan 20 tagacha fakultetlar bor. Fakultetlar amerikacha termin bilan kollixlar, ya'ni koreyscha texak deb ataladi. Koreyada o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilishga alohida e'tibor beriladi. Natijada Janubiy Koreya dunyoda o'z maktab va ta'lim muassasalarini kompyuter va internet bilan to'liq ta'minlagan

ikkinchi davlatga aylandi. Magistratura. O'qish muddati 2-3 yil. O'qish yakunida talabalar dissertatsiya yoqlaydilar. Tibbiyot sohasidagi talabalar Tibbiyot maktabining barcha talablarini bajarib, milliy imtihon topshiradilar. O'qish yakunida magistrlik darajasi beriladi. Doktorantura. O'qish muddati 3-4 yil. O'qish yakunida doktorlik dissertatsiyasi himoya qilinadi, og'zaki yoki sohaga mos imtihon topshiriladi.

### **Nazorat savollari**

- 1.Yapon ta'lim tizimining mumtoz shakllanishi tarixini izohlab bering.
2. Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarni batafsil tushuntirib bering.
- 3.“Fukkoki kioxsi” –terminini izohlang.
- 4.“Siokusan kogio” Meydzyning bu maqsadni izohlab bering.
- 5.Ta'limning bu bosqichiga 3 — 5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda ta'lim kurslariga jalb qilinadilar. Izohlab bering
6. Koreya davlati ta'lim tizimi va uning maktabgacha ta'lim tizimida o'ziga xos tomonlari nimada?
- 7.Korea davlati ta'lim tizini va uning o'ziga xos tomonlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Koreya va ta'lim tizimining qiyosiy tahlil qiling.
9. Mamlakatda ingliz tiliga e'tiborni izohlang.
- 10.Koreyslar yana bir tilni majburiy ravishda o'rganadilar. Bu qaysi til tarixi izohlab bering.
- 11.Hunar maktablari Koreyada qanchani tashkil etadi. Bu maktablarning necha foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi. Izohlang.
- 12.Koreyadagi barcha talabalarning necha foizi bo'lajak pedagoglardir. To'liq izohlab bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Buyuklarning mezonlari. AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .
3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.
- 4.Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil
5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.
6. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti.2011 yil.

### **5-mavzu: Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi.**

**Tayanch so'zlar:** Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimi, uning tuzilishi, ta'lim shakllari, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya, ta'limni takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini loyiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizimi.

**Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi.** Ta'lim tizimining zamonaviy tendensiyalari. Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha: - bolalar uch yoshdan besh yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari; birinchi sinfdan sakkizinghi sinfgacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar); - 9-12 - sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat. Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitaladigan kollejlarda hamda dorilfununlardir. AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiyy va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tizimi yuzasidan katta ishlar amalga oshirilgan. Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, 5 yoshdan esa "Kinder garde" deb ataluvchi tayorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. XXI asr arafasida AQSh yangi qabul qilingan "2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi" dasturi e'lon qilingan edi. Turli yo'nalishdagi asosiy maqsadlar belgilangan mazkur dasturda 2000-yildan to hozirgi kungacha barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayor holda kelishlari majburiy ta'minlangan. Har bir voyaga etmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari, maktablarda zo'ravonlikka barham berish, o'qish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish ko'zda tutilgandi. AQSh ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi mazkur dastur asosida o'tgan yillar davomida juda ko'p ishlar amalga oshirildi.

AQSh o'rta maktablarida o'z o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasb-hunar, umumiy yo'nalishlarda bilim beradi. Ayni paytda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda: qishloq xo'jaligi, biznes ta'limi, savdo va sanoat qurilishi bo'yicha hunar, kasb-kor asoslari o'rgatiladi. AQSHda har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'qituvchilar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari

hajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladi. O'g'il- qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi. Maktablarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv apparatlari (kalligrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslamalar) ta'lim televideniyesi, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoapparaturalar, kompyuter va hokazolardan iborat. Har bir davlat tarqiyot yo'lida eng muhim ro'lni albatta xalq maorifi muhim ro'l o'ynaydi. Amerika Qo'shma Shtatlarida dastlab maorif yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lib, 1878-yilgi konstitutsiyasida ta'lim tizimi haqida birorta modda kiritilmagan. Dastlab o'quvchilar faqat qishda tahsil olishgan. Yilning boshqa fasllarida uy ishlariga ko'mak berishgan yoki birorta fabrikada mehnat qilishgan. XX asr boshlaridan ta'lim butkul yangi shaklga kirgan va hozir Qo'shma Shtatlar bo'ylab 93 mingdan ziyot maktab mavjud. Bugungi kunda AQSH Davlat Departamenti yiliga 1 trillion dollar mablag'ni maorif tizimi uchun sarflaydi.

AQSHda maktabgacha ta'lim ikki qismga bo'linadi: bog'chagacha ta'lim (pre-kindergarten), maktabgacha ta'lim (preschool). Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni asosan ma'naviy tarbiyalash bilan shug'ullanishadi va bu bosqich bola 5 yoshga to'lgunga qadar davom etadi. Bunday o'quv dargohlarida bolalarga jamoat odob axloq qoidalari va atrofimizdagi olam haqida umumiy tushunchalar beriladi. Bolalar 5 yoshidan boshlab haqiqiy bog'chalarga ko'chib o'tishadi. Bu yerda bog'chalarning o'z o'qitish tizimidan kelib chiqib bolalar sportga, diniy ta'limga, xorijiy tillarga va aniq fanlarga yo'naltiriladi. Lekin barcha bog'chalarning asosiy maqsadi bolalarni boshlang'ich arifmetika, san'at, o'qish-yozish, musiqa va boshqa qobiliyatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.

Bog'cha va maktablarga avtobusida uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Bunday avtobuslar yo'l-tamtransport hodisalardan to'la muhofaza etilgan; sariq ranga bo'yalgan uning signallariga barsha transport vositalari itoat etishga majburdirlar. Maktab va bog'cha avtobuslarini boshqa transport vositalari quvib o'tishi mumkin emas, tartibni buzganlar qattiq jazolanadilar. AQSH televideniya sinining alohida kanalida "Sezam ko'shasi" deb nomlanuvshi ko'rsatuvlar dasturi mavjud, u o'quvshilarga ingliz tili, alifbo, arifmetik amallarini, bajarish sanash, koinot, tabiat, jugrofiya, tarix, bo'yisha bilimlarni o'ta qiziqarli tarzda singdirishga harakat qiladi.

Amerika ko'pmillatli mamlakat. Lekin har bir millat o'z farzandiga milliy urf-odatlarini tilini o'rgatishga jidiy ahamiyat beradi. Ko'pinsha bu vazifalarni katta avlod amalga oshiradi. Besh yoshli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning asosini ularni maktabga tayyorlash tashkil etadi. Olti yoshli bog'sha guruhlarida bo'lsalarda, lekin bu guruhlardagi ta'lim boshlang'ish sinfdagi ta'limga yaqin turib, amalda uning dastlabki bosqishi hisoblanadi.

Maktabgasha tarbiya muassasalarning ta'lim dasturi ko'p jihatdan ota onlar bilan hamkorlikda ish olib borishga mo'ljalgan, u pirovard natijada bolalarni boshlang'ish maktablarga puxta tayyorlab berishga xizmat qilishi kerak. Boshlang'ish maktab boshlang'ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga to'laqonli bilim, ta'lim berish ularning umuminsoniy, axloqiy xislatlariga ega bo'lib shaklanishi ta'minlashdan iboratdir. Boshlang'ish sinflarda o'qitiladigan o'quv predmetlari va dasturlari bolalarning yoshi, muhitiga moslashgan bo'lib, ular o'quvshilarning umumiy savodxonligini ta'minlab berishdan tashqari ma'lum darajada kasb yo'nalishiga ham ega qiladi. Sinfdan-sinfga ko'shirish o'quvchining o'qish tezligi, yozuvi, xusnixati, arifmetika, tarix, geografiya, musiqa va san'at kabi predmetlarni boshlang'ish sinf dasturi hamda darsliklari doirasida qanday o'zlashtirib olganligiga qarab belgilanadi. Amerika maktablarida o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'liq masalalarni to'laqonli har bir shtat o'ziga mustaqil belgilab olish huquqiga ega. Shu boisdan boshlang'ish maktablarda o'quv davomiyligi turli shtatlarda turlicha belgilangan. Ya'ni boshlang'ish ta'lim 4,5,6,8 yillik bo'lishi mumkin. O'quvchilar shu davr ishida ingliz tili, ijtimoiy fan, tabiat va gigiena, matematika, xunarmandshilik va san'at, badantarbiya va sport predmetlaridan saboq oladilar. AQSh maktablarida o'qish har bir o'quvchi ushun faxr-iftixor bo'lishiga o'quvchi bilimi imkoniyati, nuqtai nazariga ishonsh hissini tarbiyalashga katta e'tibor beriladi. O'quvchilarni maktabdan bezdirish, ularni darslarga ishtiyoqsiz va loqayd bo'lib qolishlari favqulodda salbiy holat hisoblanadi. Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi.

Amerikalik maktab yoshiga yetgan har bir bola maktabda tahsil olishi shart hisoblanadi. Maktabda tahsil ikki qismdan iborat: boshlang'ich maktab va yuqori maktab. Bu jarayonlar 12 yil davom etib "K-12" deb ataladi. Boshlang'ich maktabda bolalar 6 yil tahsil olishadi. Yuqori maktab ham o'z navbatida ikki qismdan tashkil topgan bo'lib 6 yil davom etadi. Yuqori maktabning birinchi bosqichini "junior high school", ikkinchi bosqichi "high school" deb nomalanadi. 12 yillik ta'limni tamomlagach o'quvchilar kollej yoki universitetda o'qishini davom ettirishi mumkin.

Amerikada har bir o'quvchi "GPA" deb nomalanuvchi baholash tizimi tomonidan imtihon qilinadi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi foizlarda hisoblanadi. Eng yuqori ko'rsatgich **A(5)** daraja bo'lsa, eng quyi o'zlashtirish **F(0)** bilan ifodalanadi. Baholash o'quvchilar o'zi tanlagan barcha fanlarining umumiy yig'indisidan kelib chiqib, o'rtacha balli orqali hisoblanadi. Masalan, 3 ta fandan 5 baho olinib, bitta fandan 4 olinsa, bunda o'quvchining bahosi GPA 4,75 hisoblanadi va o'quvchiga **B** daraja beriladi.

AQSHda maktablar mahalliy boshqaruv organlariga bo'ysunadi. Xalq ta'limi vazirligi esa faqatgina davlat ta'lim tizimini moliyalashtirish va Kongressda xalq ta'limiga oid qonunlarni himoya qilish bilan shug'ullanadi. Xalq ta'limi tizimi AQSH tomonidan markazlashtirilmagan. Kongress barcha uchun ta'limning umumiy qoidalarini ishlab chiqadi va ta'lim sifatini tekshirish bilan chegaralandi. Maktabda bolalarni o'qitish kabi asosiy ishlarni mahalliy boshqaruv organlari hal etadi.

AQSHda bolalarga tahsil beruvchi har qanday o'qituvchi yuqori tajribaga ega bo'lishi va eng kamida magistr darajasini egallagan bo'lishi kerak. AQSH har daqiqada ta'limga 1\$ sarflaydi va bu AQSHga 7,5\$ foyda keltiradi. AQSHda o'qituvchilarning o'rtacha maoshi yiliga 55,040 \$ hisoblanadi. Bundan tashqari o'qituvchilar ko'plab imtiyozlarga ega. Masalan, foizilari kam ipoteka kreditlari olishi mumkin.

Maktablarda har bir o'quv yili so'ngida davlat imtixonlari bo'ladi. Baholash tizimidan yetarlicha baho to'play olmagan o'quvchilar sinfdan sinfga qoldiriladi va o'zlashtira olmagan fanlarini qayta o'qiydi. Shunday bo'lishiga qaramay buyuk davlat bolalarining aksariyat qismi imtixonlardan yiqilishadi. Chunki "High school" o'qishda mustaqil izlanishlarga ko'proq urg'u beradi va imtixonlar muhim ahamiyatga ega. Maktabni bitirgach o'quvchilarning sayohat qilishi, ishlashi, mustaqil o'rganishi uchun bir yil vaqt beriladi.

Maktablar xavfsizligini mahalliy politsiya idoralari qo'riqlaydi. Maktabdan bolalarni olib ketishning ikkita usuli bor. Birinchisi, ota-ona, vasiy yoki ishonchli shaxs tomonidan, ikkinchisi, maxsus maktab avtobuslari orqali o'quvchilarni maktabdan olish mumkin. Sariq rangli maktab avtobusi ko'chada to'xtab bolani mindirayotganda, yo'lning har ikki tomonida ham harakat to'xtaydi. Amerikaliklar uchun bolalar salomatligi va xavfsizligini taminlash majburiyat darajasiga chiqqan. Mamlakat bo'ylab 440 ming maktab avtobuslari mavjud va bu avtobuslar orqali yiliga 24 million o'quvchi manzilga yetkaziladi.

Amerika maktablarida yuqori sinf o'quvchilari 8:30 dan to 15:30 ga qadar tahsil olishadi. Maktabdan bo'sh vaqtda esa sport, musiqa, ijtimoiy klublar va osonalar qo'mitasi tomonidan tashkillashtirilgan turli tadbirlarga jalb etiladilar. Darsdan bo'sh vaqtlarida tashkil etiladigan tadbirlar o'quvchilarning kelajakdagi kasbi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabdan tashqari tadbirlarda o'quvchilar ko'ngilli guruhlariga bo'linib hukumat va politsiya ishlariga ko'maklashadilar. Notiqlik, teatr, sport, musiqa, media, robotexnika, dasturlash, boshqaruv qobiliyati va turli xorijiy tillarni o'rganish o'quvchilar uchun juda qiziqarli mashg'ulotlar sirasiga kiradi.

Amerikaliklar uchun bilim olishning birdan bir manbasi kutubxonalar hisoblanadi. Kutubxonalarning axborot manbasi har yili yangilab boriladi. Har bir

maktab alohida kutubxona mavjud. Bundan tashqari hudud markazlarida katta kutubxonalarni bor. Statistik ma'lumotlarga qaraganda amerikaliklar G'arbiy Yevropa mamlakatlarini umumiy qo'shib hisoblagandan ko'ra ko'proq kitob sotib olar ekanlar.

**Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar.** Amalga oshiriladigan ta'lim ishini tabaqalashtirishning bir qancha muammolarini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi.

Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda.

To'ldiruvchi maktablar paydo bo'lishining sababi, AQSh va G'arbiy Yevropada o'zlashtirmovchi hamda ulgurmovchi o'quvchilarning ko'payib borayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligidir.

80 - yillarda AQSh o'quvchilarining 50 - yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 97,3 % dan 89,3 % ga tushdi.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQSh da bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan, Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etildi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet mamlakatlarining ko'pchilida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda.

70 - yillarda AQSh da kelajak maktabi umummilliy loyihagini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o'qituvchi buyrug'i bilan ish tutish, ko'proq o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ta'lim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'z ichiga oladi.

AQShda ta'lim tizimini tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilish quyidagicha:

1. Bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;
2. 1 - 8 sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);
3. 9 - 12 sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

XXI asr arafasida AQSh yangi qabul qilingan "2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi" dasturi e'lon qilindi.

Turli yoʻnalishdagi asosiy maqsadlar belgilangan mazkur dasgurda 2000 yilda barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda kelishlari; aholining 90 % foizi oliy maʼlumotli boʻlishi, oʻquvchilarning ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya fanlari boʻyicha jaxonga oʻz shktidorlarini namoyish eta olishlari; talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini oʻzlashtirishda jahonda eng oldingi oʻrinlariga chiqishlari; xar bir voyaga yetmagan amerikalikning idtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan boʻlishlari; maktablarda giyohvandlik va zoʻravonlikka barham berish, oʻqish uchun barcha shart - sharoitlar yaratish koʻzda tutilgan.

Bu AQSh taʼlim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.

**Oliy oʻquv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish ilmiy izlanishlar boʻyicha AQSh jahon mamlakatlari orasida yetakchi oʻrinlardan birini egallaydi.** Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablagʻning 48 foizini davlat tomonidan, 50 foizini firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, kolganlarini oliy oʻquv yurtlarining manbalarlari tashkil qilindi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar va mustaqil Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimidagi oʻzaro uygʻunlik.

Rivojlangan xorijiy davlatlardagi taʼlim – tarbiya va maktab haqida yuqorida bayon qilingan eng yaxshi tajribalarni oʻz taʼlim tizimimizda joriy qilish Respublikamiz oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritgandan keyin boshlandi.

Bu sohda bizga YUNISEF, YUNESKO kabi Xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning Oʻzbekisgondagi elchixonalari amaliy yordam bermoqdalar. Respublikamizdagi taʼlim muassasalari taʼlimni takomillashtirish boʻyicha xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning barcha shakllaridan foydalanmoqdarlar.

AQSh pedagogikasidagi: Bolani oʻz kuchi imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash; oʻquvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish uchun kurash; belani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlam va gʻururini yerga urmaslik; oʻquvchining ilk davridanoq kasb-korga yoʻnaltirish; Ona-Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash kabilar.

Respublikamizdagi taʼlim muassasalari taʼlimni takomillashtirish boʻyicha xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning barcha shakllaridan foydalanib kelmoʻyda. Respublikamiz Oliy majlisining 1 - chaqiriq IX-sesiyasida - taʼlimga oid ikki muhim xujjat — «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»nyang qabul qilinishi mmamlakat taʼlimini jahon andozalariga, rivojlangan xorijiy davlatlardagi taʼlim-tarbiya va maktab saviyasiga olib chiqishda ulkan vokea boʻldi. Bizning maktabimiz jaxonda eng ilgor maktablar boʻlib qolishiga Respublika rahbariyati va hukumati tomonidan hamma shart sharoit yaratilmoqda. Bizning taʼlim tizimlarimiz ham jaxonda eʼtirof etilgan taʼlim tizimlaridan biridir.

SHu tufayli ham AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta'limining ustalari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar va mulokotlarda Respublikamiz ta'limi tizimiga yukori baxo berildi. Shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamiz xalq ta'limi xodimlari oldida hozirgi kunda eng muhim vazifa - mustakil O'zbekistonning xozirgi ta'lim tizimlarini istiqloq ruhi bilan takomillashtirish, uni o'zimizning mumtoz pedagogika an'analari bilan boyitish, chet el pedagogikasidagi ilg'r jixatlarni o'zlashtirish, yangi - yangi samarali o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahon davlat standartlari darajasiga olib chikishdir. Buning uchun esa bizning iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlardagi quyidagi ilg'or tajribalarni ta'lim tizimimizda qo'llay bilishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunonchi : Agar biz AQSh pedagogikasidagi: a) bolani o'z kuchi imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash; b) o'quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chikarish uchun kurash; v) bolani kamsitmaslik, insoniy kadriyatlarni va g'ururini erga urmaslik; g) o'quvchining ilk davridanoq kasb-korga yo'naltirish; d) Vataniga faxr va iftixor ruxida tarbiyalash va x.k Yaponiya ta'limidagi: a) bolyani maktabga puxta tayyorlash b) kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish; v) o'quvchilarni nafosat, jismoniy kamolotiga berilayotgan e'tibor; g) o'qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik; d) yosh talant sohiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar. Germaniya ta'limidagi: a) tabaqalashtirib o'kitishga berilayotgan jiddiy e'tibor; b) o'quvchilarning mehnat, ta'limini mustahkamlash; v) kasbga yo'naltirish. Fransiya ta'limidagi: a) maktabgacha tarbiyadanoq o'quvni predmetlashtirib tashkil etish; b) boshlang'ich ta'limni uch boskichda puxta amalga oshirish; v) o'quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgan katta e'tibor; g) o'quv muassasalarining turli firmalar, konsemlar, korxonalar mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlari bizning ta'limga ham ko'chsa, bizning pedagogikamiz olga qarab dadil qadam bosgan bo'lar edi

Amerikadagi ko'zga ko'ringan "Found Karnegi" pedagogik markazi bu dasturni XIX asr dasturi deb baholamoqda. O'quv dasturlarini qayta yangilash jarayoni G'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar. mazkur tavsiyalarga muvofiq 50% foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan "Yadro" predmetlar : ingliz tili va adabiyoti , matematika, din darsi, ijtimoiy tarbiyaga ajratiladi. O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilish shart hisoblanib , tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy , matematik) ajratiladi

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniya ham AQSh dagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasida kengaytirildi . Ingliz tili va adabiyoti , matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil

etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

80- yillarda AQSh o'quvchilarining 50-yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 97,3 % dan 89,3% ga tushdi.

1983 yildagi AQSh davlat dalolatnomalaridan biri to'g'ridan to'g'ri "mamlakat xavf ostida" deb nomlagan, unda o'quvchilar o'zlashtirishdagi "o'rtamiyonachilik" 70-80 foizni tashkil etayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligi bayon etilgan

### ***Nazorat savollari***

1. Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimi. Maktabgacha ta'lim tizimi. Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanishini izohlab bering.

2. Necha yoshdan Amerika bolalari "Kinder garde" deb ataluvchi tayorlov muassasalarida ta'lim oladilar, ta'lim qanday olib boriladi.

3. XXI asr arafasida AQSH yangi qabul qilingan "2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi" dasturini izohlab bering.

4. Har bir voyaga etmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlarida nimalarga alohida o'rin berilgan.

5. AQSH ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi dasturni to'liq izohlab bering.

6. AQSH o'rta maktablarida o'z o'quvchilariga nechta yo'nalishda bilim beriladi izohlab bering.

7. Bog'cha va maktablarga qanday transportlardan. Izohlab bering.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Buyuklarning mezonlari. AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y.

2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

3. Jahon tarixi. (darslik) T-2006 y.

4. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil

5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

6. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti. 2011 yil

7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.

## 6-mavzu. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimini

**Tayanch so'zlar:** Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi. Ta'lim turlari? Ta'lim tizimi, uning tuzilishi, ta'lim shakllari, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya, ta'limni takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini loyiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizimi.

**Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimini tashkil etish jarayonlari.** Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli xam chet mamlakatlarida maktab extiyojni iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' mikdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Yaponlarda masalan "maktab muvaffaqiyatli va farovonlik timsoli" gina bo'lib qolmay, u insonlarni yaxshilaydi degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

**F.Metteran maktabni "Jamiyatning xarakatlaniruvchi kuch"** deb hisoblagan.

Maktab dasturlarini o'zgartirish 2 asosiy yunalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmli kupaytiriladi; ikkinchi olda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, kupchilik mutaxassislarning e'tiroficha maqbul hisoblanadi.

1961 yilda "Besh yangi bazis" tamoyillari asosida AQSh o'rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

Har bir yo'nalish o'z navbatida bir necha qismga bo'linadi. Masalan, matematika, algebra, trigonometriya, ish yuritish, kompyuter texnikasini qullashdan iborat barcha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritildi. 1985 yildan e'tiboran barcha yuqori bosqich kollejlarning tuqson foizi shu besh bazisli tamoyillar asosidagi dasturlar bilan ish olib bormoqda. Natija: majburiy tayyorgarlik bo'yicha ta'lim hajmi qisqardi, shu bilan bir qatorda dastur chuqurlashtirilib o'rganiladigan kurslar hisobiga tig'izlashtirildi.

XX asrning 80-yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz til va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi.

**Fransiya ta'lim mazmuni.** Fransiyaning ta'lim tizimi boy va qadimiy tarixga ega. Bu yerda "Ta'lim haqida"gi Qonuni dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga bir qator o'zgartirishlar kiritilgan. Fransiyaning hozirgi davrda amal qilinayotgan "Ta'lim haqida"gi Qonuni 1989 yil 10-iyulda qabul qilingan.

Fransiyada ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni "Onalar maktabi" deb ham yuritishadi. Bundan ko'zlangan maqsad bolalarning maktabdagi sharoitini o'z sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat.

Fransiya ta'lim tizimida bolalarning gudahlik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi.

Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) 37 bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iborat.

Bu yerda quyidagi maktablar mavjud:

1. Davlat maktablari
2. Xususiy maktablar
3. Oraliq maktablari mavjud

O'qitiladigan predmetlar ichida frantsuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga ega fanlardan hisoblanadi. Ular uchun dars vaqtining 30 foizi ajratiladi. O'rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi 60 minut. O'quv yili besh chorakka bo'linadi. Frantsuz maktablari boshlang'ich sinflari ertalab o'qish, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Fransiya tizimida bolalarni go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

**1. Kichik guruh-** 2-4 yosh

**2. O'rta guruh-** 4-5 yosh

**3. Katta guruh-** 5-6 yosh

Maktabga tayyorlov guruhi 5-6 yosh bo'lib, ularga Frantsiyada 100 % shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalami maktabga tayyorlash uchun dastur va darsliklar mavjud.

Frantsiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga olti yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiydir.

Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

**1. Tayyorlov bosqichi**

**2. Elementar kurs – bu bosqich ikki yil davom etadi**

**3. Chuqurlashtirilgan bosqich**

Frantsiya universitetlarida oliy ta'lim uch turkumda amalga oshiriladi:

**1 turkum:** umumiy bo'lib, o'qish muddati ikki yil davom etadi.

**2 turkum:** O'qish bir yil davom etadi. Talabalar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi.

**3 turkum:** O'qish bir-ikki yil davom etadi.

Frantsiyada oliy ma'lumot beruvchi va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmatlar ko'rsatish, informatika mutaxassisliklarga ixtisoslashgan. O'qish muddati ikki yil hisoblanadi. Bundan tashqari sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyoti ham mavjud.

Frantsiya universitetlaridagi o'quv jarayoni uch bosqich jarayonga bo'lingan, har biri yakuniy imtihon topshirish va diplom olish bilan yakunlanadi.

**Birinchi bosqich jarayon** - litseyni bitirgach boshlanadi va ikki yil umumiy ta'lim olish bilan bitiriladi.

Keyingi bosqich "baccalaureat" bo'lib, Buyuk Britaniya "baccalaureat" idan farq qiladi. Frantsiyada "baccalaureat" litseyni tamomlash bilanoq faqat sinov va imtihonlarni to'raligicha topshira olganlarga beriladi. Bu ularga oliy o'quv yurtiga kirish huquqini beradi. Universitetda ikki yil o'qigach, talabalar sinov imtihonlarini topshirishadi. Undan so'ng umumiy universitet ma'lumotiga ega bo'lishadi, yoki DEUG, ilmiy-texnik ma'lumot haqida diplom beriladi.

**Ikkinchi bosqich jarayon** - 2 yil davom etib, talabalar ixtisoslashtirilgan bilimlarga ega bo'lishadi.

Ikkinchi bosqich jarayonining birinchi yili "licence" deb nomlanadi va litsentsiyat darajasi berilishi bilan yakunlanadi. Litsentsiyat bir yil o'qib, "maitrise" darajasiga ega bo'ladi, ammo buning uchun talaba mavzu tanlab diplom ishini yoqlashi kerak.

**Uchinchi bosqich jarayoni** - ko'pgina xorijiy talabalarni o'ziga tortadi, bu bosqich bir yil davom etib, to'liq oliy ma'lumot diplomini beradi.

Oliy ma'lumot haqidagi diplom ham o'z navbatida ikkiga ajratiladi. Birinchisi DESS maxsus oliy ma'lumot haqidagi diplom bo'lib, u o'z ichiga amaliyot muddati kamida 3 oydan 6 oygacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Amaliyot joyi to'g'ri tanlanishi, keyinchalik ish joyiga muvaffaqiyatli joylashish kafolatidir. Ikkinchi diplom esa DEA deb nomlanib, chuqurlashtirilgan oliy ma'lumot egasi ekanligingizni bildiradi. Bu diplom egasiga ilmiy ishlar va dissertatsiya yoqlashga imkon beriladi va keyinchalik esa doktorlik ishlarini ham himoya qilishga imkoniyat beradi.

Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta'lim haqidagi qonun»i 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki tashqi siyosatidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or texnologiyalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi. Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu erda davlat maktablari, xususiy maktablari, oraliq maktablar mavjud. O'qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib hisoblanadi. O'quv yili 5 chorakka bo'linadi. Fransuz maktablari boshlang'ich sinflarda o'qish ertalab bo'ladi, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan qo'shimcha saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti bazaviy fan, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya kabi fanlar esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish 5 yil bo'lib, uch bosqichda amalga oshiriladi: 1. Tayyorlov bosqichi; 2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi); 3. Chuqurlashtirilgan

bosqich. Tayyorlov bosqichi - 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa va mehnatga o'rgatiladi. Navbatdagi bosqich - elementar kurs bo'lib bu bosqichda o'qish 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olingan bilimlari yanada takomillashtiriladi. Boshlang'ich maktabning 3 - bosqichi - chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Fransuz maktablarining boshlang'ich bosqichida «Fuqarolik ta'limi», «Nafosat ta'limi» ham o'qitiladi. Nafosat ta'limiga musiqa, tasviriy san'at, sport kiritilgan. O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksiz va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'yilgan bosh talabdir. O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi bolalar bilimiga to'la mas'ul ekan uning uslub tanlashiga mustaqil harakat qilishiga ham to'la erkinliklar beriladi. 38 1990 yildagi hukumat qaroriga muvofiq maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limiga modullashtirish, bolalarning bilimiga u yoki bu fanga moyilligiga qarab differensiyalashtirish, ya'ni tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi berildi. Bunday dars jadvallari yillik, yarim yillik, choraklik asosida tuzilishi ham mumkin. O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim esa kollejlarda va litseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim ikki bosqichda bo'lib, birinchi bosqichda fransuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, Fransiya geografiyasi, matematika, tibbiy fanlar o'rgatiladi. 6-5-sinflar umumiy o'rta ta'lim beradi; 4-3-sinflarda esa o'quvchilarga qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi. Birinchi bosqich yakunlangach, o'quvchilar kasbiy yo'nalishlari bo'yicha guvoynoma oladilar. SHundan keyin o'quvchilar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta'lim oladilar. O'qish 3 yil davom etib 2- sinf kichik, 1- sinf o'rta va yakunlovchi sinflarga bo'linadi. 16 Eduscol. education.fr./ dossiers. School Education in France. ISBN 978-92- 9079-921-4 Available for free downloading from the CEPS website (<http://www.ceps.eu>) © CEPS, 2009. r. 15-23. O'quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplom ishi uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritadilar. Fransiyada talabalar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga kirish uchunгина imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko'riladi. Boshqa oliygohlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo'lgan yoshlar imtihonsiz qabul qilinaveradi. Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy

texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat maishiy xizmat ko'rsatish informatika<sup>39</sup> mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi. Sirtqi ta'lim Sirtqi ta'lim xususiy yoki davlat ta'lim shoxobchalarida amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda milliy sirtqi ta'lim markazi faoliyat ko'rsatmoqda, u 500 turdagi o'rta, oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi. Odatda ta'limning bu turi oilaviy sharoit, iqtisodiy sharoitlar tufayli maktabda o'qishni davom ettirish imkoniyati bo'lmagan kishilar uchun mo'ljallangan. Sirtqi ta'lim katta yoshlilar uchun uzluksiz ta'limning muhim shoxobchasi bo'lib qolgan. Ular o'z ixtiyorlari bilan, o'z mablag'lariga yoki korxonalar mablag'i hisobiga o'qiydilar. Fransiyada sirtqi ta'lim 1 mln kishini qamrab olishi mumkin. Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o'qiydilar. Bunday markazlarda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadi, o'qish yakunlangach, suhbatdan, test imtihonlaridan o'tadilar.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib, sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Sirtqi ta'lim yo'nalishlari juda keng bo'lib, u 500 turdagi o'rta, oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi.

Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o'qiydilar. Bunday markazlarda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadi, o'qishni yakunlagach, suhbatdan, test imtihonlaridan o'tadilar.

**Germaniya ta'lim tizimi.** Germaniya – jahon ilm-fani va madaniyati o'choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur Xalqaro doirada e'tirof etilgan olmon ta'lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so'nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda bilimsiz o'z o'rniga ega bo'lish amri mahol. Darvoqe, olmonlarga xos ternir intizom, birso'zlik xislatlari ham aynan ta'lim dargohlarida shakllanadi.

Germaniya qonunlarida maktabgacha ta'lim olishning bepul xuquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidanoq yaslga olib borish mumkin. Ko'pchilik nemislar bu xuquqdan foydalanadilar. Nemislarda keksa avlod vakillari bo'lmish buvi va buvalar nevaralar tug'ilgandan so'ng nafaqaga chiqib, ularga qarash majburiyatlari tushunchasi yo'q. Shuning uchun ota-onalar bolalarini bolalar bog'chalari va yaslga berishga majbur bo'ladilar.

Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog'chasi xayriya jamg'armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxonalar va tashkilotlar ham o'z bog'chasiga ega bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda bog'chalarning o'rnida katta. Shu bois ham olmonlar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi.

Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchigacha qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartib-qoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta'lim tizimi esa boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linadi.

Bolalar 5-6 yoshdan boshlang'ich maktabga qatnaydi. Boshlang'ich maktabda o'qish davri to'rt yildan olti yilgacha. Maktablarda birinchi, ikkinchi sinf davomida o'quvchilarga baho qo'yilmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual, psixologik rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Bunga ko'ra, 1 – a'lo 2 – yaxshi 3 – qoniqarli 4 – yetarli, 5 – yetarli emas, 6 – qoniqarsiz. O'quvchilar fanlarni eng kamida "4"ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o'qitiladi.

**Asosiy maktab.** Bu yerda bolalar to'qqizinchi sinfgacha o'qitiladi. Asosiy maktablarda oliy ta'lim muassasalarida o'qish niyati yo'q bo'lgan, biror bir kasb etagidan tutishni ko'zlagan o'quvchilar ta'lim oladi. Bu turdagi maktablarda bazaviy bilimlar beriladi va asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlarga qaratiladi. Asosiy maktabni tugatgan o'smirlar tugallanmagan o'rta ta'lim haqida shahodatnoma oladi. Ushbu hujjat bilan kasb-hunar maktablariga kirish mumkin.

Bizdagi kasb-hunar kollejlari o'xshab ketadigan mazkur maktablarda talaba muayyan kasb-hunar bo'yicha bilim va tajriba oshiradi.

Nemis pedagoglari iste'dodsiz o'quvchining o'zi yo'q, deb hisoblashadi. Shunga ko'ra ular o'quvchining ochilmagan qirralarini kashf etish, ularni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. "Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!" deydi mashhur faylasuf Rene Dekart. Olmon maktablarida ana shu naql oltin qoida sifatida qabul qilingan. Pedagoglar birinchi navbatda o'quvchining, hatto xato bo'lsa-da, mustaqil fikri bo'lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta'lim jarayoni esa ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi.

Maktabgacha ta'lim – bolalar bog'chalari (3-6 yosh), 90 % qamrab olgan. Bolalar bog'chalari (3-6 yosh 60 %) da ta'lim boshlang'ich ta'lim mazmuni bilan yaqindan bog'langan. Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblanadi, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassaslar zimmasidadir.

Ota-onalar bolalar bog'chalariga o'z farzandlarini tarbiyalanganliklari uchun ancha miqdorda pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% foizi bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog'chalar ham bor.

Bolalar bog'chalarini yaratish konsepsiyasi Italiyaning Rejio-Emilio shahrida paydo bo'lgan va nomi ham shundan olingan. Bunday maktabgacha tarbiya muassasasi bozor (yarmarka) maydonini eslatuvchi - o'rtada katta bir xona (xoll) va undan shag'archaning turli «mazzelariga» - kichik xonalarga chiquvchi inshootni eslatadi. Bunday turdagi bog'chalarda bolalar joylashgan muhit asosiy tarbiyachi deb ataladi. Har kuni ertalab bolalar tarbiyachi bilan katta xonada yig'ilishib, kun rejasini maslahatlashadilar, sungra xonalarga tarqalishadi. Bitta xona qurilish va turli konstruktorlar yig'ish xonasiga aylantiriladi. Bu yerda bolalar kubiklar uynashi, konstruktorlar yiFishi mumkin. Yana rasm chizish xonasi xam bor, odatda u yerda buyoqlar va devorlarga vatman qozlar osib quyilgan. Bolalarga maxsus kiyim kiygizib quyiladi va ular xoxlagan yerlariga - devorlar, pol, birlariga rasm chizishlari mumkin. Bu yerda hunarmandchilik, musiqiy va boshqa xonalar ham bor. Eunday bog'chalarda tarbiyachilar bolalarga faqat atrofda joyni o'zlashti-rishlarida ko'maklashadilar.

Nemis pedagoglari iste'dodsiz o'quvchining o'zi yo'q, deb hisoblashadi. Shunga ko'ra ular o'quvchining ochilmagan qirralarini kashf etish, ularni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. "Fikrlayapmanmi, demak,

yashayapman!” deydi mashhur faylasuf Rene Dekart. Olmon maktablarida ana shu naql oltin qoida sifatida qabul qilingan. Pedagoglar birinchi navbatda o‘quvchining, hatto xato bo‘lsa-da, mustaqil fikri bo‘lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta‘lim jarayoni esa ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi.

Nemis pedagoglari iste’dodsiz o‘quvchining o‘zi yo‘q, deb hisoblashadi. Shunga ko‘ra ular o‘quvchining ochilmagan qirralarini kashf etish, ularni yangilik va ixtirolar ruhida tarbiyalashga intiladi. “Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman!” deydi mashhur faylasuf Rene Dekart. Olmon maktablarida ana shu naql oltin qoida sifatida qabul qilingan. Pedagoglar birinchi navbatda o‘quvchining, hatto xato bo‘lsa-da, mustaqil fikri bo‘lishiga erishishni maqsad qiladi. Ta‘lim jarayoni esa ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi.

**Gimnaziya.** O‘quvchilar o‘rta ta‘limning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan ushbu bilim maskanida to‘qqiz yil – 5-sinfdan 13-sinfgacha ta‘lim oladi. Real maktabning 10-sinfini tamomlagan yoshlar esa gimnaziyada uch yil o‘qiydi. Mazkur ta‘lim dargohida gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o‘rgatiladi. O‘quvchilar o‘n birinchi sinfdan tanlagan yo‘nalishidan kelib chiqib, asosiy vaqtini bir necha fanni chuqur o‘rganishga sarflaydi. Gimnaziya – oliy ta‘limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichi. Negaki, gimnaziyani tugatganlik to‘g‘risidagi imtiyozli shahodatnoma universitetga imtihonsiz kirish huquqini beradi. Ammo imtiyozli shahodatnomani olish oson emas. O‘quvchiga ushbu hujjatni berishda uning o‘n uch yil davomidagi natijalari hamda to‘rtta fan bo‘yicha yakuniy imtihon baholari inobatga olinadi. Olmon zaminida oliy o‘quv yurtiga kirish uchun o‘n uch yil yaxshi natija bilan o‘qish kerak. Ana shundan keyingina universitet yo‘llari ochiladi. Ularning quyidagicha yondashuvi o‘ziga xos ahamiyatga ega.

#### **“Fikrlayapmanmi, demak, yashayapman”**

Germaniyada davlatga qarashli maktablar bilan birga xususiy ta‘lim maskanlari ham faoliyat yuritadi. Xususiy maktablar o‘rta ta‘lim maktablarini 2 foizini tashkil etadi. O‘quv dasturlari an’anaviy maktablardan farq qiluvchi xususiy maktablarni Federal ta‘lim va madaniyat vazirligi himoya qiladi. Xususiy maktablarni sanoat, til, kosmetika, gimnastika, uy xo‘jaligi kabi ixtisoslashgan yo‘nalishlarda ta‘lim beradi. Nodavlat ta‘lim maskanlari bir-birini qo‘llab quvvatlash uchun Xususiy maktablar uyushmasiga birlashgan. Shuningdek, nogiron va aqliy qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar ochilgan. Olmon maktablarida xorijlik fuqarolar ham tahsil olishi mumkin. Xorijliklar mahalliy shart-sharoitga moslashishi, nemis tilini puxta o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun qoshimcha kurslar tashkil etilgan.

Germaniyaning mo'jazgina Geydelberg shahrida joylashgan mazkur universitetning nufuzi hozir ham baland. Bu yerdan Gegel, Yaspers kabi jahon tanigan olimlar, o'nga yaqin Nobel mukofoti egalari yetishib chiqqan. Universitet yurisprudensiya, biologiya, kimyo, tibbiyot yo'nalishlarida kuchli kadrlar tayyorlaydi. Bu yerda o'qiydigan 25 ming talabani 12 foizi xorijliklardir. Myunxendagi Lyudvig-Maksimillian universiteti Yevropani tibbiyot bo'yicha yetuk mutaxassislar bilan ta'minlaydi. Besh asrlik tarixga ega bo'lgan ta'lim maskanida ayni paytda 45 ming talaba tahsil oladi. Kasbiy oliy maktablar yoki institutlar olmon ta'lim tizimining o'ziga xos bo'g'ini sifatida muhandis, iqtisodchi, dizayner, mashinasozlik, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari va sog'liqni saqlash yo'nalishlarida mutaxassislar yetkazib beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyaning 370dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida 2 millionga yaqin talaba, jumladan, 246 ming xorijlik tahsil olmoqda. Olmon yurti chet ellik talabalar soni bo'yicha dunyoda AQSh va Buyuk Britaniyadan keyingi o'rinda turadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga 3-6 eshdan maktab eshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan eki eshi mos bosqichga etmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasida (nem. Schulkindergarten) taxsil oladilar. Bu bog'chalar alohida FE qoidasiga ko'ra eki maktabgacha sektorga eki boshlang'ich ta'lim sektoriga bo'ysinadi. Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zirnmasida. Germaniyada 3 eshdan 6 eshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar. Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rganilib, qabul qilingan muassasadir. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki esh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy me'orlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiariy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun otaonalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi. Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlari maktab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi. Germaniya boshlang'ich sinf o'quvchisiga ilk o'qish kuni shirinliklar va kerakli maktab qurollaridan iborat maktab sovg'asi (kulék) beriladi. Germaniyada majburiy maktab ta'limi 6 yildan 19 yilni o'z ichiga oladi, demak maktabda ta'lim umuman olganda 13 yilni tashkil etadi. Bu muddat tugagach, imtihonlarni

muvaffaqiyatli topshirib bo'lib, o'quvchi bitiruv guvohnomasini oladi va oliy o'quv yurtiga kirish xuquqiga ega bo'ladi. Germaniyada har bir 25 maktab o'z Federal Eri hokimiyatiga bo'ysunadi. SHu bois dasturlar, qoidalar va hatto o'qitish davomiyligi mamlakatning turli Federal Erida turlicha

Maktabgacha tarbiya muassasalarining (MTM) rang-barang shakllari va turlari xayratlantiradi. Eng qiziqarli bolalar bog'chalari turlari quyidagicha:

**Waldkindergarten nemischa Wald** so'zidan olingan bo'lib Kindergarten - bolalar bog'chasi degan ma'noni anglatadi. Bunday bolalar bog'chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko'pincha bunday bog'chalar o'rmonda joylashadi. Bolajonlar doimo ochiq havoda bo'ladilar, daraxtlar va boshqa o'simliklarni o'rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar. Bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash o'rgatiladi.

**Bauernho fkindergarten** nemischa Bauernhof so'zidan - dehqon hovlisi, Kindergarten bolalar bog'chasi degan ma'noda qo'llaniladi. Bunday bog'chalar dehqon xo'jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo'ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog'larda sabzavot va mevalar o'stirishda yordam beradilar.

**Freinet-Kindergarten.** Maktabgacha pedagogikaning bu yo'nalishi o'z nomini bolalar tarbiyasiga o'ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yunalishning asosiy tamoyili - bolaning butunlay erkinligi va mustakilligidir. Fraynet-bog'chasida bolalar nima qi-lishlari, kanday uyin uynashlari, nima bilan shug'ullanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini o'zlari hal qiladilar. «Bolalar konferensiyasi» deb atalmish yig'ilishlarda bolalar MTM doirasida xulq-atvor qoidalarini o'zlari belgilashadi. Bunday bo'fchalarda ijod kilish, syujet-rol uyinlari, eksperimentlar, tabiat qo'yni yoki shaharning korxonasi va tashkilotlariga ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi.

**Integratsion bolalar bog'chalari.** Bunday turdagi MTMlarida sog'lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruxiy nosog'lom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlik, bag'rikenglik va hurmat qilishni o'rganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo'lmaydilar, o'z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo'lishni o'rganadilar. Shunday bog'cha va maktablarning soni ko'pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta'lim olishi va o'zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

**Internatsional bolalar bog'chalari.** Bunday MTMlari emigrantlar uchun yaratilgan bo'lib, ko'pincha ularni emigrantlarning uzlari far-zandlari uchun tashkil etadilar. Germaniyada turk-nemis, yaxudiy, rus-nemis bolalar bog'chalari juda kup. Bu muassasalarning konsepsiyasi bilingvallik tamoyiligiga asoslangan. Ya'ni,

guruhlarda doimo bolalar bilan ona-tilida suzlovchi tarbiyachi bilan birga nemis tilida soʻzlovchi tarbiyachi ham boʻladi. Bunda bolalar ham ota-onalarining tilini, xam nemis tilini oʻrganadilar. Rus-nemis bogʻchalarida koʻpincha Rossiya mualliflarining dasturlaridan foydalaniladi. Unda Rossiyada nishonlanadigan anʼanaviy - Maslennitsa, 8 mart, Yangi yil kabi kup bayramlarga bagʻishlangan mashgʻu-lotlar ham bor.

Shuningdek, Germaniyada Valdorf bolalar bogʻchalari va Montessori tizimida ishlaydigan bolalar bogʻchalari ham mavjud.

Agar oʻrta statistik nemis bolalar bogʻchasini olsak, uning faoliyati loyihalar tamoyili asosida tashkil etilganligi namoyon boʻladi. Masalan, «Kasb» loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar, teatrlashtirilgan saxnalar kuyadilar, pechene pishiradilar, loydan narsalar yasaydilar va xokazo. Bolalar stulchalarda oʻtirib tarbiyachini eshitadigan turdagi mashgʻulotlar yoʻq. Bolalarga koʻp erkinlik beriladi. Ular istagan narsani kilishlari, kiyimlarini iflos qilishlari, butun maydonda sakrashlari va yugurishlari mumkin. Bolalar bilan ishlashga bunday yondashishning koʻp ijobiy va salbiy tomonlarini topish mumkin. Lekin ota-onalar oldida konsepsiya, nazariya va gʻoyalardan ibo-rat katta tanlash xukuki bor. Ular farzandlari-ni bola uchun eng kulay bogʻchaga berishlari mumkin.

Germaniyada oʻquv rejasida I sinfga 21 soat, II sinfga 24 soat, III sinfga 26 soat (nemis tili, valanshunoslik, matematika, mehnat, maktab qoshidagi uchastkada ishlash, rasm, musiqa, jismoniy tarbiya) ajratilgan.

Umumiy majburiy taʼlimga 6 yoshdan 16 yoshgacha boʻlgan bolalar jalb etiladi. Bu amalda 2 bosqichli 8 yillik taʼlim boʻlib, I-IV, V-VIII sinflami oʻz ichiga oladi. I-sinfga qabul qilinganlarning 80 % i asosiy maktab (8-sinf) ni 14 yoshida, qolgan 20 % i 16 yoshida tugallaydi. Yuqori sinflarda iqtidorlilar uchun alohida oʻquv rejasiga asoslangan chuqurlashtirilgan taʼlim beriladi. 8-sinfni bitirgan oʻsmirlar oʻrta umumiy taʼlim olish uchun yana 2 yil oʻqiydi.

Oʻrta maʼlumot – tayanch maktabi (8-sinf) ni bitirgan oʻquvchilarning 20 % i jalb etiladi (iqtidorlilar, shundan bolalarning 15 % i). Shuningdek, ularning bir qismi kasb-hunar-texnika bilim yurtlariga jalb etiladi. Lekin ularning 15 % i ishlab chiqarish yoʻnalishida umumiy taʼlim oladi.

Gimnaziya – 4 yillik taʼlim boʻlib, unda chuqurlashtirilgan taʼlim sinflari ham mavjud. Gimnaziyaning oxirgi sinflarida baʼzi fanlar tanlov asosida oʻrganiladi. Gimnaziyani tugatganlarga oʻzlashtirish natijalariga koʻra yetuklik attestatni olish uchun imtihonlarni topshirishga ruxsat beriladi. Ular oliy maktabda oʻqishni davom ettirishlari mumkin, qolgan qismiga ishga kirish uchun guvohnoma beriladi. Topshirilgan imtihonlar oliy oʻquv yurtiga kirish imtihonlari vazifasini ham bajaradi.

Kasb-hunar o'rtta maktabi – 4 yillik kasbiy ta'lim bo'lib, xalq xo'jaligining 11 yo'nalishi uchun malakali mutaxassislar tayyorlab beradi. Uni tugatganlarga ham oliy maktabga kirish huquqini beruvchi yetuklik attestati beriladi.

Hunar-texnika bilim yurtlari – 3 yillik kasbiy ta'lim bo'lib, xalq xo'jaligining 186 yo'nalishi uchun malakali ishchilar tayyorlaydi. Uni tugatganlarga yetuklik attestati beriladi.

Gimnaziya va kasb-hunar maktablarining kechki va sirtqi bo'limlari ham mavjud bo'lib, hamma uchun ochiqdir.

Oliy o'quv yurtlari – 18 universitet, 32 institut va yana bir necha oliy maktablarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari – pedagogika bilim yurtlarida, o'rtta maktab o'qituvchilari esa pedagogika institutlari va universitetlarda bayyorlanadi. Shuningdek, aspirantura, doktorantura, kon'yunktura, fanlar akademiyasi, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda hozir masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiyadan keng miqyosda foydalaniladi.

Germaniyada xalq ta'limida 90 yillarda chuqur o'zgarishlar yuz berdi. 68 mln. aholiga ega bo'lgan GFR 1990 yilgacha ikkita mustaqil davlat edi.

1946 yildagi "Nemis maktablarini demokratiyalash to'g'risidagi Qonun" tufayli mamlakatdagi uch toifali tabaqaviy maktablar faoliyatiga yakun yasab, 8-yillik ta'lim joriy etildi. Xalq ta'limini yanada rivojlantirish maqsadida qabul qilingan 1959 yildagi "Germaniyada maktab ta'limini rivojlantirish to'g'risidagi Qonun" ga ko'ra 10 yillik ta'lim joriy etildi.

**Majburiy ta'lim** – 6-16 yoshlilar jalb qilingan bo'lib, 10 yillik politexnika umumta'lim maktablarida amalga oshiriladi. Mazkur maktab: quyi, o'rtta, yuqori sinflarga bo'linadi. Quyi sinflar (I-III) da, asosan, o'qish, yozish, hisob malakalari shakllanadi. Unda ona tili darslari o'quv soatlarining 50 % ini tashkil etadi. Qolgan soatlar mehnat, estetik, jismoniy tarbiyaga ajratilgan.

O'rtta bosqich (IV-VI) ta'limi fan o'qituvchilari tomonidan olib borilib, unda ilm asoslari o'rganiladi.

Yuqori sinflar (VII-X sinflar) da majburiy ta'lim dasturi bilan birga tanlov fanlari (22 yo'nalishidagi) ham o'qitiladi, kasb tanlash, kasb-kor tarbiyasiga alohida e'tibor beriladi. Germaniyada o'quv rejasida I sinfga 21 soat, II sinfga 24 soat, III sinfga 26 soat (nemis tili, vatanshunoslik, matematika, mehnat, maktab qoshidagi uchastkada ishlash, rasm, musiqa, jismoniy tarbiya) ajratilgan.

**Kasb ta'limi** – 10-sinfni bitirganlarning barchasi uchun majburiy (o'quv yurtlariga kirmaganlar uchun) dir. Kasb ta'limi (2-3 yil) da 2 yil o'qiganlarga texnikumlar va o'rtta maxsus ma'lumotli injenerlar maktablarida o'qiydi. Kasb ta'limi muassasalarida 3 yil o'qiganlar kasb-hunar egallash bilan birga yetuklik attestati ham oladilar va oliy o'quv yurtiga kirish huquqini qo'lga kiritadilar.

**Kengaytirilgan maktablar** – 10-sinf bitiruvchilarini qabul qilib, 2 yil davomida oliy o'quv yurtiga tayyorlaydi. Bu maktab bitiruvchilari soni oliy o'quv yurtlari ehtiyojiga teng bo'lib, uning bitiruv imtihonlari oliy maktabga kirish imtihonlari vazifasini bajaradi (abitur-sinf).

**O'rta maxsus ta'limi** – amaliy xarakterga ega bo'lib, san'at ishlab chiqarish uchun injenerlar tayyorlaydi.

**Oliy o'quv yurtlari** (53 universitetlarda), oliy maktablarda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanadi. O'qituvchilar tayyorlash 5 yillik dastur asosida 3 pedagogika maktablari va 6 pedagogika institutlarida, 42 pedagogik bilim yurtlarida (maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim uchun) tayyorlanadi. Pedagogik tadqiqotlar pedagogika fanlari akademiyasida amalga oshiriladi.

Germaniyada maktab ishlarining paydo bo'lishi xristianlik paydo bo'lgan VII asrga kelib taqaladi. Ko'pgina manastir va cherkovlar ochilishi bilan manastir va cherkovlar maktablari ochilgan. Yer egalari, ya'ni, aristokratlarning (oq suyaklar) bolalari ritsharlik tarbiyasini olganlar. Dvoryan qizlari uchun esa ayollar manastirlik maxsus maktablariga borishgan. XII-XIII asrlarga kelib ta'lim tizimiga ham o'zgarishlar sodir bo'lgan, shahar maktablari, litsey, maktablarini ochish huquqiga ega bo'ldilar. Bora-bora davlat rivojlanib borishi bilan ta'lim tizimiga ham o'zgarishlar sodir bo'la boshladi.

O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, institutlar va universitetlar tashkil etila boshladi. Shuningdek, Germaniya oliy maktab tizimining o'zagi universitetlar va ularga tenglashtirilgan oliy o'quv yurtlaridan tashkil topgandir. Mazkur oliy o'quv yurtlarining bitirishda magistr unvoni va diplomini olish uchun davlat imtihonlari topshiriladi. Bu yerda kondidatlik dissertatsiyasini yoqlashga qadar o'qishni davom ettirish mumkin.

Germaniya oliy o'quv yurtlarining ikkinchi guruhini ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari tashkil etadi. Bu turdagi oliy o'quv yurtlarining shuhrati tobora oshmoqda. Ulardan o'quv jarayoni kasb bilan bog'liq amaliy yo'nalishga ega bo'lib, muxandislik ixtisosligi qishloq xo'jaligida yoki bir necha korxonada va zavodlarda ishlaydi.

Davlat xizmatida bironta lavozimni egallash imkoniyatini beradigan ixtisosliklar bo'yicha ta'limning birinchi davri oxirida davlat imtihonlari tashkil etiladi. Muhandislik ixtisosini egallagan talabalar majburiy tartibda yuqori kurslarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tishlari yoki amaliy ishlab chiqarish masalalari tahlili keng yoritilib beradilar. Germaniyada yashash, oziq-ovqat va o'quv qo'llanmalar uchun sarflanadigan harajatlardan tashqari ta'lim olish bepul. Ular ota-onalarning yordamiga tayanganlar yoki bo'sh vaqtlarda ishlab o'qishlari uchun o'zlari pul topganlar.

Oliyogha kirish huquqiga gimnaziyani 13 yillik ta'limni tamomlaganligi to'g'risidagi shahodatnomasi bo'lgan shaxslar egadirlar. Gimnaziya boshlang'ich maktabni 4 yillik tugatganlar kiradi. Umuman olganda o'quvchilarning 40 % foizini gimnazialarda, 35 % foizini asosiy o'rta maktablarda ta'lim olishadi.

Mazkur maktablar ularga hunar-texnika bilim yurtlarida va ishlab chiqarishda shogirdlik tizimi bo'yicha o'qish huquqini beradi. O'quvchilarning 20 % foizini 6 yillik real maktabda ta'lim oladi. Uni tugatgach, o'qishni yuqori kasbiy maktab va keyinchalik professional oliyoghlarda davom ettirish mumkin. Gimnaziyaning 80 % foizini o'quvchilari to'liq kursni o'qishadi. So'ngra oliy o'quv yurtlari bo'yicha tarqatadigan Dortmund markaziga ariza topshiradi.

1987 yilda oliyoghlarda 230 ming kishi qabul qilingan. Maktabni bitirgandan so'ng, bir necha yil o'tgach, o'qishga kirganlar 68 % foizi, kasbga ega bo'lgan, ishlagan va armiyada xizmat qilganlar 28 % foizini tashkil qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimi Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga 3-6 yoshdan maktab oshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan e'loni bosqichga etmagan bolalar maktabgacha sinflarida (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasida (nem. Schulkindergarten) ta'lim oladilar. Bu bog'chalar alohida FE qoidasiga ko'ra e'loni maktabgacha sektorga yoki boshlang'ich ta'lim sektoriga bo'ysinadi. Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar. Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rganilib, qabul qilingan muassasadir. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun otaonalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi. Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlarini maktab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi. Germaniya boshlang'ich sinf o'quvchisiga ilk o'qish kuni shirinliklar va kerakli maktab qurollaridan iborat maktab sovg'asi (kulek) beriladi. Germaniyada majburiy maktab ta'limi 6 yildan 19 yilni o'z ichiga oladi, demak maktabda ta'lim umuman olganda 13 yilni tashkil etadi. Bu muddat tugatgach, imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib bo'lib, o'quvchi bitiruv

guvohnomasini oladi va oliy o'quv yurtiga kirish xuquqiga ega bo'ladi. Germaniyada har bir 25 maktab o'z Federal Eri hokimiyatiga bo'ysunadi. SHu bois dasturlar, qoidalar va hatto o'qitish davomiyligi mamlakatning turli Federal Erida turlicha. Germaniyada maktab ta'lim tizimi ikki bosqichli tizim bo'lib, boshlang'ich maktab (Primastufe) va o'rta ta'lim muassasalari (Sekundastufe)dan iborat. Kunduzgi maktabga 9 yil, ba'zi Federal Erlarda 10 yil o'qish majburiy. Bu muddat tugagach, kunduzgi maktabning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirishni istamagan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar kasbiy ta'lim maktablarida o'qishlari shart. GFRda Federal Erlar ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari uchun javob beradi. Barcha davlat maktablarida o'qish bepul. O'quvchilarga qisman bepul o'quv qo'llanmalar va darsliklar beriladi. Diniy fanlarni o'qitish majburiy emas. O'quvchi 14 eshida bu fanni o'qish eki o'qimaslikni o'zi tanlaydi. Ta'lim spektri Federal Erlarning moliyaviy e'rdamidan foydalanuvchi turli tashkilotlarning xususiy maktablari bilan to'ldirib boriladi.

German maktab ta'limi tizimi G'arbiy Yevropa ta'lim tizimi ar'analari izidan bormoqda. Unda o'quvchilarni 10 yoshdan boshlab bo'lg'usi mutaxassisliklarga tayyorlab boradilar va bunga 30 %foizga yaqin vaqt sarflanadi.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli ya'ni bu jarayon 21 yil davom etadi. Bundan 9 yillik maktabda to'la haftalik o'qishda o'qiydi. O'qish davlat maktablarida tekin. Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabda o'tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqichidagi yo'nalish maktablarda maxsus dastur asosida o'qiydila.

Ta'kidlab o'tish joizki, Germaniyaning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li bizning Respublikamizdagiga o'xshab ketadi. Ikki German davlati birlashgandan keyin sobiq Germaniya Demokratik Respublikasida ta'limni isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham bizning sharoitimizga maqbul keladi.

Germaniyaning hozirgi davr maorifidagi asosiy muammosi sobiq GDRdagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir.

Avvalambor shuni ta'kidlash keryakki, Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgaya soha bo'lib, u mamlakatnig iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar ichida kuchli oltilika kirgan.

Germaniya ta'limi tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning (9-10 sinflar) 79% foiz ) to'liq o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20% foiz hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yili asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga ta'luqli maxsus fanlardan nazariy asoslash berilib,

yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yildan ikkinchi yilga o'tish sinov imtihonlari o'tkazilib o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalaming yetakchi mutaxassislari, fideral yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatta asosan amalga oshiriladi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy uquv yurtini shtadagi rektor yoki bir necha yilga saylangan OTM Prezidenti boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki tamoyiliga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalarini taklif etiladi. O'qishga hak to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ot-onalari oziq-ovqat xarajatlarini ko'tara olmasa o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidaga federal qonunga ko'ra ular moliyaviy yordam oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shnb berilsa, ikkinchi yarmi qarz tariqasida beriladi.

Mamlakatda ta'limni isloh qilish masalasi ko'pdan buyon muhokama qilinmoqda, bunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak, talabalar xaqiqiy mehnat, faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga, juda murakkab tizimga ega.

### **Belgiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.**

<b>№</b>	<b>Ta'lim bosqichlari</b>	<b>Yoshi</b>
<b>1</b>	Maktabgacha ta'lim	2,5-6
<b>2</b>	Boshlang'ich maktab	6-12
<b>3</b>	O'rta maktab	16-18
<b>4</b>	Oliy maktab	18-23

Belgiyada maktabgacha ta'lim (MT) 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga etganda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha ta'lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada taxminan 90%gacha bo'lgan bolalar unga qatnashadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalari boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi. Bolalar 6 yoshga etganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi. Maktab ta'limi davri 2 ta, boshlang'ich va o'rta maktab bosqichiga bo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta va 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. Chorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi. Bryusseldagi flamand maktab dasturiga birinchi yoki ikkinchi sinfdan boshlab, fransuz tilini o'qitish kiritilgan. Qolgan flamand maktablarining ko'p qismida bu fan boshlang'ich maktabning 3-bosqichida o'rgatiladi. Mamlakatning fransuz tilida so'zlashuvchi qismida o'quvchining hohishiga ko'ra ingliz yoki niderland tillari ham o'rgatiladi. German tilida so'zlashuvchi qismida fransuz tili majburiy tarzda o'qitiladi.

AQShda mavjud rivojlangan ta'lim tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, mazkur faoliyat mamlakat hukumatini tobora qoniqtirmayotir. Jon Kennidi 1963 yildayoq shunday degan edi. "Yomon maktab davlatning yomon siyosatigina bulib, uni yomon iqtisodiyotga olib kiruvchi zarindir". Demak, AQShda ta'limning hayotdan orqada qolayotgan 60-yillaridayoq sezilgan edi. 2000 yilda "Amerika ta'lim strategiyasi" dasturi e'lon qilindi, 18 yil bo'lishiga qaramasdan bu davlatda ta'lim, maktabgacha ta'lim tubdan bir – biridan farq qiladi. Qachonki maktab yaxshi uning zaminuida maktabgacha ta'lim yaxshi ekanligini asoslaydi.

Talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini o'zlashtirishda jahonga eng oldingi o'rinlarga chiqishlari: har bir voyaga yetmagan Amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari, maktablarda giyohvandlik va zo'ravonlikka barham berish o'qish uchun barcha shart-sharoitni yaratib berish ko'zda tutiladi. Bu AQShda ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.

AQSh ta'lim tizimining maqbul tomonlarini ijobiy qo'llanilish bilan boshqarish, uni to'la mustaqillikka o'rgatish va tatbiq etish, maktabgacha ta'lim tizimini kuchaytirishda, besh yoshlik bolalarning maktab bosqichiga

puxta tayyorlash, dars jarayonining bir xil andozasidan qutilish yullarini izlash, yunalishli va ayrim predmetlarini chuqurlashtirishning o'rgatish bo'yicha olib borilayotgan ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, kasb yunalishi berish yo'lida olib borilayotgan ishlarini chuqur tahlil etib, mahalliy sharoitda kelib chiqish o'z ish faoliyatida qo'llashni tashkil qilish e'tiborga loyiqdir.

AQSh ta'lim tizimida pedagogika ya'ni ta'lim tarbiya fani maktabgacha ta'limda va maktablarda boshlang'ich hamda yuqori sinflarda o'qitiladi. Unda asosan quyidagilar o'rgatiladi.

-bolani o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash

-o'quvchilarning eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ruyobga chiqarish uchun kurash,

-vatanga g'urur va iftixor ruhida tarbiyalash kabi asosiy xususiyatlar boshqa davlatlar, jumladan bizning pedagogikamizga ham tatbiq etish zarur bo'lgan muhim sifatlardir.

Buyuk Britaniya yuz yillardan beri sifatli klassik ta'limi bilan mashhurdir. Bu ta'lim davr sinovidan o'tgan va xalqaro ta'lim bozorida yetakchi o'rinda turadi. Hozirda 80 mingdan ortiq xorijiy talabalar britan ta'lim tizimi yutuqlaridan bahramand bo'lmoqda.

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyot, yangi texnologik inqilob sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yunaldirishda davlat xizmatini hamda maktabgacha va o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktabgacha va maktab ta'limi ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Ko'pgina xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim bilan boshlang'ich sinflarni uzviy bir- biriga bog'liq holda o'rganishadi.

Yaponlarda masalan "Maktabgacha va maktab ta'lim tizimi muvaffaqiyatli va farovonlik timsoli"gina b'lib qolmay, u insonlarni yaxshilaydi degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat-markazida bo'lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya bosh vaziri M.Techemi, Fransiya prezidenti

F.Mettiranlarni maktabgachava maktab islohotlarining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi .

F.Metteran maktabgacha ta'limni "tarbiya o'chog'i", maktabni esa "jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi" deb hisoblagan.

Maktab dasturlarini o'zgartirish 2 asosiy yunalishda : ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi .

Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi , o'quv materiallari hajmli kupaytiriladi , ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi , bu o'rinda ikkinchi yo'l , ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha maqbul hisoblanadi .

1961 yilda "Bosh yangi bazis" tamoyillari asosida AQSh o'rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi . Buning mohiyati shundaki , ingliz tili va adabiyoti (turt yil), matematika (turt yil), tabiiy bilimlar (uch yil) , ijtimoiy fanlar (uch yil) , kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi . Har bir yo'nalish o'z navbatida bir necha qismga bo'linadi . Masalan, matematika , algebra , trigonometriya , ish yuritish, kompyuter texnikasini qo'llashdan iborat barcha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritildi . 1985 yildan e'tiboran barcha bosqich ta'lim muassasalarining 90 % foizi shu "besh bazisli" tamoyillar asosidagi dasturlar bilan ish olib bormoqda . Natija, majburiy tayyorgarlik bo'yicha ta'lim hajmi qisqardi, shu bilan bir qatorda dastur chuqurlashtirilib o'rganiladigan kurslar hisobiga integratsiyalashtirildi . Maktabgacha ta'limda esa bola maktab ostonasiga o'qish, yozishni boshlang'ich savodni chiqarib kelishi ta'minlandi, natijada XX asming 80-yillarida majburiy ta'lim hajmini qiskartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi . Hatto ayrim ta'lim muassasalarida bu sohada uch yangi : ingliz til va adabiyoti , matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda . Ta'limning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi .

Amerikadagi ko'zga ko'ringan "Found Karnegi" pedagogik markazi bu dasturni XIX asr dasturi deb baholamoqda . O'quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda . Masalan , Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar . Mazkur tavsiyalarga muvofiq 50% foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan "Zarur bo'lgan yadro" predmetlar, ingliz tili va adabiyoti , matematika, din darsi, ijtimoiy tarbiyaga ajratiladi . O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumariitar , tabiiy , matematika) fanariga ajratiladi

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniya ham AQSh dagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasida kengaytirildi . Maktabgacha ta'lim

bilan maktab ta'limini uzviy bog'liq holda olib borishdi. Bog'chadan bola makabga borganda majburiy Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridir.

Yaponiya maktabgacha ta'limi maktab ichida bo'lib ikkinchi jahon urushidan keyinroq Amerika ta'limni yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator fanlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'z dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musika ta'limi uquv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish qam kiritilgan.

Yapon xalqida "Hamma narsa unitilganda ham, ta'lim esda qoladi" degan hikmatli gaplari bor.

Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum cheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni o'rganishni kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtiradi va o'quvchilarni ortiqcha "yuk"dan xolos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari integratsiyasini amalga oshirish yordam beradi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi.

Fransiya maktabgacha ta'limida 70% foiz, maktablarda 60% foiz, Buyuk Britaniya maktabgacha ta'limda 30% foiz, maktablarida 15% foiz o'quv soatlari ajratildi.

Bu muammolarni to'ldirish, o'quvchilarning u yoki bu kursga bo'lgan ehtiyojini to'laroq ahglash uchun maktabgacha va maktablarlar alohida predmetlardan chuqurlashtirilgan kurslarni tavsiya etmoqdalar.

Masalan, G'arbiy Yevropa maktablarida 15% foiz o'quvchilar fizika fanini chuqurlashtirib o'rganmoqdalar. Keyingi uch yil davomida AQShda ilmiy bilimlarni chuqurlashtirib o'rgatishni ta'minlash maqsadida integratsiyalashtirilgan kurslarning turli variantlari ishlab chiqilmoqda.

Chet el tajribalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmunini qayta islosh etishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Fikrimizcha bu sohada samaraliroq yo'l integratsiya va innovatsiyani fanlar miqyosida tatbiq etishga ixtisoslashtirishga asoslangan o'quv dasturlarini yaratishdir.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda mehnat ta'limini hamda kasbga yunaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning eng e'tiborga loyiqqlari shu ta'lim bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish, professionalizmga yuz tutish, kuchli moddiy bazani barpo etish yo'lidir. Har holda 1977 yilda AQShda qabul qilingan "Mehnat faoliyatiga tayyorlash akti"ning asosiy g'oyasi ham shunga qaratilgan.

Mehnat ta'limi bilan bir qatorda kasbga yo'naltirish ishlari ham zamon talablariga hamoxang takomillashmoqda. Kasbga yo'naltirish darslari barcha rivojlangan davlatlarda mavjud. Bunday darslarda mehnat olamidagi o'zgarishlar va tendensiyalar, kasbkor sohibi bo'lish imkoniyatlari ham o'rgatiladi. Bunday darslarni fan o'qituvchilari hamda maxsus kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha maslahatchilar olib boradilar. Bulardan tashqari kasbga yo'naltirish maslahat markazlari ham mavjud bo'lib, ular yuqori sinf o'quvchilari va ota-onalariga soha bo'yicha maslahatlar tashkil etadilar.

Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda korxonalar amalga oshirilayotgan ishlar ham e'tiborga molikdir.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining 1983 yilda e'tirof etishicha, ta'limda ijtimoiy tengsizlik kayfiyati hukm surmoqda. Bunga pul to'lab bog'chaga borish, o'qish, sirfda yoki kursda o'quv kursini o'zlashtira olmay ikkinchi yilga qolib ketish, imtihonlarni o'ta talabchanlik asosida o'tkazish sabab bo'lmoqda.

Masalan, Fransiya boshlang'ich maktablari o'quvchilarining teng yarmi, litseylar o'quvchilarining 60 % foizi fanlarni o'zlashtira olmay takroriy o'quv yiliga qolib ketmoqda.

Bu mamlakatning boshlang'ich va o'rta maktablarda bolalar 650 ta imtixon va sinovlar topshiradilar.

Imtixonlardan yiqilish uquvchilarning asab va ruhiy holatiga qattiq ta'sir o'tkazadigan vaziyatlar, hatto fojiali voqealar ro'y berish hollari uchraydi. Bunday vaziyat shubhasiz, faqat ota-onalar ichidagina emas, o'qituvchilar orasida ham keskin noroziliklarga sabab bo'lmoqda.

1983 yildagi AQSh davlat dalolatnomalardan biri to'g'ridan-to'g'ri "mamlakat xavf ostida" deb nomlagan, unda o'quvchilar o'zlashtirishdagi "o'rtamiyonachilik".

70-80 foizni tashkil etayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligi bayon etilgan.

80-yillarda AQSh o'quvchilarining 50-yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 97,3% foizdan 89,3 % foizga tushdi, Fransiyada ham 3 litseychidan biri muvaffaqiyatga uchradi.

Ta'limda ro'y berayotgan bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQShda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan, Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etdi.

Chet el tajribalarini o'rganib, ulami sharoitimizga moslab tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Bu borada bir qator chet el tajribalari, xususan Isroil davlati tajribalari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'ladi. 4 Isroil davlatida ta'lim 5 yoshdan 18 yoshgacha davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilib, uch bosqichdan iborat (maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi): a) boshlang'ich ta'lim (1-4 sinflar), b) o'rta ta'lim (5-9 sinflar), Bu bosqichlar yakunida butun Isroil bo'yicha bir kunda bitirish imtihonlari bo'lib o'tadi. Natijalari asosida o'quvchilar o'zi tanlagan maktab yoki texnologik maktablarda o'qishni davom ettiradi. v) texnologik ta'lim (10-12 sinflar). O'quvchilar bu bosqichda kasbiy bilim oladilar va universitetlarga kirish huquqini beruvchi attestat uchun imtihon topshirib borishadi. (Attestatga imtihon topshirish juda murakkab jarayondir). Har yili 12-sinfni tugatgan o'quvchilarning o'rtacha 20-40 % attestat oladilar. Shundan keyingi barcha toifadagi ta'lim xizmatlari pullik. O'n sakiz yoshga kirgan o'g'il - qizlar majburiy armiya xizmatiga chaqiriladi. Armiya xizmatidan keyin attestati borlarning deyarli hammasi universitetga o'qishga kiradi. Attestat olmaganlar texnologik maktablarda o'qishni davom ettirishi yoki olgan kasbi bo'yicha ishlashi mumkin. Attestati yo'qlar texnologik maktablarning 13-14 sinflarida o'qiydi, lekin istagan sinfdan so'ng kichik texnik, texnik hujjati bilan o'qishni yakunlashi mumkin. 15-16 sinflarda o'qishni davom ettirganlar kichik injener (15-sinf) va bakalavr (16-sinf) diplomiga ega bo'ladi. Bunday sinflarga ega bo'lgan texnologik maktablar Isroil yoki chet el univesitetlari bilan shartnomaga ega bo'lib, shu universitetlarning diplomlarini berishadi.

Ta'lim muassasalarining barcha turlari moddiy texnik bazasi, kompyuter bilan jihozlanganligi juda yuqori darajada. Barcha kompyuterlar Internetga ulangan. O'quv jarayonida Internetdan keng foydalaniladi. Bundan tashqari Telaviv universiteti bilan bir qator texnologik maktablar sputnik kanali orqali amalga oshiriladigan va on line - bevosita muloqat rejimida ishlaydigan masofadan o'qitish tizimiga ulangan. Ta'lim tizimida o'quvchiga juda ko'p bilim berilmaydi, lekin o'quvchilar, xatto bog'cha bolasi ham, mustaqil ravishda fan mavzuga bog'langan holda proektlar yozadi yoki tayyorlaydi va himoya qiladi. Isroil davlati pedagogikasi ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchiga mustaqil ishlashni o'rgatishga qaratilgan va «Bilim olishga o'rgatish uchun o'qitiladi» degan shior bilan ta'lim beriladi. Hozir Isroil davlatida joriy qilinayotgan ta'lim texnologiyasi ko'ra sinflarda o'quvchilarni o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalarga ajratib o'qitiladi. Ta'lim barcha fanlar bo'yicha hayot va tabiat bilan bog'langan holda olib boriladi. Fanlarning uzviy bog'lanishi doimo ko'zga tashlanib turdi. Oliy ta'lim tizimi uch bosqichli: 1. Bakalavriatura - 4 yil, 2. Magistratura - 2 yil, 3. Doktorantura - 3 yil. Bakalavr va magistr uchun o'qish Isroilda, doktorantura asosan Evropa va AQSH da amalga oshiriladi. Isroil davlatida malaka oshirishga asosan ikki guruh

omillar ta'sir qiladi: 1. Ijtimoiy-madaniy omillar: a) jamiyatni ko'p madaniyatligi (turli davlatlardan kelgan repatriantlar o'ziga xos madaniyatga ega); b) turli din vakillarining yirik qatlamlarining borligi (iudeylar, musulmonlar, xristianlar va ularning turli oqimlari); v) turli yillardagi repatriantlarning katta oqimi (50-, 70-, va 90- yillar). 2. Pedagogik omillar: a) texnologik ta'limga o'tish; b) o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim (ayniqsa o'rta va texnologik ta'limda); v) o'quv yurtlarini kompyuterlashtirish davlat dasturi va uning juda yuqori suratlarda amalga oshirilishi; g) mutaxassislarni tayyorlashdagi ko'p bosqichlilik. Ushbu faktorlar malaka oshirishning mazmunini tashkil etadi va uning samaradorligini, malaka oshirish kelajagini aniqlashda hisobga olinadi. Bu dastur Vazirlik va munitsipalitetlar darajasida boshqariladi.

Axborot texnologiyalari ta'limning turli yangi ko'rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtlarda nodulli ta'lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi. Deklan Bem "blended learning" (aralash ta'lim) haqida shunday deydi – ushbu ta'lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta'limni tashkil etishda va ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala - tanlangan uslubiyotlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash va karn harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi. Bugungi kunda blended learning kunduzgi an'anaviy ta'lim va masofaviy ta'limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda an'anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg'unlashtirishga imkon yaratiladi. Bu tizimda o'qituvchi ta'lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Blended learning masofaviy ta'lim (Distance learning), 7 sinf xonada ta'lim (Fake-to-Fake learning) va internet orqali ta'lim (Onlin learning)dan iborat. Vebinar metodi Bugun masofaviy ta'limning yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqotga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web-texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni etkazadi, balki ular bilan muloqotga kirishish (og'zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko'rinishida fikrlarni almashish, o'z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog'i asosida tashkil etiluvchi ta'lim harn sub'ekt-sub'ekt paradigmasiga o'tmoqda. Vebinar usulida dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan tinglovchilar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi

foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsa-da, butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin. Evristik o'qitish metodi Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning echimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'ratilgan masalani echish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar. Evristik metod o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, buyuk didakt I.YA.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan.

Xorijiy ta'limda so'nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderatör tushunchalari kiradi.

**TYUTOR** - (Tutoremlotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

**EDVAYZER** (advisor)-fransuzcha avisen o'ylamoq) bitiruvchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

**FASILITATOR** - (ingliz tilida facilitator, lotincha facilis-engil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy echimini topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

**MODERATOR**-qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminar, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi. Bizning ta'limda ushbu

faoliyatlarning hammasini o'qituvchi bajaradi va pedagog yoki o'qituvchi deb yuritiladi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet el mamlakatlarining ko'pchiligida tadqiqot davom ettirilmoqda.

### *Nazorat savollari*

1. Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimini tashkil etishda qanday o'zgarishlar, yangiliklar bo'ldi?

2. Markaziy Osiyoda dunyoviy maktab nazariyasi mf uning o'ziga xosligi nimada.

3. XIX asr oxiri XX asr boshlari jaxon adabiyotining yirik namoyondalari ijodi xaqida gapiring.

4. Chet el tajribalari ta'lim mazmunini qayta isloh etishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmasligi va bu borada kandy yo'l tutish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

5. Chet el tajribalarini o'rganib, ularni sharoitimizga moslab tatbiq qilish muhim ahamiyatga egaligini qanday izohlaysiz.

6. Rivojlangan davlatlarda ta'limni isloh qilish yo'llari haqida to'xtalib o'ting.

7. Axborot texnologiyalari ta'limning ta'limning samaradorligini belgilovchi omil ekaligini asoslab bering.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Buyuklarning mezonlari . AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y

2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .

3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.

4. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil

5. Xorijda ta'lim ,ma'rifat – 2001 y

6. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

7. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti.2011 yil.

## **7-mavzu: Avstraliyai va Sveysariya davlatlaridagi ta'lim tizimiga qiyosiy tahlil.**

**Tayanch so'zlar:** Avstraliyai va Sveysariya davlatlaridagi ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili. Ta'lim shakllari, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya, takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini loriy etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizimi.

**Avstraliya ta'lim tizimi.** Avstraliya Milliy Universitetida bepul ta'lim: Macquarie University - butun boshli shahar Macquarie University Kampusi - o'quv xonalari, ma'muriy binolar, tadqiqot laboratoriyalari, dam olish maysazorlari joy olgan 126 gektar hududda iborat. Bu yerda talabalar hayoti uchun zarur barcha narsa muhayyo, hattoki o'z qahvaxrnasi ham (chunonchi, sen u yerda butun yil mobaynida qo'shimcha mehnat qildim). Kampusning bir uchidan ikkinchisiga yetguncha 30 minut vaqt ketadi! Ammo qarshingda siru-asrorlarini ochish uchun sinchikov aqlni kutayotgan bilimlar dunyosi ochilayotganda buning nima ahamiyati bor? Kampusning talabalar istiqomat qiladigan qismi "qishloq" ("village") deb ataladi. Avstraliyada talaba bo'lishning o'zi manfaatli. Talabalarga kafe va do'konlarda ham, turli tadbir va ko'rgazmalarga kirishda ham chegirmalar beriladi. Universitet yaqinida bouling-klub bor, u yerda dushana kunlari barcha talabalar bepul bouling o'ynashlari mumkin. Butun Sidneydagi kabi, Kampusda ham xavfsiz. Odamlar xushmuomala va ko'ngilchan. Biron sabab bilan shahar ushlanib qolib, qishloqqa kech qaytayotgan talabalar uchun kampus hududida ekologik xavfsiz yonilg'ida ishlaydigan tungi bepul avtobus yuradi. Avstraliyaliklar sog'lom hayot tarziga mukkasidan ketishgan. Doim sport bilan shug'ullanishadi, ko'chalarda yuugurishadi. Sportchanligi bilan barchada rag'bat o'yg'otishadi! O'qishning birinchi kunlaridan, Macquarie University talabalari tashkilotchan ekanligi hayron qoldiradi. Universitet qoshida qiziqishlar bo'yicha ko'plab klublar bor: Talabalar doimo tanlov va viktorinalar uyushtirib turishadi. Talabalar harakati Macquarie University tarafidan qo'llab quvvatlanadi, bu juda zo'r deb hisoblanadi. Avstraliyaning poytaxti Kanberra shahrida bo'lib Sidneydan farqli, kichikroq shahar. Sidney mashhur Blue Mountains ("Havorang tog'lar") joylashgan adirli hududdan 20 km masofada joylashgan. Sidneyda muntazam ravishda turli festival va konsertlar o'tkaziladi. Ularni tomosha qilishga ko'p odam boradi. Ishtirokchilar va tomoshabinlarning ko'pchiligini, albatta, yoshlar tashkil qiladi. LTS (Leader Travel and Study) korxonasi ish faoliyatini 2016-yildan boshlab abituriyentlarga

o'zlari xohishlari va malakalariga ko'ra ta'lim dasturini tanlashda, oliy o'quv yurtlarida "Talabalik" maqomiga ega bo'lishda, yozgi ta'tilda ko'nikma va malakalarini oshirishda, viza olish jarayonlari va chet elda ta'lim olishlari uchun kerakli bo'lgan barcha jabhalarda yaqindan yordam berib kelmoqda.

Leader Travel and Study korxonasi abituriyentlar va talabalarga va hatto o'qituvchi va o'quvchilarga chet elda ta'lim olish, malaka oshirish va yozgi ta'til maktablarida o'qishga yordam beradi. Biz dunyo bo'ylab quyidagi dasturlarni taklif etadi. Avstraliyada ta'lim tizimi ingliz modeliga asoslangan. Shu bilan birga, Avstraliya universitetlarida ta'lim narxi AQSh va Yevropa mamlakatlariga nisbatan (30-40%) nisbatan ancha past. Maktabgachata'lim tizimi to'layo'lga qo'yilgan 2 yoshdan 6 yoshgacha har xil guruhlarda tarbiyalanadi va shu tartib qoida bilan maktabga yunaltiladi. Ertalab 8 dan kechki 7 gacha ish vaqti hisoblanadi. Davlat va xususiy bog'chalar faoliyat yuritadi. Avstraliyada ta'lim bugungi kunda eng qimmatli o'quv yurtlaridan biri bo'lishiga qaramasdan, chet ellik talabalar Avstraliya Milliy Universitetiga ro'yxatdan o'tib, barcha ta'lim to'lovlarini qisqartirish yoki butunlay yo'q qilish imkoniga ega. Xorijdan kelgan, ayniqsa, muvaffaqiyatli abituriyentlar uchun 40 ga yaqin turli xil stipendiya va grantlar taqdim etiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, chet ellik talabalarining 15 foizi 40% foizdan 100% foizgacha ta'lim olishda chegirmaga ega. 7 ta kollej va Ilmiy-tadqiqot instituti, ilmiy tadqiqotlar ustida ish olib boradi. Avstraliya Milliy Universitetining ilmiy yutuqlari: Avstraliya Milliy Universitetida Oldinga Texnologiyalar Institutiga to'qqizta tadqiqot va bitta tadqiqot markazi kiradi. Avstraliya Milliy Universiteti o'zining olimpiadasi va bitiruvchilari orasida oltita Nobel mukofoti sohibidir. Universitetdagi oxirgi Nobel mukofoti o'qituvchisi Brian Shmidt tomonidan "Sol-Perlmutter va Adam Riesz" bilan birgalikda "Olis yulduzlarning kuzatuv orqali koinotning jadal kengayishi uchun" qabul qilindi. 2014-yilda universitetning astronomlari Somon yo'li bo'ylab 13,6 milliard yil bo'lgan yulduzni topdilar – bu yulduz osmon tanasining eng qadimgi ilmidir.

Nima uchun Avstraliya Milliy Universitetini tanlaysiz? Universitetda Astronomiya va Astrofizika ilmiy-tadqiqot markazi Siding Bahori Observatoriyasi bilan ish olib boradi. Bu butun qit'adagi eng yirik observatoriyadir. Universitetning biri bo'lgan Kioloa – Yangi Janubiy Uels qirg'og'ida joylashgan. Bu yerda talabalar bilan birgalikda hududiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Avstraliyaning milliy universiteti kampusida 10 mingdan ziyod daraxt o'sadi. Atrof - muhitga boy hissa qo'shgan holda, faoliyat olib boriladi.

Avstraliya milliy universiteti Avstraliya muhandislik mukammallikni mukofotlari sovrini uchun Silver Greenhouse Challenge mukofotiga sazovor bo'ldi.

Avstraliya Milliy Universiteti haqida qiziqarli ma'lumotlar: Avstraliya Milliy Universitetining 40 dan ortiq binolari arxitektura yodgorliklari bo'lib, ko'plab sayyohlar e'tiborini tortmoqda. Universitetning markaziy tashkiloti yaqinida Avstraliya milliy muzeyi va Davlat ilmiy-amaliy tadqiqotlar uyushmasi (CSIRO) mavjud. Ushbu institutga ro'yxatdan o'tish, shu bilan birga, butun jarayonni nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

### Avstraliya ta'lim muassasalari ro'yxati.

Tilij daraja	Univ rsitet	Litsenziya Kurs narxi		Lisansüstü ta'limi		Umumiy	Jahon
		Sh dollari)		(Sh dollari)			
		Ichki	xalqaro	ichki	xalqaro		tegi
1	Avstraliya milliy universiteti	6,000- 8,000	40,000-,000	22,000 - 24,000	28,000 - 30,000	87.6	#24
2	Melburn universiteti	6,000 - 8,000	4,000 - 6,000	6000 - 8000	6000 - 8000	83.2	#36
3	Sidney universiteti	6,000 - 8,000	30,000 - 32,000	22,000 - 24,000	28,000 - 30,000	81.3	#39
4	Queensland universiteti	6,000 - 8,000	26,000 - 28,000	10,000 - 12,000	28,000 - 30,000	78.2	#46
5	Yangi Janubiy Uels universiteti	6,000 - 8,000	32,000 - 34,000	8,000 - 10,000	32,000 - 34,000	76.6	#52
6	Monash universiteti	8,000- 0,000	30,000 - 32,000	16,000 - 18,000	30,000 - 32,000	72.2	#61
7	G'arbiy Avstraliya universiteti	6,000- 8,000	30,000 - 32,000	18,000 - 20,000	30,000 - 32,000	70	#79
8	Adelaida universiteti	6,000- 8,000	26,000 - 28,000	14,000 - 16,000	28,000 - 30,000	65.3	#102
9	Macquarie universiteti	6,000-8,000	6,000- 8,000	2,000-4,000 *	8,000 - 10,000	44.7	#233
10	RMIT universiteti	18,000 - 20,000	22,000 - 24,000	14,000 - 16,000	24,000 - 26,000	42.8	#246

11	<b>Curtin universiteti</b>	6,000 - 8,000 *	26,000 - 28,000	10,000 - 12,000	28,000 - 30,000	41.5	#258
12	<b>Wollongong universiteti</b>	4,000 - 6,000	18,000 - 20,000	6,000 - 8,000	20,000 - 22,000	41.1	#264
13	<b>Nyukasl universiteti</b>	6,000 - 8,000	22,000 - 24,000	12,000 - 14,000	24,000 - 26,000	41	#268
14	<b>Queensland Texnologiya Universiteti (Avstraliya)</b>	6,000 - 8,000	22,000 - 24,000	18,000 - 20,000	22,000 - 24,000	40.2	#281
15	<b>Texnologiya universiteti, Sidney (Avstraliya)</b>	20,000 - 22,000	20,000 - 22,000	18,000 - 20,000	22,000 - 24,000	40	#284
16	<b>Janubiy Avstraliya universiteti (Avstraliya)</b>	6,000 - 8,000 *	22,000 - 24,000	16,000 - 18,000 *	24,000 - 26,000	39.3	#293
17	<b>Flinders universiteti (Avstraliya)</b>	6,000 - 8,000	12,000 - 14,000	6,000 - 8,000	10,000 - 12,000	34.8	#342
18	<b>Tazmaniya universiteti (Avstraliya)</b>	6,000 - 8,000 *	22,000 - 24,000	16,000 - 18,000 *	22,000 - 24,000	33.8	#357
19	<b>Jeyms Kuk universiteti (Avstraliya)</b>	6,000 - 8,000 *	20,000 - 22,000	4,000 - 6,000	18,000 - 20,000	33.5	#362
20	<b>Griffit universiteti (Avstraliya)</b>	16,000 - 18,000	20,000 - 22,000	18,000 - 20,000	22,000 - 24,000	33	#368
21	<b>La Trobe Universiteti (Avstraliya)</b>	20,000 - 22,000	22,000 - 24,000	14,000 - 16,000	22,000 - 24,000	32.8	#375
22	<b>Bond universiteti (Avstraliya)</b>	30,000 - 32,000	30,000 - 32,000	30,000 - 32,000	30,000 - 32,000	32.4	#380
23-24	<b>Deakin universiteti (Avstraliya)</b>	6,000 - 8,000	22,000 - 24,000	14,000 - 16,000	24,000 - 26,000		# 401-450

23-24	Murdoch universiteti (Avstraliya)	8,000 - 10,000 *	24,000 - 26,000	20,000 - 22,000	26,000 - 28,000	# 401-450
25	Swinburne Texnologiya Universiteti (Avstraliya)	<2000	18,000 - 20,000	16,000 - 18,000	20,000 - 22,000	# 451-500
26	G'arbiy Sidney universiteti (Avstraliya)		30,000 - 32,000	16,000 - 18,000	30,000 - 32,000	# 601 +

### Vaziyatni (Tahlil etib, izohlang)

Men Hamdamova Nigora Rustam qizi Maktabgacha ta'lim universitetini o'ta sinchiklab, aynan Avstraliyani tanladim. Macquarie University ga o'qishga kirganimdan so'ng Sidneyga uchib ketishni sabrsizlik bilan kutdim. Hayotning umuman yangicha maromiga ko'nikish uchun u yerga o'qish boshlanishidan bir oy avval, ya'ni yanvar oyining oxirida yetib keldim. Avstraliyada yozgi ta'til dekabr dan fevralgacha davom etib, fevralning oxiridan o'qish boshlanadi. Avstraliyacha lahja menga uncha murakkab tuyulmadi, unga tez o'rgandim. Birinchi kelganimda g'alati tuyuldi, albatta. Avstraliyaliklarda kundalik muloqotda barcha uzun so'zlarni qisqartirishga moyillik bor. Ammo bu tushunishga hecham xalaqit bermaydi. Men ta'lim oladigan dargoh Macquarie University deb nomlanadi. Men xalqaro talaba bo'lganim sababli meni Maktabgacha fakultetining tayyorlov kursiga qabul qilishdi. Ammo bu, maktabgacha yoki maktab bilan shug'ullanyapman degani emas ekan. Xorijiy tizimda aniq fanlar yoki tibbiyot bilan bog'liq bo'lmagan barchasi "san'at", bizningcha ijtimoiy gumanitarlar deb ataladi. Bakalavr darajasi ham Bachelor of Arts - "San'at bo'yicha bakalavr" deb nomlanadi. Menga ta'lim tizimi va fanlarni tanlash imkoniyat juda yoqdi, ya'ni har bir talaba o'zining yakka tartibli jadvalini tuzadi. Semestr ga 2-3 ta majburiy fan, shuningdek, bakalavriatning tanlangan dasturi sohasiga tegishli bo'lmasa ham, bir nechta qo'shimcha fan olish zarur. Tayyorlov kursida bu keyin yana uch yil o'qiladigan dastur qanchalik to'g'ri tanlanganini aniqlashga yordam beradi. Menda aynan shunday bo'ldi. Qo'shimcha sifatida bitta predmenti olishga qaror qilganimda, talabalarning deyarli 60% uni dastlabki urinishda topshira olmasligini bildim. Bu juda qiziq, deb o'yladim o'shanda) Nima deb o'ylaysiz? Tahlil, ruhshunoslik va hatto psixiatriyaning aralashmasi bo'lgan shu predmet meni shunchalar jalb qildiki, semetr oxirida uni 85%ga topshirdim. 85! Shu paytgacha quvonchimning cheki yo'q. Bu holat dastlabki qarorimni o'zgartirish va ikkinchi kursda ixtisoslashgan

holda o'qishni boshlashimga yordam berdi. Shunisi zo'rki, Macquarie University da tayyorlov kursini yakunlagan xalqaro talabalar ta'limni bakalavriatning ikkinchi kursidan davom ettirishlari mumkin.

**Avstriya** inson xavfsizligi, diniy erkinlik va teng huquqlilik hurmatiga sazovor bo'lgan xavfsiz, barqaror, farovon mamlakatdir. Avstriyaliklar xorijiyarga nisbatan bag'rikenglik munosabati bilan mashhur. Bu yerda dunyoning 130 mamlakatidan talabalar tahsil olishmoqda. Chet ellik talabalar uchun yashash va o'qish narxi boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan past. Bundan tashqari, talabalar rasman mehnat qilish huquqiga egalari va shu bilan joriy xarajatlarni to'lay oladilar.

**Sveysariya ta'lim tizimi.** Shveysariyadagi ta'lim obro'-e'tibor va elitizm bilan bog'liq. Bu yerga asosan hayotda eng yaxshi narsalarga ega bo'lishni xohlaydiganlar kelishadi. Yevropa davlatlari orasida Shveysariyada ta'lim olish uchun davlat tomonidan beriladigan grantlar eng yuqori darajaga ega. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari to'liq avtonomiyaga ega, bu nafaqat ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy tendentsiyalarni kuzatish, balki ularni shakllantirish imkonini beradi. Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya davlatlarida ta'lim tizimi, o'qitish uslublari, farqi va muammolari. Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim sohasini isloh etishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar, hayotga izchil tatbiq etilishi natijasida respublikamiz ta'lim tizimida muhim ijobiy yangilanishlar yuz berdi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda.

Shveysariyada maktabgacha, boshlang'ich va o'rta ta'lim Buyuk Britaniyada ikkita ta'lim tizimi mavjud: birinchi - Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiya; ikkinchisi - Shotlandiyada. Bu ikki tizim bir birini inkor qilmaydi Buyuk Britaniya oroli (mamlakat hududining 90%i shu orolda) va Irlandiya orolining shimoli-sharkiy qismida hamda ularga yondosh mayda orollarda joylashgan. Buyuk Britaniya mamlakat asosiy qismining nomi bilan ko'pincha Angliya deb ataladi. Maydoni 244,1 ming kv.km. Aholisi 58,5 mlndan ziyod kishi. Leyboristlar partiyasi 1900 yil tuzilgan. Konservatorlarpartiyasi 1867 yil tashkil topgan. Uzbekiston bilan diplomatik munosabatlarni 1992 yil 18 fevral umatgan. Milliy bayram-kirricha tugilgan kuni. Davlat sektori (state school) - o'quvchilarning 93%. Xususiy sektor (private school) - o'quvchilarning 7%. 1988 yilda Buyuk Britaniyada yagona davlat ta'lim standartlari kiritilgan 5 yoshdan 16 yoshgacha barcha bolalar majburiy ta'lim olishlari shart. - Boshlang'ich maktab 5-11 yosh - O'rta maktab - 11-16 yosh GCSE - Kollejda maktabdan keyin ta'lim 16-18 yosh Sixth Form - Oliy ta'lim 18 yoshdan keyin

Maktabgacha ta'lim 3 yoshdan 5 yoshgacha bolalar bolalar bog'chalari va maktabgacha sinflarga borishi mumkin : davlat (nursery school playgroup) yoki xususi(kindergarten) Boshlang'ich ta'lim - 5 yoshdan 7 yoshgacha kichik bolalar

uchun maktab ( infant-school yoki pre – preparatory school). Matematika, ingliz tili, geografiya, musika va san'at o'qitiladi. - 7 yoshdan 11 yoshgacha boshlang'ich maktab ( juniorschool yoki preparatory school) Primary school yoki elementary school - An'anaviy fanlarni chuqurlashtirilgan o'rganilishi - Tabiiy fanlarni va axborot texnologiyalar o'qitilishi boshlanishi - Test shaklida asosiy o'rganiladigan fanlardan Common Entrance Examination (CEE) Umumiy kirish va intellekt rivojlanish darajasini aniqlaydigan (IQ) imtixon topshiradilar. O'rta ta'lim - Davlat o'rta maktablari: yagona o'rta maktab (comprehensive school); klassik maktab ( grammar school) - Xususiy maktablar (public school)

**Shvetsiya** Shimoliy Yevropadagi taraqqiy etgan mamlakatdir. Shvesiya hukumati talabiga ko'ra 7-16 yoshdagi barcha bolalar maktabga qatnashlari shart. Boshlang'ich va o'rta ta'lim bepul amalga oshiriladi. Hukumat, shuningdek barcha universitetlarni boshqarib boradi. Ko'pchilik bolalar 7 yoshga bog'chalarga boradilar. Hukumat bog'chalarni ham qo'llab-quvvatlaydi, ammo ularga qatnashni talab etmaydi. Boshlang'ich maktablar Shvesiyada "grandashola" deb yuritiladi. Ular quyi va yuqori bosqichlarga bo'linadi. Quyi bosqich o'z navbatida yana 2 bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqich 1-3 sinflarni, ikkinchi bosqich 4-6 sinflarni qamrab oladi. Yuqori bosqich 7-9 sinflarni qamrab olib, 7-8 sinflardan o'quvchilar o'zlari uchun kerak fanlarni tanlay boshlaydilar. Ko'pchilik o'quvchilar keyinchalik umumiy ta'limni davom ettiradilar. Ba'zilar uy xo'jaligi yoki ishlab chiqarish sohasida kerak bilimlarni o'rganishadi. Ba'zi bolalar tilshunoslik, texnologiya yoki iqtisodiyot bo'yicha bilim beriladigan maxsus kurslarni tanlaydilar. 4-7 sinflarda barcha bolalardan ingliz tilini o'rganish talab qilinadi. 90% o'quvchilar keyin ham xorijiy tilni o'rganishni davom ettiradilar. Qabul bir yilda 2 marta bo'ladi. 5 oylik mustaqil kurslar uchun kuzgi semestrda joriy yilning 15 apreli, bahorgi semestri 15 oktyabrga qadar xujjat topshiriladi. U o'rta maktabni, qisqa muddatli kurslar, bakalavrlarni tugatganligi hamda ma'lumotnoma yoki diplom nusxasi abituriyentdan talab qilinadigan asosiy xujjatlardir. Unga esa o'z mamlakatining biror pedagogi bergan tavsiyanoma ham qo'shib topshiriladi. Uni qiziqtirgan fakultet elektron pochtaga ulanganligi sababli abituriyentdan bu xaqidagi referat ham ingliz tilida talab qilinadi. Umuman, xar qanday mamlakat talabasi bu yerda talim olishdan avval hech bo'lmaganda bir yil o'z yurtida taxsil olgani ma'qul. Maktabni tamomlab, birdan Shvesiyaga kelib qolgan chet el fuqarosi ancha qiynalib qoladi. Shvesiya Universitetlariga ariza yo'llagan talaba ta'limni tekin olsada, u turar joy masalasini o'zi hal qiladi. Talaba 750\$ stipendiya oladi. Shuniig 3/1 kismini turar joyga taqsimlaydi. Stokgolm va Yedborg shaharlarida boshpana topish katta baxt hisoblanadi. Talabalar 10-5 kishi foydalanishga mo'ljallangan yotoqxonalariga ham joylashishi mumkin. Shvesiyada bilim olishni hohlovchilarga kelishi bilan kredit kartochkasi beriladi. Shvesiyada 6

ta universitet mavjud. Shvesiya oliy o'quv yurtlari azaldan o'zining yuqori sifatli bilim dargoxlari ekanligi bilan mashxur. Ularda ta'lim bepul amalga oshiriladi. Bugungi kunda Shvesiya oliy o'quv yurtlari xorijlik talabalarga ochiq ekanligi bilan juda mashhur.

### *Nazorat savollari*

1. Rivojlangan Avstraliya mamlakatlarda shaxsni tarbiyalash muammosi qanday amalga oshiriladi?.

2. Shvetsariya mamlakatlarida xalq ta'limi tizimi haqida nimalarni bilasiz?.

3. Shvetsiya maktab ta'limi tizimini qiyosiy tahlil eting.

4. Rivojlangan mamlakatlarda maktab ta'limining mazmunini taqqoslang.

5. Avstriya ta'lim tizimi haqida nimalarni bilsiz?.

6. Shvetsiya bilan Shvetsariya ta'lim tizimi mazmuni qanday qiyosiy tahlil eting

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Buyuklarning mezonlari . AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim) . Inson va qonun. 2001 y

2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .

3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.

4. Sh. S. Shodmonova, M. E. Axmedova va boshqalar. rUmumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil

5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

6. M. E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti. 2011 yil

7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.

8. M. J. Mutalipova, B. X. Xodjayev. Qiyosiy pedagogika T. 2015 yil

### **8-mavzu: Xindiston, Singapur ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.**

**Tayanch so'zlar:** Xindiston, Singapur davlatlaridagi ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim shakllari, ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya, takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini loriy etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizimi.

**Hindiston ta'lim tizimi.** Maktabgacha ta'lim tizimida mamlakat qonuniga binoan 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar tekin ta'lim olish huquqiga ega. Ushbu yoshdagi bolalarning tahminan 85% 5-sinf-gacha qatnaydilar. Biroq 6

sinfdan boshlab to 10-sinfgacha qatnaydiganlar soni 35% ga tushib qoladi. Qishloq joylarda yordam berish uchun ishga kiradilar. Shunga qaramay Hindistondagi barcha maktablar o'quvchilar bilan to'lib-toshgan. Hindistonda 4,8 50dan ortiq kollej va universitetlar bor. 18 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan yoshlarning taxminan 4% oliy o'quv yurtlarida tahsil oladilar. Hindiston dunyoda o'ziga xos o'ringa ega mamlakat. U, asosan, boy tarixi, rang-barang madaniyati bilan mashhur. Bugungi zamonaviy Hindiston tilga olinganda yana ko'z oldimizga uning ulkan hududi, shunga mos katta aholisi hamda tez taraqqiy etayotgan iqtisodi keladi. Hindistonning bugungi rivojlanish ko'rsatkichi yiliga 9 foizni tashkil etyapti. Bu katta raqam. Unga erishish va uni shu tezlikda tutib turishning o'zi bo'lmaydi. Bunda, albatta, ko'plab omillar muhim rol o'ynaydi. Ulardan biri bu, shak-shubhasiz, mamlakatning ta'lim tizimidir. Bugun dunyoning ko'plab mashhur hamda yetakchi kompaniyalarida Hindiston ta'lim tizimi mahsuloti bo'lgan mutaxassislarning ishlayotganini ko'rish mumkin. Yildan yilga Hindiston oliy bilim yurtlariga o'qishga kelayotgan xorijlik talabalar soni ham oshib boryapti. Bularning barchasi mamlakat ta'lim tizimi mustahkam mavqe va sifat ko'rsatkichiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Hozirda Hindiston oliy ta'lim tizimi 17 000 dan ziyod kollej, 20 markaziy universitet, 217 Shtat darajasidagi Universitet, 106 ta universitet maqomidagi oliygo'ha hamda 13 ta umummilliy ahamiyatga ega institutni o'z ichiga oladi. Yaqin kelajakda bu raqamlar qatoriga yana 30 ta markaziy universitet, 8 ta yangi Axborot Texnologiyalari instituti, 7 ta Menejment Instituti va 5 ta Hindiston ilmiy instituti qo'shilish arafasida. Qadim Hindistonda ta'lim Vedalar, Purana, Ajurveda, Yoga va Kautilyaning "Artashastra" asari kabi qadimiy manbalarda an'anaviy Hind ta'lim tizimining tamal asoslari o'z ifodasini topgan. Qadim Hindistonda rasmiy ta'lim berishning Gurukul tizimi amalda bo'lgan. Bunda o'quvchi hayotning Brahmacharya bosqichidan o'tayotganda Guruning, ya'ni ustozining uyida yashab ta'lim olishga majbur bo'lgan. U bu yo'l bilan nafaqat bilim olgan, balki ustoz oilasida yashash davrida odob-axloq me'yorlarini ham o'zlashtirib borgan. Ammo bu turdagi ta'lim faqat yuqori tabaqa vakillarigagina mansub bo'lib, aholining katta qismi, xususan, ayollar ilm olishning barcha yo'laridan to'silgan edi. Jaynizm, Buddizm, Baxti va Islom kabi liberal dinlarning yoyilishi bilan ilm olishning faqat oliy kastalargagina xosligi haqidagi aqida yemirilib, aholining quyi tabaqalari ham ilm olish imkoniyatiga ega bo'lib bordi. Ta'limning barcha uchun birdek imkoniyatga aylanishi Angliya mustamlakachilari olib kelgan zamonaviy ingliz ta'lim tizimi o'rnatilishi bilangina to'la ro'yobga chiqdi. Inglizlar Hindiston ozodligining boy berilib, mamlakat iqtisodining yakson qilinishida bosh aybdor sanalsalar-da, lekin zamonaviy ta'lim va yangi siyosiy-iqtisodiy tizimni olib kelishlari bilan bu o'lka kelajagi uchun katta xizmatni ham qilib ketgan edilar.

Bugungi Hindiston erishayotgan muvaffaqiyatlarda ayni shu mustamlakachi xalq o'ratib ketgan tizim ham katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q. Bugungi Hindistonda ta'lim 1947 yil Hindiston mustaqillikka erishgandan so'ng ilm olish uchun barchaga birdek sharoit yaratib berish hukumat oldidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Jamiyatdagi tabaqachilikning asosi bo'lgan kasta va boshqa ayirmachilik an'analari Konstitutsiya orqali taqiqlandi va ularga amal qilish jinoyat deb e'on qilindi. Past tabaqalarni xo'rovchi, ularni jamiyatda boshqalar kabi teng huquqli hayot kechirishdan to'suvchi odatlar jamiyat hayotiga shunchalik chuqur singib ketgan ediki, ularga hamma qatori teng imkoniyat yaratib berishni ta'minlash uchun bunday ayirmachi odatlarni man qilishning o'zi kifoya qilmasdi. Shu boisdan ham ular uchun ta'lim tizimida maxsus imtiyozlar yaratish tizimi yo'lga qo'yildi. Masalan, oliy ta'limda 7.5 foiz o'rin qabila bo'lib yashovchi odamlar vakillari uchun, 15 foizi quyi kasta a'zolari uchun, 27 fozi boshqa qoloq guruhlar (BQG) uchun ajratilgan. Ayni shu imtiyozlar tizimi mamlakatda imtiyozsiz yuqori tabaqalar orasida noroziliklarni keltirib chiqarmoqda. Yaqinda BQGga ajratilgan o'rinlarning yanada oshirilishi aholining turli guruhlari orasida katta to'polonlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Mamlakat turli namoyishlar, qarshilik harakatlari bilan hanuz notinch. Ayrim joylarda tartibsizliklar katta iqtisodiy zarar va hatto insonlarning qurbon berilishigacha olib bordi. Bundan tashqari, Hindiston Konstitutsiyasi ozchilik guruhlarning o'z ta'lim dargohlarini ochishlariga va uni o'zlari istagan o'quv dasturi asosida mustaqil yuritishlariga ham ruxsat beradi. Ayni shu imtiyoz asosida bugun Hindistonda mamlakat rasmiy ta'lim tizimidan mustaqil bo'lgan turli diniy guruhlarning o'quv dargohlari, maktablari faoliyat yuritmoqda. Bugungi Hindiston ta'lim tizimi boshlang'ich, o'rta, yuqori va oliy ta'limni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'lim sakkiz yil bo'lib, so'ng har biri ikki yildan bo'lgan o'rta va yuqori ta'lim bosqichlari keladi. Umumiy maktab ta'limi 10+2, ya'ni 12 yil davom etadi. Maktab standarti bitgach, oliy ta'lim boshlanadi. Bakalavrlk darajasi odatda uch yil bo'lib, ayrim yo'nalishlarda besh yilgacha davom etishi mumkin. Magistratura esa ikki yildan iborat, ammo bunda ham ayrim sohalarida o'qish uch yilgacha cho'ziladi. Bundan so'ng xohlovchilar muddati bir necha yildan iborat aspirantura, doktorantura kabi ta'lim darajalari uchun o'qishlarini, ilmiy izlanishlarini davom ettirishlari mumkin. Hindistonda dunyoning mashhur ta'lim dargohlari bilan bellasha oladigan taniqli o'quv yurtlari bor. Hindiston Texnologiya Instituti, Hindiston Menejment instituti, Milliy Huquq Makablari va Javoharlal Nehru hamda Dehli Universiteti shular jumlasidandir. Xorijdan Hindistonga ilm istab kelayotgan yoshlar soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Bu o'lkaning raqobatbardosh va sifatli ta'lim tizimi hamda arzon yashash imkoniyatlari chet ellik talabalarni o'ziga rom

qilayotgan asosiy sabablardandir. Qolaversa, Hindiston hukumati turli tashkilotlar orqali xorijliklar uchun o'quv grantlari berishni ham yo'lga qo'ygan. Masalan, Madaniy Aloqalar bo'yicha Hindiston Konsulligi (ICCR) dunyoning 50 dan ortiq mamlakatiga ta'limning bakalavr, oliy va ilmiy tadqiqot darajalari uchun ta'lim grantlari ajratadi. Ayni dastur bo'yicha har yili o'nlab yurtimiz yoshlari ham grant yutib olib, Hindistonning turli oliy o'quv yurtlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. O'qish davomida mazkur mamlakat ta'lim tizimi bilan yanada yaqindan tanishish imkoniyatlari kengaydi.

Talabalarning o'qishga bo'lgan munosabati, dars jarayonlari, imtihonlarning o'tkazilish tartibi kabi jihatlari bilan bu ta'lim tizimida namuna bo'la oladigan ko'plab afzalliklar mavjud ekanligini ko'rdim. Imtihonlar ibbiyot, biznes boshqaruvi kabi sanoqli kurslardan tashqari Hindistonning boshqa oliy o'quv yurtlari kurslari uchun kirish imtihonlari o'tkazilmaydi. Talabalikka maktabda olingan ballarga qarab qabul bo'ladi. Ya'ni, o'quvchining 12 yil davomida yiqqan va so'nggi sinfdagi bitiruv imtihonlarida olgan bal ko'rsatkichlari uning qaysi oliy o'quv yurtiga kira olishi mumkinligini hal qiladi. Shu bois maktabda ham o'qish-o'qitish ishlari haqqoniy va qattiq tartib asosida olib boriladi. Bu tizim o'quvchilarning maktab davridanoq o'qishga jiddiy yondashib, a'lo baho olish uchun qattiq o'qishlarini ta'minlagan. Hatto a'lo shu darajada jiddiyki, mamlakat bo'ylab bir necha o'quvchining maktab bitiruv imtihonlaridan past bal olgani uchun o'z joniga qasd qilgani haqidagi xabarlar har yili ommaviy axborot vositalarida uchrab turadi. Chunki maktabda yetarli bal to'plab, oliy o'quv yurtiga kirish aksariyat hind yoshlari uchun hayot-mamot masalasidir. Oliy o'quv yurtiga imtihonsiz "osonlikcha" kirib olgan talabani oldinda universitetning shafqatsiz imtihonlari kutadi. Hindiston oliy o'quv yurtlari, xususan, o'zim o'qigan Dehli Universitetidagi oraliq va yillik imtihonlarning o'ta qattiq nazorat ostida o'tkazilishi meni juda hayratlantirdi. Dehli Universitetida bir o'quv yilida ikki marta imtihon bo'ladi. Birinchisi yarim yillik sinov bo'lib, u kollej ma'muriyati tomonidan o'tkaziladi. Ikkinchisi yil oxiridagi bitiruv imtihoni, uni Dehli Universiteti markaziy rahbariyati jo'natgan maxsus komissiya oladi. Imtihonga ruxkadan boshqa narsa olib kirish qat'iyan taqiqlangan. Agar kimdir biror yashirin manba olib kirib, undan ko'chirayotgani ma'lum bo'lib qolsa, u ogohlantirishsiz darhol imtihon xonasidan chiqarib yuboriladi. Bu uning mazkur imtihondan yiqildi, deganidir. Imtihonlarda "tanish bilishchilik" qilish, pora olish-berish degan narsalar umuman bo'lmas ekan. Bu ham imtihonlarning adolati o'tishi va talabalarning imtihonlarga puxta tayyorlanishlarini ta'minlagan. Imtihondan reyting ko'rsatkichi bo'yicha 60 % dan yuqori bal olgan talaba do'ppisini osmonga otsa arziydi. Chunki 60 % dan oshirish bu a'lo baho hisoblanadi. (Bizning yurtimizda esa 60 % baho olgan talaba zo'rg'a "3" ga

ilashadi). 50 % dan yuqorisini esa 2-darajali yoki "4" baho deyish mumkin. Imtihondan o'tishning minimum darajasi 40 foiz. Natijani 80 % dan oshirish universitet tarixida kamdan-kam kuzatiladigan holat bo'lib, agar kimdir shunday baxtga musharraf bo'lsa, uning ko'rsatkichi barchaning og'zida uzoq vaqt duv-duv gap bo'lishi aniq. Bulardan shunday xulosa qilish mumkinki, imtihonlar nafaqat qattiq nazorat ostida adolatli tarzda o'tkaziladi, balki ular professor-o'qituvchilar tomonidan katta talabchanlik bilan ham tekshiriladi. A'lo baho olish uchun qo'yiladigan me'yorlar juda yuqori bo'lib, 60 % dan oshirishning o'zi sanoqli talabagagina nasib etadi, xolos. Kamina ham ko'p ter to'kishlar evaziga ko'rsatkichni 60 % dan oshirishga bir necha fandagina muvaffaq bo'lganman, xolos. Imtihonlardagi qattiqqo'llik bo'smi, hind talabalaridagi o'qishga bo'lgan jiddiy munosabat meni ko'p hayratlantiradi. Ular o'zaro gaplashganlarida suhbatlarining asosiy qismi biror fandan qaysi kitobni o'qish kerakligi yoki u kitobni qaerdan topish mumkinligi haqidagi savol-javoblardan iborat bo'ladi. Tanaffus paytida ham aksariyatining kutubxonada kitob mutolaasi bilan bandligini ko'rardim. Kutubxonalarning kitob fondi ham juda boy. Masalan, o'zim tahsil olgan Dehli Universiteti markaziy kutubxonasi 500 000 kitobga ega. Universitet markaziy kutubxonalar tizimida yana ana shunday 29 ta kutubxona faoliyat yuritadi. Bulardan tashqari universitet kollejarining har birida kamida 100 000 o'quv kitoblari mavjud. Muammolar ham bormi? Muammolar ham bor. Mamlakat ta'lim tizimi jadal rivojlanib, raqobatbardosh malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha dunyoda yetakchi davlatlar qatoridan joy olib borayotgan bo'lsa-da, lekin o'lkaning umumiy savodxonlik darajasi hanuz past hisoblanadi. 2001 yilgi statistik ma'lumotga ko'ra, mamlakat xalqining savodxonlik darajasi 65.38 foiz bo'lgan. Bu borada yurtimizdagi ahvol havas qilsa arziguulik. Mamlakatimizda savodxonlik darajasi qariyb 100 foizi %. Ayni ko'rsatkich bilan O'zbekiston dunyo reytingida kuchli o'nlikda turadi. Hindistonda savodsizlik, ayniqsa, ayollar o'rtasida yanada yomon bo'lib, 54.16 % foizni tashkil qiladi. Qishloq va shahar aholisi o'rtasida ham savodlilik borasidagi farq ancha katta. Qishloq joylarda o'quvchilarning 50 foizi beshinchi sinfga yetib bormasdan maktabni tark etadi. Buning sabablari har xil: ba'zilarida o'qish uchun umuman qiziqish yo'q. Ayrimlar ishlab oilasiga yordam berish uchun o'qishni tark etadi. Maktabni tark etayotganlarning aksariyatini qizlar tashkil qilmoqda. Chunki boy xonadonlar uylariga dastyor qilib asosan qizlarni yollashadi. Oilasiga moddiy yordam berish uchun qizlar o'qishni to'xtatishga majbur. Shuning uchun ham mamlakatda savodsizlik erkaklarga qaraganda ayollar orasida yuqori. Qishloq joylardagi savodsizlikning yana bir sababi o'qituvchilar bilim darajasining pastligidir. Chunki malakali va bilimli o'qituvchilar qishloq joyda dars berishni istamaydi.

Hindiston maktablarining 19% foizida esa barcha fanlardan faqat yagona o'qituvchi dars beradi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun hukumat maxsus dasturlar ishlab chiqqan. Lekin ta'limdagi asosiy e'tibor ko'p o'q oliy ta'limga berilmoqda. Oliy ta'limni rivojlantirish va boshqarish uchun 1953 yili Universitet Grantlar Komissiyasi (UGC) tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi oliy o'quv yurtlari uchun umumiy talab va nizomlarni yaratish va ular ish faoliyatini nazorat qilishdir. Mamlakatda ta'lim tizimining bugungi ko'rinishidan norozi bo'lgan ziyolilar ham talaygina. Masalan, NCERT direktori J.S.Rajputning fikricha, Hindiston ta'lim tizimi jiddiy islohotga muhtoj. "Hozir amalda bo'lgan tizim Angliya modeliga asoslangan bo'lib, u bizni madaniyatimizdan, an'anaviy hayot yo'limizdan uzadi. Shuning uchun madaniyat va an'analarimizni o'zida mujassam etadigan tizimni yaratishimiz kerak, – deydi u. – Bunga erishish uchun ta'lim dasturlariga milliy ma'naviyatni, axloq-odobni ishaklantirishga xizmat qiluvchi maxsus fanlarni kiritish kerak". Masalaning bu tomoni ham hukumat darajasidagi e'tiborga tushgan va bu boradagi vaziyatni o'rganish ishlari davom etmoqda.

Hindistonda ta'limni yaxshilashga yo'naltirilgan shuncha harakatlarga qaramasdan, hanzuz tizimda tenglik va sifat borasida jiddiy muammolar ko'p va bu siyosat yurituvchilarning anchadan beri boshini qotiryapti. Bu asosan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy notekislik va katta miqdordagi qashshoqlikning keng yoyilgani bilan izohlanadi. Lekin, hukumat va mutasaddi guruhlar fikriga ko'ra, 11-besh yillik rejada ta'lim tizimiga qaratilgan yangi e'tibor, o'rta va oliy ta'limga ajratilayotgan katta miqdordagi mablag'lar bu muammolarni yechishga xizmat qiladi.

**Singapur** davlati nafaqat Osiyo qit'asida, balki dunyo miqyosida so'nggi chorak asr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan davlatlardan bo'lib hisoblanadi. Aholi jon boshiga har yili ishlab chiqarilayotgan yalpi maxsulotning o'rtacha miqdori 2728 ming AQSh dollarini tashkil etadi. Singapurda tabiiy va yer osti boyliklari deyarli yo'q. Iste'mol uchun asosiy oziq-ovqat, meva-sabzavotlar xorijdan keltiriladi. Davlatning asosiy boyligi uning intellektual salohiyati. Singapur tarixan Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgani uchun, uning ta'lim tizimi ko'p jihatlari bilan Britaniya ta'lim tizimiga o'xshash. Har yili o'rta maktablarni bitirgan yoshlarning 40% politexnika institutlariga, 40% foiz kollejlarga, 20% foiz ishlab chiqarishga boradi. Kompyuterda ishlashni o'rganish asosan o'rta maktabda amalga oshiriladi. Kompyuterda ishlashni bilmagan mutaxassis ta'lim muassasalariga ishga qabul qilinmaydi. Bu sohada hukumat qabul qilingan reja bo'yicha 2002- yil oxirigacha maktablardagi har 2 o'quvchining biri kompyuter bilan ta'minlanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida kompyuterda ishlashni o'rganish muammosi yo'q. Oliy

o'quv yurtining talabasi oliygohni bitiruv ishlarini amaliyotda qo'llaniladigan natija bilan yakunlashi shart va talaba bitiruv ishi natijasiga ko'ra ish joyi bilan ta'minlanadi. Talabalar 4-6 oy davomida ishlab chiqarish jarayonida amaliyot o'tadilar Politexnika institutlarida talabalar 3 yil o'qiydi. Politexnika oliygohlari keng qamrovli bo'lib, ular tarkibida hatto davolash fakultetlari ham bor. Bakalavr, magistr hamda doktorlik dissertatsiyalari asosan universitetdagi ilmiy kengashlarda himoya qilinadi. Singapur qanchalik tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bo'lmasin, u yerda ham tajriba sifatida AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya na Xitoyning yetuk oliy o'quv yurtlari faoliyati o'rganilib kelinmoqda. Ta'lim muassasalari binolari ham yevropa mamlakatlaridagi o'quv yurtlari loyihalariga mos ravishda ishlangan. O'quv jarayonini tashkil qilishda Germaniya, AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya kabi mamlakatlarning tajribasi asos qilib olinib, ulardan yetuk professor-o'qituvchilar shartnoma asosida ishga taklif etiladi. Masalan, Kaneng texnologiya uniyersitetida 70 dan ortiq chet ellik pedagog dars beradi. Shuningdek ko'plab mamlakatlardan talabalar Singapurga kelib bilim olishadi. Texnologiya universiteti talabalarining 20-25% foiz xorijiy mamlakatlar fuqarolaridir. Hozirgi paytda

Singapurda 150 mingga yaqin xorijiy talabalar tahsil olishmoqda. Singapur o'quv muassasalari faoliyatidagi asosiy xususiyat, elektronika, ya'ni informatsion texnologiyalar sohasining jadallashganligidir. Mamlakatning ta'lim sohasi byudjeti 7 mlr. dollarni tashkil etadi. Aholisi savodxonlik darajasi 96,1%, (erkaklar 98,1%, ayollar 94,1 %). 1Singapur ta'lim muassasalarida 500 mingga ziyod yoshlar ta'lim olishadi, shu jumladan, boshlang'ich maktabda 264 ming, o'rta maktabda 214 ming, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida 33 mingga yaqin. O'qish ikki tilda xitoy va ingliz tilida olib boriladi. Ta'lim muassasalarida baholash tizimi o'ziga xos jihatlarga ega. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi to'qqiz ballik tizim asosida baholanadi. (A1-eng yuqori, F9-eng past ko'rsatgich). Baholash tizimi quyidagicha: A1FA2- (a'lo), B3FB4 (yaxshi), C5FC 6- (qoniqarli), D7 (minimal ball), E8FF9 (qoniqarli). Singapur ta'lim muassasalarining o'quvchi va talabalari ko'pincha xalqaro olimpiadalar va tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallashadi. Jumladan, 2013 -yilda IMSS dasturi doirasida matematika va fan yo'nalishida o'tkazilgan xalqaro tanlovning natijalari quyidagicha: Mamlakat Reyting Matematika fan Ochkolar O'rin Ochkolar O'rin Singapur 1 643 1 607 Ikkita davlat ilm-fan va madaniyat jamoatchiligi o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish maqsadida Malayziya texnik hamkorlik dasturi (MTHD) doirasida tashkil etilgan qisqa muddatli o'quv kurslarida respublika vazirlik va tashkilotlari vakillari doimiy tarzda ishtirok etib keldi. 2013- yilda 500 ga yaqin o'zbek mutaxassislari MTHD seminarlarida ta'lim

olishdi. Malayziya ta'lim tizimi yaqin qo'shni davlatlari ta'lim tizimidan nisbatan farq qiladi.

Maktabgacha ta'lim 4 yoshdan boshlanib 7 yoshgacha davom etadi. 7 yoshdan umumta'lim maktabining 1- sinfiga qabul qilinadi. Milliy mansabligiga qarab maktabda o'quvchilar ikki guruhga bo'linib o'qiydilar. Biri to'liq davlat tomonidan moliyalashtirilgan (Sekolah Kebangsaan), ikkinchisi esa (Sekolah Jenis Kebangsaan), davlatdan qisman kredit, yordam olib o'z faoliyatini tashkil etadi. Birinchi guruhdagi o'quvchilar malay tilida, ikkinchi guruhdagilar mandarin (tamil) va xitoy tilida ta'lim oladilar. Lekin har ikki guruh uchun ingliz tili majburiy. O'quvchilar 3 yillik umumta'lim maktabida tahsil olgach, milliy davlat imtihoni topshiradilar. Keyin o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha akademik litsey (Sekolah Menengah Atas, SMA), kasb-hunar (Sekolah Menengah Kejuruan, SMK), ta'limida tahsil olishlari mumkin. O'qish muddati 3yil. Shuningdek, ba'zi kasb-hunar kollejlarda o'qish muddati 4 yil qilib belgilangan. O'qish tugagach 1-darajali diplom beriladi (D1-Profesional Ahli Pratama)

### *Nazorat savollari*

1. Hindiston davlatlari ta'lim tizimi haqidagi tushunchangizni bayon eting.
2. Hindiston ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Hindiston mamlakatlarida maktabgacha ta'limi tizimi haqida nimalarni bilasiz?.
4. Singapur davlatlari ta'lim tizimi haqidagi fikringizni bayon eting.
5. Singapur maktab ta'limi tizimini qiyosiy tahlil.
6. Singapur mamlakatlarida maktabgacha ta'limi tizimini taqqoslang.
7. Singapur ta'lim tizimi haqida nimalarni bilsiz?.
6. Hindiston bilan Singapur davlatlari ta'lim tizimi mazmuni qanday? qiyosiy tahlil eting.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Buyuklarning mezonlari . AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim) . Inson va qonun. 2001 y
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .
3. Jahon tarixi. (darslik) T-2006 y.
4. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil
5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

6. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti. 2011 yil

7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.

8. M.J. Mutalipova, B.X. Xodjayev. Qiyosiy pedagogika T. 2015 yil

### **9-mavzu: Turkiyada mustaqillik yillarida ta'lim taraqqiyoti.**

**Tayanch so'zlar:** Turkiya davlatlaridagi ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim shakllari, ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya, takomillashtirish, sifati ta'lim xizmatlarini loyiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xorijiy ta'lim tizimi.

**Turkiya ta'lim tizimining mazmuni va mohiyati.** Turkiya Respublikasida barcha tipdagi ta'lim to'la davlat nazoratida bo'lib, bunday nazoratga kirmaydigan ta'lim-tarbiya maskanlarini ochish mumkin emas. Xususiy maktablar ham davlat ta'lim standartlari talabiga mos kelishi va davlat dasturlarini to'la bajarishga majbur. Boshlang'ich ta'lim barcha kishilar uchun majburiy, davlat maktablarida bepul o'qitiladi. Majburiy ta'limdan so'ng, uning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish istagini bildirgan, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar davlat tomonidan stipendiyalar bilan ta'minlanadilar, ularga boshqa tegishli imtiyozlar ham belgilangan. Ta'lim muassasalarida faqat o'quv-tarbiya ishlari, uni takomillashtirish bilan bog'liq vazifalarnigina bajaradilar. Undan tashqari faoliyatlarga yo'l qo'yilmaydi. Turk millatiga mansub kishilarga ona tili sifatida boshqa biror xorijiy davlat tilini o'rgatish mumkin emas. Turkiya milliy maorifi tizimlarining umumiy tuzilishi quyidagicha: ta'lim tizimi bu mamlakatda ikki asosiy qismga bo'linadi. Ulardan birinchi qismi maktab ta'limi bo'lib, uning tarkibiga maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta va oliy ta'lim kiradi. Uning tarkibi quyidagicha: 1. Maktabgacha tarbiya bosqichiga maktab yoshiga etmagan bolalarni qabul qilish ixtiyoriydir. Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning maqsadi bolalarni jismoniy, aqliy va ahloqiy rivojlanishini ta'minlash, ularni maktab bosqichiga puxta tayyorlab berish, kam ta'minlangan o'quvchilarga sharoit yaratish, turk tilida to'g'ri va chiroyli gapirishni o'rgatishdan iboratdir. 1992 yilda Turkiyada 131023 bolani qamrab olgan 7763 bog'cha ishladi. Bu maktabgacha tarbiya ishidagi umumiy bolalar sonining 5 foizini tashkil etadi. 2. Boshlang'ich maktabda esa bolalar 6 yoshdan 14 yoshgacha ta'lim oladilar. Bu bosqichdagi maktab quyidagi maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi; a) har bir turk farzandiga yaxshi inson bo'lib kamol topish, bilimli bo'lish, uni milliy

ifixor ruhida tarbiyalash va fikrlashga o'rgatish; 6) har bir turk fazandiga qiziqishi, qobiliyati va iste'dodlariga ko'ra ta'lim berish, ularni layotga, o'qishning keyingi bosqichlariga puxta tayyorlashdan iborat. Boshlang'ich ta'lim muassasalari maktabgacha tarbiya bosqichidan so'ng ikki qismga: 3 yillik boshlang'ich va 3 yillik o'rta maktablar bosqichiga bo'linadi. Har ikki bosqich maktabini bitirganlik haqida o'quvchilarga attestat beriladi. Bu ikki bosqich maktab sharoitiga qarab bir maktab bazasida yoki alohida-alohida ikki maktab tarkibida tashkil qilinishi mumkin. Aholi siyrak va tarqoq qishloqlarda maktab markaziy qishloqlardan birida ochiladi, guruhlashtirish imkoniyati bo'lmagan tumanlarda esa bu ta'lim bosqichi internatlar tipidagi o'quv muassasalari shaklida amalga oshiriladi.

3. O'rta ta'lim boshlang'ich ta'limga tayanib, kamida uch yillik ta'lim beruvchi umumiy, kasbiy va texnik ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi barcha o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim va shunga muvofiq umumiy madaniyat, inson va jamiyat muammolarini o'rgatish, ularni oliy ta'lim bosqichiga, hayotga, kasb-kor sohalariga tayyorlashdir. Bu maqsadlar o'rta umumiy ta'lim, turli dasturlarda kasb-kor o'rgatuvchi texnik-qurilish qishloq xo'jaligi yo'nalishlaridagi litseylarda amalga oshiriladi. O'quvning har bir bosqichi bo'yicha alohida-alohida dasturlar mavjud. Bu dasturlar quyidagilardir: — ta'limning oliy bosqichiga tayyorlash dasturi; — kasbga va oliy ta'limga tayyorlash dasturi; — hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash dasturi va xokazolar. Litseylar o'z turlariga va jumhuriyat ehtiyojiga ko'ra quyidagicha ixtisoslashtirilgan: — umumiy litseylar — o'quvchilarni oliy ta'limga tayyorlaydi, 3 yil; — fan litseylari — alohida fanlardan iqtidorli va ijodkor o'quvchilar bilimini va qobiliyatini takomillashtiradi, 5 yil; — kichik litseylar — kunduzgi litseylarda o'qish imkoniyati bo'lmaganlar uchun, o'qish 4 yil; — kasb-hunar litseylari — o'quvchilarga o'z qiziqishlari bo'yicha turli kasbhunar o'rgatadi, o'qish muddati 3 yil; 40 — nafis san'at litseyi — ona tili va adabiyoti, rasm, musiqa kabi bo'limlarga ega; — o'qituvchilar litseylari — boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'qituvchilar tayyorlaydi. O'qish muddati 1 yil tayyorlov kursini hisobga olganda 4 yil; — tijorat va turizm ta'limi litseylari — maishiy xizmat ko'rsatish, savdo, umumiy ovqatlanish shahobchalariga va boshqa sohalarga mutaxassislar tayyorlab beradi; — diniy ta'lim maktablari — imom-xatib hamda din darsini o'qituvchi o'qituvchilar tayyorlaydi; — maxsus ta'lim maktablari — ular korreksion maktablar bo'lib, jismoniyatli jihatdan nuqsoni bor bolalar uchun mo'ljallangan; — texnik litseylar — o'quvchilarga umumiy fanlar bilan bir qatorda industrial kasb-hunar ta'limini beradi. Bundan tashqari Turkiyada qizlar kasb litseyi, qizlar texnik litseyi, qizlar san'at o'rta maktablari, qizlar, o'g'il bolalar xususiy maktablari mavjud.

4. Oliy ta'lim mamlakatda oliy malakali turli kasb mutaxassisliklarini, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga qodir kishilarni etishtirib

beradi. Turkiyada bunday mutaxassisliklar bo'yicha hozir 235' universitetlar va oliy tsxnologik institutlar ishlab turibdi. Bu universitetlardan 2 tasi diniy mahkamalar tasarrufidadir. Mamlakatdan tashqarida yashovchi turk millatiga mansub kishilarning (ular 2,5 mln. dan ortiq) ta'lim-tarbiyasiga ham katta ahamiyat beriladi. Hozir shunday toifadagi kishilarni o'qitish uchun Turkiya hukumati tomonidan 1236ta o'qituvchi ajratilgan. Ularning barchasiga davlat tomonidan haq to'lanadi. Turkiya hukumati «Milliy maorifining asosiy Qonuni»da maktab ta'limi bilan bir qatorda maktabdan tashqari ta'limga ham katta e'tibor berilgan. Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan asosiy talab katta yoshdagilarni o'qish va yozishga o'rgatish; ularga umumiy va kasb-kor bilimlarini berish; savodxonlikdagi nuqsonlarini bartaraf etish kabi vazifalarni bajaradi, shuningdek, bunday muassasalar fuqarolarga, birinchi galda yoshlarga ijtimoiy hayotning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, madaniy hayotiga to'la moslashish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Shuningdek, MTMLar turli sohalarida mehnat qilayotgan kishilarning ishdan ajralmagan holda kasb malakalarini oshirishga imkoniyat tug'diradi. Turkiya Reslublikasida maktabdan tashqari ta'lim ikki manba orqali beriladi. Ulardan biri maktab bo'lsa, ikkinchisi ustoz-shogirdlik yo'nalishidir. Ularning sohalar bo'yicha dasturlari quyidagilar:

1. Umumiy ta'lim dasturlari;

2. Kasb-hunar, texnik ta'lim dasturlari;

3. Shogirdlik va ustalik ta'limi dasturlari; 4. Ochiq ta'lim dasturlari va hokazolar. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarkibiga bulardan tashqari amaliy san'at maktablari, qizlar amaliy san'at maktablari, yetuklik institutlari na yetuklik texnik ta'lim markazlari ham kiritilgan. Shuningdek, keyingi yillarda o'quvchilar va talabalarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli va sermazmun o'tkazishga katta ahamiyat berilmoqda. 41 Shu maqsadda til o'rgatish markazlari musiqa, xalq o'yinlari, foto, teatr studiyalari, shaxmat-shashka klublari, turli sayohatlar uyushtirish, lag yerda dam olishni tashkil qilish hamshiralik, rassomchilik to'garaklari yo'lga qo'yilayotir, ular orqali turli tanlovlar o'tkazishni amalga oshirilmoqda. Talabalar va o'quvchilar uchun sportning turli sohalar bo'yicha sekstiyalar tashkil etilgan, ularda sportning ommaviy turlari bo'yicha turnirlar, musobaqalar tashkil etilmoqda. Qizlar uchun esa qo'lda to'qish, bichish-tikish, pazandalik yo'nalishlaridagi to'garaklar mavjud. Ular tomonidan to'qilgan, tikilgan, tayyorlangan mahsulotlar har yili Anqaradagi katta ko'rgazmada namoyish etiladi.

Turkiyada bepul majburiy o'rta ta'lim joriy qilingan. Milliy ta'lim tizimi 3 qism (asosiy ta'lim, yordamchi ta'lim - kurslar va ochiq, ya'ni sirtqi ta'lim)dan iborat. Asosiy ta'lim maktabgacha tarbiya, boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi. Yordamchi ta'lim o'quv yurtlaridan tashqarida

tashkil etiladigan kurslar faoliyatini qamrab oladi. 2002/03 o'quv yili asosiy ta'lim tizimida 52692 ta'limtarbiya muassasasi ishladi, jumladan maktabgacha ta'lim muassasalarida 320 ming bola tarbiyalandi, boshlang'ich maktablarda 103 mln., o'rta maktablarda 3 mln. o'quvchi, oliy o'quv yurtlarida 1,7 mln. talaba ta'lim oldi, Yordamchi, ya'ni keng xalk, ta'limi tizimida 3 mln. kishi mashg'ul bo'ldi.

Boshlang'ich ta'lim (6—14 yoshdagi bolalar uchun) 8 yil O'rta ta'lim kamida 3 yillik bo'lib, o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim, kasbhunar va texnika ta'limi berishga mo'ljallangan. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar xususiy tarbiya tizimida o'qiydilar. 2012-2013 o'quv yili bu tizimdagi 425 maktabda 24,4 ming o'quvchi ta'lim oldi. 2015-2018 o'quv yili Turkiya oliy ta'lim tizimidagi 96 ta universitet, yuzlab institut, konservatoriya, kasb oliy o'quv yurtlarida 1 mln. 894 mingdan ziyod talaba o'qidi. Oliy o'quv yurtlarida o'qish pulli. Yirik untlari: Istanbul universiteti (1453), Anqara universiteti (1946), O'rta Sharq texnika universiteti (1956), Egey universiteti, Otaturk universiteti, Qora dengiz texnika universiteti, Bosfor universiteti, tibbiy mutaxassislar tayyorlanadigan Hojitepa universitetlari faoliyat yuritadi

Madaniyat vazirligi tizimida 1440 kutubxona va 92 muzey bor. Yirik kutubxonalar: Anqaradagi milliy kutubxona, Ankara va Istanbul untlari kutubxonalari, Anqaradagi TBMM kutubxonasi. Yirik muzeylar: Turk osri atiqqa (arxeologiya va etn.) muzeyi (1923), Istanbuldagi To'pqopi saroyi (1927), Etn. muzeyi (1930), Ayo Sofiya ibodatxonasi muzeyi (1934). Turkiyada ilmiy tadqiqot ishlarini muvofiklashtirish uchun Ilm va Texnologiya oliy jamiyati tuzilgan. 1993 yil Fanlar akademiyasi va Turk Patent instituti barpo etildi. Standartlar (1960), Marmar dengizini ilmiy va texnologik tadqiq etish (1972) ilmiy tadqiqot institutlari, kimyo, biol., elektroradiografiya, mikrobiol., veterinariya, ged., tarix, tilshunoslik, iqtisodiyot, falsafa jamiyatlari bor.

O'zbekiston Respublikasi istiqbolga erishgach, uning mustaqilligini birinchi bo'lib qardosh Turkiya Respublikasi tan oldi. Mamlakatlarimiz o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar, shu jumladan, ta'lim bo'yicha hamkorlik tez rivojlanib bordi va u bizning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarimizda yetakchi o'rinlardan birini egalladi. Bu hamkorlikning natijasi o'laroq, Respublikamizda 20 dan ortiq o'zbek-turk hamkorligidagi litseylar tashkil etildi va ular yaxshi faoliyat ko'rsatmoqdalar. Har yili yuzlab o'zbekistonlik o'quvchilar va talabalar ta'lim olish uchun Turkiyaga jo'natilmoqda. Ayni vaqtda turkiyalik yoshlar ham Respublikamiz o'quv muassasalarida bilim olmoqdalar. Shuningdek, bu mamlakat bilan keng ko'lamda ta'lim bo'yicha mutaxassislar almashish yo'lga qo'yilgan. Har ikki mamlakatdan ta'limni boshqarish muassasalarining, o'quv yurtlarining hamda ta'lim bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-metodik ishlar olib boruvchi mutaxassislar, o'qituvchilar va tarbiyachilar birbirlariga tashriflar uyushtirib o'zaro

tajribalar almashmoqdalar. Bularning barchasi ikki mamlakat maorifchilarining umumiy maqsad yo'lidagi ishlarni rivojlantirishga hissa bo'lib qo'shilyapti. Turkiya Respublikasida ta'limning qo'yilishining o'ziga xos tomonlari borligini hisobga olib, u haqda to'laroq ma'lumotlar berish o'rinli deb hisoblaymiz. Respublikada hozir amaldagi ta'lim tizimlariga turk xalqining asl farzandi Kamol Otaturk asos solgan. Turkiya ta'lim tizimlari mamlakat Konstitutiya, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qonunlar, «Milliy maorif vazirligining tuzilishi va vazifalari haqidagi 179, 208, 385- sonli qonunlarda hamda hukumat dasturlarida har tomonlama chuqur ifodalangan. Respublika Konstitutiya 42-moddasida "Barcha kishilar ta'lim-tarbiya olish huquqiga egadirlar" deb yozib qo'yilgan va fuqarolarning bilim olish huquqlari kafolatlangan.

### *Nazorat savollari*

1. Turkiyada ta'lim tizimini joriy etish masalalari haqidagi tushunchangizni bayon eting.
2. Turkiyada mustakillik yillarida ta'lim taraqqiyoti.
3. Turkiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Turkiyada maktabgacha ta'lim tizimi muammolari.
5. Turkiya maktabgacha ta'lim tizimini taqqoslang.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Buyuklarning mezonlari . AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim) . Inson va qonun. 2001 y
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .
3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.
4. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. rUmumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil
5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.
6. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.O'quv qo'llanma Noshir nashriyoti.2011 yil
7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.
8. M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev. Qiyosiy pedagogika T.2015 yil

**10 - mavzu: Malayziya va Indoneziya davlatlarida mustakillik yillarida ta'lim taraqqiyoti.**

**Tayanch so'zlar:** Malayziya va Indoneziya davlatlaridagi ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim shakllari, ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili,

ta'limning taraqqiyot bosqichlari, Malayziya va Indoneziyada maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonlari, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlarini loyiq etish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xorijiy ta'lim tizimi.

**Malayziyada ta'lim tizimi taraqqiyoti masalalari.** Malayziyada maktabgacha ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lib, o'qish muddati xuddi umumta'lim tizimidagi singan o'quv jarayoni dasturiga, davomiyligiga amal qilinadi. Malayziyada 2800 ta o'rta maxsus bilim yurti faoliyat ko'rsatmoqda. Keyingi bosqichda insitut va universitetlarda o'qishni davom ettirish mumkin. Malayziyada 60 ta universitet, 1270 ta xususiy oliy o'quv yurtlari bor. Shlarning ichida Malayziya universiteti alchida mavqeiga ega. Ta'lim sohasig davlat byudjetining 3,7% ga yaqin mablag'i ajratilgan. Demak, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya davlatlarida ta'lim tizimi tajribasi bizning ta'lim tizimimiz rivojiga qanday ko'maklashi mumkin? Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi tajribasidan nimalarni olish mumkin?

1. Janubiy Koreyada davlat maktablarida diniy ta'limot o'qitilmaydi. Lekin 3- sinfdan boshlab maxsus fan joriy etilgan. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Davlat byudjetining 24 foizi ta'limga saflanadi. Shuningdek, bizda ta'lim islohoti davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bixobarin, davlat byudjetining 35% ta'limga sarflanayotgani fikrimizni tasdiqlaydi.

2. Singapurda hukumat qabul qilingan reja bo'yicha 2002 - yil oxirigacha maktablardagi har 2 o'quvchining biri kompyuter bilan ta'minlangan. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida kompyuterda ishlashni o'rganish muammosi yo'q. Binobarin, kompyuterda ishlashni bilmagan mutaxassis ta'lim muassasalariga ishga qabul qilinmaydi.

3. Singapur o'quv muassasalari faoliyatidagi asosiy xususiyat, elektronika, ya'ni informatsion texnologiyalar sohasining jadallashganligidir. Nazanimizda, ta'lim tizimimizda ushbu faoliyat turini jadallashtirish lozim deb o'ylaymiz.

4. Janubiy Koreyada hunar maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir. Bizda esa homiylik yo'lga qo'yilgan, xolos. Yoki, korxonalar qisman moliyaviy ko'maklashadi.

5. Malayziyada nogiron bolalarni o'qitish borasida boshqa Sharq davlatlariga qaraganda ancha ilgari ketgan. Ta'lim-tarbiyada yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash tajribasidan boshqa davlatlar bu yerga kelib oz tajribalarini oshirib qaytmoqdalar. Demak, inklyuziv ta'limni rivojlantirishda Malayziya tajribasidan foydalanish muhimdir.

**Indoneziya ta'lim tizimining o'ziga xosligi shundaki,** 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun boshlangich majburiy ta'lim joriy qilingan.

Boshlangich maktabda o'qish muddati 6 yil, o'rta maktabda ham — 6 yil Davlat maktablari bilan bir qatorda xususiy mak-tablar ham bor. 1-va 2- bosqich texnika va tijorat maktablari va shunga o'xshash o'quv yurtlari hunar ta'limini beradi. O'qituvchilar 3 yillik pedagogika maktablari, pedagogika kollejlari va universitetlarda tayyorlanadi. Jakartadagi birinchi davlat universiteti (1950 yilda asos solingan), Milliy universitet (1949 yilda asos solingan), Jokyakartadagi Islom xususiy universiteti (1945 yilda asos solingan). 1967 yilda tashkil etilgan Indoneziya fanlari bo'yicha ilmiy tadqiqot instituti 40 dan ortiq ilmiy muassasa va jamiyatni birlashtiradi. Yirik kutubxonalar: Jakartadagi Ommaviy, Parlament kutubxonalari, Bandung, Bogo-ra, Jokyakarta, Makassar, Medandagi kutubxonalar. Jakartada Indoneziya madaniyati muzeyi (1778 yilda asos solingan), Bogorada Zoologiya muzeyi (1894 yilda asos solingan) bor. Matbuoti, radioeshittirishi va teleko'rsatuvi Asosiy gazeta va jurnallar "Merdeka" ("Ozodlik", kundalik gazeta, 1945 yildan), "Pelita" ("Mash'al", kundalik gazeta, 1974 yildan), "Suara karya" ("Mehnatkash ovozi", kundalik gazeta, 1971 yildan), "Biyeniye Indonesia" ("Indoneziya biznesi", kundalik gazeta, 1985 yildan), "Brita buana" ("Jahon yangiliklari", kundalik gazeta, 1970 yildan), "Brita yudxa" ("Harbiy yangiliklar", kundalik gazeta, 1970 yildan), "Indonezian observer" ("Indoneziya sharhi", ingliz tilida chiqadigan kundalik gazeta, 1950 yildan), "Biznes Nyus" ("Biznes yangiliklari", indonez tilida haftasiga 3 marta chiqadigan byulleten, 1956 yildan), "Sinar" ("Hyp", tadbirkorlarning haftalik jumal, 1993 yildan). Antara-Milliy axborot agentligiga 1937 yilda asos solingan. Respublika radiosi 1945 yilda tashkil etilgan. Indoneziya Respublikasi televideniyesiga 1962 yil asos solingan. Adabiyoti hududidan VII-VIII asrlarda qadimgi malayziya va yava tillarida toshlarga bitilgan yozuvlar topilgan. IX-XI asrlarda yava adabiyoti ravnaqtopdi ("Ramayana", "Arjunaning to'yi" va boshqalar). XIV-XVII asrlarda yavalik yozuvchilar hind mumtoz asarlari (xususan, "Mahabharata") va xalq, ijodi ta'sirida tarixiy mavzuda asarlar ("Tantu Pan-gelaran", "Pararaton", "Nagaraker-tagama" va boshqalar) yaratdilar. XV asrdan Yava va Balida yangi adabiy o'lchov — machapat va yangi she'riy shakllar joriy qilinib, folklor bilan bevosita bog'langan dostonlar ("Devaruchi", "Pan-ji Angreni", "Damarvullan") paydo bo'ldi. Yava adabiyoti an'analari 16— 18-asrlardagi sund va madur adabiyotining rivojlanishida namuna bo'ldi. 16-asrda dengiz bo'yi shaharlarida malayya tilidagi adabiyot ko'proq rivojlandi. Ache sultonligi (XVI-XVII asrlar)da, Hamza Fansuriy, Nuriddin ar-Rapiriy va b. mashhur malayya shoirlari ijod qildilar.

XVIII-asrda mamlakat savdosi ustidan Niderlandiya nazoratining kuchayishining musulmon davlatlari bilan aloqalarining birmuncha susayishiga olib keldi va natijada malayya tilidagi adabiyetning rivoji vaqtincha sekinlashdi. Ayni vaqtda asosiy adabiy til bo'lib qolgan ache tilida "Malem, Dagang", "Puchut

Muhammad" va b. dostonlar yaratildi. XVIII asming 2-yarmi va XIX-asming 1-yarmida yava adabiyoti ravnaq topdi. Bu adabiyotning mumtoz namoyandalari Yasadipura I, Rongovarsito asarlarida yangi davr Yevropa madaniyati aksettirildi. Indoneziyada milliy ozodlik harakatining boshlanishi bilan malayya tili siyosiy va madaniy jihatdan butun mamlakatning birlashuviga olib keluvchi vosi-ta bo'lib qoldi. 19-asr oxirida malayya tilida paydo bo'lgan matbuot yangi adabiyotning rivojlanishiga katta yordam berdi. Yozuvchilardan Marko Kartodikromo va Semaun birinchi bo'lib roman janrida ijod qildilar. XX-asming 20—30-yillarida S. T. Alishohbona, Hamka, Rustam Efi'endi va b. yaratgan asarlar, "Pujanga Baru" badiiy, ijtimoiy va siyosiy jurnalning nashr etilishi Indoneziya adabiyoti taraqqiyoti uchun muhim voqea bo'ldi. 30-yillar oxirida bir qator yozuvchilar (H. Anvar, Idrus, P. A. Tur, A. Kartamiharja, U. T. Sontani va boshqalar) ijodida realistik tamoyillar kuchaydi.

50-yillar boshlarida ba'zi yirik yozuvchi va dramaturglar asta-sekin Xalq madaniyati jamiyati (LEKRA) atrofiga jipslashdilar. 1965 yil gi voqealardan so'ng bu jamiyat tugatildi. Hoz. zamon I. adabiyotining ilg'or vakillari realistik an'nani rivojlantirmoqdalar. V. S. Rendra, T. Moxtar, A. Rosidi, G. Poyka she'r va hikoyalarda, M. Bushe, P. Vijaya, I. Simaputang romanlarida va b.ning asarlarida I.dagi muhim ijtimoiy muammolar aks etmoqda. Me'morligi va tasviriy san'ati, hududida mezolit davri (mil. av. 7-5ming yillik)ga oid hayvon tasvirlar, neolit davriga xos toshga bitilgan yozuvlar (Sulavesi o. janubiydagi to'ng'iz tasviri, o'yama naqshli sepol buyumlar) topilgan. Quyi neolit davridayoq pog'onali qo'rg'onlar, dolmen (tosh maqbara)lar, tosh tobutlar, jez buyumlar - odam haykallari, burama naqshli bolta va turli idishlar yaratilgan. Mil. boshlarida Nias, Sumba, Flores lfdkfnlarida toshdan yasalgan obidalar hozirgacha yetib kelgan. Keyingi davrlarga oid me'moriy yodgorliklar, haykallar dinning kuchli ta'sirida yaratilgan (VII-VIII asrlarga oid Arjuna, Shri-kandi, Bximo ehromlari, ularda Budda afsonalari asosida yaratilgan bo'rtma haykaltaroshlik asarlari). Yavada barpo etilgan Borobudur ibodatxonasi 8-9-asrlardan qolgan eng yirik yodgorlikdir. Bu exrom ulkan tosh pi-ramidaga o'xshab ketadi. Uning aylana-si, bir necha km li supasi diniy syu-jetli rasmlar bilan bezatilgan. Borobudur yaqinida saklangan haykallar ham diniy mavzular asosida yaratilgan. VIII-asr o'rtalaridan Mataramda hinduilik rasmiy dinga aylangach, binolar - Lar Jongrang (IX-asr), (XIV-XV-asrlar) va b. ibodatxonalar hinduilik ruhida qurilgan. XIII—XV-asrlarda Majapaxit imperiyasi davrida hind madaniyati ta'siri susayib, mahalliy an'analar ahamiyati kuchaydi. XVI-asr dan masjid va madrasalar qurila boshladi. XVIII-XX-asrlarda/

I. shaharlari qurili-shiga Yevropa (ayniqsa, golland) me'morligi katta ta'sir ko'rsatdi. Jakar-ta, Bandung va b. shaharlarda ma'muriy binolar, mehmonxona, institut, kasalxona, stadion, sanoat korxonolari va b. inshootlar funksionalizm

ruhida qurildi. Turar joy va jamoat bi-nolari qurilishida tropik iqlim xu-susiyatlari hisobga olindi (Bandungdagi texnologiya instituti va boshqalar). Indoneziya san'atining yirik markazi - Bali o.da xukmdorlarning qoyalardagi maqbaralari (XI - XII asrlar) da, XIV-XV-asrlarga oid ehromlarda devoriy rasmlar saklangan. Kitob mini-aturasi ham rivoj topgan. Xalq san'ati rivojini yog'ochdan qurilgan bi-nolarda, metall, yog'och, suyak buyumlar, gulli matolarda ko'rish mumkin. XVII-asr dan boshlab, golland mustamlakachilari va b. bosqinchilarning jabr-zulmi I. san'ati rivojiga putur yetkazdi. Milliy ozodlik harakati ta'sirida zamonaviy san'at shakllandi (I. rassomlari uyushmasi, 1937-38 yillari asos solingan). Ozodlik uchun kurash mavzui S. Sujoyono, K. Affandi, B. Abdulloh, I. B. Made va b. rassomlar ijodida o'z ifodasini topdi. Qad. an'analarga ega bo'lgan xalq amaliy san'ati mustaqillik yillarida gurkirab rivojlandi. Musiqa san'ati. Musiqasi hind-yava madaniyati va Indoneziyada yashagan boshqa xalqlar madaniyatining rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan. I ming yillik oxiri va 2 ming yillik boshida Yavada rivojlangan musiqa madaniyati Janubiy Sumatra, Bali, Madur va b. orollardagi musika rivojiga ham ta'sir etdi. Qadim zamonlardan musiqa qishloq aholisi turmushiga singib ketgan, hosil yigimi, don yanchish kabi mehnat jarayonlarida qo'shiq yangrab turgan. Janubiy sharqiy Osiyodagi boshqa musiqiy madaniyatlardan farqli o'laroq, indonezlar xor qo'shiqchiligi an'analari davom ettirib kelayotir. Rivojlangan geterofoniya va ko'p ovozlilik Indoneziya musiqasiga xos xususiyatdir. Xalq cholg'u asboblari orkestri gamelan — Indoneziya mum-toz musiqa san'atining cho'qqisi hisoblanadi. 16-asrda an'analari negizida kronchong musiqa shakli vujudga keldi. Indoneziya mustaqillikka erishgach (1945), umummilliy musika madaniyati rivoji uchun qulay imkoniyat tug'ildi. Professional va havaskorlik jamoalari, kamer orkestrlar xalq an'analari rivojlantirayotir. Sujasmina, A. Pasaribu, Susbini va b. tanikli kompo-zitorlar professional musiqa namo-yandalaridir. Jokyakartada musiqa maktabi (1952 yildan), Surakartada konservatoriya hamda milliy mumtoz musika maktabi (1960) ochildi. 1968 yildan Jakartada simfonik orkestr ishlaydi. Teatr san'ati azaldan xalq bayramlari va diniy marosimlarda o'tkaziladigan tomoshalardan boshlangan. Topengdalang (ijrochilar niqob kiyib imo-ishoralar bilan raqsga tushadi) va vayang-orang (qonunlashgan teatr vosi-talariga qat'iy rioya qilinadi) ka-bilar Indoneziyaning xos an'anaviy teatr shakllaridir. Indoneziyada qo'g'irchoq va soya tushirish teatrlari ham rivojlangan. Teatr tomoshalarining asosini qad. hind eposlari, "Ramayana", "Mahabhara-ta" dan olingan parchalar, arab rivo-yatlari va mahalliy ertaklar tashkil etgan. 19-asr oxiri va 20-asr boshida zamonaviy teatrlar tashkil topdi. 50-60-yillarda "Marxaen", "Triskokanten" kabi guruhlar shuxrat qozondi. Ular Indoneziya milliy dramaturglari Utuy Tatang Sontani, Abu Xapifax, Ali Muhammad, Sanusi Pane va b., shuningdek, G. Ibsen, A. P. Chexov

hamda N. V. Gogol asarlarini sahnalashtirdi. 50-yillardan Milliy teatr akademiyasi va b. ishlay boshladi.

**Shri-Lankadada** savodsizlar taxminan 15% bo'lsa Janubiy Osiyoning boshqa mamlakatlarida 15 va undan katta yoshdagi aholining 2/3 qismi o'qishni va yozishni bilmaydi. Bolalarning katta qismi maktablarga bormaydi. Buning sababi yoki yaqin atrofda maktablarning yo'qligi, yoki o'z oilalariga yordam berish uchun ishlashga majbur bo'lishlaridir. Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlaridagi ta'lim qitadagi boshqa davlatlaridagi ta'limdan ham sifati, ham qamrov doirasi bilan keskin farqlanadi. Shuning ifodasini Malayziya, Filippin, Singapur, Tayland va Vetnamda savodsizlar 30% dan ham kamligida ko'rish mumkin. Indoneziya, Birma, Laoz davlatlarida savodsizlar miqdori 39-45 % atrofida, Kombodjada 50% atrofidadir.

#### *Nazorat savollari*

1. Malayziyada ta'lim tizimi taraqqiyoti masalalari
2. Malayziyada ta'lim tizimini joriy etish masalalari.
3. Malayziyada mustakillik yillarida ta'lim taraqqiyoti
4. Indoneziya ta'lim tizimining umumiy asoslariga to'xtalib o'ting
5. Indoneziyada maktabgacha ta'lim tizimi tashkil etish yo'llari.
6. Indoneziya maktabgacha ta'limi tizimini zamonaviy talablari.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Buyuklarning mezonlari. AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y.
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .
3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.
4. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. rUmumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil
5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.
6. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti. 2011 yil
7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.
8. M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev. Qiyosiy pedagogika T. 2015 yil

**11 - mavzu: Buyuk Britaniya davlatlarida ta'lim muammolari. maktabgacha ta'lim tizimi**

**Tayanch so'zlar:** Buyuk Britaniya davlatlarida ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim, muammolar va yechimlar, Buyuk Britaniya davlatlaridagi ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim shakllari, ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, Buyuk Britaniya maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonlari, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlarini loriy etish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizimi.

**Buyuk Britaniya davlatlarida ta'lim muammolari.** Maktabgacha ta'lim tizimi. Buyuk Britaniya noyob madaniyat va an'analar davlati xisoblanadi. Ingliz ta'lim berish tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri deb xisoblanadi, Britaniya ta'lim dasturlari eng yukori standart-larga mos keladi. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim berish kambaFal ishchi oilalar bolala-riga kungilli yordam berish xarakatiga asosan vujudga kelgan. 1816 yilda Robert Ouen ilk bor Shotlandiyada uz fabrikasi ishchilarining far-zandlari uchun ilk bor bolalar bog'chasini och-gan. XX asr boshlarida opa-singil Makmillan-larning tashabbusi bilan bir nechta bolalar bo'Fchalari ochilib, ularda asosan kam ta'min-langan oilalar farzandlarining salomatligi va yaxshi ovkatlanishlari uchun g'amxurlik kursatilgan.

1988 yilda «Ta'lim tug'risida»gi qonuni kuchga kirib, unda nafakat ta'lim standartlari, balki bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruxiy rivojlanish darajasiga bazaviy baxo berish ham belgilangan. Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta'lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. O'qitishni boshlash muddati Yevropada eng erta deb hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim ustuvor yo'nalish toifasiga 1996 yilda maktabgacha ta'lim tizimi xakidagi konun kabul kilingandan keyingina tushgan. Uni kabul kilishdan asosiy maksad bolalar bohchalarida ta'lim berish sifatini yaxshilash, ta'lim standartlarini oshirish va erta ta'lim berishni moliyalashni oshirishdan iborat. Taklif kilingan tizim doirasida o'ziga xos o'quv rejasi o'matilib, uning bajarilishi maktabgacha ta'lim muassasasining davlat ta'lim tizimi talablariga javob berishi lozim. Maxsus ehtiyojlarga muxtoj va ingliz tili ularning ona tili bulmagan bolalarga alohida e'tibor berilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, bolalar tarbiyasi va ta'lim olishi o'rtasidagi farq hamma mamlakatlarda mavjud emas. Buyuk Britaniyada esa ikkalasi xam ahamiyatli va zarur, deb tan olingan. Birlashgan Kirollikda bunday xizmat ko'rsatuvchi 25 turdagi muassasalar faoliyat olib boradi va shuning uchun bu yerdagi ta'lim tizirni turlicha va ahamiyati xam teng emas.

1997 yildan Angliyada erta ta'lim islohoti amalga oshirilmoqda. Bu davrgacha erta ta'lim olish va tarbiyalashga yondashish tizimlashtiril-magan edi - maktabgacha tarbiya muassasasi xox-laganicha o'qitish dasturi yoki xizmat

ko'rsatish turlarini qo'llashi mumkin edi. Bu xolat yagona ta'lim tizimiga jamlanmagan «noyob» yonda-shishlarning tarkalishiga olib keldi. O'qitish uchun xizmatlar sifati o'zgarib turar edi. Angliyadagi 3-4 yoshdagi bolalar uchun maktabgacha ta'lim Yevropada eng yaxshilardan biri deb tan olingan bursada, Buyuk Britaniyada o'tgan asrning 90-yillar boshiga kelib undan fakat 20 foizgina bolalar foydalanar edilar. Qabul qilingan islohot 3-4 yoshdagi bolalar tarbiyasi uchun yagona ta'lim dasturi ishlab chikarilishiga yunaltirilgan edi. 1918 yilda maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun 15 mlrd. dollar miqdorida mablag' sarflangan. Shu bilan birga 1997 yilga kelib Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'limning birorta xam xususiy tizimi bul-magan bo'lsada, hozirga kelib ularning soni 20 tadan oshib ketdi. ta'lim tizimiga jamlanmagan «noyob» yondashislarning tarqalishiga olib keldi. O'qitish uchun xizmatlar sifati o'zgarib turar edi. Angliyadagi 3-4 yoshdagi bolalar uchun maktabgacha ta'lim Yevropada eng yaxshilardan biri deb tan olingan bursada, Buyuk Britaniyada utgan asrning 90-yillar boshiga kelib undan faqat 20 foizgina bolalar foydalanar edilar. Qabul qilingan islohot 3-4 yoshdagi bolalar tarbiyasi uchun yagona ta'lim dasturi ishlab chikarilishiga yunaltirilgan edi. 1988 yilda maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun 15 mlrd. dollar miqdorida mablag' sarflangan. Shu bilan birga 1997 yilga kelib Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'limning birorta xam xususiy tizimi bo'lmagan bo'lsada, hozirga kelib ularning soni 20 tadan oshib ketdi.

Bolalar bog'chasi faqat davlat ruxxatidan o'tgandan keyingina davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bolalar bog'chalarida inspeksiya mustaqil ekspertlar tomonidan o'tkazilib, natijalari ochiq axborot vositalarida e'lon qilinadi. 1977 yilgi davlat tekshiruv natijalariga ko'ra 77 foiz maktabgacha ta'lim muassasalari qabul qilingan standartlarga mos kelmagan: bolalar bog'chalarida batafsil ta'lim rejaları mavjud bo'lmagan, bolalar rivojlanishining monitoring tizimi taqdim etilmagan, ta'lim dasturlarining turli jihatlari o'rtasidagi aniq bog'lanish belgilanmagan. Ekspert hisobotlarining 40 foizida pedagoglarning bolalar rivojlanishining holati to'g'risida tushunchalar yetarli emasligi ko'rsatilgan; bola tomonidan taklif etilgan faoliyat va ta'lim dasturiga mos ravishda pedagog tomonidan tashkil etilgan faoliyat o'rtasidagi o'zaro harakatning mutanosib tizimi mavjud emasligi. Bugungi kunda bunday muammolar qisman o'z yechimini topgan, lekin bolalar bog'chasi bitiruvchilarining tayyorgarligi va maktablarning maktabgacha ta'lim muassasasi bitiruvchilariga quyilgan xaddan tashqari oshirilgan talablari orasidagi katta farq «Bola kanday rivojlanishi kerak?» degan masalaga nazariy nuqtai nazar va pedagoglarning amaldagi yondashuvi o'rtasida bir qator kelishmovchiliklar tug'dirmokda.

Shuni xam aytib utish lozimki, Buyuk Britaniyaning hamma yerida maktabgacha ta'lim muassasalarida bir xil ta'lim standartlari doirasida ish olib

borilmaydi. Masalan, Shotlandiyada erta ta'lim sohasidagi islohotlar - erta qo'llab-quvvatlash markazlari bilan bog'lik emas (bu haqida quyida ma'lumot berilgan). Undan farqli ravishda ochiq seminar va konferensiyalar o'tkazilib, u yerda pedagoglar ta'lim jarayoniga yondashuv xususiyatlarini namoyon etish yullari bilan tajriba almashadilar.

Buyuk Britaniyada odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas, balki bolaga yunaltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib, uning rivojiga Russo, Frebel, Montessori ta'sir ko'rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak, deb hisoblaganlar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning extiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o'rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o'qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg'ayrat, deb taxmin qilinadi. O'qitish bolaning o'zi taklif qilgan o'yin davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga o'qitirish yo'li bilan emas, balki o'yinni qo'llab turish, unga tadqiqot o'tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iborat.

Buyuk Britaniyaning maktabgacha ta'lim tizimini o'rganish bo'yicha katta tadqiqot ishlarini olib borgan. U bolalar bog'chalari xodimlari va ota-onalar o'rtasida surovnomalar o'tkazgan, bolalar bog'chalari faoliyatini kuzatgan. Tadqiqot o'tkazish uchun erkin ravishda 10 ta maktabgacha ta'lim muassasasi tanlanib, ulardan xar birining ikki guruhida muntazam besh kunlik uzluksiz kuzatuv olib borilgan. Ingliz bolalar bog'chalar guruhlarida 25 nafardan ortmagan mikdorda bola tarbiyalanadi. Natijalarning ko'rsatishicha, ingliz pedagoglarining 75 foizi bolalarni ta'lim olishga qiziqtirish uchun tashqaridan motivatsiya qilishni noma'qul deb hisoblaydilar (masalan, bolalar o'rtasida musobaqalashish shaklini). Bunday pozitsiya negizida ilmiy asoslangan ma'lumotlar yotadi. Masalan, M.Lepper va D.Grin tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizish (bolalar bunga juda qiziqadilar) uchun mukofotlanganlari misoli keltirilgan. Shundan sung bolalar bo'sh vaqtida o'zicha rasm chizishni xohlamay, faqat mukofot uchun rasm chizishni istab qolganlar. Boshqacha qilib aytganda, bolalarda ichki motivatsiya yo'qolib, uning urnini tashki motivatsiya egallagan.

Ingliz bolalar bog'chasida bolalar uzoq muddat mustaqil shug'ullanadilar, tarbiyachi esa ularni chetdan kuzatib boradi. Umumiy vaqtning faqat 15 foizi pedagog rahbarligida guruh ko'rinishda o'qitishga ajratiladi. Bunday o'qitish rivojlanish darajasi bir-biriga teng bolalardan tuzilgan kichik guruhlarda o'tkaziladi. Shu yo'l bilan maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini inobatga olish voidasi amalda qo'llaniladi.

Deyarli xamma tarbiyachilar bolalarning ham rivojlanishi, ham ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy-rolli uyinlar, rasm chizish va

narsalar yasash usulidan foydalanish kerak, deb hisoblaydilar. Amaldagi ingliz bolalar bog'chalarida (amaldagi til va matematika buyicha najburiy mashg'ulotlardan tashqari) suv, qum bilan o'yinlar va harakatli o'yinlar orqali tadqiqot faoliyatiga katta ahamiyat beradilar. Mazmunli-rolli o'yinlarga pedagoglarda deyarli vaqt qolmaydi.

Bolalar bog'chasida ishlashga ruxsat olish uchun alohida tegishli tayyorgarlik qilish lozim. Bu tayyorgarlik yo uch yil asosiy va bir yil qo'shimcha o'qishdan yoki to'rt yil turli ta'lim tuzilmalarida tahsil olishdan iborat. Tarbiyachilarning atigi 20 foizi bakalavr maqomiga ega. Pedagog yordamchisi yoki enaga bo'lish uchun maxsus 15 soatlik tayyorlov dasturi shiqishlari kerak. Bunday o'qishni hozirgi kunda ko'payib borayotgan ta'lim assotsiatsiyalarida o'tash mumkin. Buyuk Britaniyadagi mutaxassislar tayyorlash tizimining shubhasiz afzalligi uning yuqori darajada amaliyotga qaratilganligi. Bu borada 50 foiz mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkaziladi (qiyoslaganda Ispaniyada bu ko'rsatkich 12 foizni, Italiya va Daniyada 20 foizni, Fransiya, Belgiya va Niderlandiyada 25 foizni, Germaniya va Shveysiyada 30 foizni tashkil etadi). Mutaxassislarning baholashicha, Buyuk Britaniyada maktabgacha tarbiya muassasalarida yakini 10 yil ichida ish joylari 250000 taga ko'payadi.

1997 yilda Buyuk Britaniyada kam ta'minlangan oilalar bolalariga yo'naltirilgan erta qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish dasturi joriy etila boshlandi. Bu markazlar bolani parvarishlash va o'qitish uchun barcha zarur xizmatlarni amalga oshiradi va bu jarayonga ota-onalar xam jalb etiladi. 1998 yilda bunday markazlar soni 11 ta edi, 2001 yilga kelib ularning soni 35 taga yetdi, bugunga kelib esa 100 dan ortik. Bunday muassasa kandy ishlashini yaxshirok tushunish uchun, shunday markaz rahbarlaridan biri fikrini keltirish o'rinli. Uning aytishicha, ijtimoiy past tabaqaga mansub yosh ona farzandini ilk bor markazga olib kelganida bola uchun barcha qulayliklar muxayyo bo'lgan, bolalar uchun yumshoq mebel dan tortib o'yinchoqlargacha bulgan barcha zarur narsalar bilan ta'minlangan tibbiy punkt mavjud. «Biz ota-onalar haqida xam unutmaymiz, bolalar mutaxassislar ko'rigidan o'tgunga qadar, ko'ngilli yordamchilar mamnuniyat bilan ota-onalarga kahva damlab berishadi, psixologik yordam ko'rsatishadi yoki biror-bir film tomosha qilishni taklif etishadi. Ona boshka ota-onalar bilan suhbatlashishi, markaz qoshidagi Ochiq universitetdagi mashg'ulotlarga qatnashishi mumkin». Markazimiz ota-onalarga turli xizmatlarni taklif etadi - o'yinchoklar «kutubxonasi» (unga ota-onalar mudirlik qilishadi), ajrashgan ota-onalar guruxi, 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni parvarishlash guruxi, 3-5 yoshdagi bolalar guruxi. Onalarning 85 foizi va otalarning 60 foizi bola rivojlanishini o'rganish guruxlarida qatnashadilar. Bola bilan kandy shug'ullanish kerak va uni qandy yaxshiroq tushunish mumkinligini

bilish uchun ota-onalar mashg'ulotlar vidoqyozuvlarini ko'radilar va ota-onalarga berilgan «uy vazifalarni» tahlil qilalar», deydi markaz raxbari.

Maktabgacha tarbiya masalalariga, xususan yosh bolali ota-onalarga diqqat-e'tibor qonun hujjatlarida ham o'z aksini topdi. 1999 yilda bolani parvarishlash uchun ta'til 14 haftadan 18 haftagacha uzaytirildi. Biror-bir korxonada bir yildan ortiq ishlagan har bir ayol bunday xuquqqa ega. Shu bilan birga ularga 5 yillik muddatga ish joyini saqlab qolish kafolatlanadi. 60 foizdan ko'proq onalar dekret ta'tilidan so'ng o'z ish joylariga qaytadilar.

Angliyadagi maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar tarbiyasi uchun to'lov Yevropada eng ko'pni tashkil etadi. Kam ta'minlangan oilalarga yordam tariqasida kredit dasturi ishlab chiqilgan va unga asosan haftasiga kamida 16 soat ishlaydigan ota-onalar 14 yoshgacha bulgan bitta farzandi uchun 105 AQ,Sh dollari miqdorida, ikki va undan ko'p shu yoshdagi bolalari uchun 158 AQSh dollar miqdorida kredit puli olishlari mumkin. Oilalar zimmasiga bolalarni parvarishlash va ta'lim berish uchun asosiy moliya-viy majburiyat yuklatiladi. Bepul va hammabop tarbiya bilan esa 3-4 yoshdagi bolalar bilan kuniga ozgina vaqt (bir necha soat) shug'ullanish mumkin.

Shu bilan birga Buyuk Britaniyada oilada faqat yoki ota, yoki ona bo'lgan oilalar soni Yevropa miqyosida eng ko'p foizni (20%) tashkil etadi. Bunday ota-onalarning ko'pchiligi (60%) ishsizlar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har uchinchi bola (4,3 million bola) muhtojlikda yashaydi (bu kursatkich ota-onalarning daromadi aholining o'rtacha daromadidan kam bo'lganda aniklangan).

Quyi (pastki) ijtimoiy-iktisodiy tabaka oilalaridagi bolalarni ko'llab-quvvatlash erta qo'llab-kuvvatlash markazlaridan tashqari «Qat'iy start» dasturi yordamida amalga oshiriladi. Bu dasturni tashkil etuvchi kislmlari: mutaxassislar bilan bolalarning uyida uchrashuvlar, bolaning o'ynash faoliyati yuqori sifati xislatini kullab-kuvvatlash, bolaga zarur parvarish berishni ta'minlash, maxsus ehtiyojlarga muxtoj bolalarga alohida e'tibor qaratish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun dasturlar. Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta'lim o'quv rejasida nafaqat umumiy ta'lim jarayoniga urg'u beriladi, balki boladagi o'qish va hisoblash kabi ko'mkmalarga alohida ahamiyat beriladi. Bunda 4-5 yoshdagi bolalar rivojlanishning olti yo'nalishidagi aniq ko'nikma va bilimlari belgilandi: shaxsiyatlik; ijtimoiy-emotsional; kommunikativ; xabardorlik; matematik; jismonan; ijodiy. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p o'ynashlari kerak, lekin adabiyot va matematikani bilish doirasidagi talablar shunchali yuqoriki, o'yin uchun vaqt qolmaydi. Masalan, savodxonlik borasida gap ketganda

besh yasharlik bolalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- soʻz boshi va oxiridagi tovushlarni aniqlash;
- tovush va harflarni ajrata bilish;
- alifbodagi hamma harflarni aytish;
- oddiy soʻzlar va gapni oʻqish;
- oʻz ismini yozish;
- oddiy soʻzlarni yozishda fonetika bilimlaridan foydalanish.

Bunday maqsadlar yuqori texnologiyali dasturlar yaratilishiga olib keladi. Ularda har bir mashgʻulot uchun nafaqat pedagog tomonidan aniq xarakatlar ketma-ketligi, balki olinadigan natijalar xam bayon etilgan.

Buyuk Britaniyada ikkita taʼlim tizimi mavjud: birinchi - Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiya; ikkinchisi - Shotlandiyada. Bu ikki tizim bir birini inkor qilmaydi Buyuk Britaniya oroli (mamlakat xududining 90%i shu ordda) va Irlandiya orolining shimoli-sharkiy kismida xamda ularga yondosh mayda orollarda joylashgan. Buyuk Britaniya mamlakat asosiy kismining nomi bilan kupincha Angliya deb ataladi. Maydoni 244,1 ming kv.km. Axolisi 58,5 mlndan ziyod kishi. Leyboristlar partiyasi 1900 yil tuzilgan. Konservatorlar partiyasi 1867 yil tashkil topgan. Uzbekiston bilan diplomatik munosabatlarni 1992 yil 18 fevral urnatgan. Milliy bayram-kirolicha tugilgan kuni. Davlat sektori ( state school) - oʻquvchilarning 93%. Xususiy sektor (private school) - oʻquvchilarining 7%. 1988 yilda Buyuk Britaniyada yagona davlat taʼlim standartlari kiritilgan 5 yoshdan 16 yoshgacha barcha bolalar majburiy taʼlim olishlari shart. - Boshlangʻich maktab 5-11 yosh - Oʻrta maktab - 11-16 yosh GCSE - Kollejda maktabdan keyin taʼlim 16-18 yosh Sixth Form - Oliy taʼlim 18 yoshdan keyin Maktabgacha taʼlim 3 yoshdan 5 yoshgacha bolalar bolalar bogʻchalari va maktabgacha sinflarga borishi mumkin : davlat (nursery school playgroup) yoki xususiy (kindergarten) Boshlangʻich taʼlim 4 - 5 yoshdan 7 yoshgacha kichik bolalar uchun maktab ( infant-school yoki pre - preparatory school). Matematika, ingliz tili, geografiya, musika va sanʼat oʻqitiladi. - 7 yoshdan 11 yoshgacha boshlangʻich maktab ( juniorschool yoki preparatory school) Primary school yoki elementary school - Anʼanaviy fanlarni chuqurlashtirilgan oʻrganilishi - Tabiiy fanlarni va axborot texnologiyalar oʻqitilishi boshlanishi - Test shaklida asosiy oʻrganiladigan fanlardan Common Entrance Examination (CEE) Umumiy kirish va intellekt rivojlanish darajasini aniqlaydigan (IQ) imtixon topshiradilar. Oʻrta taʼlim - Davlat oʻrta maktablari: yagona oʻrta maktab (comprehensive school); klassik maktab ( grammer school) - Xususiy maktablar (public school) Buyuk Britaniyada maktab xususiyatlari - oʻrganilayotgan fanlarni mustaqil tanlash imkoniyati - 4-6 fanlar chuqurlashtirilib oʻrganiladi, boshqa qushimcha fanlarni kichik xajmda oʻzlashtirish mumkin - Oʻrta taʼlim jarayoni bolalarni oʻrta taʼlim britaniya sertifikati General Certificate of Secondary Education (GCSE) olish uchun imtixonini topshirish tayyorlashga

qaratilgan Oliy ta'lim - Kollejlar, universitetlar, politexnika institutlari - Katta sinflar o'quvchilari uchun tayyorlov kolleji ( 6 th Form College) 16 yoshdan 18 yoshgacha - Chuqurlashtirilgan ta'lim darajasi to'g'risida umumiy sertifikat (General Certificate of Education Advanced Level ) Buyuk Britaniya ta'lim tizimining afzalliklari. Britaniya sertifikatlari, diplomlari va berilgan darajalari butun dunyoda tan olinadi. Erig zamonaviy ta'lim metodlari, doimo modernizatsiyalashgan ta'lim vositalari va, eng asosiysi, mahoratli professor-o'qituvchilar. Doimiy nazorat va mustaqil tanlash imkoniyatlari. Buyuk Britaniya ta'lim tizimining xususiyatlari, Intizom . Erta ixtisoslashtirish. Ta'lim olishda mustakillik va initsiativa. Asosiy e'tibor ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishga va esselami tayyorlashga karatilgan. Ijtimoiy va jamoatchilik tadbirlarda katnashish.

### *Nazorat savollari*

1. Buyuk Britaniya davlatlarida ta'lim turlari.
2. MTT muammolari. Ta'lim tizimi taraqqiyoti jarayonlari
2. Buyuk Britaniya davlatlarida ta'lim tizimini joriy etish masalalari.
3. Buyuk Britaniya davlatlarida ta'lim muammolari. Taraqqiyot bosqichlari
4. Buyuk Britaniya davlatlarida ta'lim tizimining pedagogik shart-sharoitlari
5. Buyuk Britaniya davlatlarida ta'lim muammolari. maktabgacha ta'lim tizimi tashkil etish yo'llari.
6. Buyuk Britaniya davlatlarida maktabgacha ta'limi tizimini zamonaviy talablari.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Buyuklarning mezonlari . AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim) . Inson va qonun. 2001 y
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .
3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.
4. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. rUmumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil
5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.
6. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti.2011 yil
7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.
8. M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev. Qiyosiy pedagogika T.2015 yil

## 12 - mavzu: Rossiya davlati ta'lim tizimining o'ziga xosliklari. Rossiyadavlati ta'lim tizimi.

**Tayanch so'zlar:** Rossiya davlatlarida ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim, muammolar va yechimlar. Rossiya davlatlaridagi ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim shakllari, ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, Rossiya davlati maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonlari, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlarini loyqona etish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xorijiy ta'lim tizimi.

**Rossiya davlati ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.** Rossiyaning maktabgacha ta'lim tizimi «O'quv jarayoni modernizatsiyasi Konsepsiyasi»ga asoslangan. Bu konsepsiyada ta'limning sifat krsatkichlarini ta'minlashga muhim ahamiyat berilgan. Bu hujjat ta'lim tug'risidagi qonunga, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga, MTM tug'risidagi Namunaviy nizomlarga va Ta'lim vazirligining boshqa qarorlariga asoslangan. Bu Konsepsiyada alohida tashkilotlarning foydali tajribasi asosida o'qitish mazmunini yangilash kerakligi haqida so'z yuritiladi.

Nazariy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha ta'lim mazmunini to'ldirishga stereotip yondashishlarni o'zgartirish kerak. ta'lim berish jarayoni esa quyidagi tamoyillar ketma-ketligi asosida qurilishi lozim:

- o'qitishning rivojlantiruvchi xarakteri asosida ukitishni olib borish bolalarning yashirin va salohiyatli xislatlarini namoyon kiladi;
- tizimli ta'lim bolalarga xodisalar, urganilayotgan ob'ektlar va xayotiy kadriyat-larning uzaro bo'flikligini aniklashga yordam beradi;
- bolaning rivojlanishi uning xis-tuyg'ulari va yoshiga mos bilim dishning ratsional shakllariga tayanadi;
- ko'p madaniyatli tarbiyaning mazmunan kichkintoylarni madaniyat va o'zining maxalliy hamda boshqa millat va elatlarning urf-odatlarining o'ziga xosligiga yaqinlashtirish, boshqalar fikriga chidamliroq bo'lish, o'zining noroziligi, g'azablanishi va xafaligini me'yorlangan holda ifodalashdan iborat;
- salomatligining sog'lom turmush tarzi, gigiena qoidalariiga amal qilish va sport bilan shug'ullanish extiyojiga asoslanadi.

**Rossiya Federatsiyasi maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.** Ta'lim doirasidagi davlat siyosati mamlakat konstitutsiyasi va ta'lim tug'risidagi qonunida o'z aksiri topgan gumanizm va demokratiya g'oyalari asosida qurilgan. Bu xujjatlarda ta'lim insonni davlat, jamiyat va shaxsning o'z

manfaatiga maqsadli yo'naltirilgan o'qitish va tarbiyalash jarayoni ekanligi tug'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan. Rossiya ta'limining tarkibini o'quv dasturlari va turli pog'onali davlat standartlari hamda yo'nalishlari, shuningdek boshqaruvchi tashkilotlar - ta'lim tizimidan tashqari va ta'lim tizimiga bo'ysunuvchi muassasalar tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim Rossiya Federatsiyasi o'qitish tizimining birinchi pog'onasidir.

Eng kichik yoshdagi bolalar uchun ham ta'lim olish imkoniyatini berish g'oyasi 1918 yilda «Yagona mehnat maktabi tug'risidagi Nizom» vujudga kelgandan sung paydo bo'lgan. Nizom qabul qilingan kundan boshlab har bir bola tug'ilganidan boshlab o'qish xuquqiga ega bo'lishi mumkinligi kafolatlangan.

Bugungi kun ta'lim standartlari «Bolalar xuquqlari xalqaro Konvensiya»sida ifodalanib, unda quyidagilar ta'kidlanadi:

- bolalar ta'lim olish maskanlariga qatnash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak;

- kattalar bolalarga o'qish faoliyati uchun sharoit yaratib berishlari lozim;

- ta'lim o'z ichiga kichik odamni jamiyat doirasida o'z hayotini tushunib yetishga tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlarni qamrab olgan bo'lishi zarur;

-o'quv jarayoni katnashchilarining o'zaro harakatlari bolani hurmat qilishni ifodalashga asoslangan bo'lishi kerak.

Rossiyadagi maktabgacha ta'lim tizimi doimo o'zgaruvchan holatda bo'lib, u muntazam ravishda yangilanadi, ko'rinishini o'zgartiradi va mukam-mallashib boradi.

Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni go'dakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari lozim. Maktabgacha tarbiya muassasalari (MTM) faoliyati oilalarga bilim olish va tarbiyaning keyingi bosqichida yordam berishga qaratilgan.

Ayrim mutaxassislar bolalar bog'chalariga hojat yo'q, maktabgacha tarbiya esa to'liq ota-onalar zimmasiga yuklatilsin va ularning o'zlari bolani 1-sinfga qaerda va qanday qilib tayyorlash yo'lini hal qilsinlar, deb ta'kidlaydilar. Lekin statistik ma'lumotlarga ko'ra, MTM xizmatidan aksariyat ota-onalar foydalanadilar. Shuning uchun ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi kelajakda Rossiya maktabgacha tarbiya modernizatsiyasini birinchi darajali masalalaridan biri deb belgilaydi.

Namunaviy nizomlarga binoan, bolalar ta'lim muassasalari besh turga bulinadi:

- rivojlanishning bir-ikki yo'nalishini amalga oshirishni muhim deb bilgan bolalar bog'chalari;

- psixikasi normadan og'ib ketgan bolalarni malakali korreksiyalashga qaratilgan kom-pensatsiyalovchi turdagi bog'chalar;

- tarbiyachi nazorati ostida bolalar bilan sog'lomlashtirish mashklari o'tkazib boriladigan bolalar bog'chalari;

- o'z xududida umurniy rivojlanish, sog'lomlashtirish va kompensatsiyalovchi guruxlar turli variantlarda jamlangan bolalar bog'chalari;

- bolalami erta rivojlantirish markazlari - kichkintoylar sog'lomlashishi, yangi bilimlar va qobiliyatlarni egallashi, ruxiy madad olishi mumkin bo'lgan bolalar bog'chalari.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tizimi ko'p funktsionallik, rang-barang rejalashti-rish, ustuvor rivojlantirish yo'nalishi va turli dasturlashni aniqlash erkinligi bilan ifodalanadi.

Rossiyaning maktabgacha ta'lim tizimi «O'quv jarayonni modernizatsiyasi Konsepsiyasi»ga asoslangan. Bu konsepsiyada ta'limning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashga muhim ahamiyat berilgan. Bu hujjat ta'lim tug'risidagi qonunga, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga, MTM tug'risidagi Namunaviy nizomlarga va Ta'lim vazirligining boshqa qarorlariga asoslangan. Bu Konsepsiyada alohida tashkilotlarning foy-dali tajribasi asosida o'qitish mazmunini yangilash kerakligi haqida so'z yuritiladi.

Nazariy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha ta'lim mazmunini to'ldirishga stereotip yondashishlarni o'zgartirish kerak, ta'lim berish jarayoni esa quyidagi tamoyillar ketma-ketligi asosida qurilishi lozim:

- o'qitishning rivojlantiruvchi xarakteri asosida o'qitishni olib borish bolalarning yashirin va salohiyatli xislatlarini namoyon qiladi;

- tizimli ta'lim bolalarga hodisalar, o'rganilayotgan ob'ektlar va hayotiy qadriyatlarining o'zaro bog'likligini aniqlashga yordam beradi;

- bolaning rivojlanishi uning his-tuyg'ulari va yoshiga mos bilim dushning ratsional shakllariga tayanadi;

- ko'p madaniyatli tarbiyaning mazmunan kichkintoylarni madaniyat va o'zining mahalliy hamda boshqa millat va elatlarning urf-odatlarining o'ziga xosligiga yaqinlashtirish, boshqalar fikriga chidanliroq bo'lish, o'zining noroziligi, g'azablanishi va xafaligini me'yoriy holda ifodalashdan iborat;

- salomatligining sog'lom tunnush tarzi, gigiena koidalari amal qilish va sport bilan shug'ullanish extiyojiga asoslanadi.

**O'rta ta'lim.** Rossiyada umumiy ta'lim o'z ishiga boshlang'ish, asosiy va o'rta (to'liq) ta'limni qamrab oladi. O'rta maktabda o'qish muddati 11 yilni tashkil etib, bundan 1-4-sinflar boshlang'ish, 5-9 sinflar-asosiy, 10-11-sinflar to'liq o'rta ta'lim dasturi asosida ta'lim oladilar. Ishshi yoshlar ushuncha keshki maktablar tizimi ham saqlanib qolgan. Keyingi yillarda bunday ta'lim ansha qisqargan. Shu bilan birga ikki yoki undan ortiq smenadagi maktablar ham qisqargan.

Iqtisodiy qiyinshiliklar Rossiyada umumiy ta'lim maktabining bir o'quvshisiga sarflanadigan xarajat miqdori kamayishiga olib keldi. Ta'lim berishning yangi shakllari va nodavlat ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. O'rta maktablar va o'qituvshilar o'quv dasturi va adabiyotlarni mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ijtimoiy fanlarning mazmuni ansha o'zgardi; siyosatshunoslik, sosiologiya, iqtisodiyot, huquq kabi ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yisha qator fakultetiv kurslar tashkil etildi, maktablarda informatika, ekologiya, hayot faoliyati xavfsizligi asoslari kabi yangi predmetlar o'qitila boshlandi.

Rossiyada umumiy o'rta ta'lim maktablari soni 70 mingga yaqin bo'lib, ularda 20 million bola tahsil olmoqda. 7 yoshdan 17 yoshgacha bolalarni o'rta ta'limga jalb etilishi jihatidan Rossiya jahonda yuqori o'rinlardan birida turadi, u 81%ni tashkil etadi.

**Rossiyada kasbiy ta'lim tizimi.** Rossiyada kasbiy ta'limning ushta darajasi bor:

Boshlang'ish daraja- boshlang'ish kasbiy ta'lim beruvshi o'quv yurtlari (PTU) kvalifikatsiyali ishshi va xizmatshilarni yetishtirib shiqaradi. Bularda o'qish muddati, o'quvshining ma'lumot darajasiga bog'liq. 9-sinfni tugatganlar 2-3 yil, 11-sinfni bitirib kelganlar 1 yoki 2 yil tahsil olishadi. Texnikum maqomiga teng bo'lgan 3-4 yillik o'quv yurtlari ham mavjud.

O'rta daraja- amaliyotshi mutaxassisلامي tayyorlashga qaratilgan. U ikki asosiy ta'limiy dastur: bazaviy va oshirilgan darajada amalga oshadi. Bazaviy daraja dasturini egallagandan so'ng bitiruvshiga "texnik" ixtisosligi beriladi. Oshirilgan darajada yana 1 yil shuqurlashtirilgan holda o'qib shiqadi, unga "katta texnik" ixtisosligi beriladi. Bunday ixtisoslik beradigan o'quv muassasalari texnikum yoki kollejlardir.

Oliy daraja- universitet, akademiya yoki institutlarda beriladi. Oliy ta'limning mazmuniga qo'yilgan talablar, o'quv yuklamasi miqdori va bitiruvshining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar kasbiy oliy ta'limning davlat standartlari bilan belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ma'lumot.

Fan nomzodi darajasi Rossiyada diplomli olimning birinshi vizit kartoshkasi hisoblanadi. Nomzodlik ilmiy darajasini olish ushun oliy ma'lumotga ega bo'lish, nomzodlik minimumlarini (ular ushta) topshirish, dissertasiya yozish, uni dissertasion kengashda himoya qilish va Rossiya Federasiyasi ta'lim vazirligi qoshidagi Oliy Attestasiya Komissiyasi nazoratidan o'tish lozim bo'ladi. Noamzodlik darajasi quyidagi shakllarda olinishi mumkin:

Kunduzgi aspirantura;

Sirtqi aspirantura;

Tadqiqotshilik

Mustaqil.

Doktoranturaga fan nomzodi darajasiga ega bo'lganlar qabul qilinadi. Yosh chegarasi o'ratilgan. Doktoranturada o'qish muddati ush yildan osmasligi lozim.

Rossiya oliy ta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim darajasi boshqa xorijiy davlatlarga qaraganda ansha yuqori.

Ilg'or Rossiya universitetlari, bu avvalo, xususiy ilmiy maktablardir. YADro fizikasi sohasidagi yirik kashfiyotlari ushun akademik A.D.Saxarov va Landaudan Sant-Peterburg va Moskva universitetlari haqli ravishda faxrladilar.

Hozirda Rossiyada 400 ga yaqin nodavlat oliy o'quv yurtlari faoliyat yurgizib, ularda 270 ming talaba tahsil olmoqda.

Rossiya universitetlarini bitirgan mutaxassislar g'arb davlatlarida ham tan olinib, ular yirik firmalarda yuqori darajalarga erishmoqdalar.

Ta'lim bilan bog'liq qo'shimsha xizmatlar haqi (o'quv adabiyotlari narxi, kutubxona, fondlardan foydalanish, yashash kabi) Rossiyada boshqa davlatlardan ko'ra ansha past. Masalan, internet ma'lumotiga ko'ra, Londondagi rezidensiyada bir hafta yashash 1 kishiga 630 dollarga tushsa, Moskvada universitetga yaqin joydagi ikki xonali kvartiyada yashash bir oyga 300 dollarga tushadi.

Rivojlangan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon hamjamiyatida ta'limni rivojlanishidagi tendensiyalarni tahlil qilish va uni ommalashirish, u yoki bu mamlakatlarda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni ham ma'naviy rag'batlantirish va boshqalar dunyo ta'lim taraqqiyotida hamma uchun birday imkoniyat doirasida bo'lishini ta'minlash, uning uzluksizligini qaror toptirish, ta'limni va uning shaklini kelajakda rivojlanishi tamoyillaridan kelib chiqadi.

### *Nazorat savollari*

1. Rossiyada ta'lim tizimi haqida umumiy tushuncha
2. Rossiyada kasbiy ta'lim tizimi turlari va unga qo'yilgan talablar
3. Rossiyada MTT muammolari. Maktabgacha ta'lim tizimi taraqqiyot yo'llari
4. Rossiyada davlatlarida ta'lim tizimini joriy etish masalalari.
5. Rossiyada kasbiy ta'lim tizimi davlatlarida ta'lim muammolari.

Taraqqiyot bosqichlari

4. Rossiyada kasbiy ta'lim tizimi davlatlarida ta'lim tizimining pedagogik shart-sharoitlari

5. Rossiyada kasbiy ta'lim tizimi davlatlarida ta'lim muammolar maktabgacha ta'lim tizimi tashkil etish yo'llari.

6. Rossiyada kasbiy ta'lim tizimi davlatlarida maktabgacha ta'limi tizimi zamonaviy talablari.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyuklarning mezonlari . AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijd ta'lim) . Inson va qonun. 2001 y

2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .

3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.

4. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. rUmumiy pedagogik nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil

5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

6. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.O'quv qo'llanma Noshir nashriyoti.2011 yil

7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.

8. M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev. Qiyosiy pedagogika T.2015 yil

**13-mavzu: Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarinin olib borilishi va qiyosiy tahlili.**

**Tayanch so'zlar:** Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalari Yevropa davlatlarida ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim, muammolar va yechimlar Rossiya davlatlaridagi ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim shakllari ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, Yevrop davlatlari maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonlari, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlarini loyiq etish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xorijiy ta'lim tizimi.

Maktabgacha ta'lim Belgiyada maktabgacha ta'lim (MT) 2,5 eshda boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga etganda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha ta'lim guruhlarning asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim o'rtirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada taxminan 90%gacha bo'lgan bolalar unga qatnashadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalar boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi. Bolalar 6 eshga etganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi.

Yevropa davlatlari ta'lim tizimlariga xos xususiyatlar bir biridan ancha farqlanadi. Masalan, Portugaliyada bolalar maktabga 6 yil borishlari shart bo'lsa, Belgiyada majburiy ta'lim 12 yil davom etadi. Fransiyada ta'lim tizimi boshqaruvi juda markazlashgan bo'lsa, Shveysariyada ta'lim mahalliy xokimiyatlar tononidan boshqariladi. G'arbiy Yevropadagi Shimoliy mamlakatlarning ko'pchiligida Buyuk Britaniya, Norvegiya, Shvesiyada ko'pchilik bolalar 15-16 yoshgacha bir xil ta'lim oladilar. Bu yoshga yetgach, ba'zi "bolalar maktabni tanomlab, professional maktabga borishlari, boshqalari kollejga tayyorgarlik ko'rish uchun nazariy bilim olishni davom ettirish mumkin. Ta'lim sifati Yevropa janubiga nisbatan ishlashda yuqoridir. Gresiya, Portugaliya, Bolgariya va Albaniya singari janub mamlakatlari Shimoliy davlatlarga nisbatan kambag'alroq. Shuniig uchun, ular o'z mamlakatlari ta'lim taraqqiyotining uzluksizligini ta'minlashga qodir emaslar Yevropa - g'arbiy sivilizatsiyaning beshigidir. Yevropa 17 ta katta-kichik davlatni o'z ichiga oladi. Ular orasida eng kattasi Rossiya, eng kichigi Vatikan. Yevropaliklar dunyodagi eng o'qimishli odamlar bo'lib hisoblanadi. Yevropada savodxonlik darajasi nixoyatda yuqoridir. 90% dan ortiq kishilar yozishni va o'qishni biladilar. Faqatgina Yevropaning uch davlatida bu ko'rsatgich biroz pastroqdir. Bu davlatlar: Albaniya, Malta, Portugaliya

**Vengriyada xalqta'limi tizimi.** Sobiq sho'rolar imperiyasi barham topguniga qadar Yevropadagi qator mamlakatlarda xalq ta'limi taraqqiyoti sobiq kommunistik firqalar mafkurasi asosida amalga oshirildi. Ammo, mamlakatlar moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda yoshlarga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish, ularni ilmiy-texnika inqilobi yutuqlariga asoslangan kasbiy bilimlar bilan qurellantirish lozim deb qaraldi. Shuning uchun mazkur muammoni hal qilishga qaratilgan davlat qarorlari qabul qilindi. Vengriyada (1980 y) va Chexoslovakiyada (1981) maktab ta'lim-tarbiyasi sifatini tubdan o'zgartirish yo'nalishida dadil qadamlar tashlandi. Maktab ta'lim-tarbiyasi puxta o'ylangan reja asosida yo'lga qo'yildi.

Budapesht shahri, mamlakat o'tmishi mustaqillik uchun kurashlar tarixi bilan hamohang 1919 yilgi inqilob (133 kun) tufayli yagona mehnat maktabi haqida Dekret qabul qilingan edi. Maktab ta'limini qayta qurish va savodsizlikni tugatish yo'lida ilk qadamlar qo'yildi. Ammo, Xorti boshchiligidagi fashistik rejim xalq ta'limi rivojini ortga surib yubordi.

Ikkinchi jahon urushi tugaganida mamlakatdagi bolalarning teng yarmi boshlang'ich ta'limni ham olmagan, kattalarning 10 % i savodsiz, talabalar orasida oddiy xalq bolalari 2,7 % ni tashkil etar edi.

O'tgan asrning 50-yillari nihoyasida mamlakatda 6-16 yoshli bolalar uchun tekin umumiy majburiy ta'lim joriy etildi. "Vengriyada xalq maorifi tizimi haqida

Qonun” qabul qilindi (1961 y). Bu xalq maorifi sohasidagi erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamladi.

1972 yildagi “Xalq maorifining ahvoli va uni takomillashtirish haqida” gi qaror va 1975 yilgi qurultoy umumiy majburiy o’rta ta’limga to’la o’tishi ta’minlandi. Hozirgi kunda mamlakat xalq ta’limi tizimi quyidagi ko’rinishga ega:

**Bolalar bog’chalari** – 3-6 yoshli bolalarning bir qismini qamrab olgan (70 %). Bog’chalarga qatnamaydigan bolalar maktabga borishdan 6 oy oldin tayyorlov mashg’ulotlariga jalb etiladi. Bog’chalardagi mashg’ulotlar aholining ish rejimiga bog’liq holda tashkil etiladi.

Umumiy majburiy ta’limga 6 yoshdan 16 yoshgacha bo’lgan bolalar jalb etiladi. Bu amalda 2 bosqichli 8 yillik ta’lim bo’lib, I-IV, V-VIII sinflarni o’z ichiga oladi. I-sinfga qabul qilinganlarning 80 % i asosiy maktab (8-sinf) ni 14 yoshida, qolgan 20 % i 16 yoshida tugallaydi. Yuqori sinflarda iqtidorlilar uchun alohida o’quv rejasiga asoslangan chuqurlashtirilgan ta’lim beriladi. 8-sinfni bitirgan o’smirlar o’rta umumiy ta’lim olish uchun yana 2 yil o’qiydi.

O’rta ma’lumot – tayanch maktabi (8-sinf) ni bitirgan o’quvchilarning 20 % i jalb etiladi (iqtidorlilar, shundan bolalarning 15 % i). Shuningdek, ularning bir qismi kasb-hunar-texnika bilim yurtlariga jalb etiladi. Lekin ularning 15 % i ishlab chiqarish yo’nalishida umumiy ta’lim oladi.

Gimnaziya – 4 yillik ta’lim bo’lib, unda chuqurlashtirilgan ta’lim sinflari ham mavjud. Gimnaziyaning oxirgi sinflarida ba’zi fanlar tanlov asosida o’rganiladi. Gimnaziyani tugatganlarga o’zlashtirish natijalariga ko’ra yetuklik attestatni olish uchun imtihonlarni topshirishga ruxsat beriladi. Ular oliy maktabda o’qishni davom ettirishlari mumkin, qolgan qismiga ishga kirish uchun guvoynoma beriladi. Topshirilgan imtihonlar oliy o’quv yurtiga kirish imtihonlari vazifasini ham bajaradi.

**Kasb-hunar o’rta maktabi** – 4 yillik kasbiy ta’lim bo’lib, xalq xo’jaligining 11 yo’nalishi uchun malakali mutaxassislar tayyorlab beradi. Uni tugatganlarga ham oliy maktabga kirish huquqini beruvchi yetuklik attestati beriladi.

Hunar-texnika bilim yurtlari – 3 yillik kasbiy ta’lim bo’lib, xalq xo’jaligining 186 yo’nalishi uchun malakali ishchilar tayyorlaydi. Uni tugatganlarga yetuklik attestati beriladi.

Gimnaziya va kasb-hunar maktablarining kechki va sirtqi bo’limlari ham mavjud bo’lib, hamma uchun ochiqdir.

Oliy o’quv yurtlari – 18 universitet, 32 institut va yana bir necha oliy maktablarni o’z ichiga oladi. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari – pedagogika bilim yurtlarida, o’rta maktab o’qituvchilari esa pedagogika institutlari va universitetlarda bayyorlanadi. Shuningdek, aspirantura, doktorantura,

kon'yunktura, fanlar akademiyasi, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda hozir masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiyadan keng miqdorda foydalaniladi.

**Ruminiya** – aholisi 23 mln., yer maydoni – 237,5 ming km.kv, poytaxti – Buxarest. Mamlakat xalq ta'limi tizimi 1948 yilda isloh qilindi. 1968 yilda “Xalq maorifi haqida Qonun” qabul qilindi va 10 yillik majburiy ta'lim joriy etildi. Xalq maorifi tizimi tuzilishini belgilab berdi.

**Bolalar bog'chalari** (3-6 yosh 60 %) da ta'lim boshlang'ich ta'lim mazmuni bilan yaqindan bog'langan.

Umumta'lim maktablari – uch bosqichli: boshlang'ich (I-III), gimnaziya (V-VIII), litsey (IX-X) sinflarini o'z ichiga oladi. V sinfdan boshlab, fakultativ soatlar o'qitiladi. VIII sinfni bitirganlar (90 %) imtihonsiz litseyga kiradilar. Ko'pchilik VIII sinf bitiruvchilari (73 %) maxsus litseylarga (sanoat, qishloq xo'jalik, iqtisod, pedagogik, tibbiyot) yo'nalishlaridagi o'qishga kiradi.

Litseyning I-bosqichini bitirganlar kasb ta'limi beruvchi kurslarda yoki maktablarda (2 yil) o'qishi mumkin. Litsey ta'limini to'la o'taganlar kasb ta'limi maktablarida ixtisoslashgan ta'lim oladilar.

Kasb-hunar ta'limi (1-2 yil) – 10 yillik ta'limni bitirganlar qabul qilinadi.

Oliy ta'lim – universitet va institutlarda beriladi.

O'qituvchilar – boshlang'ich sinflar uchun litseylarda (4 yillik) va yuqori sinflar uchun universitetlarda amalga oshiriladi.

**Chexoslovakiya** – aholisi 15 mln., yer maydoni 127,9 ming km.kv., poytaxti – Praga. 1990 yildan Chexiya va Slovakiyaga bo'linib ketdi. 1948 umumiy majburiy ta'lim haqida Qonun qabul qilindi.

Bolalar bog'chalari (3-5 yosh, 80 %), 1 yillik tayyorlov guruhlari.

Maktab ta'limi (6-16 yosh); asosiy maktab – 8 yillik (ikki bosqichli) bo'lib, boshlang'ich (I-IV) va to'liqsiz o'rta (V- VIII) sinflardan iborat. Uzoq tumanlarda internatlar mavjud.

To'liq umumiy ta'lim – o'smirlarning 20 % ini qamrab oladi. Bu maktabda 4-yillik gimnaziya bo'lib, differentsial ta'lim beriladi. Gimnaziya imtihon bilan tugaydi va VUZ ga kirish huquqini beradi.

Kasb-hunar ta'limi (4 yil) – o'rta ma'lumot va kasb-hunar beradi (95 %). Shuningdek, kasb-hunar shogirdligi (1-3 yil) o'quvi ham mavjud.

**Chexoslovakiya** Oliy ta'lim – universitet va institutlarda amalga oshiriladi. O'qituvchilar universitetlarning pedagogika fakultetlarida tayyorlanadi. Boshlang'ich sinflarda – umumta'lim asoslari (o'qish, yozuv, hisob makalari) shakllantiriladi. O'quv soatlarining yarmi ona tiliga, chorak qismi matematikani o'rganishga ajratiladi. Qolgan soatlar – rasm, musiqa, mehnat, jismoniy tarbiyaga ajratiladi. Qisman tabiatshunoslik va tarixga doir ilmlar beriladi. Shunga

qaramasdan boshlang'ich ta'lim muddatlari turlicha (Germaniya – 3 yil, Chexoslovakiya – 4 yil), Bolgariya, Vengriya mamlakatlarida boshlang'ich sinflar o'quvchilari to'garaklar (raqs, harakatli o'yinlar) ga ham jalb qilinadi. Chexoslovakiyada o'quv rejasida I sinfga - 20 soat, II sinfga - 22 soat, III sinfga – 24 soat, IV sinfga – 24 soat ajratilgan.

Bolalar maktabga qabul qilinishidan oldin tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Ko'p mamlakatlarda 1-2 yillarda sinfda qoldirilmaydi.

Kuni uzaytirilgan guruhlarda o'quvchilarning 60-70 % i qamrab olingan.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiyaga asoslangan yangi o'quv dasturlari va rejalari joriy etilmoqda. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalari keng miqyosda kirib brogan.

Shuningdek, Belgiyada, belgilangan ijtimoiy guruh (dengizchi va diplomatlar bolalari)ga yo'naltirilgan qator xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi. O'quvchilar boshlang'ich maktabni tugatib, xuddi shunday 3 ta 2 yillik bosqichdan iborat o'rta maktabga o'tadilar. Bu bosqichda o'quvchilar fanlarni ma'lum guruhlar orasidan tanlashlari shart bo'ladi va bu tanlov ma'lum darajada ularning dars jadvalini aniqlab berishga asos bo'ladi. Dars jadvalidan bu tanlangan fanlardan tashqari xamma uchun majburiy fanlar ham joy olgan. Masalan, davlat tili va jismoniy tarbiya fanlari va hokazo. Belgiya hududida 4 tipdagi o'rta maktablar faoliyat yuritadi: Umumiy ta'lim beruvchi o'rta maktab (Algemeen Secundair Onderwijs, (ASO)). Mazkur tipdagi muassasalar o'quv dasturida maktab bitiruvchisi 6 yil to'liq ta'lim olib, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishi ko'zda tutilgan. Mehnat bozorida ASOni tugatganlik to'g'risidagi diplomli shaxslarga ehtiyoj mavjud emas, chunki mazkur tipdagi muassasalarda ta'lim ko'p hajmli nazariy bilimlar beruvchi fanlarga qaratilgan bo'lib, amaliy va kasbiy tayergarlik ko'zda tutilmagan. Texnik o'rta maktablar (Technisch Secundair Onderwijs, (TSO)) ikkita: TTK va STK kabi —tipchalariga bo'linadi. 1- —tipchadagi maktablarda ta'lim texnik jihati tomoniga yo'naltirilgan, 2- —tipcha - amaliy muassasalarga ixtisoslashgan. Mazkur ta'lim muassasalarida matematika, tillar, tarix, tabiiy fanlarga urg'u beriladi, lekin ASOga nisbatan bilim hajmi kamroqdir. STK bitiruvchilari mehnat bozoriga chiqishga tayar, TTK bitiruvchilari esa, odatda, o'qishni davom ettirishni: ixtisosi bo'yicha bir yil qo'shimcha tahsil olish, turizm, savdo, sog'liqni saqlash kabi sohalar bo'yicha bakalavr yoki hattoki magistr darajasini olishni afzal ko'rishadi. Kasbiy-texnik o'quv yurtlari (Beroeps secundair ondwerwijs (VSO)) duradgor, zargar, g'isht teruvchi (quruvchi) usta kabi o'ziga xos mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim taklif etishadi.

VSO — faqat Belgiya o'rta ta'limida mavjud bo'lgan ta'lim muassasasi tipidir, bundan keyin oliy ta'lim olish imkoniyati ko'zda tutilmagan. Agarda ushbu ta'lim muassasasi bitiruvchisi qo'shimcha yil 45 (7 yoki 8) o'qish istagini bildirsa,

bu qo'shimcha o'quv yilidan keyin bitiruvchiga TSO diplomiga ekvivalent bo'ladigan diplom berishadi. O'rta badiiy ta'lim muassasalari (Kunst secundair onderwijs (KSO)). Ushbu o'quv yurtlar san'at sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun universitet e'ki kollejga o'qishga kirish uchun talabalarni tayarlaydi. Tanlagan yo'nalishiga qarab, aktyorlik mahorati, xoreografiya, musiqa e'kitasviniy san'at ustuvor bo'lishi mumkin. Belgiyada oliy ta'lim: universitetlar va oliy maktablar Belgiya oliy ta'limi o'zining ko'hna an'anasiga ega. O'qitish jara'eni va zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish o'rtasidagi bog'liqlik. Belgiya ta'lim tizimi uchun an'anaviy hisoblanadi. Belgiyada o'qishni tanlash jara'enida e'tiborni, asosan, ishlab chiqarish (masalan, texnologiyalar) va biznes (xalqaro biznes, iqtisodiet, boshqaruv, huquq, moliya va boshqa)lar bilan bog'liq bo'lgan dasturlarga qaratish kerak bo'ladi. Bunda, albatta, ta'lim olib boriladigan tilni bilish to'g'risida dalillar bo'lishi kerak. Belgiyadagi ta'lim xalqaro biznesga yo'naltirilganligi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun katta imkoniyat beradi. Belgiya ta'limiga fransuz, flamand va nemis hamjamiyatlari javobgar. 6 yoshdan 16 yoshgacha va kechki maktablarda 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun ta'lim majburiy va bepuldir. Savodsizlik deyarli tugatilgan. Belgiyaliklar bolalarining yarmi xususiy, aksariyat qismi katolik cherkovlarga tegishli bo'lgan maktablarda tahsil oladi. Qariyb barcha xususiy maktablar davlat tomonidan e'rdamga beriladigan mablag'-subsidiya bilan ta'minlanadi. Maktab ta'limining birinchi bosqichi - olti yillik boshlang'ich maktab hisoblanadi. O'rta ta'lim aksariyat hollarda uchta ikki yillik bosqichdan iborat bo'lib, uning dastlabki to'rt yili majburiydir. Birinchi va ikkinchi bosqichlarda o'quvchilarining taxminan yarmi unumpedagogik tayergarlik, badiiy ta'lim olishadi yoki texnik yoxud hunarmandchilik tayyorgarlikdan o'tadi; boshqalar esa ta'limning umumiy kursini o'tashadi. Oxirgi guruhining taxminan yarim o'quvchilari bitirganda keyin universitetga kirish huquqini beruvchi o'rta maktabning oliy bosqichida ta'lim olishni davom ettiradilar. Belgiyada 7 ta akademiya va 8 ta universitet faoliyat ko'rsatadi. Belgiyada oliy ta'lim qadimgi an'analarga ega: birinchi oliy o'quv yurti - Lyuven katolik universiteti hisoblanadi. U 1425 yil tashkil topgan. 1517 yili Erazm Rotterdam ham Lyuvenda uch tillik (ivrit, lotin, grek) maktabga asos soldi va uning namunasida Parijda Fransiya kolleji yaratildi. 1970 yili fransuz tilida so'zlashiladigan Valloniya, niderland tilida so'zlashuvchi Flandriya, ikki tilda so'zlashiladigan Bryussel' va nemis tilida so'zlashiladigan Germaniya bilan chegaradosh bo'lgan Valloniya sharqidagi tumandan iborat 4 ta lingvistik hudud mamlakat konstitutsiyasida mustahkamlandi. O'sha vaqtdan beri maorif federal vazirligi faqatgina o'rta ta'limning majburiyiligini nazorat qiladi va barcha bosqich bo'yicha ta'lim to'g'risidagi diplom va sertifikatlarni berish talablarini belgilaydi.

Ta'lim bo'yicha boshqa masalalar tillar hamjamiyati vakolatiga kiradi. Shunday qilib, oliy ta'lim masalalari Flamand hamjamiyatining ta'lim va davlat xizmati Vazirligi, Fransuz hamjamiyatining oliy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro aloqalar va sport Vazirligi hamda Nemis tilida so'zlashuvchi hamjamiyatning ta'lim, madaniyat, ilmiy tadqiqotlar, haykallar va diqqatga sazovor joylar Vazirligi vakolatidadir. Universitet tipidagi o'quv yurtlar va oliy maktablar 1970 yil 7 iyuldagi qonunga muvofiq oliy o'quv yurtlar universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablarga bo'linadi. Aslini olganda 7 ta Belgiya universiteti faoliyat yuritadi: Lej davlat universiteti, Monse-Enodagi universitet, Gent davlat universiteti, Bryusseln Erkin universitet (fransuz va alohida flamand tilida), Lyuven katolik universiteti (fransuz va alohida flamand tilida). Ular qatorida bir nechta xorijiy universitet bo'limlari (Bryussel va Antverpenda), hamda universitetga tenglashtirilgan qator Belgiya oliy o'quv yurtlari (odatda ular universitet fakul'teti, markaz, birlashma e'ki jamg'arma nomlariga ega) faoliyat yuritadi. Oliy o'quv yurtlarning bir qismi - yuqorida nomlari qayd etilgan hamjamiyatlar hukumatlari byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat, yoki «rasmiy» o'quv yurtlari hisoblanadi. Boshqalari shaxsiy mablag'lar hisobidan - xususiy, shaxs yoki tashkilotlar tomonidan ochilgan va mustaqill, erkin nomlariga ega bo'lishgan. Ularning aksariyati Belgiyada, an'anaga ko'ra, ta'limning barcha bosqichlarini, shu jumladan oliy ta'limni, tashkil etish va moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan Rim katolik cherkovi rahbarligida ochilgan. Ba'zi mustaqil o'quv yurtlar, xususan, katolik universitetlar hamjamiyatlar hukumatlari ko'magidan foydalanishadi. Bryusseldagi Erkin universitet - Niderland tilida o'qitiladigan universitet hisoblanadi. Ushbu universitetlar nomlaridagi erkin so'zi ularning mustaqil o'quv yurti ekanini bildiradi. Ular erkin ilmiy tadqiqotlar prinsipiga bo'ysinadi va shiorlari ham bir xil: Qorong'ulikni ilm bilan engish. Bryussel' Erkin universiteti yuqorida qayd etilganidek, 1834 yili tashkil topilgan va ta'lim faqatgina fransuz tilida, 1934 yildan boshlab golland tilida ham olib boriladi. 1970 yili esa Niderland tilida o'qitiladigan fakul'tetlar Erkin universitetlariga ajratiladi. SHunday bo'lsada har ikkala universitet o'zaro hamkorlik dasturini amalga oshiradi. Fakul'tetlari: huquq va kriminologiya; iqtisodiy, ijtimoiy va siësiy fanlar; psixologiya va pedagogika; tabiiy fanlar; tibbiyot va dorishunoslik; filosofiya va filologiya; texnik (muhandislik) fanlar; jismoniy tarbiya; o'qituvchilarni tayirlash fanlararo guruh. Shuningdek, universitetga tenglashgan o'quv yurtlar tarkibiga Qirolning harbiy maktabi ham kiradi. Universitet diplomi mavjudligi amaldagi 48 qonunchilikka muvofiq ma'lum davlat mansab, lavozimlarini egallash va jamoat ahamiyatiga ega (advokat, vrach va boshqa) mutaxassisliklar bo'yicha faoliyat yuritish uchun ruxsat olish uchun kerakdir. Alohida holatlarda Belgiya universitetlari chet elliklarga Belgiyada

ishlash huquqiga ega bo'lmagan diplom berishadi. Universitetda ta'lim olish eng kam muddati 4 yildir, lekin ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha undan ko'p yil tahsil olishi mumkin. Universitetdagi o'qishlar ko'p pog'onalidir: universitetda ta'lim olishning har bir davri eki sikli universitet ilmiy darajasini olish uchun quyidagi darajalarini olishi bilan tugatiladi: Kurs Davomiyligi Daraja (Tayanch)-Bazaviy 2 yil kandidat (ta'limning boshqa tizimida bakalavr diplomiga mos keladi) Kurs Davomiyligi Daraja (Tayanch)-Bazaviy 2 yil kandidat (ta'limning boshqa tizimida bakalavr diplomiga mos keladi) Kurs Davomiyligi Daraja Kandidat darajasi - 2 yoki 3 yillik tayanch ta'lim olganidan keyin beriladi. Bu 1-sikl hisoblanadi (keyin esa ta'limning 2-sikli, ya'ni ixtisos (soha) bo'yicha tayyorlash boshlanadi; Litsensiat - bakalavr darajasiga mos keladi, mutaxassisligi bo'yicha 2 yoki 3 yillik qo'shimcha ta'lim olishi va ilmiy ish yozganidan keyin beriladi. Ba'zi fanlar bo'yicha ko'p muddatli o'qishdan keyingina ushbu darajaga erishish mumkin. 49. Doktor - magistr darajasiga to'g'ri keladi, mazkur darajaga litsensiat darajasini olgandan keyingina kamida yana 1 yil tahsil olib, dissertatsiyani yozib, albatta uni yoqlash talab etiladi. Oliy ta'lim agrejesi - ushbu ierarxiya (ketma-ketlik)ning oliy darajasi hisoblanadi va u doktorlik darajasini olib, 2 yil muddat o'tishidan keyingina berilishi mumkin. Universitetlarda, shuningdek universitetdan keyingi ta'lim yoki, odatda, davomiyligi 2-3 yil bo'lgan 3- sikl (bosqich) ta'limi bordir. Mazkur ta'lim turininig maqsadi insonlarga ko'shimcha ta'lim eki daraja olish uchun imkoniyat yaratish hisoblanadi. Ba'zi fanlardan universitet darajasiga ega bo'lish uchun kechki yoki dam olish kunlari kurslari tashkil etilishi orqali yoshi katta bo'lgan kishilarga imkoniyat yaratiladi. Ba'zi universitetlarda ta'limning almashib kelishi, ya'ni ta'lim olish jaraeni ishlab chiqarishdagi amaliyot bilan almashib keladi va tanaffusli ta'lim kabi shakllari mavjud. Belgiya oliy maktab tizimi uchun ta'lim jaraeni bilan zamonaviy fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha amaliy tadqiqotlarning bog'liqligi an'ana bo'lib qolgan. Ilm, fanni rivojlantirish uchun universitetlarning byudjetidan 40% gacha bo'lgan miqdordagi mablag' ajratiladi. Ilmiy tadqiqotlarning rnohlyalashtirilishi vazirlik, sanoat va qishloq xo'jaligida ilmiy- tadqiqotlarga ko'mak Instituti yo'nalishlari bo'yicha davlat mablag'lari, ilmiy tadqiqotlar Milliy jamg'armasi, shuningdek turli xil kompaniya, jamg'arma va assotsiatsiyalar yo'nalishi bo'yicha xususiy (shaxsiy) manbalar hisobidan amalga oshiriladi. 1995 yil 8 avgustdagi Oliy maktablarda ta'limni tashkil etish to'g'risidagi Dekret uzun va qisqa tipdagi ta'limni belgilab berdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oliy o'quv yurti nomidagi institutl eki universitetl so'zlari mazkur o'quv yurti o'z bitiruvchilariga oliy ma'lumot beradi degani emas. Qisqa muddatli ta'lim 3 yillik (ba'zi hollarda san'at va tibbiyot sohalari bo'yicha 4 yil) muddatli bir sikldan iborat bo'ladi. Nazariy qismini o'qitish navbatma-navbat laboratoriya, ustaxonalardagi amaliy mashg'ulotlar bilan

birgalikda olib boriladi. 50 Ko'pincha fermer, buxgalteriya, hamshira, maktab o'qituvchisi, mexanik, kutubxonachi, fotograf, kotiba kabi mutaxassisliklarga o'qitish ta'limning 1- yilidan boshlanadi. Uzoq muddatli oliy ta'lim har biri davomiyligi 2 yildan iborat 2 sikldan iborat. Belgiya oliy o'quv yurtlari tomonidan berilgan barcha diplomlar Evropa Ittifoqi davlatlari, shuningdek Islandiya, Norvegiya, Tursiya va Mal'ta mamlakatlarida e'tirof etiladi. Birinchi bosqich Gradue diplom berilishi bilan yakunlanadi. Ikkinchi pog'ona tahsilidan keyin Licencie diplomi beriladi. Institut va universitetlarning ikkinchi pog'ona bitiruvchilari uchun yagona bo'lib, umumiy hisoblangan uchinchi pog'onadan keyin bitiruvchiga (Ingeneur diplome) diplomli muhandis darajasi beriladi. Aslida, oliy ta'lim sektorlari oralig'idagi chegaralar o'zgalari uchun yopiq emas hamda talabalar navbatdagi ta'lim bosqichini o'z mutaxassisligiga mos keladigan hohlagan oliy o'quv yurtida davom ettirishi mumkin. Oliy o'quv yurtiga kirish imtixonlari mavjud emas: tahsil olish uchun yozilish tizimi mavjuddir. Ba'zi Oliy o'quv yurtlarida kelajak talabalari uchun qo'shimcha ravishda test sinovlarini o'tkazishadi. Nazorat uchun savollar

**Niderlandiya ta'lim tizimining shakllanish davri.** 1789 yilda Fransiya revolyutsiyasi natijasida paydo bo'lgan Bativ Respublikasi davriga to'g'ri keladi. Mamlakatning 75 % foiz maktablari xususiy shaxslar, tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan, jumladan xristian yoki katalog cherkovlari tomonidan tashkil etilgan. Bu mamlakat ta'lim tizimi 7-3-2 shaklidir. Boshlang'ich ta'lim maktabgacha tarbiya bilan qo'shilgan.

Niderlandiyada qariyb 4 million yoshlar kunduzgi ta'lim oladi. Mamlakatda majburiy ta'lim pulsiz, katta yoshlar maktablari va oliygohlari pullik.

**Ruminiya** – aholisi 23 mln., yer maydoni – 237,5 ming km.kv, poytaxti – Buxarest. Mamlakat xalq ta'limi tizimi 1948 yilda isloh qilindi. 1968 yilda “Xalq maorifi haqida Qonun” qabul qilindi va 10 yillik majburiy ta'lim joriy etildi. Xalq maorifi tizimi tuzilishini belgilab berdi.

**Bolalar bog'chalari** (3-6 yosh 60 %) da ta'lim boshlang'ich ta'lim mazmuni bilan yaqindan bog'langan.

**Umumta'lim maktablari** – uch bosqichli: boshlang'ich (I-III), gimnaziya (V-VIII), litsey (IX-X) sinflarini o'z ichiga oladi. V sinfdan boshlab, fakultativ soatlar o'qitiladi. VIII sinfni bitirganlar (90 %) imtihonsiz litseyga kiradilar. Ko'pchilik VIII sinf bitiruvchilari (73 %) maxsus litseylarga (sanoat, qishloq xo'jalik, iqtisod, pedagogik, tibbiyot) yo'nalishlaridagi o'qishga kiradi.

Litseyning I-bosqichini bitirganlar kasb ta'limi beruvchi kurslarda yoki maktablarda (2 yil) o'qishi mumkin. Litsey ta'limini to'la o'taganlar kasb ta'limi maktablarida ixtisoslashgan ta'lim oladilar.

**Kasb-hunar ta'limi** (1-2 yil) – 10 yillik ta'limni bitirganlar qabul qilinadi.

**Oliy ta'lim** – universitet va institutlarda beriladi.

**O'qituvchilar** – boshlang'ich sinflar uchun litseylarda (4 yillik) va yuqori sinflar uchun universitetlarda amalga oshiriladi.

**Chexoslovakiya** – aholisi 15 mln., yer maydoni 127,9 ming km.kv., poytaxti – Praga. 1990 yildan Chexiya va Slovakiyaga bo'linib ketdi. 1948 umumiy majburiy ta'lim haqida Qonun qabul qilindi.

**Bolalar bog'chalari** (3-5 yosh, 80 %), 1 yillik tayyorlov guruhlari.

**Maktab ta'limi** (6-16 yosh); asosiy maktab – 8 yillik (ikki bosqichli) bo'lib, boshlang'ich (I-IV) va to'liqsiz o'rta (V- VIII) sinflardan iborat. Uzoq tumanlarda internatlar mavjud.

**To'liq umumiy ta'lim** – o'smirlarning 20 % ini qamrab oladi. Bu maktabda 4-yillik gimnaziya bo'lib, differentsial ta'lim beriladi. Gimnaziya imtihon bilan tugaydi va VUZ ga kirish huquqini beradi.

**Kasb-hunar ta'limi** (4 yil) – o'rta ma'lumot va kasb-hunar beradi (95 %). Shuningdek, kasb-hunar shogirdligi (1-3 yil) o'quvi ham mavjud.

**Oliy ta'lim** – universitet va institutlarda amalga oshiriladi. O'qituvchilar universitetlarning pedagogika fakultetlarida tayyorlanadi.

**Chexoslovakiyada** o'quv rejasida I sinfga - 20 soat, II sinfga - 22 soat, III sinfga – 24 soat, IV sinfga – 24 soat ajratilgan.

Bolalar maktabga qabul qilinishidan oldin tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Ko'p mamlakatlarda 1-2 yillarda sinfda qoldirilmaydi.

Kuni uzaytirilgan guruhlarda o'quvchilarning 60-70 % i qamrab olingan.

**Polsha ta'lim tizimi.** 1999 yil Polshada yangi ta'lim reformasi kuchga kirdi. U o'qitishning tashkiliy tuzilishi va imtihonlar tizimini tubdan o'zgartirdi, o'qituvchilar xizmat pog'onasida o'sishining yangi tizimi va maktablarni moliyalashtirish usullarini kiritdi. 1999 yilgi reformadan avvalgi imtihon tizimi: Maktab boshlang'ich ta'limidan keyingi imtihon turli videotasvirlarda har xil differensial holda o'tkazilgan. Litsey va texnikumlarni bitirish imtihonlari ham videotasvirlar bosqichida o'tkazilgan. OTM lari o'rta maktab bitiruvchilari uchun ichki kirish imtihonlarini o'tkazganlar va shu asosda bo'lajak talabalarni qabul qilish haqida qaror qabul qilingan. Reformaning yangi usullari: Yangi maktab tuzilmasi; Umumiy imtihon tizimi; O'qituvchining xizmat pog'onasidan o'sishi; Maktablarni moliyalashtirishning yangi tamoyillari: Dasturiy o'zgarishlarni kiritish.

**Maktabgacha ta'lim.** Polshada maktabgacha ta'limni bolalar bog'chasida yoki maktabdagi maxsus sinflarda oladi. "Nolovoy sinf" 6 yoshdagi hamma bolalar uchun majburiydir. Hamma bog'chalarda polyak bolalari maktabda o'zini qanday tutishi kerakligi haqida o'rgatib boriladi. Haqiqiy maktabga tayyorgarlik

ko'rish jarayonida bolalar o'qishni, yozishni va chizishni o'rganadilar. Jismoniy tayyorgarlikka ko'p vaqt berilgan. Hamma mashg'ulotlar o'yin tarzida olib boriladi. Bolalar bog'chaga 3 yoshdan boshlab boradi. Ota-onalar bola tarbiyasini tajribali pedagoglarga ishonishadi hattoki uylari bog'chadan uzoq bo'lsa ikki haftalab qolishi mumkin. Yuqori narxlarda shaxsiy bog'chalar faoliyat yuritadi hamda ular murakkab dasturlar asosida bolalarni maktabga tayyorlaydi. Xorijiy tildan bir yoki ikkitasi o'rgatiladi. Oilada boshlang'ich ta'lim dasturini o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Tayanch maktab 7 yoshdan boshlab hamma bolalar tayanch maktabda o'qishadi. Birinchi 3 yilda o'quv mashg'ulotlari sinf murabbiysi tomonidan olib boriladi, ammo xorijiy til, musiqa va jismoniy tarbiyadan mutaxassislar jalb qilinadi. Ta'lim dasturida: Ona tili (polskiy); Xorijiy yozuk (ko'pincha angliyskiy); matematika; prirodovedenie; tarix; musiqa (kuylash va raqs); chizmachilik Jismoniy tarbiya; Texnika mashg'ulotlari (mehnat darsi); informatika; Ota-onalar xohshiga ko'ra etika va dinshunoslik. Gimnaziya Ta'lim 3 yil davom etadi. Gimnaziya 3 bosqichli imtihon topshirish bilan yakunlanadi: gumanitar fanlar bo'yicha, matematika va tabiat bo'yicha, chet tili bo'yicha. Oliy o'quv yurtlari O'rta maktab bitiruvchilarini OO'Yulariga qabul qilish etuklik attestatida to'plagan ballari asosida amalga oshiriladi. O'qitish zacet va imtixonlar asosida o'tadi. OO'YUda ikki bosqichli ta'lim mavjud: magistr darajasini olish (5 yil); yoki litsenziat (3 yil) + magistr darajasi (2-yil). OO'YUda o'qish diplom ishi himoyasi bilan yakunlanadi. Texnika OO'Yularida injenerlik imtihonlari ham topshiriladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Rivojlangan Yevropa mamlakatlarda barkamol insonni tarbiyalash muammosi qanday amalga oshiriladi?
2. Yevropa mamlakatlarida xalq ta'limi tizimi haqida nimalarni bilasiz?.
3. AQSH maktab ta'limi tizimini qiyosiy tahlil eting.
4. Rivojlangan mamlakatlarda maktab ta'limining mazmunini taqqoslang.
5. Germaniya ta'lim tizimi haqida nimalarni bilsiz?.
6. Niderlandiya bilan Fransiya ta'lim tizimi mazmuni qanday? qiyosiy tahlil eting
7. Chexoslovakiya, Ro'miniya, Polsha va AQSh mamlakatlarida maktabgacha ta'lim qanday jalb qilinadi. Izohlang.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

:  
1.

Buyuklarning mezonlari. AQShda huquqiy ta'lim tizimi (xorijda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y

2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

3. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.

4.Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil

5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.

6.M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti.2011 yil

7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.

#### **14-mavzu. Belgiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari**

**Tayanch so'zlar:** **Belgiya ta'lim tizimi**, davlatlarda ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim, ta'lim turlari. Belgiya ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim shakllari, ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, Belgiya davlati maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonlari, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, sifatlil ta'lim xizmatlarini loyiq etish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizimi.

**Belgiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.** Belgiyada (MT) 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga yetganda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha ta'lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim ortirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada taxminan 90% foizgacha bo'lgan bolalar unga qatnashadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalari boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi. Bolalar 6 yoshga yetganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi. Maktab ta'limi davri 2 ta-boshlang'ich va o'rta maktab bosqichiga bo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta va 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. Chorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi. Bryusseldagi flamand maktab dasturiga birinchi yoki ikkinchi sinfdan boshlab, fransuz tilini o'qitish kiritilgan. Qolgan flamand maktablarining ko'p qismida bu fan boshlang'ich maktabning 3-bosqichida o'rgatiladi. Mamlakatning fransuz tilida so'zlashuvchi qismida o'quvchining hohishiga ko'ra ingliz yoki niderland tillari ham o'rgatiladi. German tilida so'zlashuvchi qismida fransuz tili majburiy tarzda o'qitiladi. Shuningdek,

Belgiyada belgilangan ijtimoiy guruh (dengizchi va diplomatlar bolalari)ga yo'naltirilgan qator xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi. O'quvchilar boshlangich maktabni tugatib, xuddi shunday 3 ta 2 yillik bosqichdan iborat o'rta maktabga o'tadilar. Bu bosqichda o'quvchilar fanlarni ma'lum guruhlar orasidan tanlashlari shart bo'ladi va bu tanlov ma'lum darajada ularning dars jadvalini aniqlab berishga asos bo'ladi. Dars jadvalidan bu tanlangan fanlardan tashqari xamma uchun majburiy fanlar ham joy olgan. Masalan, davlat tili va jismoniy tarbiya fanlari va hokazo. Belgiya hududida 4 tipdagi o'rta maktablar faoliyat yuritadi: Umumiy ta'lim beruvchi o'rta maktab (Algemeen Secundair Onderwijs, (ASO)). Mazkur tipdagi muassasalar o'quv dasturida maktab bitiruvchisi 6 yil to'liq ta'lim olib, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishi ko'zda tutilgan. Mehnat bozorida ASOni tugatganlik to'g'risidagi diplomli shaxslarga ehtiyoj mavjud emas, chunki mazkur tipdagi muassasalarda ta'lim ko'p hajmi nazariy bilimlar beruvchi fanlarga qaratilgan bo'lib, amaliy va kasbiy tayyorgarlik ko'zda tutilmagan. Texnik o'rta maktablar (Technisch Secundair Onderwijs, (TSO)) ikkita: TTK va STK kabi —tipchalariga bo'linadi. 1- —tipchaldagi maktablarda ta'lim texnik jihati tomoniga yo'naltirilgan, 2- —tipchal - amaliy muassasalarga ixtisoslashgan. Mazkur ta'lim muassasalarida matematika, tillar, tarix, tabiiy fanlarga urg'u beriladi, lekin ASOga nisbatan bilim hajmi kamroqdir. STK bitiruvchilari mehnat bozoriga chiqishga tayyor, TTK bitiruvchilari esa, odatda, o'qishni davom ettirishni: ixtisosi bo'yicha bir yil qo'shimcha tahsil olish, turizm, savdo, sog'liqni saqlash kabi sohalar bo'yicha bakalavr yoki hattoki magistr darajasini olishni afzal ko'rishadi. Kasbiy-texnik o'quv yurtlari (Beroeps secundair onderwijs (VSO)) duradgor, zargar, g'isht teruvchi (quruvchi) usta kabi o'ziga xos mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim taklif etishadi. VSO — faqat Belgiya o'rta ta'limida mavjud bo'lgan ta'lim muassasasi tipidir, bundan keyin oliy ta'lim olish imkoniyati ko'zda tutilmagan. Agarda ushbu ta'lim muassasasi bitiruvchisi qo'shimcha yil (7 yoki 8) o'qish istagini bildirsa, bu qo'shimcha o'quv yilidan keyin bitiruvchiga TSO diplomiga ekvivalent bo'ladigan diplom berishadi. O'rta badiiy ta'lim muassasalari (Kunst secundair onderwijs (KSO)). Ushbu o'quv yurtlar san'at sohasi boyicha oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun universitet yoki kollejga o'qishga kirish uchun talabalarni tayyorlaydi. Tanlagan yo'nalishiga qarab, aktyorlik mahorati, xoreografiya, musiqa yoki tasviriy san'at ustuvor bo'lishi mumkin.

**Belgiya ta'lim tizimi turlari.** Belgiyada oliy ta'lim: universitetlar va oliy maktablar Belgiya oliy ta'limi o'zining ko'hna an'alariga ega. O'qitish jarayoni va zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish o'rtasidagi bog'liqlik Belgiya ta'lim tizimi uchun an'anaviy hisoblanadi. Belgiyada o'qishni tanlash jarayonida

e'tibomi, asosan, ishlab chiqarish (masalan, texnologiyalar) va biznes xalqaro biznes, iqtisodiyot, boshqaruv, huquq, moliya va boshqa)lar bilan bog'liq bo'lgan dasturlarga qaratish kerak bo'ladi. Bunda, albatta, ta'lim olib boriladigan tilni bilish to'g'risida dalillar bo'lishi kerak. Belgiyadagi ta'lim xalqaro biznesga yo'naltirilganligi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun katta imkoniyat beradi. Belgiya ta'limiga fransuz, flamand va nemis hamjamiyatlari javobgar. 6 yoshdan 16 yoshgacha va kechki maktablarda 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun ta'lim majburiy va bepuldir. Savodsizlik deyarli tugatilgan. Belgiyaliklar bolalarining yarmi xususiy, aksariyat qismi katolik cherkovlarga tegishli bo'lgan maktablarda tahsil oladi. Qariyb barcha xususiy maktablar davlat tomonidan tomonidan yordamga beriladigan mablag'-subsidiya bilan ta'minlanadi. Maktab ta'limining birinchi bosqichi - olti yillik boshlang'ich maktab hisoblanadi. O'rta ta'lim aksariyat hollarda uchta ikki yillik bosqichdan iborat bo'lib, uning dastlabki to'rt yili majburiydir. Birinchi va ikkinchi bosqichlarda o'quvchilarining taxminan yarmi umumpedagogik tayyorgarlik, badiiy ta'lim olishadi yoki texnik yoxud hunarmandchilik tayyorgarlikdan o'tadi; boshqalar esa ta'limning umumiy kursini o'tashadi. Oxirgi guruhning taxminan yarim o'quvchilari bitirganda keyin universitetga kirish huquqini beruvchi o'rta maktabning oliy bosqichida ta'lim olishni davom ettiradilar. Belgiyada 7 ta akademiya va 8 ta universitet faoliyat ko'rsatadi. Belgiyada oliy ta'lim qadimgi an'analarga ega: birinchi oliy o'quv yurti - Lyuven katolik universiteti hisoblanadi. U 1425 yil tashkil topgan. 1517 yili Erazm Rotterdam ham Lyuvenda uch tillik (ivrit, lotin, grek) maktabga asos soldi va uning namunasida Parijda Fransiya kolleji yaratildi. 1970 yili fransuz tilida so'zlashiladigan Valloniya, niderland tilida so'zlashuvchi Flandriya, ikki tilda so'zlashiladigan Bryussel' va nemis tilida so'zlashiladigan Germaniya bilan chegaradosh bo'lgan Valloniya sharqidagi tumandan iborat 4 ta lingvistik hudud mamlakat konstitutsiyasida mustahkamlandi. O'sha vaqtdan beri maorif federal vazirligi faqatgina o'rta ta'limning majburiyligini nazorat qiladi va barcha bosqich bo'yicha ta'lim to'g'risidagi diplom va sertifikatlarni berish talablarini belgilaydi. Ta'lim bo'yicha boshqa masalalar tillar hamjamiyati vakolatiga kiradi. SHunday qilib, oliy ta'lim masalalari Flamand hamjamiyatining ta'lim va davlat xizmati Vazirligi, Fransuz hamjamiyatining oliy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro aloqalar va sport Vazirligi hamda Nemis tilida so'zlashuvchi hamjamiyatning ta'lim, madaniyat, ilmiy tadqiqotlar, haykallar va diqqatga sazovor joylar Vazirligi vakolatidadir. Universitet tipidagi o'quv yurtlar va oliy maktablar 1970 yil 7 iyuldagi qonunga muvofiq oliy o'quv yurtlar universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablarga bo'linadi. Aslini olganda 7 ta Belgiya universiteti faoliyat yuritadi: Lej davlat universiteti, Monse-Enodagi universitet, Gent davlat universiteti, Bryussel' Erkin universitet (fransuz va alohida flamand tilida),

Lyuyen katolik universiteti (fransuz va alohida flamand tilida). Ular qatorida bir nechta xorijiy universitet bo'limlari (Bryussel' va Antverpenda), hamda universitetga tenglashtirilgan qator Belgiya oliy o'quv yurtlari (odatda ular universitet fakul'teti, markaz, birlashma yoki jamg'arna nomlariga ega) faoliyat yuritadi.

Oliy o'quv yurtlarning bir qismi - yuqorida nomlari qayd etilgan hamjamiyatlar hukumatlari byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat, yoki "rasmiy" o'quv yurtlari hisoblanadi. Boshqalari shaxsiy mablag'lar hisobidan - xususiy, shaxs yoki tashkilotlar tomonidan ochilgan va —mustaqill, —erkinl nomlariga ega bo'lishgan. Ularning aksariyati Belgiyada, an'anaga ko'ra, ta'limning barcha bosqichlarini, shu jumladan oliy ta'limni, tashkil etish va moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan Rim katolik cherkovi rahbarligida ochilgan. Ba'zi mustaqil o'quv yurtlar, xususan, katolik universitetlar hamjamiyatlar hukumatlari ko'magidan foydalanishadi. Bryusseldagi Erkin universiteti Niderland tilida o'qitiladigan universitet hisoblanadi. Ushbu universitetlar nomlaridagi erkinl so'zi ularning mustaqil o'quv yurti ekanini bildiradi. Ular erkin ilmiy tadqiqotlar prinsipiga bo'ysinadi va shiorlari ham bir xil: Qorong'ulikni ilm bilan engish. Bryussel' Erkin universiteti yuqorida qayd etilganidek, 1834 yili tashkil topilgan va ta'lim faqatgina fransuz tilida, 1934 yildan boshlab golland tilida ham olib boriladi

1970 yili esa Niderland tilida o'qitiladigan fakul'tetlar Erkin universitetlariga ajratiladi. Shunday bo'lsada har ikkala universitet o'zaro hamkorlik dasturini amalga oshiradi. Fakul'tetlari: huquq va kriminologiya; iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy fanlar; psixologiya va pedagogika; tabiiy fanlar; tibbiyot va dorishunoslik; filosofiya va filologiya; texnik (muhandislik) fanlar; jismoniy tarbiya; o'qituvchilarni tayyorlash fanlararo guruh. Shuningdek, universitetga tenglashgan o'quv yurtlar tarkibiga Qirolning harbiy maktabi ham kiradi. Universitet diplomi mavjudligi amaldagi qonunchilikka muvofiq ma'lum davlat mansab, lavozimlarini egallash va jamoat ahamiyatiga ega (advokat, vrach va boshqa) mutaxassisliklar bo'yicha faoliyat yuritish uchun ruxsat olish uchun kerakdir. Alohida holatlarda Belgiya universitetlari chet elliklarga Belgiyada ishlash huquqiga ega bo'lmagan diplom berishadi. Universitetda ta'lim olish eng kam muddati 4 yildir, lekin ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha undan ko'p yil tahsil olishi mumkin.

Universitetdagi o'qishlar ko'p pog'onalidir: universitetda ta'lim olishning har bir davri yoki sikli universitet ilmiy darajasini olish uchun quyidagi darajalarini olishi bilan tugatiladi: Kurs Davomiyligi Daraja (Tayanch)-Bazaviy 2 yil kandidat (ta'limning boshqa tizimida bakalavr diplomiga mos keladi) Kurs Davomiyligi Daraja (Tayanch)-Bazaviy 2 yil kandidat (ta'limning boshqa

tizimida bakalavr diplomiga mos keladi) Kurs Davomiyligi Daraja Kandidat darajasi - 2 yoki 3 yillik tayanch ta'lim olganidan keyin beriladi. Ba 1-sikl hisoblanadi (keyin esa ta'limning 2-sikli, ya'ni ixtisos (soha) bo'yicha tayyorlash boshlanadi; Litsensiat - bakalavr darajasiga mos keladi, mutaxassisligi bo'yicha 2 yoki 3 yillik qo'shimcha ta'lim olishi va ilmiy ish yozganidan keyin beriladi. Ba'zi fanlar bo'yicha ko'p muddatli o'qishdan keyingina ushbu darajaga erishish mumkin. Doktorl - magistr darajasiga to'g'ri keladi, mazkur darajaga litsensiat darajasini olgandan keyingina kamida yana 1 yil tahsil olib, dissertatsiyani yozib, albatta uni yoqlash talab etiladi. Oliy ta'lim agrejelsi - ushbu ierarxiya (ketma-ketlik)ning oliy darajasi hisoblanadi va u doktorlik darajasini olib, 2 yil muddat o'tishidan keyingina berilishi mumkin. Universitetlarda, shuningdek universitetdan keyingi ta'lim yoki, odatda, davomiyligi 2-3 yil bo'lgan 3- sikl (bosqich) ta'limi mavjud. Mazkur ta'lim turininig maqsadi insonlarga ko'shimcha ta'lim yoki daraja olish uchun imkoniyat yaratish hisoblanadi. Ba'zi fanlardan universitet darajasiga ega bo'lish uchun kechki yoki dam olish kunlari kurslari tashkil etilishi orqali yoshi katta bo'lgan kishilarga imkoniyat yaratiladi. Ba'zi universitetlarda ta'limning almashib kelishli, ya'ni ta'lim olish jarayoni ishlab chiqarishdagi amaliyot bilan almashib keladi va tanaffusli ta'lim kabi shakllari mavjud. Belgiya oliy maktab tizimi uchun ta'lim jarayoni bilan zamonaviy fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha amaliy tadqiqotlarning bog'liqligi an'ana bo'lib qolgan. Ilm, fanni rivojlantirish uchun universitetlarning byudjetidan 40% foizgacha bo'lgan miqdordagi mablag' ajratiladi. Ilmiy tadqiqotlarning moliyalashtirilishi vazirlik, sanoat va qishloq xo'jaligida ilmiy- tadqiqotlarga ko'mak Instituti yo'nalishlari bo'yicha davlat mablag'lari, ilmiy tadqiqotlar Milliy jamg'armasi, shuningdek turli xil kompaniya, jamg'arma va assotsiatsiyalar yo'nalishi bo'yicha xususiy (shaxsiy) manbalar hisobidan amalga oshiriladi. 1995 yil 8 avgustdagi Oliy maktablarda ta'limni tashkil etish to'g'risidalgı Dekret uzunl va qisqal tipdagi ta'limni belgilab berdi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, oliy o'quv yurti nomidagi institutl yoki universitetl so'zlari mazkur o'quv yurti o'z bitiruvchilariga oliy ma'lumot beradi degani emas. Qisqa muddatli ta'lim 3 yillik (ba'zi hollarda san'at va tibbiyot sohalari bo'yicha 4 yil) muddatli bir sikldan iborat bo'ladi. Nazariy qismini o'qitish navbatma-navbat laboratoriya, ustaxonalardagi amaliy mashg'ulotlar bilan birgalikda olib boriladi.

Ko'pincha fermer, buxgalteriya, hamshira, maktab o'qituvchisi, mexanik, kutubxonachi, fotograf, kotiba kabi mutaxassisliklarga o'qitish ta'limning 1-yilidan boshlanadi. Uzoq muddatli oliy ta'lim har biri davomiyligi 2 yildan iborat 2 sikldan iborat. Belgiya oliy o'quv yurtlari tomonidan berilgan barcha diplomlar Evropa Ittifoqi davlatlari, shuningdek Islandiya, Norvegiya, Tursiya va Mal'ta mamlakatlarida e'tirof etiladi. Birinchi bosqich Gradue diplom berilishi bilan

yakunlanadi. Ikkinchi pogʻona tahsilidan keyin Licencie diplomi beriladi. Institut va universitetlarning ikkinchi pogʻona bitiruvchilari uchun yagona boʻlib, umumiy hisoblangan uchinchi pogʻonadan keyin bitiruvchiga (Ingeneurdiplome) diplomli muhandis darajasi beriladi. Aslida, oliy taʼlim sektorlari oraligʻidagi chegaralar oʻzgaralar uchun yopiq emas hamda talabalar navbatdagi taʼlim bosqichini oʻz mutaxassisligiga mos keladigan hohlagan oliy oʻquv yurtida davom ettirishi mumkin. Oliy oʻquv yurtiga kirish imtixonlari mavjud emas: tahsil olish uchun yozilish tizimi mavjuddir.

### *Nazorat savollari*

1. Belgiya taʼlim tizimi va turlari haqida gapirib bering.
2. Belgiya davlatlarida taʼlim tizimini amalga oshirish yoʻllari.
3. Belgiya taʼlim tizimi turlari. qanday amalga oshiriladi?
2. Belgiya taʼlim tizimi turlari. qanday amalga oshiriladi Frantsiya va Germaniyada xalq taʼlimi tizimi haqida nimalarni bilasiz?
3. Yevropa davlatlarida mamlakatlarda taʼlimining mazmunini taqqoslang.
4. Germaniya taʼlim tizimi haqida nimalarni bilsiz?
5. Frantsiya bilan Vengriya taʼlim tizimi mazmuni qanday? qiyosiy tahlil eting
6. Chexoslovakiya, Bolgariya va AQSh mamlakatlarida maktabgacha taʼlim qanday jalb qilinadi. Izohlang.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

:  
1.

- B.F.Vulfson Sravnitel'naya pedagogika – M., 2003.
2. V.A.Kapranova Sravnitel'naya pedagogika – M., 2004.
  3. Sh. Shodmonova., Ergashev P. Qiyosiy pedagogika. – T.: TDPU, 2005.
  4. A.A. Xoliqov “Fransiyada pedagogik fikr taraqqiyoti” – T.: 1998.
  5. The word book enceclopedia. – T.: 1994. 1-11 jildlar.
  6. Barkamol avlod orzusi. Sh. Qurbonov tahriri ostida. T., “Sharq”, 1999.
  7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., “Oʻqituvchi”, 1996.

### **15-mavzu. Isroil davlatlarida taʼlim tizimining tuzilish, mazmuni va mohiyati**

**Tayanch soʻzlar:** Isroil davlatlarida taʼlim tizimi, taʼlim shakllari, maktabgacha taʼlim turlari. Isroil davlatlarida taʼlim jarayonlari, taʼlim-tarbiya jarayonlari, taʼlim shakllari, taʼlim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili, taʼlimning taraqqiyot bosqichlari. **Belgiya** davlati maktabgacha taʼlim va tarbiya jarayonlari, malakali pedagog kadrlar bilan taʼminlash, sifatli taʼlim xizmatlarini loriy etish, bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlas, taʼlimni tizimini tubdan yaxshilash, taʼlim-

tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xorijiy ta'lim tizimi.

### **Isroil davlatlarida ta'lim tizimi masalalarini amalga oshirish yo'llari.**

Isroil davlatida ta'lim 5 yoshdan 18 yoshgacha davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilib, uch bosqichdan iborat (maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi): a) boshlang'ich ta'lim (1-4 sinflar), b) o'rta ta'lim (5-9 sinflar), Bu bosqichlar yakunida butun Isroil bo'yicha bir kunda bitirish imtihonlari bo'lib o'tadi. Natijalari asosida o'quvchilar o'zi tanlagan maktab yoki texnologik maktablarda o'qishni davom ettiradi. v) texnologik ta'lim (10-12 sinflar). O'quvchilar bu bosqichda kasbiy bilim oladilar va universitetlarga kirish huquqini teruvchi attestat uchun imtihon topshirib borishadi. (Attestatga imtihon topshirish juda murakkab jarayondir.) Har yili 12-sinfni tugatgan o'quvchilarning o'rtacha 20-40 % attestat oladilar. Shundan keyingi barcha toifadagi ta'lim xizmatlari pulik. O'n sakiz yoshga kirgan o'g'il - qizlar majburiy armiya xizmatiga chaqiriladi. Armiya xizmatidan keyin attestati borlarning deyarli hammasi universitetga o'qishga kiradi. Attestat olmaganlar texnologik maktablarda o'qishni davom ettirishi yoki olgan kasbi bo'yicha ishlashi mumkin. Attestati yo'qlar texnologik maktablarning 13 - 14 sinflarida o'qiydi, lekin istagan sinfdan so'ng kichik texnik, texnik hujjati bilan o'qishni yakunlashi mumkin. 15-16 sinflarda o'qishni davom ettirganlar kichik injener (15-sinf) va bakalavr (16-sinf) diplomiga ega bo'ladi. Bunday sinflarga ega bo'lgan texnologik maktablar Isroil yoki chet el universitetlari bilan shartnomaga ega bo'lib, shu universitetlarning diplomlarini berishadi. Ta'limdagi ustuvor yo'nalishlar va moddiy-texnik ta'minot Isroil davlatida texnologik (kasb-hunar) ta'limga juda katta e'tibor qaratilgan va turli -tuman ko'rinishdagi o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Bular jumlasiga texnologik maktablar, kollejlari, pedagogik markazlar va boshqalar kiradi. Ularning aksariyati ishlab chiqarish yoki firmalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, mutaxassislik yo'nalishlariga ega. Masalan: elektronika, 5 kompyuter, ekologiya, qishloq xo'jaligi, kimyo, grahdan dengiz floti va boshqalar. Ta'lim muassasalarining barcha turlari moddiy texnik bazasi, kompyuter bilan jihozlanganligi juda yuqori darajada. Barcha kompyuterlar Internetga ulangan. O'quv jarayonida Internetdan keng foydalaniladi. Bundan tashqari Telaviv universiteti bilan bir qator texnologik maktablar sputnik kanali orqali amalga oshiriladigan va on line - bevosita muloqat rejimida ishlaydigan masofadan o'qitish tizimiga ulangan. Ta'lim tizimida o'quvchiga juda ko'p bilim berilmaydi, lekin o'quvchilar, xatto bog'cha bolasi ham, mustaqil ravishda fan mavzuga bog'langan holda proektlar yozadi yoki tayyorlaydi va himoya qiladi. Isroil davlati pedagogikasi ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchiga mustaqil ishlashni o'rgatishga qaratilgan va «Bilim olishga o'rgatish uchun o'qitiladi» degan shior bilan ta'lim beriladi. Hozir Isroil davlatida joriy qilinayotgan ta'lim

texnologiyasi ko'ra sinflarda o'quvchilarni o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalarga ajratib o'qitiladi. Ta'lim barcha fanlar bo'yicha hayot va tabiat bilan bog'lagan holda olib boriladi. Fanlarning uzviy bog'lanishi doimo ko'zga tashlanib turdi. Oliy ta'lim tizimi uch bosqichli: 1. Bakalavriatura - 4 yil, 2. Magistratura - 2 yil, 3. Doktorantura - 3 yil. Bakalavr va magistr uchun o'qish Isroilda, doktorantura asosan Evropa va AQSH da amalga oshiriladi. Isroil davlatida malaka oshirishga asosan ikki guruh omillar ta'sir qiladi: 1. Ijtimoiy-madaniy omillar: a) jamiyatni ko'p madaniyatlilik (turli davlatlardan kelgan repatriantlar o'ziga xos madaniyatga ega); b) turli din vakillarining yirik qatlamlarining borligi (iudeylar, musulmonlar, xristianlar va ularning turli oqimlari); 6 v) turli yillardagi repatriantlarning katta oqimi (50-, 70-, va 90- yillar). 2. Pedagogik omillar: a) texnologik ta'limga o'tish; b) o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim (ayniqsa o'rta va texnologik ta'limda); v) o'quv yurtlarini kompyuterlashtirish davlat dasturi va uning juda yuqori suratlarda amalga oshirilishi; g) mutaxassislarni tayyorlashdagi ko'p bosqichlilik. Ushbu faktorlar malaka oshirishning mazmunini tashkil etadi va uning samaradorligini, malaka oshirish kelajagini aniqlashda hisobga olinadi. Bu dastur Vazirlik va munitsipalitetlar darajasida boshqariladi. Axborot texnologiyalari ta'limning turli yangi ko'rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtlarda modulli ta'lim tizimida majmuaviy endashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi. Deklan Bern "blended learning" (aralash ta'lim) haqida shunday deydi – ushbu ta'lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday endashuv axborotni taqdim etishda turli uslubietlardan foydalanishni, ta'limni tashkil etishda va ta'lim jaraenida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha endashuv talabani charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala - tanlangan uslubietlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi. Bugungi kunda blended learning kunduzgi an'anaviy ta'lim va masofaviy ta'limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda an'anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg'unlashtirishga imkon yaratiladi. Bu tizimda o'qituvchi ta'lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Blended learning masofaviy ta'lim (Distance learning), 7 sinf xonada ta'lim (Fake-to-Fake learning) va internet orqali ta'lim (Onlin learning)dan iborat. Vebinar metodi Bugun masofaviy ta'limning yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni etkazadi,

balki ular bilan muloqotga kirishish (og'zaki, ezma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko'rinishida fikrlarni almashish, o'z fikrini baer etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog'i asosida tashkil etiluvchi ta'lim ham sub'ekt-sub'ekt paradigmasiga o'tmoqda. Vebinar usulida dars seminar eki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan tinglovchilar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun ezib olinishi mumkin bo'lsa-da, butun o'quv eki kurs jaraenidagi darslar yagona platforma doirasida o'zarø uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin. Evristik o'qitish metodi Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jaraenida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning echimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'qitilgan masalani echish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar. Evristik metod o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil etish olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish 8 amaliatchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra birnuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilaetgan mavjud sharcitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayerlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyetida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. SHuningdek, buyuk didakt I.YA.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan. XX-asr (1902-1903) boshida Emil Dyurkgeym(1973) o'zining qator ma'ruzalarida eshlarning ijtimoiylashuvida maktab fanlarining markazlashuvini ijtimoiy normalar, qadriyatlar va qoidalar borligini o'rgatuvchi va ular asosida ijtimoiy hamkorlikni shakllantiruvchi dastlabki ijtimoiy institut deb qaragan. Bu me'rlar va qadriyatlarni o'zlashtiraetgan eshlar ko'proq kattalarga xos samarali bandlik va fuqaroligi bilan bog'liq an'anaviy xatti-harakatlar modulini namoen qilmoqda. O'z navbatida maktab va oilalarning bu normalar va qadriyatlarni bolalarga singdirishdagi xato va kamchiliklari ular orasidagi huquqbuzarlik, jinoyatchilik va boshqa salbiy natijalarning kelib chiqishiga olib keladi va yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy institutlarning umumiy maqsadlariga zid holatni yuzaga keltiradi. Maktab tarbiyasi o'qitishni xavfsiz va professional tashkillashtirishda katta rol o'ynaydi.

Dyrkgeymning ta'kidlashicha, maktab tarbiyasi "sinfda faqatgina tinchlikni ta'minlaydigan oddiygina qurilma emas", balki undan ham muhimroq, "ma'naviy tarbiya instrumentidir va u ko'chirib olinishi murakkabdir". Xususan, sotsiologlar o'quvchilarning shakllanishida maktab intizomi muhiti rolining kengayishidan manfaatdor bo'lganlar. Intizom uzoq yillar mobaynida muvaffaqiyatli maktablarning markaziy xususiyati sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, so'nggi o'n yilliklar ichida tadqiqotchilar bu muhim mavzu haqida qiësiy tadqiqotlarga nisbatan kam e'tibor bergan. Maktab intizomi yuzasidan qiësiy tadqiqotlar ayniqsa hozirgi kunda juda muhimdir, chunki biz maktablarning bir-biridan intizom borasidagi tizimli yondashuv farqlarini bilishimiz kerak. Bunday bilim siësatçilarga samarali ta'lim siësatini 9 shakllantirish uchun mustahkam empirik asos beradi. Bu kitob maktab intizomi yuzasidan tizimli qiësiy milliy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, mavzu yuzasidan akademik bilimlar, ijtimoiy fikr va ta'lim siësatining shakllanishiga hissa qo'shadi.

### *Nazorat savollari*

1. Isroil davlatlarida ta'lim tizimi masalalarini amalga oshirish yo'llari.
2. Isroil davlatlarida barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi qanday amalga oshiriladi?
3. Isroil ta'limi tizimi haqida nimalarni bilasiz?
4. Isroil davlatlarida mamlakatlarda ta'limining mazmunini taqqoslang.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. B.F.Vulfson Sravnitel'naya pedagogika – M., 2003.
2. V.A.Kapranova Sravnitel'naya pedagogika – M., 2004.
3. Sh. Shodmonova., Ergashev P. Qiyosiy pedagogika. – T.: TDPU, 2005.
4. A.A. Xoliqov "Fransiyada pedagogik fikr taraqqiyoti" – T.: 1998.
5. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 1-11 jildlar.
6. Barkamol avlod orzusi. Sh. Qurbonov tahriri ostida. T., "Sharq", 1999.
7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 1996.

### **16-mavzu. Finlyandiya ta'lim tizimi, uning mazmuni va mohiyati**

**Tayanch so'zlar:** Finlyandiya ta'lim tizimi, ta'lim shakllari, maktabgacha ta'lim turlari. Finlyandiya davlatlarida ta'lim jarayonlari, ta'lim shakllari, ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, Finlyandiya davlati maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonlari, malakali pedagog kadrlar bilan

ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlarini loriy etish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zanonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, xoriliy ta'lim tizimi.

Finlyandiya ta'lim tizimida teng sharoitlar, uzoq muddatli ta'lim siyosati, ishonch madaniyati va mustaqil ta'lim olish odatiga urg'u beish bu muvaffaqiyatning boshqa sabablari hisoblanadi. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi yuqori darajadagi hamkorlik ta'lim tizimining uzluksiz ishlashiga yordam beradi. Finlyandiya qirq yildan ziyod vaqt mobaynida keng qamrovli va uzoq muddatli ta'lim islohotini olib bormoqda. Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998 yil) Finlyandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan: (1) o'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish, (2) jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish hamda (3) butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash. Finlyandiya aholisi bugungi kunda 5,5 mln. kishini tashkil etadi va mamlakatda mavjud 2341 ta umumta'lim maktablarida taxminan 560500 nafar o'quvchi tahsil oladi. Maktablarda haftasiga 5 kunlik o'qish joriy etilgan. Barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ajratib o'qitilmaydi.

Fin maktablarida boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi va 3-snfgacha bolalarga baho qo'yilmaydi, o'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli beilmaydi, 2017 yildan aksariyat maktablar dars vaqtida "ruchkadan voz kechishgan" va dars jarayonida to'liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi.



Finlyandiya ta'lim tizimi ikki bosqichli ma'muriy tuzilishga ega: Ta'lim va madaniyat vazirligi (*Ministry of Education and Culture*) hamda vazirlik huzurida faoliyat yuritadigan, lekin o'z faoliyatida mustaqil Milliy ta'lim agentligi (*Finnish National Agency for Education*).

Agentlik maktabgacha va maktab ta'limini, vazirlik esa oliy ta'lim tizimini boshqaradi. Finlyandiya ta'lim siyosatida uchta muhim tamoyil mavjudligini ta'kidlash mumkin: bilimga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim tengligini ta'minlash va mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish. Mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish jarayonini o'tgan asrning 70 yillaridan 2000 yillarga qadar Finlyandiya ta'lim tizimidagi eng muhim o'zgarishlardan biri sifatida ta'kidlash mumkin.

Ta'lim muassasalarini boshqarish asosan mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga deyarli hech kim aralashmaydi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir tamoyili bo'lgan ishonch madaniyati tufayli maktablarga tekshiruv tashriflari yo'q.

Finlyandiya ta'lim tizimining asosini quyidagi 7 ta tamoyil tashkil etadi deyish mumkin:

1	<b>Tenglik</b>
2	<b>Ebepul ta'lim</b>

3	<b>Individuallik</b>
4	<b>Amaliylik</b>
5	<b>Ishonch va o'qituvchilar salohiyati</b>
6	<b>Ixtiyoriylik</b>
7	<b>Mustaqillik</b>

1. **Tenglik** - Finlyandiyadagi barcha maktablar o'quvchilarga bir xil sharoit va bir xil ta'lim tizimini taqdim etadi.

2. **Bepul ta'lim** - bepul ta'lim berish bilan birgalikda o'quvchilarga barcha o'quv jihozlari va tushlik ham bepul taqdim etiladi.

3. **Individuallik** – darslarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar yoki yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar alohida shug'ullanishadi. Finlyandiyada o'quvchilar qo'shimcha darslarga qoldirilmaydi.

4. **Amaliylik** – o'quvchilarni imtihonga emas balki hayotga tayyorlash. Darslarda o'quvchilar, masalan, viza kartadan qanday foydalanish, shartnomalar tuzish, saytlar yaratish, tikish, ovqat pishirish, marketing va sotuv ishlari bilan shug'ullanish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar.


5. **Ishonch va o'qituvchilar salohiyati** – barcha maktablardagi o'qituvchilar magistratura darajasiga ega bo'lishlari shart. O'quvchilarga uy vazifasi deyarli berilmaydi, ota-onalar farzandlari bilan uyda shug'ullanmaydi va o'qituvchilarning o'quvchilarni hayotga tayyorlashiga to'liq ishonishadi.

6. **Ixtiyoriylik** – dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o'quvchilar ixtiyorida. O'qituvchilar o'quvchilarni darsga qiziqitira olmasalar o'quvchilar sinfni tark etishi yoki o'zlari yoqtirgan boshqa biror mashg'ulot bilan shug'ullanishlari mumkin.

7. **Mustaqillik** – fin ta'lim tizimida o'qituvchilar o'quvchilarni imkon qadar o'zlari bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari kerakligiga yo'naltiradi. Bilimlarni hayotda qanday tatbiq etish ko'nikmalari amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantiriladi. O'quvchilarning har qanday fikrlari inobatga olinadi va qo'llab quvvatlanadi.

**Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatlari.** Finlyandiya ta'limining muhim xususiyatlaridan yana biri shundaki, u barcha darajalarda, ya'ni maktabgacha ta'limdan oliy ta'limga qadar to'liq bepul ta'lim olishni ta'minlaydi. Shuningdek, barcha o'quv materiallari, darsliklar, sog'liqni saqlash xizmatlari va maktabga qatnash transport xizmatlari ham bepul amalga oshiriladi hamda boshlang'ich va o'rta ta'limda barcha o'quvchilarga maktablarda bepul tushlik beriladi. Finlyandiyada o'n yillik majburiy ta'lim davomida milliy imtihon yo'q. Barcha maktablarda bir xil ta'lim beriladi, o'quvchilar muvaffaqiyatiga qarab turli

maktablarga birlashtirilmaydi va deyarli barcha o'quvchilar uylari yaqinidagi maktabga borishadi. Finlyandiya ta'lim tizimi va jamiyati o'qituvchilarning malakasiga tayanadi. Finlyandiya ta'limini baholash markazi ta'limdagi baholashni butun mamlakat bo'ylab olib boradi. Baholashlarning asosiy maqsadi ta'lim sohasidagi manfaatdor tomonlarni tegishli fikr-mulohazalar bilan ta'minlashdir va ular o'qituvchilarga tekshiruv tashriflarini o'z ichiga olmaydi. Finlyandiyaning muvaffaqiyati izchil va uzoq muddatli ta'lim islohoti bilan chambarchas bog'liq. Ikkinchidan, Finlyandiya muvaffaqiyatining sabablarini o'rganayotgan ko'plab tadqiqotchilar, bir-biriga bog'liq bo'lgan turli xil omillarga asoslanishini ta'kidlaydilar. Ularni uch guruhga ajratish mumkin: o'qituvchilar salohiyati, ta'lim siyosati va fin madaniyatibilan bog'liq omillar. O'qituvchilarning yuqori salohiyati birinchi navbatda o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha o'qitish dasturlariga bog'liqdir. Eng yaxshi o'rta maktab bitiruvchilari bo'lajak o'qituvchi sifatida tanlab olinadi. Yuqori malakali o'qituvchilar Finlyandiya ta'lim tizimi muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadigan bosh omil deyish mumkin. Bo'lajak o'qituvchilar uchun alohida o'quv maktablari belgilanadi va ular odatda o'quv vaqtlarining 10-15 foizini ushbu maktablarda o'tkazadilar. O'quv maktablari talaba-o'qituvchilarga barcha kerakli o'quv materiallari bilan ta'minlangan alohida xona ajratib beradilar. Talaba-o'qituvchilar dars jarayonlarini kuzatish bilan birgalikda ta'lim jarayonida ham faol qatnashib, katta tajriba to'plashadi hamda maktab jamoasi va o'quvchilar ham ulardan juda foydali yordam olishadi. O'qituvchilarning ta'lim tizimidagi moslashuvchanligi va mustaqilligi ham ta'lim sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar malaka oshirish kursiga qo'shilishni xohlasa, ma'muriyat ularni doimo qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchilardan faqatgina malaka oshirish dasturida o'rgangan narsalarini maktabdagi boshqa o'qituvchilar bilan bo'lishishi so'raladi. Ikkinchi guruh sifatida qayd etilgan Finlyandiya ta'lim siyosatining to'rtta muhim jihatiga e'tibor qaratish lozim. Ularga izchil va uzoq muddatli siyosat, bilimga asoslangan jamiyatga sodiqlik, ta'lim tengligi va mahalliy hokimiyatning ta'lim sohasidagi vakolatlarini kengaytirishlar kiradi. Mazkur to'rtta jihat 1970 yillardan beri muvaffaqiyatli ta'lim islohoti asoslarini tashkil etdi, natijada kuchli ta'lim tizimi yaratildi. Ta'lim siyosati bilan bog'liq yana bir jihat - bu ta'lim muassasalariga nisbatan markaziy va mahalliy boshqaruvning balansidir. Qaror qabul qilish jarayonida mahalliy hokimiyat organlari, maktablar va o'qituvchilar mustaqillikka ega, bu o'z navbatida ularga o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish uchun katta mas'uliyat yuklaydi.



Uchinchi omillar guruhi sifatida fin madaniyati bilan bogʻliq omillar qayd etilgan. Bularning birinchisi - ishonch madaniyati, yaʼni taʼlim muassasalariga va xususan, oʻqituvchilarga boʻlgan yuksak ishonch. Ikkinchisi – Finlyandiya jamiyatida va xalq madaniyatida oʻqituvchilik eng obroʻli va yuqori baholanadigan kasblardan biri hisoblanadi. Taʼlim tizimi tomonidan beriladigan oʻqituvchilarning avtonomligi bu kasbni fin xalqi uchun yanada jozibali qiladi. Oʻqituvchilar yuqori salohiyatga egaligi, shubhasiz, fin oʻquvchilari muvaffaqiyatining eng asosiy elementlaridan biridir. Maktab maʼmuriyati va ota-onalar oʻqituvchilarning oʻz vazifasiga katta masʼuliyat bilan yondashishlariga qattiq ishonadilar. Shuningdek, Finlyandiya taʼlim tizimida barchaning tenglik tamoyili juda qadrlanadi, alohida ehtiyojlari boʻlgan oʻquvchilar uchun qoʻshimcha kuch va mablagʻ sarflanadi. Finlyandiyada taʼlim islohotlarining muvaffaqiyatida fin xalqining oʻzaro tenglik va hamkorlik qadriyati, shuningdek, taʼlim tizimi va boshqa ijtimoiy xizmatlar oʻrtasida jamiyatda ijtimoiy adolatni taʼminlash boʻyicha yuqori darajadagi hamkorlikning mavjudligi va ularning yuzogʻa uygʻunlikda faoliyat koʻrsatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Finlyandiya

muvaffaqiyatining sabablari haqida gapirar ekanmiz, ushbu yutuqning yana bir tomoni Finlyandiya ta'limida nimaga urg'u berilsa PISA dasturidagi baholashlar ham aynan shular bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni o'quvchilarga faqat bilim berish o'miga, savodxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish Finlyandiya ta'limining markazida turadi, bu fin o'quvchilariga PISA kabi savodxonlikka yo'naltirilgan baholash tizimida ustunlik beradi. O'qituvchilarning yuqori salohiyatga ega ekanligi fin ta'lim muassasalarining muvaffaqiyatga erishishidagi navbatdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Sinf rahbarlari ham, fan o'qituvchilari ham o'qitadigan fan mazmunini juda yaxshi bilishadi va o'quvchilarning sinflarda faol bo'lishlari uchun turli xil o'qitish metodikalaridan foydalanadilar. Shuningdek, ular bilimlarni tushuntirish uchun ko'plab kundalik hayotiy misollardan foydalanadilar. Bundan tashqari, fin jamiyatida mavjud yuqori saviyadagi kitobxonlik madaniyati ham o'quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Finlyandiyada kutubxonalar tarmog'i juda zich joylashgan va ular doimo gavjum.

**2020 yilning 6 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi.**

Mazkur farmonda maktab va matabgacha ta'limi bo'yicha ilg'or davlatlar tajribasini, xususan Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish vazifasi yuklatildi. Davlatimiz rahbari tomonidan aynan Finlyandiya misol qilib ko'rsatilgani bejizga emas. Ushbu mamlakat ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi o'z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. Fin o'quvchilari PISA tadqiqotidagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik va ta'lim tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan. Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA - *The Programme for International Student Assessment*) shunday tadqiqot dasturlarining eng keng tarqalgani hisoblanadi.



**PISA dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar.** PISA tadqiqotlarida 2015 yilda 72 ta mamlakatdan 500000 nafardan ortiq va 2018 yilda 79 ta davlatdan 600000 nafardan ko'proq 15 yoshli yigit-qizlar ishtirok etishgan. PISAning o'ziga xos xususiyati shundaki, u sof bilimni emas, balki turli sohalarda savodxonlikni baholaydi. Savodxonlik – "o'quvchilarning asosiy mavzular bo'yicha bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati, turli vaziyatlarda muammolarni aniqlash, talqin qilish va hal qilishda samarali tahlil qilish, mulohaza yuritish va muloqot qilish qobiliyati" sifatida izohlanadi. PISA dasturi doirasida har 3 yilda takrorlanuvchi sikllarda o'quvchilarning matematik, tabiiy fanlar va o'qish fanlari savodxonligi baholanadi.

PISA dasturi 2000 yilda tashkil etilgandan buyon Finlyandiya unda muntazam qatnashib kelmoqda va erishgan natijalari bilan fin ta'lim tizimi dunyodagi ko'plab mamlakatlarining e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. O'tkazilgan yettita PISA siklining natijalarida o'zgina tebranishlar va so'nggi ikki siklda biroz pasayish kuzatilsada, Finlyandiya ta'lim tizimi PISA tadqiqotlari natijalari bo'yicha uzoq davrda eng yaxshi natijalarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, keyingi muhim jihat shundaki, Finlyandiya PISA tadqiqotlarida ishtirok etuvchi mamlakatlar orasida o'quvchilarning haftalik o'quv yuklamasi eng qisqa davlat hisoblanadi. Fin o'quvchilari haftada barcha fanlarni o'rganish uchun o'rtacha jami 36,1 soat sarflaydilar, ushbu ko'rsatkich maktab va maktabdan tashqari o'quv jarayonini o'z ichiga oladi. Eng qisqa o'qish vaqti va yuqori ballar Finlyandiya ta'lim tizimining jozibadorligini ortirdi.

### FIN O'QUVCHILARINING PISA DAGI NATIJALARI

Savodxonlik turi	2000	2003	2006	2009	2012	2015	2018
O'qish	546 (1)*	543(1)	547(2)	536(2)	524(3)	526(2)	520 (5)
Matematika	536(4)	544(1)	548(1)	541(2)	519(6)	511(7)	507 (12)
Tabiiy fanlar	538(3)	548(1)	563(1)	554(1)	545(2)	531(3)	522 (9)

Qavs ichida Finlyandiyaning PISA tadqiqotidagi reytingi ko'rsatilgan.

**Ma'lumot uchun:** Finlyandiya Respublikasi **PIRLS** (*The Progress in International Reading Literacy Study – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash*) tadqiqotida 2011 (568 ball) va 2016 (566 ball) yillarda ishtirok etgan va mos ravishda 3 va 5-o'rinlarni egallagan.

Maktab ma'muriyati va ota-onalar o'qituvchilarning o'z vazifasiga katta mas'uliyat bilan yondashishlariga qattiq ishonadilar. Shuningdek, Finlyandiya ta'lim tizimida barchaning tenglik tamoyili juda qadrlanadi, alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun qo'shimcha kuch va mablag' sarflanadi. Finlyandiya ta'lim islohotlarining muvaffaqiyatida fin xalqining o'zaro tenglik va hamkorlik qadriyati, shuningdek, ta'lim tizimi va boshqa ijtimoiy xizmatlar o'rtasida jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash bo'yicha yuqori darajadagi hamkorlikning mavjudligi va ularning yagona uyg'unlikda faoliyat ko'rsatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Finlyandiya muvaffaqiyatining sabablari haqida gapirar ekanmiz, ushbu yutuqning yana bir tomoni Finlyandiya ta'limida nimaga urg'u berilsa PISA dasturidagi baholashlar ham aynan shular bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni o'quvchilarga faqat bilim berish o'miga, savodxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish, Finlyandiya ta'limining markazida turadi, bu fin o'quvchilariga PISA kabi savodxonlikka yo'naltirilgan baholash tizimida ustunlik beradi. O'qituvchilarning yuqori salohiyatga ega ekanligi fin ta'lim muassasalarining muvaffaqiyatga erishishidagi navbatdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Sinf rahbarlari ham, fan o'qituvchilari ham o'qitadigan fan mazmunini juda yaxshi bilishadi va o'quvchilarning sinflarda faol bo'lishlari uchun turli xil o'qitish metodikalaridan foydalanadilar. Shuningdek, ular bilimlarni tushuntirish uchun ko'plab kundalik hayotiy misollardan foydalanadilar. Bundan tashqari, fin jamiyatida mavjud yuqori saviyadagi kitobxonlik madaniyati ham o'quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Finlyandiya kutubxonalar tarmog'i juda zich joylashgan va ular doimo gavjum. Xulosa qilib aytganda, Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati fin xalqining qadriyatlari va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Finlyandiya muvaffaqiyatidan saboq olish, ta'lim tizimini chuqur o'rgangan holda undagi muhim jihatlarni o'zimizgamoslashtirgan holda foydalanishimiz zarur.

- Finlyandiya muvaffaqiyatini bitta omil yordamida tushuntirish mumkin emas, chunki bir-biri bilan juda bog'liq bo'lgan omillar tarmog'i mavjud;
- Har qanday ta'lim islohoti uzoq muddatli siyosatni talab qiladi;
- Fin xalqining asosiy qadriyatlari Finlyandiya ta'lim muvaffaqiyatining muhim qismidir.

Tenglik va hamkorlik Finlyandiya ta'lim tizimini hamjihatlikda ishlashga majbur qiladi.

- O'qituvchilarning salohiyati eng muhim omil va bu boshqa ko'plab omillar bilan, masalan, o'qituvchilarni tayyorlash ta'lim sifati, o'qituvchilik kasbining jamiyatdagi obro'si va o'qituvchilarning mehnat sharoitlari bilan bog'liq.

- Turli xil madaniyat va qadriyatlarga ega bo'lgan va yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarning PISA dasturidagi muvaffaqiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha taqqoslash qaysi madaniy sharoitda qaysi omillar ishlashini aniqlashga katta yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati fin xalqining qadriyatlari va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Finlyandiya muvaffaqiyatidan saboq olish, ta'lim tizimini chuqur o'rgangan holda undagi muhim jihatlarni o'zimizgamoslashtirgan holda foydalanishimiz zarur.

### *Nazorat savollari*

1. Finlyandiya ta'lim tizimining mazmuni.
2. Finlyandiya ta'lim tizimining mazmuni.
3. PISA dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar.
4. Maktab ma'muriyati va ota-onalar hamda o'qituvchilarning o'z vazifasiga bo'lgan mas'uliyati.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

uyuklarning mezonlari. AQShda huquqiy ta'lim tizimi ( xorijda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y.

2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .
3. Jahon tarixi. (darslik) T-2006 y.
4. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil
5. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.
6. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti. 2011 yil
7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 2006.

## **17-mavzu. O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan ta'lim tizimidagi a'loqalari**

**Tayanch so'zlar:** O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim shakllari, maktabgacha ta'lim turlari. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlili, ta'limning taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonlari, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlarini loriy etish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlas, ta'limni tizimini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, janubiy Koreya ta'lim tizimi. Uning o'ziga xos xususiyatlari.

**O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining mazmuni va mohiyati.** O'zbekistonning rahbariyati xalqimiz, Vatanimiz manfaatini va ravnaqini yuksaltirishda yosh avlod kelajagini o'ylab, ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish uchun zarur barcha kuch va imkoniyatlarni topib, ularni ishga solmoqda. Shu bois mamlakatimiz jahon jamoatchiligi tomonidan ta'lim-tarbiyaga ulkan e'tibor berayotgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu jarayonda ilm-fan va texnika taraqqiyotini ta'minlovchilarni, iste'dodli yoshlarni har tomonlama rag'batlantirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya kabi yuksak taraqqiy etgan davlatlarning ta'lim tizimi sohasidagi tajribalarini o'rganish, yangi ta'lim texnologiyalarini olib kirish kabi qator amaliy vazifalarni bajarishda bosh bo'lib xizmat qilmoqda. Yurtimizda dunyo mamlakatlarining qator oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda, aloqalar davom etmoqda. Janubiy Koreyadagi odamlar ta'limga kelajakda jamiyatda o'z mavqei egallash vositasida qarashadi. Bu tabiiy albatta. Insonning o'z shaxsini namoyon eta olish layoqati yoshlikda egallagan bilimiga bevosita bog'liq.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun nalakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi.

**Maktabgacha ta'lim sohadagi islohotlar natijasi.** Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim. Uzlüksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkiloti bu o'ziga xos bir olam, ushbu mskanda bolalar, ota-onalar, tarbiyachilar va pedagog-xodimlar manfaatlari to'qnash keladi. Har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar o'zini erkin his qilishi, qulay va xavfsiz sezishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish va barcha ishlarni birgalikda amalga oshirilishi lozim sanaladi.

Ammo, olingan tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli yondashuvlar oqibatida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim

muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek,

“Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarning qamrovi 10 foizga oshishi, 2018 yilda esa maktabgacha ta'lim muassasalarini saqlash harajatlari joriy yilga nisbatan 32 foizga o'sishi kutilmoqda.

Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab berildi.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalami har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalami maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi.

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi bois, binolar qarovsiz holga kelib, bo'shab yotganligi, ulardan samarali foydalanilmayotganligi tanqid qilinib, 2018 yilning birinchi yarmida amalga oshirilishi lozim bo'lgan yettita yo'nalishdagi strategik vazifalar belgilab berildi.

Ular doirasida 2018 yil davlat budjetidan 427 bog'chada qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish uchun 771 milliard so'm mablag' ajratish, jumladan, 14 tasini yangidan qurish, 256 tasini rekonstruksiya qilish va 157 tasini kapital ta'mirlash rejalashtirilayotganligi, davlat-xususiy sherikchilik asosida yangi turdagi

maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, 2018 yil 1 yanvardan boshlab, 5 yil davomida xususiy bog'chalar tomonidan tabiiy gaz va elektr energiyasi uchun sarflanadigan mablag'ning yarmi davlat budjeti hisobidan qoplanishi, bog'chalarda bolalarni sog'lom ovqatlantirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlash maqsadida 2018 yildan boshlab har bir maktabgacha ta'lim muassasasiga 10-15 nafar fermemi sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish uchun birlashtirilishi, bolalar bog'chalariga tayyor sifatli issiq ovqat yetkazib beradigan davlat korxonasi tashkil etilib, "Ketrinq" xizmatini yo'lga qo'yish mexanizmining ishlab chiqilishi, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti faoliyatining takomillashtirilishi, maktabgacha ta'lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgacha ta'lim pedagoglariga qo'yiladigan talablarning qayta ko'rib chiqilishi to'g'risida ma'noda sohavi dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligi (MTV) tomonidan 2019 yil 27 avgust kuni **"2018–2019 o'quv yilida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishining strategik ustuvorliklari – hammaboplik va sifat"** mavzuidagi anjumani o'tkazildi. Respublika maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM)ning pedagog va rahbar xodimlari ishtirokida birinchi yillik konferensiya tashkil etildi.

Ushbu tadbirda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkentdagi Puchon (Janubiy Koreya) universiteti filiali, shuningdek YuNESKO, YuNISEF va Jahon banki vakillari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vaziri **Agrippina Shin** o'z chiqishida MTVning shu kungacha qadar erishgan yutuqlarini qayd etib o'tdi:

- 27 ta normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish orqali maktabgacha ta'lim tizimining huquqiy bazasi yaxshilandi;
- MTM moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda va tarmog'i kengaytirilmoqda. 2018 yilda ta'mirlanayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari soni 2017 yildagiga nisbatan qariyb 3 barobarga (105 taga nisbatan 298 ta), yangi qurilish ob'ektlari soni esa 2 tadan 40 taga oshdi;
- Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda, ularning soni 568 taga yetdi;

- Davlat-xususiy sektor sherikchiligi tamoyili asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalari soni jadal ortmoqda – bugungi kungacha davlat-xususiy sektor sherikchiligiga doir 741 ta kelishuv imzolandi;

- Pedagoglar va tarbiyachilar malakasini oshirish ishlari o'tkazilmoqda. 2018 yilda 9 mingdan ziyod xodim qayta tayyorlandi;

- “Bolani maktabgacha ta'lim muassasasiga navbatga qo'yish” interaktiv xizmati yo'lga qo'yildi;

- Maktabgacha ta'lim pedagoglari bazaviy tarif stavkalari 2 barobarga oshirildi;

- Hisobotlar hajmi sezilarli darajada qisqartirildi;

- Maktabgacha ta'lim boshqaruvi axborot tizimi (EMIS) joriy etildi.

Mazkur konferensiya Toshkent shahrining Mirobod tumanidagi 34-sonli va 164-sonli maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazildi, u yerda olti mavzudagi maydonlar tashkil etildi:

1. Outsorsing uslubida bolalar uchun sog'lom va xavfsiz ovqatlanishni tashkil etish;

2. Maktabgacha ta'lim muassasasida innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish;

3. OpenEMIS ta'lim boshqaruvi axborot tizimini joriy etish;

4. Tabiatda ta'lim faoliyatidan lavha;

5. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiya-ta'lim jarayonlarida multimedia texnologiyalarini qo'llash;

6. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi rivojlantirish markazlarini jihozlashga ijodiy yondashuv.

Ta'kidlash joizki, mazkur maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati namuna sifatida ko'rsatildi. Bu yerda butun O'zbekistondan tashrif buyurgan MTM rahbarlari uchun mahorat darslari tashkil etildi. Ularda innovatsion usullar bilan bir qatorda pedagoglarga qo'l ostidagi buyumlardan yasalgan o'yinchoqlardan foydalanib, bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqitirish usullari namoyish etildi.

Janubiy Koreya Respublikasi tashkil topishi bilan hukumat ta'lim sohasini qayta isloh qilishga kirishdi. Ta'lim haqidagi Qonun 1948- yilda qabul qilingan. Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan: 6 yil — quyi maktab, 3 yil — o'rta, 3 yil — oliy maktab; 4 yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim. Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 500 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 400 tasi xususiydir. Bugungi kunda Koreya savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoridan joy olgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning

40 foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Ayni paytda maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab- ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982- yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir. Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfdan 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars yuklamahri ham ko'proq. O'yinlar, dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor. Boshlang'ich maktabda dars 40 minut davom etadi. O'rta maktabda esa darslar 45 minut. Oliy ta'limda darsning davomiyligi 50 minut. Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi. O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bimalol gaplasha oladi. Koreyslar yana bir tilni-klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rga-nadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi. Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi. Hunar maktablariga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir. Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan. Davlat maktablarida diniy ta'limot o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab "Odobnoma" kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o'z kollejiga ega. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi. Soliqlar tizimida ta'limiy soliq joriy qilingan. ishlab chiqaruvchilar foyda ning ma'lum foizini maorifga yuboradilar. Davlat byudjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provinsiyalar ta'lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda maorifga qanchalar zo'r ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi. Janubiy Koreyada ta'lim boshqaruvining asosi sifatli va zamonaviy ta'lim berishga qaratilgan. Buni ta'lim muassasalarida o'ziga xos tarzda olib boriladigan o'qitish va tarbiya usullarida, dars berishning ilg'or jihatlarida va albatta, mamlakat ravnaqiga xizmat qiluvchi malakali

mutaxassislar misolida ham ko'rish mumkin. Ammo ta'lim tarbiyaning namunali yo'lga qo'yilishi Janubiy Koreya ta'lim sohasida muammolar yo'q degan tasavvumi bermaydi. Chunki bozor qonuniyatlarining ta'lim sohasiga ta'siri tufayli raqobatning yuzagakelishi davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy ta'lim muassasalarining ham rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Bu esa uning muayyan huquqiy me'yorlariga asoslanishi va mamlakat qonunchiligiga muvofiq boshqarish lozimligini, mislsiz katta axborotlarni o'zlashtirishga nisbatan nazoratni yo'lga qo'yishni talab etadi. Shu bois, ana shunday muhim masalalarning ayrimlariga to'xtalish joizdir. Ma'lumki, Janubiy Koreya ta'lim tizimida xususiy maktablarning o'rni katta. Ushbu mamlakatda xususiy maktablar ta'limi to'g'risidagi qonun 1963- yilda qabul qilingan. Bunga sabab ularning mustaqilligi va muxtoriyatni ta'minlash, bu turdagi maktablarning ta'lim tizimidagi rolini oshirish va ana shu tarzda ularning rivojlanishiga ko'maklashishdan iboratdir. Koreyada ta'lim o'quvchi va talabalarning bilim darajasini farqlash, ularning qiziqishlarini o'rganish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. O'quvchi yoshlar orasida ruhiy jismoniy qobiliyat ham juda yuqori bo'lib, har bir ta'lim oluvchining o'sish imkoniyatini oshirish uchun alohida pedagogik chora-tadbirlar qo'llaniladi.

#### ***Nazorat savollari***

1. Maktabgacha ta'lim sohadagi islohotlar natijasi qanday amalga oshiriladi?
2. O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan ta'lim tizimidagi aloqalari
3. Janubiy Koreya ta'limi tizimini qiyosiy tahlil eting.
4. Janubiy Koreya mamlakatlarda maktabgacha ta'limining mazmunini taqqoslang.
5. Janubiy Koreya mamlakatlarida maktabgacha ta'limga qanday jalb qilinadi. Izohlang.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. B.F. Vulfson Sravnitel'naya pedagogika – M., 2003.
2. V.A. Kapranova Sravnitel'naya pedagogika – M., 2004.
3. Sh. Shodmonova, Ergashev P. Qiyosiy pedagogika. – T.: TDPU, 2005.
4. A.A. Xoliqov "Fransiyada pedagogik fikr taraqqiyoti" – T.: 1998.
5. The word book encyclopediya. – T.: 1994. 1-11 jildlar.
6. Barkamol avlod orzusi. Sh. Qurbanov tahriri ostida. T., "SHarq", 1999.
7. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi", 1996.

## XULOSA

Maktabgacha ta'limni tashkil etishda xorij ta'limi tajribasidan foydalanish. Maktabgacha ta'limni tashkil etishda investitsion aloqalar. Ta'limni rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining bajarilishida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, xorij mamlakatlarining investitsiyalarni jalb etish muhim o'rin tutadi. Ta'lim sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorlik 2016- yildan boshlab keng yo'lga qo'yildi. Birgina, 2006-2017- yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Investitsiya dasturi to'g'risidagi qaroriga asosan xalq ta'limi tizimida Investitsiya vazirligi ishtirokida ta'limda mingga yaqin ta'lim loyihalari amaliyotga tatbiq etildi. Ayniqsa, o'qitishda xorij tajribasidan foydalanish orqali talabalarning aqliy faoliyati taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mantiqiy fikrlash doirasini yanada kengaytirish ijobiy samara bermoqda. Binobarin, bu usul ularda moddiy borliq, shaxslararo munosabat hamda ularning mexanizmlarini har tomonlama anglab olishga asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Narsa va hodisalarning ichki murakkab bog'lanishlarini, qonuniyatlarini mustaqil ravishda tushunish uchun imkoniyat tug'diradi. Ularning mulohaza yuritish doirasini kengaytiradi, o'quv motivlarini yuzaga keltiradi. Voqealarni bilishga faollik uyg'otadi. O'zini o'zi boshqarishga puxta zamin hozirlaydi. Talabalarning ijtimoiy ishlardagi faol ishtirok ularning g'oyaviy e'tiqodini shakllantirishga yordam beradi natijada, o'zlarini o'rab turgan muhit haqidagi tasavvur va tushunchalar kengayadi, chuqurlashadi va aniqlashadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi isloh qilinar ekan, bunda albatta shu mutaxassis talabalarini o'qitish, mashg'ulotlar mazmuni bilan birgalikda interfaol usullarini ham joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'qitish usullari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Ma'lumki, an'anaviy o'qitish usullari axborotni uzatish, qabul qilish jarayoniga qarab so'z orqali, ko'rgazmali yoki amaliy ifodalanishi mumkin. Bugungi kunda axborot almashinuvining keskin taraqqiyoti, globalashuvi aynan o'qitish usullariga ham o'z ta'mirini o'tkazadi. Endi avvalgidan farqli o'laroq ta'lim beruvchi faqat bilim va saviyasi darajasinigina emas, balki ta'lim jarayonida qaysi metodni o'quvchiga bilim beribgina qolmay erkin tafakkur yurishga, mustaqil fikrlashga undaydi? - degan savol bilan o'z ustida tinmay izlanishida bo'lmog'i lozim. Bugungi kunda talaba faol eshituvchi emas balki ta'lim jarayonida o'qituvchi bo'lishi kerak. Interfaol metodlar talabalarda o'z fikrlarini erkin bayon qilish, tanqidiy tafakkur, jamoa bilan ishlash, o'z fikrlarini himoya qila olish, haq-huquqlarini ang'ay olish imkoniyatini yaratadi. Ushbu darslikda o'ziga xos metodlar tilga olinadiki, bular, xorij tajribasida interfaol metodlar orqali munozara, ajurli arza, debat o'z o'ringini top, tanqidiy fikrlash, muz yorish, qor

boʻron kabi usullar dars mashgʻuloti jarayonida talabalar tomonidan bilimlarni oʻzlashtirishga, idrok etishga oʻqituvchining bevosita va tizimli rahbarlik qilish mazkur muammoni ijobiy hal etishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Masalan, yaʼni bilishlari shart boʻlgan pedagogik qiyosiy masalani aʼlohida qayd etishi yoki mavzuni bayon etish rejasini tuzishi, u yoki bu yoʻnalishlarni aniq koʻrsatib berishi taqazo etiladi. Ayniqsa, oʻqitish jarayonida xorij tajribasiga tayanish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Bugunda pedagogik taʼlim darslari jarayonida xorij tajribasidan foydalanish qanday natijalarni qoʻlga kiritish imkoniyatini berdi? Bular: Maktabgacha taʼlimini oʻqitishning maqsad va vazifalari belgilandi, davrlashtirishda bir toʻxtamga kelishildi, fan boʻyicha oʻquv darsliklari va oʻquv metodik qoʻllanmalarining yangi avlodi tayyorlanib talabalargalarga yetkazildi; Pedagogika darslari jarayonida xorij adabiyotlaridan foydalanish masalasi bosqichma-bosqich hal etilmoqda; oʻqitilish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash, noanaʼnaviy dars tashil etish, dars jarayonida axborot texnologiyalari va oʻqishning turli interfaol usul va metodlaridan foydalanish, ayniqsa interaktiv usullardan foydalanish vazifalari bosqichma-bosqich hal etilishildi. Xorij tajribasidan oʻquv jarayonida foydalanishda avvalo tarix taʼlimi mavzularini oʻzlashtirishda ayniqsa, xorijiy taʼlim tizimini tajribasini oʻrganish, kelajakda shu davlatlar bilan raqobat qilish imkoniyatlarini ochib bermoqda. Oʻquv darsliklarni yangi avlodini yaratishga koʻmaklashmoqda. Taʼlim tizimida oʻtkazilayotgan islohatlarni samaradorligini taʼminlamoqda. Yangilik va izlanuvchilik muhiti shakllangan. Yosh avlodning barkamol kelajagi uchun huquqiy va iqtisodiy shart – sharoitlar yaratilmoqda. Unda taʼlim berayotgan oʻqituvchilarning murakkab va ayni paytda maʼsuliyatli mehnat faoliyatlari yoshlarni bilimli, kamil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan. Xulosa qilib taʼkidlash oʻrinliki, maktab taʼlimida tarix fanlarini oʻqitishda xorij taʼlim tajribalaridan foydalanish, oʻquv jarayoni muvofiqlashtirish va dars samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: —O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 104 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: -O'zbekiston NMIU, 2017. – 56 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: -O'zbekiston NMIU, 2017. – 48 b.

4. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. - B. 31-60.

5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori // 11-modda. T.: O'zbekiston, 1997. B.23

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida”gi 343-sonli qarori.

7. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 34 bet.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 2707-sonli qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil., 6-son, 70-modda.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelda “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori. «Xalq so‘zi» gazetasi 2017 yil 21 aprel 79 (6773)-soni.

11.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyulda «Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 528-sonli qarori

16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 19 sentyabrdagi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. – AQSh, 2017.

17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son Farmoni.

18.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-son Qarori.

19.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturini bajarish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi»

20.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”giPQ -4312 –son qarori.

21.Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. - Toshkent – 2017.

22.O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim konsepsiyasi. /Qodirova F.R., Qodirova R.M., Vahobova F.N. – T.: 2008.

23.«Ilk qadam “» Davlat dasturi– Toshkent – 2018 y.

24.Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

25.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.

Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.

26. Abdukanimov X. «Professionalnoe vospitanie lichnosti uchitelya v protsessе pereglybnogo pedagogicheskogo obrazovaniya» Avtoref.diss. ... dokt. ped.nauk. -T.1997.-46s

27. Ahlidinov R.Sh., Nosirova F.A., Rajabova M.R. Maktab boshqaruvida ichki nazorat. – Toshkent: Sharq, 1995. – 15-17-b.

28. Abdullajonova M., Isaqova M., Zokirova M., Isroiljonov S. Ijtimoiy psixologik treningdan praktikum. – F.: FarDU. 2003. – 68 b.

29. Abdullina O.A. Obщepedagogicheskaya podgotovka uchitelya v sisteme vysshego pedagogicheskogo obrazovaniya, 2-ye izd., pererab. i dopoln. – M.: Prosvещение, 1990. – 141 s.

30. Abduhakimova M.K. Organizatsionna-pedagogicheskie osnovy razvitiya sistemy doshkolnogo obrazovaniya v respublike Uzbekistan (1991-2000gg.). TDPU-2004; 174s. Diss. na sois. uchen. step. kan. ped. nauk.

31. Abidjanova S.D. Sootnoshenie obraznyx i rechevyx sredst v razvitii prostranstvennyx predstavleniy doshkolnikov. Avtoreferat. –M: 1990g., 16s.

32. Avilova Ye.A. Vliyanie pedalogii na stanovlenie i razvitie doshkolnogo vospitaniya v 20-30-ye gg // Upravlenie DOU. – Moskva, 2007.- №8, s.110.

33. Adamova O'K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'ziga xosligi // [http://fikr.uz/blog/Fikr\\_maktabgacha\\_talim/7611.html](http://fikr.uz/blog/Fikr_maktabgacha_talim/7611.html).

34. Azizxodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassislarni tayyorlash texnologiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – 52 b.

35. Andreev V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya. Innovatsionnyy kurs. Kniga 1. -Kazan: Izd.-vo Kazanskogo un-ta,1996.-570 s.

36. Arziqulov D. Pedagogik-psixologik treninglar orqali kasbiy mahoratni oshirish // Kasb-hunar ta'limi j. – T.: 2002. 4-son. – 28-b.

37. Arushanova A. Doshkolnıy vozrast: formirovanie grammaticheskogo stroya rechi: voprosy teorii // Jurnal «Doshkolnoe vospitanie». M.: - 1993 № 9., str: 58-65.

38. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. Psixol. fan. nom.dis... avtoreferati. – Toshkent: 2002. -28 b.

39. Abdurahimova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish. Ped. fan. nomzodi ... diss. – T., 1998. –165 b.

40. Asqarxo‘jaeva M. Bog‘chalarda o‘zbek tilini o‘rganish. Bolalar bog‘chasi tarbiyachilari uchun metodik qo‘llanma. -T.: O‘qituvchi – 1994, 128b.

41. Asqarova M., Matchonov S. va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. – Toshkent “O‘zbekiston” - 2001, 160 b.

42. Begmatova N. X. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida multimediya texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nomz ... diss. – Qarshi, 2012. –150 b.

37. Belyaeva A.P. Didakticheskaya prinsipy professionalnoy podgotovki v PRU: Metod.posobie. -M.: Vysshaya shkola, 1991. -208 s.

38. Bem E. Lider i gruppy. O strukture i dinamike organizatsiy i grupp. – Yekaterinburg: Izd-vo «Litur», 2000. – 320 s.

39. Bondarevskaya Ye.V. Teoriya i praktika lichnostno-orientirovannogo obrazovaniya. Rostov-na-Donu, Izdatelstvo Rostovskogo pedagogicheskogo universiteta, 2000. – 352 s.

40. Bo‘taeva U., K.Oqilova. Maktabgacha yoshidagi bolalarni shakllantirishda o‘yin-mashg‘ulotlarning o‘rni // metodik tavsiyanoma Samarqand -2009 y. 24 b.

41. Valixo‘jaeva F.B. Talabalarni MTMda bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash. //Dissertatsiya. Samarqand – 2005y., 139 b.

42. Vasileva N.A. Problema razvitiya sotsialnoy jizni rebenka v istorii zarubejnoj doshkolnoy psixologii // Upravlenie DOU. – Moskva, 2010. №2, s.102

43. Vaxabova F.N. Osobennosti lichnostnogo razvitiya doshkolnika kak faktor gotovnosti k shkole. Dis...kand psix.nauk / TashGU im. M.Ulugbeka –T., 2000. -136 str.

44. Vaxobova F.N., M. Sh. Rasulova va boshqalar «Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» Toshkent- 2008.

45. Venger A.L., Sukerman G.A. Psixologicheskoe obsledovanie mladshix shkolnikov. –M.: Izd-vo “Vlados-press”, 2003. – 160 s.

46. Volobueva L.M. Domashnie detskie sady nachala XX v // Upravlenie DOU. – Moskva, 2008. № 3, s. 102

47. Volobueva L.M. Organizatsiya podgotovki detey k nachalu shkolnogo obucheniya: istoriya i sovremennost // Upravlenie DOU. – Moskva, 2008. № 1, s. 98

48. Volobueva L.M. Starshiy vospitatel: istoriya i sovremennost // Upravlenie DOU. – Moskva, 2008. №5, s.108

49. Volobueva L.M., Kalabuxova N.A. Doshkolniki v sisteme dopolnitelnogo obrazovaniya // Upravlenie DOU. – Moskva, 2006. №5, s.102.

50. Выготский Л.С. Psixologicheskaya pedagogika. -M., 1991. s. 170

51. Gippenreyter Yu.V. Obshchaya s rebenkom. Kak? – M.: Mass Media. 1995. – 240 s.

52. Djurinskiy A.N. Istoriya zarubejnoj pedagogiki. -M.: Forum,1998.

53. The word enciklopediya, 1994 y, 1-10 jild.

54. Usmonov N. Yaponiyada bola tarbiyasi. Ma'rif, 2002 y.,13 mart.

55. Erxonova Yu. Fransiya buyukligining mezonlari. (xoriyda ta'lim) Ma'rif, 2002yil 13 iyun.

56. G'aniev J.G. Xoriyda ta'lim. T.: Shark, 1995.

57. Vulfson V.F. Sravnitel'naya pedagogika. - M.: Prosvetshenie, 2003.

58. Urastayeva G.D., Anarbek N.A. Sravnitel'naya pedagogika (variantivnost mirovogo obrazovaniya).- Almaty.: Print, 2006.

59. Usmonov N., Germaniyada kasb-xunar ta'limi. Xoriyda ta'lim. Ma'rif, 2002 yil 13 fevral.

60. Buyuklarning mezonlari. AQShda huquqiy ta'lim tizimi (xoriyda ta'lim). Inson va qonun. 2001 y

61. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari .
62. Jahon tarixi . (darslik) T-2006 y.
63. Sh.S.Shodmonova, M.E.Axmedova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Fan va texnologiya nashriyoti. 2019 yil
64. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimiga oid Internet ma'lumotlari.
65. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.O'quv qo'llanma. Noshir nashriyoti.2011 yil
67. Hoshimov K. va b. Pedagogika tarixi. T., O'qituvchi, 2006.
- 68.M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev. Qiyosiy pedagogika T.2015 yil

#### **Internet saytlari:**

69. www Ziyonet ta'lim portali ziyonet.uz
70. www O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlarini ma'lumotlari  
.lex.uz - milliy bazasi;
71. www Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti  
.tdpu.uz - rasmiy veb sayti
72. www Pedagogika yo'nalishiga oid kitoblar sayti  
.pedagog.uz
73. <https://edunews.ru/education-abroad/sistema-obrazovaniya/doshkolnoe.html> - Elektron resurs. 2017 yil 22 sentabr .
73. <http://razvivash-ka.ru/sistema-doshkolnogo-obrazovaniya-v-germanii/> - Elektron manba. 2017 yil 22 sentabr
74. <http://sdo-journal.ru/journalnumbers/anglijskaja-sistema-do.html> Elektron resurs. 2017 yil 22 sentabr .

**Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani haqida umumiy tushuncha savol va topshiriqlar.**

I. Savol-javob uchun savollar:

1. Qiyosiy pedagogika qanday fan?
2. Qanday maqsadlarda qiyosiy pedagogika fani o'rganiladi?
3. Pedagogik fanlar tizimida qiyosiy pedagogikaning o'rnini qanday baholaysiz?
4. Jahon tajribasini to'g'ridan-to'g'ri ta'lim jarayonida qo'llash mumkinmi?
5. Qiyosiy pedagogika oldida turgan metodik muammolar nima?

**II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

**Muhokama uchun masala:**

1. Pedagogika va Qiyosiy pedagogikaning tadqiqot metodlarini taqqoslang va tahlil qiling.
2. Qiyosiy tahlilning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini aytib bering.

**III. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Mavzuga doir tayanch ya'ni "Qiyosiy pedagogika" "Qiyosiy tahlil" "qiyosiy o'rganish" "taqqoslash" tushunchalarga ta'rif bering va ularni daftaringizga yozing.

2. So'ng tavsiya etilgan ta'riflar bilan solishtiring.

3. "Bilib olganlaringiz" haqida fikr bildiring.

**IV. Talabalar ijodiy ishlarini o'rganish:**

Ijodiy ishlarni o'rganish asosida talabalar qiyosiy pedagogikaning maqsad va vazifalari yuzasidan egallagan bilimlarini namoyish qiladilar.

**Qiyosiy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari.**

**I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining boshlang'ich rivojlanish davri?
2. XIX asrda pedagogik saychatlar qanday maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan?
3. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining rivojlanish davri necha bosqichni o'z ichiga oladi?
4. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.

**II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

**Muhokama uchun masala:**

1. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining rivojlanish davrlariga ta'rif bering.

2. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi Qiyosiy pedagogika fani rivojiga xissa qo'shgan olimlar faoliyatini tahlil filing.

### **III. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Har bir davlatning Qiyosiy pedagogika fani rivojiga xissa qo'shgan olimlari faoliyatini alohida tartibda daftaringizga yozing.

2. So'ng ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar mazmun mohiyatini o'zaro o'rtoqlaringiz bilan solishtiring.

3. "Bilib olganlaringiz" haqida fikr bildiring.

### **IV. Talabalar ijodiy ishlarini o'rganish:**

Ijodiy ishlarni o'rganish asosida talabalar Qiyosiy pedagogika fanining taraqqiyoti yuzasidan egallagan bilimlarini namoyish qiladilar.

#### **Jahon mamlakatlarida ta'lim taraqqiyotining ayrim masalalari.**

##### **I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Chet el ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalinilari haqida fikringiz?

2. Turli davlatlar ta'limni isloh qilish borasidagi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

3. Islohatlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati nimalrdan iborat?

##### **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

###### **Muhokama uchun masala:**

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim taraqqiyotining tarixiy shakllanishini davrlashtiring. Har birini taraqqiyot bosqichlariga ta'rif bering.

##### **III. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Mavzuning turli tarmog'i bo'icha malumotlarni tarqatilga varaqq yozing!

2. So'ng ularni do'stlaringiz bilan muhokama qiling: ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari.

3. Fikrlar va xulosalarni umumlashtiring.

##### **IV. Talabalar ijodiy ishlarini o'rganish:**

Ijodiy ishlarni o'rganish asosida talabalar o'zlarining turli mamlakatlar ta'limining tarixiy taraqqiyot bosqichlari to'g'risidagi bilimlarini namoyish qiladilar.

#### **Jahon mamlakatlarida ta'lim taraqqiyotining ayrim masalalari.**

##### **I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Jahon mamlakatlarida ta'limni integrachiyalashga qanday e'tibor qaratilgan?

2. Turli davlatlarda kasbga yo'naltirish masalalari qanday amalga oshiriladi?

3. Chet elda maxsus maktablar faoliyati?

##### **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

###### **Muhokama uchun masala:**

Inklyuziv ta'limning mazmun va mohiyati nimada?

### **III. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Mavzuning turli tarmog'i bo'icha malumotlarni tarqatilga varaqqyozing!  
2. So'ng ularni do'stlaringiz bilan muhokama qiling: ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari.

3. Fikrlar va xulosalarni umumlashtiring.

### **IV. Talabalar ijodiy ishlarini o'rganish:**

Ijodiy ishlarni o'rganish asosida talabalar o'zlarining turli mamlakatlar ta'limining rivojlanishi va muammolarni hal qilinishiga doir bilimlarini namoyish qiladilar.

#### **Fransiya ta'lim tizimi.**

##### **I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Fransiya davlatida ta'limni isloh qilish yo'llari haqida gapiring.  
2. Mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish buyicha olib boriladigan ishlar haqida gapiring.

3. Fransiyada ta'lim tizimini boshqarish haqida nimalarni bilasiz?

##### **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

###### **Muhokama uchun masala:**

1. Fransiya ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlar sizni e'tiboringizni tortdi.

2. Fransiyada ajdodlar tarixini o'rganish va milliy tarbiyaga qay darajada e'tibor berilgan.

3. Fransiya va O'zbekiston ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish orqali qanday xulosaga keldingiz?

### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ularni targ'ibot-tashviqot shaklida bo'lishiga e'tibor qarating.

2. Kichik guruhlar tomonidan tayyorlangan chiqishlar har tomonlama qiziqarli adabiy-musiqiy yoki ko'rgazmali vositalar bilan namoyish qilinishi kerak.

### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali talabalarning Fransiya davlati ta'lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko'nikmalari darajalari baholanadi.

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ularni "Rezyume" texnologiyasi asosida tahlil qilinadi.

2. Kichik guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararli jihatlari nuqtai nazaridan yondoshadilar..

### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali talabalarning Fransiya davlati ta'lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko'nikmalari darajalari baholanadi.

### **Germaniya ta'lim tizimi.**

#### **I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Germaniya davlatida maktabgacha ta'lim qanday tartibda ish olib boradi?
2. Germaniyada boshlang'ich ta'lim necha bosqichda olib boriladi?
3. Germaniyada o'rta va oliy ta'lim.

#### **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

##### **Muhokama uchun masala:**

1. Germaniya ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlar bizning davlatimiz ta'lim tizimiga o'xshab ketadi yoki farqli jihati haqida nimalarni aniqladingiz?

2. O'zbekiston va Germaniya ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

#### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ularni "Rezyume" texnologiyasi asosida tahlil qilinadi.

2. Kichik guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararli jihatlai nuqtai nazaridan yondoshadilar..

#### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali talabalarning Germaniya davlati ta'lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko'nikmalari darajalari baholanadi.

### **Angliya ta'lim tizimi.**

#### **I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Angliya davlatida maktabgacha ta'lim qanday tartibda ish olib boradi?
2. Angliyada boshlang'ich ta'lim necha bosqichda olib boriladi?
3. Angliyada o'rta va oliy ta'lim.

#### **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

##### **Muhokama uchun masala:**

1. Angliya ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlar bizning davlatimiz ta'lim tizimiga o'xshab ketadi yoki farqli jihati haqida nimalarni aniqladingiz?

2. O'zbekiston va Angliya ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

#### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ularni "Rezyume" texnologiyasi asosida tahlil qilinadi.

2. Kichik guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararli jihatlari nuqtai nazaridan yondoshadilar.

#### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali talabalarning Angliya davlati ta'lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko'nikmalari darajalari baholanadi.

##### **Yaponiya ta'lim tizimi.**

I. Savol-javob uchun savollar:

1. Yaponiya davlatida ta'limni isloh qilish yo'llari haqida gapiring.
2. Mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish buyicha olib boriladigan ishlar haqida gapiring.
3. Fransiyada ta'lim tizimini boshqarish haqida nimalarni bilasiz?

#### **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

##### **Muhokama uchun masala:**

1. Yaponiya ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlari sizni e'tiboringizni tortdi.
2. Yaponiya da ajdodlar tarixini o'rganish va milliy tarbiyaga qay darajada e'tibor berilgan.
3. Yaponiya va O'zbekiston ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish orqali qanday xulosaga keldingiz?

#### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ularni targ'ibot-tashviqot shaklida bo'lishiga e'tibor qarating.
2. Kichik guruhlar tomonidan tayyorlangan chiqishlar har tomonlama qiziqarli adabiy-musiqiy yoki ko'rgazmali vositalar bilan namoyish qilinishi kerak.

#### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali talabalarning Yaponiya davlati ta'lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko'nikmalari darajalari baholanadi.

##### **Koreya ta'lim tizimi.**

I. Savol-javob uchun savollar:

1. Koreya davlatida maktabgacha ta'lim qanday tartibda ish olib boradi?
2. Koreyada boshlang'ich ta'lim necha bosqichda olib boriladi?
3. Koreyada o'rta va oliy ta'lim.

#### **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

##### **Muhokama uchun masala:**

1. Koreya ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlari bizning davlatimiz ta'lim tizimiga o'xshab ketadi yoki farqli jihati haqida nimalarni aniqladingiz?

2. O'zbekiston va Koreya ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ularni "Rezyume" texnologiyasi asosida tahlil qilinadi.

2. Kichik guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararli jihatlar nuqtai nazaridan yondoshadilar..

### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali talabalarning Koreya davlati ta'lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko'nikmalari darajalari baholanadi.

#### **Xitoy ta'lim tizimi.**

##### **I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Xitoy davlatida maktabgacha ta'lim qanday tartibda ish olib boradi?
2. Xitoyda boshlang'ich ta'lim necha bosqichda olib boriladi?
3. Xitoyda o'rta va oliy ta'lim.

##### **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

###### **Muhokama uchun masala:**

1. Xitoy ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlar bizning davlatimiz ta'lim tizimiga o'xshab ketadi yoki farqli jihati haqida nimalarni aniqladingiz?

2. O'zbekiston va Xitoy ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ularni "Rezyume" texnologiyasi asosida tahlil qilinadi.

2. Kichik guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararli jihatlar nuqtai nazaridan yondoshadilar..

### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali talabalarning Xitoy davlati ta'lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko'nikmalari darajalari baholanadi.

#### **Hindiston ta'lim tizimi.**

##### **I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Hindiston davlatida maktabgacha ta'lim qanday tartibda ish olib boradi?
2. Hindistonda boshlang'ich ta'lim necha bosqichda olib boriladi?
3. Hindistonda o'rta va oliy ta'lim.

##### **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

###### **Muhokama uchun masala:**

1. Hindiston ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlar bizning davlatimiz ta'lim tizimiga o'xshab ketadi yoki farqli jihati haqida nimalarni aniqladingiz?

2. O'zbekiston va Hindiston ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ulami "Rezyume" texnologiyasi asosida tahlil qilinadi.

2. Kichik guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararli jihatlari nuqtai nazaridan yondoshadilar.

### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali talabalarning Xindiston davlati ta'lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko'nikmalari darajalari baholanadi.

#### **AQSh ta'limi tizimi.**

#### **I. Savol-javob metodi orqali quyidagi savollar berildi:**

1. AQSh ta'lim mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
2. AQSh ta'lim tizimi va uning afzalligi nimada?
3. AQSh ta'lim tizimi haqida o'zingizning fikringiz.
4. O'zbekiston ta'lim tizimining o'ziga xos tomonlari nimada.

#### **II. Kartochkalar yordamida beriladigan savollar:**

1. AQSh boshlang'ich ta'limi tizimi haqida nimalarni bilasiz?
2. AQSh ta'limi mazmunida milliy tarbiyaga qay darajada e'tibor berilgan?
3. AQSh ta'lim tizimida qo'llanadigan ta'lim metodlar haqida nimalarni bilasiz?

4. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim bosqichlari haqida gapiring?

5. O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun qachon qabul qilingan?

#### **III. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Turli mamlakatlar ta'lim tizimi nima uchun o'rganiladi qiyoslanadi solishtiriladi va tahlil qilinadi.

2. Amerika va O'zbekiston ta'lim tizimini qiyosiy taxlil qiling.

3. Fikrlaringizni aniq ma'lumotlar bilan isbotlang.

4. Har ikkala davlat ta'lim tizimidagi ibratli va yutuqli tomonlari aytib bering.

5. Barcha javoblarni davtlarga yozing va "Rezyume" texnologiyasi asosida ochib bering.

#### **IV. Talabalar ijodiy ishlarini o'rganish:**

Ijodiy ishlarni o'rganish asosida talabalarning AQSh ta'lim tizimi mazmun mohiyati to'g'risidagi bilimlardan xabardorliklari o'rganiladi hamda O'zbekiston

ta'lim tizimini tahlil qilib, AQSh ta'lim tizimi bilan solish va ibratli jihatlarni tahlil qilish layoqatiga ega bo'ladilar.

**Rossiya va O'zbekistonda pedagogika fani taraqqiyotidagi o'ziga xosliklar: umumiylik va tafovut.**

**I. Savol-javob metodi orqali quyidagi savollar berildi:**

1. Rossiya ta'lim mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
2. Rossiya ta'lim tizimi va uning afzalligi nimada?
3. Rossiya ta'lim tizimi haqida o'zingizning fikringiz.
4. O'zbekiston va Rossiya ta'lim taraqqiyotidagi o'ziga xos tomonlari nimada?

**II. Kartochkalar yordamida beriladigan savollar:**

1. Rossiya boshlang'ich ta'limi tizimi haqida nimalarni bilasiz?
2. Rossiya ta'limi mazmunida milliy tarbiyaga qay darajada e'tibor berilgan?
3. Rossiya ta'lim tizimida qo'llanadigan ta'lim metodlar haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekistonda pedagogika fani taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?

**III. Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Sobiq sho'rolar tuzimi davrida O'zbekistonda pedagogika fani.
2. Rossiya va O'zbekiston ta'lim tizimidagi umumiylik va tafovut haqida fikringiz?
3. Barcha javoblarni davtlarga yozing va "Rezyume" texnologiyasi asosida ochib bering.

**IV. Talabalar ijodiy ishlarini o'rganish:**

Ijodiy ishlarni o'rganish asosida talabalarning Rossiya ta'lim tizimi mazmun mohiyati to'g'risidagi bilimlardan xabardorliklari o'rganiladi hamda O'zbekiston ta'lim tizimini tahlil qilib, Rossiya ta'lim tizimi bilan solish va ibratli jihatlarni tahlil qilish layoqatiga ega bo'ladilar.

**Markaziy Osiyo davlatlarida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xosliklari. (Qozog'iston)**

**I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Qozog'iston davlatida ta'limni isloh qilish yo'llari haqida gapiring.
2. Mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish buyicha olib boriladigan ishlar haqida gapiring.
3. Qozog'istonda ta'lim tizimini boshqarish haqida nimalarni bilasiz?

**II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

**Muhokama uchun masala:**

1. Qozog'iston ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlarni sizni e'tiboringizni tortdi.

2. Qozog‘istonda ajdodlar tarixini o‘rganish va milliy tarbiyaga qay darajada e‘tibor berilgan.

3. Qozog‘iston va O‘zbekiston ta‘lim tizimini qiyosiy o‘rganish orqali qanday xulosaga keldingiz?

### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ulami mavjud fikrlar bilan yangi berilgan ma‘lumotlarni solishtirish shaklida bo‘lishiga e‘tibor qaratng.

2. Kichik guruhlar tomonidan tayyorlangan chiqishlar liderlar tomonidan nomoyish qilinishi kerak.

### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o‘rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o‘rganish orqali talabalarning Qozog‘iston davlati ta‘lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko‘nikmalari darajalari baholanadi.

**Markaziy Osiyo davlatlarida ta‘lim-tarbiyaning o‘ziga xosliklari.**  
**(Tojikiston)**

#### **I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Tojikiston davlatida maktabgacha ta‘lim qanday tartibda ish olib boradi?
2. Tojikistonda boshlang‘ich ta‘lim necha bosqichda olib boriladi?
3. Tojikistonda o‘rta va oliy ta‘lim.

#### **II. Baxs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

##### **Muhokama uchun masala:**

1. Tojikiston ta‘lim tizimini o‘rganish jarayonida aynan qaysi jihatlar bizning davlatimiz ta‘lim tizimiga o‘xshab ketadi yoki farqli jihati haqida nimalarni aniqladingiz?

2. O‘zbekiston va Tojikiston ta‘lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ulami “Tushunchalar tahlili” va “Rezyume” texnologiyasi asosida tahlil qilinadi.

2. Kichik guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararli jihatlari nuqtai nazaridan yondoshadilar..

### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o‘rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o‘rganish orqali talabalarning Tojikiston davlati ta‘lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko‘nikmalari darajalari baholanadi.

**Markaziy Osiyo davlatlarida ta‘lim-tarbiyaning o‘ziga xosliklari.**  
**(Turkmaniston)**

#### **I. Savol-javob uchun savollar:**

1. Turkmaniston davlatida maktabgacha ta'lim qanday tartibda ish olib boradi?

2. Turkmanistonda boshlang'ich ta'lim necha bosqichda olib boriladi?

3. Turkmanistonda o'rta va oliy ta'lim.

## **II. Bahs-munozara jarayonida hal qilinadigan masalalar:**

### **Muhokama uchun masala:**

1. Turkmaniston ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlar bizning davlatimiz ta'lim tizimiga o'xshab ketadi yoki farqli jihati haqida nimalarni aniqladingiz?

2. O'zbekiston va Turkmaniston ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

### **III Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Yuqorida berilgan muammoli savollarga javob berishda ularni "Rezyume" texnologiyasi asosida tahlil qilinadi.

2. Kichik guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararli jihatlari nuqtai nazaridan yondoshadilar.

### **IV. Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish:**

Kichik guruhlarning ijodiy ishlarini o'rganish orqali talabalarning Turkmaniston davlati ta'lim tizimi borasidagi egallagan bilim, malaka, ko'nikmalari darajalari baholanadi.

**Qiyosiy pedagogika fanidan testlar**

**1. Qo'shni davlatlar ta'lim tizimiga qiziqish qaysi pedagog olimning faoliyatida alohida o'rin tutgan?**

- " Ya. A. Komenskiy; \*
- " Pestalosi;
- " K. D. Ushinskiy;
- " A. S. Makarenko;
- " S. T. Shaskiy.

**2. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani asoschilaridan biri bu ?**

- " S. T. Shaskiy;
- " A. S. Makarenko;
- " M. A. Jyulen; \*
- " Ya. A. Komenskiy;
- " J. M. Eoduen.

**3. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani bo'yicha na'ruza kursi birinchi bor qachon va qaerda o'tkazilgan?**

- " 1895 yil Fransiya universitetida ;
- " 1898 yil Kolumbiya universitetida; \*
- " 1900 yil Angliya universitetida ;
- " 1902 yil Amerika universitetida;
- " 1905 yil Germaniya universitetida .

**4. Ta'lim tizimida markaziy boshqaruv ustuvor bo'lgan davlatni toping.**

- " Fransiya. \*
- " Angliya.
- " Amerika.
- " Germaniya.
- " Italiya.

**5. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani taraqqiyotida muhim o'rin tutgan tashkilot qaysi va u qachon tashkil topgan?**

- " YuNESKO, 1946 yil;
- " YuNISEF, 1946;
- " Amerika tinchlik korpusi, 1961 yil;
- " MOT 1969 yil;
- " Xalqaro ta'lim assosiasiyasi 1919 yil. \*

**6. AQSh o'rtta maktablarini isloh qilish nechanchi yilda boshlandi?**

- " 1960 yilda;
- " 1961 yilda; \*
- " 1962 yilda;
- " 1963 yilda;
- " 1964 yilda.

**7. Fransuz pedagoglari o'quvchilarni qanday tabaqalarga ajratganlar?**

- " Iqtidorlilar, qobilyatlilar, qobilyatsizlar;
- " Gomogenlar, yarim gomogenlar, gegeronlar; \*
- " A'lochilar, o'rtta uzlashtiruvchilar, past o'zlashtiruvchilar;
- " Aqllilar, bilimdonlar, axloqlilar;
- " Iqtidorlilar, gegeronlar, qobilyatsizlar.

**8. AQSh ta'lim tizimi necha bosqichdan iborat?**

- " 4 bosqich; \*
- " 2 bosqich;
- " 3 bosqich;
- " 5 bosqich;
- " 6 bosqich.

**9. AQSh da majburiy ta'lim necha yoshgacha?**

- " 15 yoshgacha;
- " 14 yoshgacha;
- " 13 yoshgacha;
- " 12 yoshgacha;
- " 16 yoshgacha. \*

**10. AQSh da o'quv yili boshlanishi va yakunlanishi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.**

- " 1 sentyabr - 1 iyun;
- " 2 sentyabr - 20 iyun;
- " 7 sentyabr - 20 iyun; \*
- " 3 sentyabr - 3 iyun;
- " 10 sentyabr - 10 iyun;

**11. Yapon ta'limining mumtoz shakllanishi nechanchi yillarda boshlangan?**

- " 1867-1868 yillar; \*
- " 1866-1867 yillar;
- " 1865-1866 yillar;
- " 1863-1864 yillar;
- " 1862-1863 yillar.

**12. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi faniga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.**

" QP - ta'lim tizimini solishtirish va unga ta'rif beruvchi fandır.

" QP - ta'lim nazariyasining bir qismi sifatida turli mamlakatlar pedagogik amaliyoti va

ta'lim siyosatini taxlil qiladi. \*

" QP - ta'lim jarayonini o'rganadi, tashxislaydi va amalga oshiradi.

" QP - ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy ximoyalash to'g'risidagi fan.

" QP - turli mamlakatlar ta'lim tizimini taxlil qiladi va baholaydi

**13. Amerika maktablarida o'quv-tarbiya ishlari bilan boqliq masalalar qanday qal qilinadi?**

" qar bir maktab mustaqil qal qiladi;

" qar bir shtat mustaqil qal qiladi; \*

" markazlashgan tartibda qal etiladi;

" o'qituvchilar va ota-onalar birgalikda kelishib oladilar;

" munisipal miqyosida qal qilinadi.

**14. AQShda oliy ta'lim necha bosqichda amalga oshiriladi?**

" 4 bosqichda; \*

" 2 bosqichda;

" 3 bosqichda;

" 1 bosqichda;

" bosqichda ajratilmaydi ;

**15. Yaponiyada "Ta'lim haqida qonun" qachon qabul qilingan?**

" 1870- yilda;

" 1871- yilda;

" 1872- yilda; \*

" 1873- yilda;

" 1874- yilda;

**16. Yaponiyada majburiy ta'lim necha yoshgacha amal qiladi?**

" 6 yoshdan 11 yoshgqchq bo'lgan bolalar;

" 6 yoshdan 12 yoshgqchq bo'lgan bolalar;

" 6 yoshdan 13 yoshgqchq bo'lgan bolalar;

" 6 yoshdan 14 yoshgqchq bo'lgan bolalar;

" 6 yoshdan 15 yoshgqchq bo'lgan bolalar; \*

**17. Yapaoniyada boshlanqich sinflarda o'qish muddati necha yil?**

" o'qish muddati 5 yil bo'lib, u bosqichga bo'linmaydi.

" o'qish muddati 5 yil bo'lib, u bir bosqichga bo'linadi.

" o'qish muddati 5 yil bo'lib, u ikki bosqichga bo'linadi.

" o'qish muddati 5 yil bo'lib, u uch bosqichga bo'linadi. \*

" o'qish muddati 5 yil bo'lib, u to'rt bosqichga bo'linadi.

**18. Germaniyada majburiy ta'lim necha yoshgacha amal qiladi?**

" 6 yoshdan 18 yoshgacha; \*

" 6 yoshdan 17 yoshgacha;

" 6 yoshdan 16 yoshgacha;

" 6 yoshdan 15 yoshgacha;

" 6 yoshdan 14 yoshgacha;

**19. "Ta'lim to'g'risida" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" nimalarga asoslanadi?**

" pedagogikaning asrlar davomida to'plagan boy ilmiy va nazariy ta'limotlariga.

" rivojlangan davlatlarining pedagogikada to'plagan ilmiy nazariy ta'limotlariga.

" davlat tomonidan ta'lim sohasi bo'yicha chiqarilgan qonunlarga va konstitutsiyaga\*.

" vazirlar mahkamasi tomonidan chiqarilgan qonunlarga.

" barcha javoblar to'g'ri.

**20. YUNESKO bu.....**

" BMT ning ta'lim, fan, madaniyat, masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashgan tashkiloti. \*

" Xalqaro qamkorlik va tinchlikni qimoya qiluvchi tashkilot.

" Rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish va jaqon ta'limini rivojlantirish

masalalarini qal qiluvchi tashkilot.

" Turli mamlakatlarda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni qam moddiy qam ma'naviy

raqbatlantiruvchi tashkilot.

" Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, jaqon aqlini voqea va qodisalardan voqif

qilishni rivojlantirivchi tashkilot.

**21. YUNESKO tashabbusi bilan Parij shaqrida qaysi allomaning yubileyi o'tkazildi?**

" Yusuf Xos Hojibning;

" Ibn Sinoning;

" Ahmad Yugnakiyning;

" Farobiyning;

" Muqammad Taraqay Uluqbekning. \*

**22. O'zbekiston Respublikasi XMT (xalqaro meqnat tashiloti)ga nechanchi yilda a'zo bo'lgan?**

- " O'zbekiston Respublikasi XMT ga 1990 yil 13 iyulda a'zo bo'lgan.
- " O'zbekiston Respublikasi XMT ga 1991 yil 13 iyulda a'zo bo'lgan.
- " O'zbekiston Respublikasi XMT ga 1992 yil 13 iyulda a'zo bo'lgan. \*
- " O'zbekiston Respublikasi XMT ga 1993 yil 13 iyulda a'zo bo'lgan.
- " O'zbekiston Respublikasi XMT ga 1994 yil 13 iyulda a'zo bo'lgan.

**23. O'zbekiston nechanchi yilda YuNESKOga a'zo bo'lib kirgan?**

- " 1990 yil 26 oktyabrdan boshlab;
- " 1991 yil 26 oktyabrdan boshlab;
- " 1992 yil 26 oktyabrdan boshlab;
- " 1993 yil 26 oktyabrdan boshlab; \*
- " 1994 yil 26 oktyabrdan boshlab.

**24. Rossiyada chet el ta'limini tizimli o'rganishga qaysi pedagog tomonidan e'tibor qaratilgan?**

- " K.D. Ushinskiy; \*
- " A.S. Makarenko;
- " S.T. Shaskiy;
- " P.G. Mijuev;
- " E.N. Yanjul.

**25. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi faniga qiziqish nechanchi yilda yanada o'sdi?**

- " 1916 yilda;
- " 1917 yilda;
- " 1918 yilda;
- " 1919 yilda;
- " 1920 yilda; \*

**26. AQSh o'rta maktablarini isloh qilish nechanchi yilda boshlandi?**

- " 1960 yilda;
- " 1961 yilda; \*
- " 1962 yilda;
- " 1963 yilda;
- " 1964 yilda.

**27. Fransuz pedagoglari o'quvchilarni qanday tabaqalarga ajratganlar?**

- " Iqtidorlilar, qobilyatlilar, qobilyatsizlar;
- " Gomogenlar, yarim gomogenlar, gegeronlar; \*
- " A'lochilar, o'rta uzlashtiruvchilar, past o'zlashtiruvchilar;

- " Aqllilar, bilimdonlar, axloqlilar;
- " Iqtidorlilar, geqeronlar.qobilyatsizlar.

**28. Rossiya qet el ta'limini tizimli o'rganishga qaysi pedagog tomonidan e'tibor qaratilgan?**

- " K.D. Ushinskiy; \*
- " A.S. Makarenko;
- " S.T. Shaskiy;
- " P.G. Mijuev;
- " E.N. Yanjul.

**29. Qiyosiy pedagogika faniga qiziqish nechanchi yilda yanada o'sdi?**

- " 1916 yilda;
- " 1917 yilda;
- " 1918 yilda;
- " 1919 yilda;
- " 1920 yilda; \*

**30. Qo'shni davlatlar ta'lim tizimiga qiziqish qaysi pedagog olimning faoliyatida alohida o'rin tutgan?**

- " Ya.A. Komenskiy; \*
- " Pestalosi;
- " K.D. Ushinskiy;
- " A.S. Makarenko;
- " S.T. Shaskiy.

**31. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani asoschilaridan bari bu?**

- " S.T. Shaskiy;
- " A.S. Makarenko;
- " M.A. Jyulen; \*
- " Ya.A. Komenskiy;
- " J.M. Boduen.

**32. . Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani bo'yicha ma'ruza kursi birinchi bor qachon va qaerda o'tkazilgan?**

- " 1895 yil Fransiya universitetida ;
- " 1898 yil Kolumbiya universitetida; \*
- " 1900 yil Angliya universitetida ;
- " 1902 yil Amerika universitetida;
- " 1905 yil Germaniya universitetida .

**33. Ta'lim tizimida markaziy boshqaruv ustuvor bo'lgan davlatni toping.**

- " Fransiya. \*

- " Angliya.
- " Amerika.
- " Germaniya.
- " Italiya.

**34. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani taraqqiyotida muhim o'rin tutgan tashkilot qaysi va u qachon tashkil topgan?**

- " YuNESKO, 1946 yil;
- " YuNISEF, 1946;
- " Amerika tinchlik korpusi, 1961 yil;
- " MOT 1969 yil;
- " Xalqaro ta'lim assosiasiyasi 1919 yil. \*

**35. Yaponiyada "Ta'lim haqida qonun" qachon qabul qilingan!**

- " 1870- yilda;
- " 1871- yilda;
- " 1872- yilda; \*
- " 1873- yilda;
- " 1874- yilda;

**36. Yaponiyada majburiy ta'lim necha yoshgacha amal qiladi?**

- " 6 yoshdan 11 yoshgqchq bo'lgan bolalar;
- " 6 yoshdan 12 yoshgqchq bo'lgan bolalar;
- " 6 yoshdan 13 yoshgqchq bo'lgan bolalar;
- " 6 yoshdan 14 yoshgqchq bo'lgan bolalar;
- " 6 yoshdan 15 yoshgqchq bo'lgan bolalar; \*

**37. Yapaoniyada boshlanqich sinflarda o'qish muddati necha yil?**

- " o'qish muddati 5 yil bo'lib, u bosqichga bo'linmaydi.
- " o'qish muddati 5 yil bo'lib, u bir bosqichga bo'linadi.
- " o'qish muddati 5 yil bo'lib, u ikki bosqichga bo'linadi.
- " o'qish muddati 5 yil bo'lib, u uch bosqichga bo'linadi. \*
- " o'qish muddati 5 yil bo'lib, u to'rt bosqichga bo'linadi.

**38. Germaniyada majburiy ta'lim necha yoshgacha amal qiladi?**

- " 6 yoshdan 18 yoshgacha; \*
- " 6 yoshdan 17 yoshgacha;
- " 6 yoshdan 16 yoshgacha;
- " 6 yoshdan 15 yoshgacha;
- " 6 yoshdan 14 yoshgacha;

**39. "Ta'lim to'g'risida" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" nimalarga asoslanadi?**

- " pedagogikanig asrlar davomida to'plagan boy ilmiy va nazariy ta'limotlariga.

" rivojlangan davlatlarining pedagogikada to'plagan ilmiy nazariy ta'limotlariga.

" davlat tomonidan ta'lim sohasi bo'yicha chiqarilgan qonunlarga va konstitutsiyaga\*.

" vazirlar mahkamasi tomonidan chiqarilgan qonunlarga.

" barcha javoblar to'g'ri.

**40. YUNESKO tashabbusi bilan Parij shaqrida qaysi allomaning yubileyi o'tkazildi?**

" Yusuf Xos Hojibning;

" Ibn Sinoning;

" Ahmad Yugnakiyning;

" Farobiyning;

" Muqammad Taraqay Uluqbekning. \*

**Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanidan nazorat savolari****VARIANT 1 (joriy nazorat)**

1. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining mavzu bahsi.
2. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining asosiy ma'balari.
3. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fani haqida umumiy

tushuncha.

**VARIANT 2**

1. Kursning maqsad va vazifasi.
2. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining ta'lim-tarbiyada tutgan o'rnini.
3. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining taraqqiyot bosqichlari.

**VARIANT 3**

1. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning o'rnini.
2. Jaxon mamlakatlarida ta'lim muammolarini hal etish.
3. Jaxon mamlakatlaridagi ta'lim islohotlari.

**VARIANT 4**

1. Rivojlangan davlatlarda ta'limni isloh qilish yullari.
2. Integratsiyalashtirilgan va maxsus kurslar.
3. Mehnat ta'limi, kasbga yunaltirish, qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturi

**VARIANT 5**

1. Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlili.
2. Rivojlangan mamlakatlarda komil insonni tarbiyalash muammosi.
3. Vengriya va Germaniyada xalq ta'limi tizimi.

**VARIANT 6**

1. Ruminiya, Chexiya, Slovakiyada maktab ta'limi.
2. Rivojlangan mamlakatlarda maktab ta'limining mazmuni.
3. Germaniya ta'lim tizimi.

**VARIANT 7**

1. Osiyo mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayoni.
2. Yaponiyada maktab va ta'lim mazmuni.
3. Yaponiyada ta'lim-tarbiya va uning o'ziga xos xususiyatlari.

**VARIANT 8**

1. Xitoy maktablarida ta'lim.
2. Xitoyda oliy ta'lim.
3. Yaponiya, Xitoy davlatlari ta'lim tizimining qiyosi tahlili.

#### VARIANT 9

1. Rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimi
2. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim— tarbiya.
3. maktab va maorif taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.

#### VARIANT 10

1. AQShda ta'lim tizimining tuzili va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Rivojlangan xorijiy davlatlar va mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'zaro uygunlik masalalari.
3. Mustaqil O'zbekistonda ta'limning uzluksizligi va izchilligi.

#### Umumiy savollar

1. Qiyosiy pedagogika qanday fan?
2. Qanday maqsadlarda qiyosiy pedagogika fani o'rganiladi?
3. Pedagogik fanlar tizimida qiyosiy pedagogikaning o'rini qanday baholaysiz?
4. Jahon tajribasini to'g'ridan-to'g'ri ta'lim jarayonida qo'llash mumkinmi?
5. Qiyosiy pedagogika oldida turgan metodik muammolar nima?
6. Qiyosiy pedagogika fanining boshlang'ich rivojlanish davri?
7. XIX asrda pedagogik sayohatlar qanday maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan?
8. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanini rivojlanish davri necha bosqichni o'z ichiga oladi?
9. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
10. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining rivojlanish davrlariga ta'rif bering.
11. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanining rivojiga hissa qo'shgan olimlar faoliyatini tahlil filing.
12. O'zbekiston BMT ga qachon a'zo bo'lgan?
13. YuNESKO tashkiloti faoliyati haqida gapirib bering.
14. YuNISEF qanday tashkilot?
15. MOT (XMT) qanday tashkilot va O'zbekiston bu tashkilotga qachon a'zo bo'lgan?
16. AQShning tinchlik korpusi haqida nimalarni bilasiz?
17. YuNESKO tashabbusi bilan olib borilayotgan to'rt asosiy yo'nalishdagi tadqiqotlarning maqsadi nimalardan iborat?
18. YuNISEFning O'zbekistondagi faoliyatini tahlil qiling.

19. Chet el ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalinilari haqida fikringiz?
20. Turli davlatlar ta'limni isloh qilish borasidagi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
  21. Islohatlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati nimalrdan iborat?
  22. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim taraqqiyotining tarixiy shakllanishini davrlashtaring. Har birini taraqqiyot bosqichlariga ta'rif bering.
  23. Fransiya davlatida ta'limni isloh qilish yo'llari haqida gapiring.
  24. Mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish buyicha olib boriladigan ishlar haqida gapiring.
  25. Fransiyada ta'lim tizimini boshqarish haqida nimalarni bilasiz?
  26. Fransiya ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlarni sizni e'tiboringizni tortdi.
  27. Fransiyada ajdodlar tarixini o'rganish va milliy tarbiyaga qay darajada e'tibor berilgan.
  28. Fransiya va O'zbekiston ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish orqali qanday xulosaga keldingiz?
  29. Germaniya davlatida maktabgacha ta'lim qanday tartibda ish olib boradi?
  30. Germaniyada boshlang'ich ta'lim necha bosqichda olib boriladi?
  31. Germaniyada o'rta va oliy ta'lim.
  32. Germaniya ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlarni bizning davlatimiz ta'lim tizimiga o'xshab ketadi yoki farqli jihati haqida nimalarni aniqladingiz?
  33. O'zbekiston va Germaniya ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.
  34. Angliya davlatida maktabgacha ta'lim qanday tartibda ish olib boradi?
  35. Angliyada boshlang'ich ta'lim necha bosqichda olib boriladi?
  36. Angliyada o'rta va oliy ta'lim.
  37. Angliya ta'lim tizimini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlarni bizning davlatimiz ta'lim tizimiga o'xshab ketadi yoki farqli jihati haqida nimalarni aniqladingiz?
  38. O'zbekiston va Angliya ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.
  39. AQSh ta'lim mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
  40. AQSh ta'lim tizimi va uning afzalligi nimada?
  41. AQSh ta'lim tizimi haqida o'zingizning fikringiz.
  42. O'zbekiston ta'lim tizimining o'ziga xos tomonlari nimada.
  43. AQSh boshlang'ich ta'limi tizimi haqida nimalarni bilasiz?
  44. AQSh ta'limi mazmunida milliy tarbiyaga qay darajada e'tibor berilgan?

45. AQSh ta'lim tizimida qo'llanadigan ta'lim metodlar haqida nimalarni bilasiz?
46. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim bosqichlari haqida gapiring?
47. O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun qachon qabul qilingan?
48. Rossiya ta'lim mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
49. Rossiya ta'lim tizimi va uning afzalligi nimada?
50. Rossiya ta'lim tizimi haqida o'zingizning fikringiz.
51. O'zbekiston va Rossiya ta'lim taraqqiyotidagi o'ziga xos tomonlari nimada?

## GLOSSARIY

**YuNESKO-** by tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkiloti bo'lib, u 1946 yilda tashkil etilgan.

**Avtoritar ta'lim-tarbiya** – o'quvchini o'qituvchiga bo'ysundirishdan iborat bo'lgan ta'lim tarbiya usuli.

**Avtoritar texnologiya** – 1) an'anaviy ta'lim jarayonining ifodasi bo'lib, o'qitish jarayonida o'quvchi ob'ekt, o'qituvchi sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishiga asoslangan tizim; 2) o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchini bo'ysundirish asosida boshqarish texnologiyasi.

**Analiz metodi** – 1) pedagogik tadqiqot metodi bo'lib, unda tekshirish ob'ekti fikran tarkibiy elementlarga ajratib tadqiq qilinadi; 2) o'quv vaziyatini har tomonlama tahlil qilish, chuqur tekshirish, o'rganish.

**Analitik metod** – tahlil qilishga yo'naltirilgan ta'lim metodi.

**Aniqlashtirish metodi** – umumiy nazariyadan ayrim qo'llashlarga o'tish yoki mavhumlikdan aniq ko'p xillikka o'tish; aniqlashtirish natijalarini belgili rasmiylashtirish (misol, masala, chizma, model, algoritm, hisobot, insho v.h.k.) lar majmui.

**Andozalashtirish** – namoyish qilish, kimningdir fikrlari yoki yuqor mutaxassislarning faoliyatini uyushtirish mumkin bo'lgan misolini taqdim qilish.

**Axborotli modul** – bu ta'lim maqsadini belgilash va rejalashtirilgan natijalar bilan chegaralangan, fanlararo va fan ichidagi bog'liqliklarni xisobga olib tuzilgan hamda yakuniy nazoratlarning darajali tizimini qamrab oluvchi, o'quv fani mazmunini muntazam va tugallangan qismi.

**Axborot texnologiyalari (AT)** – bu tizim masalalarini yechimiri topish maqsadida axborotlarni yig'ish, saqlash va kerakli manbaalarga uzatishning va uni iste'molchiga qulay holga keltirish jarayonini kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiriladigan, tartibga solingan hvmvdv tashkillashtirilgan tizim, amaliy dasturlar majmuasidir.

**Barqarorlik** – doimiy, mustahkam amal qiluvchi holatga erishish, shuningdek, ushbu holatning doimiyligi, mustahkamligini ifodalovchi pedagogik tushunchalar.

**Baho** – ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining miqdoriy baholashda bal yoki raqamlar vositasida shartli ifodalanishi.

**Baholash** – o'quvchi yoki talabning egallagan bilim, ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy sifati darajalarini belgilash.

**Bilim** – o‘quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma’lumotlari. O‘quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma’lumot.

**Bilimdon** – katta nazariy ma’lumotga ega bo‘lgan o‘qimishli, ilmi, bilimli shaxs.

**Bilimsiz** – bilim va ma’lumotga ega bo‘lmagan o‘qimagan shaxs.

**Bilish** – 1) ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalarga taqdim etilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasi; 2) borliq va uning ob’ektiv qonuniyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash.

**Bilish komponenti** – boshqalarni va o‘z-o‘zini bilishga qaratilgan psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va h.k.

**Barkamol shaxs** – kamolga yetgan, beqam ko‘st, to‘la-to‘kis inson, aqlan va axloqan pok, jismonan sog‘lom, nafosatli, jamiyatda o‘zligini tanigan, mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor, tashabbuskor, ishbilarmon, fidoiy shaxs.

**Barqarorlik** – doimiy, mustahkam amal qiluvchi holatga erishish, shuningdek, ushbu holatning doimiyligi, mustahkamligini ifodalovchi pedagogik tushunchalar.

**Baho** – ta’lim oluvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarining miqdoriy baholashda bal yoki raqamlar vositasida shartli ifodalanishi.

**Baholash** – o‘quvchi yoki talabaning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari hamda shaxsiy sifati darajalarini belgilash.

**Bilim** – o‘quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma’lumotlari. O‘quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma’lumot.

**Bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash** – o‘qituvchining o‘quv materiallarini taqdim etish jarayonida mustahkamlik prinsipini ta’minlashga qaratilgan maxsus ishlari.

**Bilimdon** – katta nazariy ma’lumotga ega bo‘lgan o‘qimishli, ilmi, bilimli shaxs.

**Bilimsiz** – bilim va ma’lumotga ega bo‘lmagan o‘qimagan shaxs.

**Bilish** – 1) ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalarga taqdim etilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasi; 2) borliq va uning ob’ektiv qonuniyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash.

**Bilish komponenti** – boshqalarni va o‘z-o‘zini bilishga qaratilgan psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va h.k.

**Bilish nazariyasi** (gnoseologiya, epistemologiya) – bilish qonuniyatlari va imkoniyatlari, bilimning obektiv realikka munosabatini o‘rganadi, bilish jarayonining bosqichlari va shakllarini, bilishning ishonchliligi va haqqoniyligi shartlari va mezonlarini tadqiq qiladi.

**Bumerang texnologiyasi** – yangi mavzuni o'rganishda, darsdan tashqarida qo'shimcha manbaalar, matnlar, adabiyotlar bilan ishlaganda qo'llaniladigan texnologiyalardan biri bo'lib, bu texnologiya o'quvchining mustaqil bilim egallashini va o'rganganlarini boshqa o'quvchilarga o'rgatishga asoslanadi.

**Validlik** – tadqiq etilayotgan hodisalar sohasiga oid ma'lumotlar va ularga nisbatan tashxisiy muolaja representativligini ifodalovchi metodikaning majmuaviy tavsifnomasi(test).

**Vatanparvarlik** – o'quvchi va talabalarning ona-yurtiga, o'z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha.

**"Ven diagrammasi" strategiyasi (metodi)** - ushbu strategiya tahsil oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish umumlashtirish ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi.

**Verbal** – insonning tovushli nutqiga aloqador jarayon.

**Verbal muloqot shakllari** – so'z, ma'ruza, suhbat, savol-javob, nasihat, munozara, bahs, xabar, tabrik, tanbeh, salomlashish-hayrlashish kabilardan iborat muloqot turi.

**Vizual ma'ruza** – bu ko'rgazmali ma'ruzadir.

**Validlik** – tadqiq etilayotgan hodisalar sohasiga oid ma'lumotlar va ularga nisbatan tashxisiy muolaja representativligini ifodalovchi metodikaning majmuaviy tavsifnomasi(test).

**Global ta'lim** (frans. global- umumiy, lot. globus-shar) – 1) butun yer sharini qamrab oluvchi ta'lim; 2) har tomonlama, to'liq, yalpi, universal ta'lim; 3) keng qamrovli universal ta'lim.

**Gneseologik pedagogik negiz** – pedagogika nazariyasining ijtimoiy - siyosiy, tabiiy, madaniy-ma'naviy borliqqa munosabati va uni aks ettirishi.

**Gnesologiya** – bilish haqidagi ta'limot.

**Gnoziya** – qo'shma so'z tarkibiy qismi bo'lib «**bilim**» ma'nosini anglatadi.

**Gnostik ko'nikma** – bo'lajak mutaxassis shaxsini kasbiy faoliyatni ijodiy jihatdan amalga oshirishga yo'naltirilish, uning tadqiqotchilik xarakterini ifodalovchi ko'nikma.

**Grammatik maktab** – 1) qadimgi Afinada 7-12 yoshdagi o'g'il bolalar uchun tashkil etilgan boshlang'ich maktab. Unda o'qish, yozish va hisoblash, harflarni qo'shib so'z yasash ko'nikmalari shakllantirilgan; 2) Qadimgi Rim patritsiylar (Qadimgi Rim dastlabki tub joy aholisi) farzandlari va chavandozlar uchun yuqori darajadagi boshlang'ich maktab. Unda grammatika, Rim adabiyoti va yunon tilidan ta'lim berilgan; 3) Buyuk Britaniya hududida oliy o'quv yurtiga kirish uchun tayyorlovchi o'rta umumta'lim maktablari. 4) Rossiyada 17 asrda

ayrim monastirlarda yunon va lotin grammatikasi, qadimgi dunyo adabiyotini o'rganish uchun tashkil etilgan maktab.

**Gimnaziya** – O'zbekiston va ayrim xorijiy mamlakatlarda umumiy o'rta ta'lim o'quv yurti. Gimnaziyalar muayyan fanlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'lib, shu fandan chuqurlashtirilgan ta'lim beradi.

**Global ta'lim** (frans. global- umumiy, lot. globus-shar) – 1) butun yer sharini qamrab oluvchi ta'lim; 2) har tomonlama, to'liq, yalpi, universal ta'lim; 3) keng qamrovli universal ta'lim.

**Gneseologik pedagogik negiz** – pedagogika nazariyasining ijtimoiy - siyosiy, tabiiy, madaniy-ma'naviy borliq qa munosabati va uni aks ettirishi.

**Gnesologiya** – bilish haqidagi ta'limot.

**Gnoziya** – qo'shma so'z tarkibiy qismi bo'lib «**bilim**» ma'nosini anglatadi.

**Grammatik maktab** – 1) qadimgi Afinada 7-12 yoshdagi o'g'il bolalar uchun tashkil etilgan boshlang'ich maktab. Unda o'qish, yozish va hisoblash, harflarni qo'shib so'z yasash ko'nikmalari shakllantirilgan; 2) Qadimgi Rim patriisylar (Qadimgi Rim dastlabki tub joy aholisi) farzandlari va chavandozlar uchun yuqori darajadagi boshlang'ich maktab. Unda grammatika, Rim adabiyoti va yunon tilidan ta'lim berilgan; 3) Buyuk Britaniya hududida oliy o'quv yurtiga kirish uchun tayyorlovchi o'rta umumta'lim maktablari. 4) Rossiyada 17 asrda ayrim monastirlarda yunon va lotin grammatikasi, qadimgi dunyo adabiyotini o'rganish uchun tashkil etilgan maktab.

**Didaktik birlik** – qo'shish, ko'paytirish, konspektlashtirish, sana va so'zlarni esda saqlab qolish, test o'tkazish, optimallashtirish usullari.

**Davlat grantlari** – talabalarning o'qishi uchun zarur bo'lgan xujjatlarni davlat o'z zimmasiga olishimkoniyati.

**Dayjest** – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv davriy adabiyotlar, xukumat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar, qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhikeltirilgan sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan doimiy nashr.

**Dasturlashtirilgan ta'lim** – o'quv jarayonini muayyan tartib asosida tashkil etish.

**Didaktika** – pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog'i.

**Didaktik birlik** – qo'shish, ko'paytirish, konspektlashtirish, sana va so'zlarni esda saqlab qolish, test o'tkazish, optimallashtirish usullari.

**Didaktik markazlashgan pedagogik texnologiya** – bola shaxsiga mutlaq befarq munosabatni ifodalovchi texnologiya.

**Didaktik material** – ko'rgazmali o'quv qo'llanmalarining maxsus turlari.

**Didaktika** – 1) pedagogikaning ta’lim nazariyasi bilan shug’ullanadigan tarmog’i; 2) ta’lim nazariyasi.

**Didaktizm** – pedagogikaning ta’lim va uning metodlari hamda ashkiliy shakllari haqidagi bo’limi.

**Didaktik material** – ko’rgazmali o’quv qo’llanmalarining maxsus urlari.

**Didaktika** – 1) pedagogikaning ta’lim nazariyasi bilan shug’ullanadigan tarmog’i; 2) ta’lim nazariyasi.

**Didaktizm** – pedagogikaning ta’lim va uning metodlari hamda ashkiliy shakllari haqidagi bo’limi.

**Innovatsion ta’lim** – bo’lajak mutaxassislarni yangicha joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo’lib, u avval olgan bilimlar asosida ta’limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat.

**Innovatsiya** – yangilanishni, o’zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati.

**Pedagogik muammo** (grek. problema – topshiriq, vazifa) – ta’lim oluvchi tomonidan bilim va tajribalari asosida tegishli vaziyatda yuzaga kelgan qiyinchilik va ziddiyatlarni hal etish zarurligini anglash hodisasi.

**Pedagogik muloqot** – bilish yoki baholash xarakteridagi axborot almashuv jarayonida ikki yoki undan ortiq shaxs (o’qituvchi, o’quvchi)ning o’zaro ta’sirga ega faoliyati.

**Pedagogik munosabat** – ta’lim jarayoni elementlarining o’zaro aloqadorligi.

**Pedagogik mutaxassis** – muayyan pedagogik faoliyat bilan muntazam shug’ullanadigan shaxs.

**Pedagogik muhit** – o’quvchilar, talabalar uchun uzluksiz ta’lim jarayoni, oilada yaratilgan ta’lim-tarbiyaviy jarayon.

**Pedagogik nazariya** – ilmiy bilishni nisbatan yuqori tashkiliy shakli, pedagogikaning qonuniyatlari hamda o’quv-tarbiya jarayoni orasidagi aloqadorlikni ifodalovchi yaxlit yondashuvlar tizimi; 2) ta’lim-tarbiyaga oid qarashlar, yondashuvlar, qonuniyatlar va tamoyillar tizimi; 3) Oliy o’quv yurtlari uchun o’quv kursi.

**Pedagogik negiz** – pedagogikaning doirasi, maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan belgilanishi va o’rganilishi.

**Pedagogik neologiya** – 1) pedagogika nazariyasi va amaliyotidagi yangi yondashuvlar, nazariyalar; 2) pedagogika fani va ta’lim tizimida yangilik yaratish haqidagi ta’limot.

**Pedagogik muammo** (grek. problema – topshiriq, vazifa) – ta’lim oluvchi tomonidan bilim va tajribalari asosida tegishli vaziyatda yuzaga kelgan qiyinchilik va ziddiyatlarni hal etish zarurligini anglash hodisasi.

**Pedagogik muloqot** – bilish yoki baholash xarakteridagi axborot almashuv jarayonida ikki yoki undan ortiq shaxs (o'qituvchi, o'quvchi)ning o'zaro ta'sirga ega faoliyati.

**Pedagogik munosabat** – ta'lim jarayoni elementlarining o'zaro aloqadorligi.

**Pedagogik mutaxassis** – muayyan pedagogik faoliyat bilan muntazam shug'ullanadigan shaxs.

**Pedagogik muhit** – o'quvchilar, talabalar uchun uzluksiz ta'lim jarayoni, oilada yaratilgan ta'lim-tarbiyaviy jarayon.

**Pedagogik nazariya** – ilmiy bilishni nisbatan yuqori tashkiliy shakli, pedagogikaning qonuniyatlari hamda o'quv-tarbiya jarayoni orasidagi aloqadorlikni ifodalovchi yaxlit yondashuvlar tizimi; 2) ta'lim-tarbiyaga oid qarashlar, yondashuvlar, qonuniyatlar va tamoyillar tizimi; 3) Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv kursi.

**Pedagogik negiz** – pedagogikaning doirasi, maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan belgilanishi va o'rganilishi.

**Pedagogik neologiya** – 1) pedagogika nazariyasi va amaliyotidagi yangi yondashuvlar, nazariyalar; 2) pedagogika fani va ta'lim tizimida yangilik yaratish haqidagi ta'limot.

**Pedagogik paradigma** – pedagogikadagi ilmiy muammolarni hal etish namunasi sifatida qabl qilingan nazariya.

**Pedagogik pozitsiya** – 1) dunyoni bilishning aqliy, qat'iy irodaviy pedagogik tizimi hamda pedagogik faoliyat munosabatlari; 2) pedagogning ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yondashuvi, qarashlari.

**Pedagogik pozitsiya** – 1) dunyoni bilishning aqliy, qat'iy irodaviy pedagogik tizimi hamda pedagogik faoliyat munosabatlari; 2) pedagogning ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yondashuvi, qarashlari.

**Qiyosiy pedpogogika** – bu XX- asr boshlarida pedagogika fanining alohida tarmog'i bo'lib ajralib chiqdi va u turli xalqlarning pedagogik qarashlari va ta'lim tizimini qiyosiy- genetik nuqtai nazardan solishtiradi.

**Qiyoslash metodi** – bu qiyoslash, ob'ektlarini aniqlash, qiyoslashning alohida belgilari va parametrlarini ajratish, solishtirish, qiyoslash, qarama-qarshi qo'yish, o'xshashlik yoki farqlashni aniqlash, qiyosiy taxlil qilish.

**YUNESKO** - by tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkiloti bo'lib, u 1946 yilda tashkil etilgan.

## MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
<b>I BOB. QIYOSIY PEDAGOGIKA FANIGA KIRISH</b>	
1-mavzu: “Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika” fanining mazmuni va mohiyati.....	4
2-mavzu: Maktabgacha ta’lim qiyosiy pedagogikasi fanining taraqqiyot bosqichlari.....	17
*	
<b>II- Modul.Jahon mamlakatlarida ta’lim tizimi</b>	
3 - mavzu: Osiyo mamlakatlarida ta’lim-tarbiya jarayonining tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari.....	31
4 - mavzu: Yaponiya, Shimoliy va Janubiy Koreyadagi ta’lim tizimi va undagi muammolar.....	41
5-mavzu: Amerika Qo‘shma shtatlarida ta’lim tizimining tuzilishi.....	67
<b>III- Modul.Pivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi tahlili</b>	
6-mavzu. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’lim tizimini.....	77
7-mavzu: Avstraliyai va Sveysariya davlatlaridagi ta’lim tizimiga qiyosiy tahlil.....	102
8 - mavzu: Xindiston, Singapur ta’lim tizimining o‘ziga xosliklari.....	110
9 - mavzu: Turkiyada mustaqillik yillarida ta’lim taraqqiyoti.....	118
10 - mavzu: Malayziya va Indoneziya davlatlarida mustakillik yillarida ta’lim taraqqiyoti.....	122
11 - mavzu: Buyuk Britaniya davlatlarida ta’lim muammolari. maktabgacha ta’lim tizimi.....	127
12- mavzu: Rossiya davlati ta’lim tizimining o‘ziga xosliklari. Rossiya davlati ta’lim tizimi.....	134
13-mavzu:Yevropa mamlakatlarida ta’lim-tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlili.....	140
14-mavzu. Belgiya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	150
15-mavzu. Isroil davlatlarida ta’lim tizimining tuzilish, mazmuni va mohiyati.....	156
16-mavzu. Finlyandiya ta’lim tizimi, uning mazmuni va mohiyati.....	160
17-mavzu.O‘zbekistonning Osiyo davlatlari bilan ta’lim tizimidagi a’loqalari.....	169
Xulosa.....	174
Foydalanilgan adabiyotlar.....	177
Ilova.....	185

